



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

TARJIMASHUNOSLIK

fanidan

MA’RUZA MATNLARI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 - Gumanitar fanlar
Ta’lim yo’nalishlari:	5A120201 - Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo’yicha)

Toshkent – 2012

Ma'ruzalar matni namunaviy dastur va ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedra majlisining 20____-yil ____ - _____dagi ____ - sonli majlisida, Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti Ilmiy – uslubiy kengashining 20____ – yil ____ - _____dagi ____ - sonli majlisida muhokama qilingan.

Tuzuvchi: **Hamidov X.X.** - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini mudiri.

Taqrizchilar:

E. Ochilov – O'zbekiston Respublikasi FA A. Navoiy nomli til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Q. Omonov – ToshDSHI “Turkiy tillar” kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Fan bo'yicha ma'ruzalar matni Toshkent davlat sharqshunoslik instituti o'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (20____-yil ____ - _____dagi ____ - sonli bayonnoma)

KIRISH

Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlovchi Oliy o’quv yurtlariga katta ma’suliyat yukladi. Natijada davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari asosida darsliklar, o’quv, o’quv-uslubiy qo’llanmalar hamda ma’ruzalar matnilarini ishlab chiqish masalasi yuzaga keldi.

Ushbu ma’ruzalar matni Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası o’qituvchilari tomonidan tayyorlandi.

Tarjimashunoslik fani magistratura talabalari uchun mo’ljallangan. Mazkur fanning asosiy maqsadi bo’lajak magistrant mutaxassis tarjimonlarga zamonaviy tarjimashunoslikning asosiy holatini tanishtirish, ularga tarjima mahorati, nazariy va amaliy ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu asos albatta bo’lajak magistrant mutaxassis tarjimonlarga kelajak faoliyatida, qolversa, oliy va o’rta ta’lim muassasalarida tarjimaga o’rgatish uslubini egallashga yordam beradi. Mazkur ma’ruzalar matni ana shu talabdan kelib chiqqan holda tuzildi.

«Tarjimashunoslik» fanini o’qitishda uning o’ziga xos o’qitish usullarini qo’llash, mavzularni tushuntirishda didaktik loyihalashning zamon talablariga to’g’ri keladigan uslubiy yo’nalishlarini tanlab olish va bu bilan talabalarni erkin fikrlashga o’rgatish kabi ta’lim texnologiyasi elementlarini amaliyotga jorish etish davr talabidir.

Mazkur ma’ruzalar matni kirish, namunaviy va ishchi dasturlar, ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalari, kurs bo’yicha monitoring va mustaqil ishni tashkil qilish texnologiyasi, adabiyotlar va interaktiv usullar kabi qismlardan iborat.

Ma’ruzalar matnida tarjimashunoslik haqidagi ma’lumotlar barcha darslarga taqsimlab chiqilgan. Shuningdek, har bir darsda «Tarjimashunoslik» fanining muhim qirralari haqida ma’lumot berish bilan bir qatorda tarjima nazariyasiga muvofiq tarjimalar tahlili ham berilgan.

Tarjimashunoslik kursini o’rganish o’rganilayotgan sharq tilining o’ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunib yetishga, o’rganilayotgan sharq tilini o’zbek va rus tillari bilan qiyoslab o’rganishga, tarjima faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglashga; tarjimaning xalqaro madaniy aloqalardagi o’rnini ko’rsatib berishga yo’l ochib beradi. Shuningdek, tarjimashunoslik kursi chet tilini o’qitishda tarjima nazariyasining bir necha bog’liqligini ochib beradi.

«Tarjimashunoslik» asosiy ixtisoslik fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 3- semestrda o’qitiladi.

O’quv jarayoni bilan bog’liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy- pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o’qish, darslarni savol-javob tarzida ilg’or pedagogik texnologiyalarning aqliy hujum, interaktiv, prezentatsiya, pinbord usullaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o’ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo’yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

TARJIMASHUNOSLIK FANINING O’QUV DASTURI

Kirish

Ushbu namunaviy o’quv dasturi mamlakatimizda so’nggi yillarda chet tilini o’qitish borasida olib borilayotgan davlat siyosati bilan bog’liq o’zgarishlar va islohatlar hamda talablar e’tiborga olingan holda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” mutaxassislik bosqichida tahsil oladigan talabalarga 1 semestr uchun mo’ljallangan. Mazkur fanning asosiy maqsadi bo’lajak magistrant mutaxassis tarjimonlarga zamonaviy tarjimashunoslikning asosiy holatini tanishtirish, ularga tarjima mahorati, nazariy va amaliy ko’nikmalarini hamda tarjima tarixini shakllantirishga qaratilgan. Bu asos albatta bo’lajak magistrant mutaxassis tarjimonlarga kelajak faoliyatida, qolversa, oliy va o’rta ta’lim muassasalarida tarjimaga o’rgatish uslubini egallashga yordam beradi.

Dastur asosida o’qituvchilar talabalar bilan ishlashda o’qitishning aktiv metodlariga suyangan holda turli soha va yo’nalishlarda amalga oshiriladigan tarjimalar bo’yicha yo’l-yo’riq ko’rsatadilar va bu borada malaka va ko’nikmalar hosil qilinadi.

Ushbu fan lingvistika va adabiyotshunoslik bilan bog’liq kasbiy ko’nikmalar tarjimonlik sohasiga doir usullar, uslublar, tarjima bo’yicha xizmat ko’rsatish, tarjima jarayonlarini ta’minlashga yo’naltirilgan metodlar va vositalar majmuini qamrab oladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – o'rganilayotgan sharq tilining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunib yetishga, o'rganilayotgan sharq tilini o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganishga, tarjima faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglashga, tarjimaning halqaro madaniy aloqalardagi o'rnini ko'rsatib berishga yo'l ochib beradi. Fan nafaqat nazariya balki tarjimon bilishi zarur bo'lgan tarjimashunoslik tarixini qolaversa, sharq va g'arb tarjimachiligining eng qadimgi davridan to hozirgi kungacha bo'lgan jarayonini tahlil qiladi. Shuningdek, tarjimashunoslik kursi chet tilini o'qitishda tarjima nazariyasining bir necha bog'liqligini ochib beradi.

Talabalarni tarjima jarayoni va natija sifatidagi asosiy muammolar bilan tanishtirish, tarjima qilishning nazariyasi haqida ma'lumot berish, shuningdek, mustaqil ravishda matn tarjima qilishga yo'naltirish, har ikki tilda amalga oshiriladigan tarjimaning xalqaro anjumanlar, muzokaralar, ommaviy axborot vositalari materiallari borasida ham e'tibor berilishi kerak bo'lgan muhim jihatlarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – yo'nalish va matn xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talablarda tarjimashunoslik haqida tushuncha hosil qilish, o'rganilayotgan sharq tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan o'rganilayotgan sharq tiliga tarjima qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarjima mahoratini o'rgatish, tarjima nazariyasi fani predmeti va vazifalari haqida tasavvurga ega bo'lish, mustaqil ravishda biror – bir funksional uslubga oid tarjima qilish malakasiga, tarjima shakllari va janrlari haqidagi tassavurga ega bo'lishdan iborat.

Shuningdek, mazkur kursda talabalar tarjimashunoslikda mavjud muammolar bo'yicha ilmiy qarashlarni tahlil qila bilish, terminologik lug'atlar bilan ishlash, turli sohalar bo'yicha ish jarayonlarida amaliyotlar o'tkazish, tarjimadagi asosiy usullar, tarjima sifatini baholash mezonlarini bilish, turli janrga mansub hozirgi va klassik badiiy asarlarni tahlil qila bilish, badiiy asarlarni ona tiliga va ona tilidan o'rganilayotgan sharq tiliga tarjima qilish va unga aloqador muammolarni tahlil qila bilish, tarjima sohasiga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyasini qo'llash, tarjimaning turlari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish, o'rganilayotgan sharq tilidan ona tiliga va aksincha turli matn va nutqlarni og'zaki va yozma shaklda, to'g'ri va sifatli tarjima qila olish, tarjimada milliy madaniy xususiyatlarni ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish. Maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasalari, akademik litsey, kollej va boshqa ta'lim muassasalarida tarjimashunoslik chet tillarini o'qitish bo'yicha dars berish ko'nikmalariga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi.

Ta'lim jaryonida talabalar tarjima faoliyatining asosiy aspektlari haqida ma'lumotga ega bo'lib, tarjima janri va shakllari, tarjimada funksional uslublar, tarjima jarayoni, tarixi, so'z tanlash, lug'at bilan ishlash haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Fan bo'yicha talabalar bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Tarjimashunoslik o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant mutaxassis:

- tarjimashunoslik kursining maqsad va vazifalari, tarjimaning fan va san'at ekanligi, adabiyot tarixi, tarjimashunoslik tarixi va ularning asosiy davrlari, lingvistik – tarjima – ekstralingvistik bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- o'rganilayotgan sharq tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan o'rganilayotgan sharq tiliga tarjima qilishning grammatik, leksik, semantik, stilistik va frazeologik masalalarini chuqur egallashi;
- tarjima turlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni qo'llanish ko'lamiga haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ona tiliga tarjima qilishning grammatik muammolarini, sharq va o'zbek tilida bir xil gap tizimlarining funksional va shaklan mos kelishi va kelmasligi;
- ona tiliga tarjima qilishning stilistik muammolari;
- badiiy, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy va ilmiy-ommabop matnlarning tarjima xususiyatlari haqida tasavvur va ularni tarjima qilish borasida internetdan zarur ma'lumotlarni to'plash ko'nikmalari va ilmiy yondashuv asosida tarjima qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
- tarjimaning pragmatik muammolari, tarjima tiplari, leksik muqobilik, tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlar haqida to'la tasavvurga ega bo'lish;
- tarjimashunoslikda yuzaga kelgan muammolar va olimlarning tarjimachilik haqidagi bahslari, fikr-mulohazalari, qadimgi davr tarjimonlari va tadqiqotchilarning tajribalarini o'rganish, tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan bahslar haqida asosiy masalalarni o'rganish, tarjimani xolisona baholay olish va tahlil qilish, yozma, og'zaki va vizual tarjimaning asosiy xususiyatlarini o'rganish malakalariga ega bo'lish;
- tarjimashunoslik sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, tarjima tarixida buyuk tarjimonlar yaratgan tajriba va uslublarini hozirgi zamon tarjimachiligiga tadbiq eta olish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni bilish, tarjimashunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, olingan nazariy bilimlarni asarlar tarjimasida qo'llay olish, tarjimada til vositalarini ongli ravishda tanlash, leksik, semantik, frazeologik

uslubiy matnlarni o'ziga xosliklarini ona tili va chet tillarida inobatga olish malakasini egallashga imkon yaratishni bilishi va ulardan foydalana olish;

Undan tashqari, o'rganilayotgan tilning nazariy va amaliy asoslari va lug'at boyligi, mazkur tilda ilmiy va badiiy adabiyotlarni tarjima qilish, o'rganilayotgan sharq tili va uning rivojlanish jarayoni, u tilning tarixiy shevashunoslik aspektlari, tarjima amaliyoti asoslari, matn tarjimasi, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, badiiy tarjima, terminologiya tarjimasi, yozma tarjima, ommaviy axborot tarjimasi, vizual tarjima, dars berish mahorati, va nutq madaniyati tamoyillarini egallashlari kerak.

Shu bilan birga magistrant mutaxassis dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, axborot to'plash, tahlil qilish, saqlash, qayta ishlash va unumli foydalanish metodlarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlarni qabul qila olishi lozim.

Magistrant mutaxassis o'z tarjimonlik faoliyatida terminologik tarjima ishlarini va xizmat ko'rsatish, badiiy tarjima ishlarini va namunaviy xizmat ko'rsatish, o'rgatilayotgan tillarni intensiv shaklda o'rgatish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, xalqaro konferensiyalarda sinxron, vizual, ketma-ket tarjima qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishi, amaliyotda informasion texnologiyalarni halqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Tarjimashunoslik» asosiy ixtisoslik fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 3-semestrda o'qitiladi.

Ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O'zbekiston tarixi, adabiyotshunoslik,), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, etnografiya), umumkasbiy (tilshunoslikka kirish, umumiy tilshunoslik,) mutaxassislik fanlari, qiyosiy tipologiya va tanlov fanlardan yetarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi

Undan tashqari tarjimashunoslik fani – ta'lim o'zbek va rus tilida olib boriladigan ixtisoslik fanlari bilan, shuningdek, sharq tili fanlari bilan qiyoslab o'rganilgani uchun ular bilan uzviy aloqadordir.

Fanning ishlab chiqarishidagi o'rni

O'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari faoliyat olib borilganda asosiy o'rganilayotgan til kursidan olingan bilimlar qo'l keladi. Shuning uchun ushbu fan ixtisoslik fani hisoblanib, sharq filologiyasi bo'yicha magistrant mutaxassis tayyorlash bosqichining ajralmas bo'g'inini tashkil etadi.

Mazkur fanni o'qib qiqqan talabalar ilmiy va ilmiy-tadqiqot ishlari, tarjimonlik, Tarjimonlik va muharrirlik, tashkiliy-boshqaruv, axborot-bibliografik, ommaviy axborot vositalarida tarjimonlik, O'MKHT va umumta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Magistrant mutaxassis tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining tarjimashunoslik fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion – pedagogik texnologiyalarini tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, ko'rgazmali qurollar hamda kompyuterlardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Tarjimashunoslik fani 3-semestr davomida o'qitiladi. Semestr davomida o'zlashtirilgan ushbu fan ularning keyingi tarjimonlik faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek jahon adabiyoti namunalari va ularning tarjima tarixini o'rganish, shu bilan birga o'sha asarlar tarjimasini tahlil qilish barobarida tarjimonlik mahoratini anglash va ba'zi nazariy masala va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Tarjimashunoslik tarixini davrlashtirish. Ilk tarjimalar. Sharq va G'arb madaniyatida tarjima maktablarining ahamiyati. Bog'dod va Toledo tarjima maktablari. Eng qadimgi davrdan XIII asrgacha bo'lgan davrlar. Al Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Firdafsiy, Nizomiy Ganjaviy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Qutb Xorazmiy asarlari tarjimalari va ularning tarjimonlik faoliyati.

Tarjima tarixida bilingvizm yohud zullisonaynlik. Ikki tilda ijod qiluvchi adib va tarjimonlar.

XII asrdan XVII asrlarda tarjima rivoji. Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur tarjimonlik mahorati, ularning asarlari tarjimalari va o'sha davr tarjimachiligi.

Diniy adabiyotlar tarjimasi

XVII asr Xorazm tarjima maktabi. Ogahiy tarjimonlik faoliyati. Toshkent tarjima maktabi. Almai tarjimonlik mahorati

Shoʻrolar davri tarjimachiligi. Mustaqillikdan avvalgi va keying davr tarjimachiligi. Bilvosita va bevosita tarjimalar. Sharq durdona asarlarining gʻarb tillariga tarjimalari va aksincha gʻarb shoh asarlarining oʻzbek tiliga oʻgirilgan nusxalari. Qayta tarjimalar. XXI asr tarjimachiligi. “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazeta va jurnallarida chop etilayotgan tarjima asarlar va zamonaviy tarjimashunoslar.

Oʻzbekistonda tarjimashunoslikni fan sifatida shakllanishi. Gʻ Salomov., J. Sharipov., N.Komilov., Q. Musayev., I.Gʻofurovlarning tarjimashunoslik fanining rivojiga qoʻshgan xissalari.

“Tarjima” soʻzining maʼnosi. Tarjima soʻzining maʼnodosh muqobillari.

Tarjimaning til muammolari, tarjima va interpretatsiya, tillaro tafovut va tarjima (qavm-qarindoshlik terminlari), tarjimaning lisoniy va gʻayrilisoniy muammolari, qiyosiy grammatika va qiyosiy uslubshunoslik, tarjimada jins kategoriyasi, tarjimaning tur va xillari, sohalar va janrlar boʻyicha boʻlinishi

Erkin, aniq, ijodiy, soʻzma-soʻz va hijjaviy tarjimalar, frazeologizmlar tarjimasining oʻziga xos xususiyatlari: maqol, matal va idiomalar tarjimasi tahlili uzoq va yaqin tillardan tarjima, tarjimada soxta ekvivalent tushunchasi, tarjima va milliy kolorit, tarjimada milliy xos soʻzlarning aks etishi, tarjimada funksional uslublar, uslub qatlamlari, ilmiy tarjima murakkabliklari, terminologiya va tarjima badiiy tarjima turlari, janrlari va uslublari, ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasi

Tilning leksik-ifodaviy qatlamlari va tarjima. Badiiy tarjimada obrazni obraz bilan berish.

Uslubiy moslashtirishda semantika, sinonimiya, idiomatika va terminologiya.

Tarjimada sinonimlarning ishlatilishi. Tarjimada idiomatika va terminologiya.

Uslubiy moslashtirish. Parodiya. Uslubiy moslashtirish nima? Ijodda va tarjimada sirlik.

Rasmiy uslubdagi matnlar tarjimasi. Publisistik va ilmiy uslubda yozilgan matnlar tarjimasining xususiyatlari.

Tarjimadagi leksik masalalar. Sinonim va omonimlar, koʻp maʼnoli soʻzlarning tarjima qilinishi.

Tarjimada sinonimlarning tanlanishi, oʻzbek va sharq tillarining farqli qirralari va buni tarjimada bera olish mahorati. Soʻz maʼnosining kontekst bilan bogʻliqligi.

Tarjimada leksik-semantik transformatsiya va uning turlari. Tarjima jarayonidagi yoʻqotishlar, ularning oʻrnini qoplash (kompensatsiya).

Tarjima matnining uslubiy tavsifi. Uslubiy boʻyoqli sheʼriy matnlarning tarjimada qayta yaratilishi.

Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha koʻrsatma va yoʻllanmalar

Amaliy mashgʻulotlarda talabalar tarjima matnlarini aslyat bilan solishtirib, tahlil qilishadi.

Amaliy mashgʻulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Muallif nutqining matni. Asil nusxa va tarjimalarni taqqoslash.
2. Oʻrganilayotgan sharq tilida soxta ekvivalentlarni oʻrganish.
3. Tarjima asrlarni bir nechta nusxalari bilan solishtirish.
4. Tarjimonlarning mahorati va faoliyatini tahlil qilish.
5. Bevosita va bilvosita tarjimalarni qiyoslash.
6. Tarjima asarda milliy koloritni berilishini oʻrganish
7. Tarixiy kolorit va uni tarjimasi
8. Frazeologik birliklar tarjimasi va oʻziga xosligi
9. Badiiy tarjimaning oʻziga xosligi. Soʻz maʼnolari, ularning buyoqliligi. Tilda morfologik vositalarining qoʻllanilishi.
10. Tarjimada muqobillik. Portret, peyzaj, ruhiyat tarjimasining murakkabliklari. Yozuvchi va tarjimon orasidagi yaqinlik va tafovutlar.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish boʻyicha koʻrsatmalar

Fanning oʻquv dasturida laboratoriya mashgʻulotlari koʻzda tutilmagan

Kurs ishlarini tashkil etish boʻyicha koʻrsatmalar

Fanning oʻquv dasturida kurs ishlari koʻzda tutilmagan.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishga ajratilgan mavzularni oʻrganishning asosiy maqsadi tarjima matni ustida ishlash jarayonida auditoriyada olib borilgan maʼruzalar va amaliy mashgʻulotlar vaqtida talabalarda hosil boʻlgan

tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, talabalarni tarjima qilishga oid yangi bilimlar to'plashga mo'ljallangan.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foidalagish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha matnni tahlil qilish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabalarining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Dasturning informasion-metodik ta'minoti

Ushbu fanni o'rgatish davomida o'qitishning zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan, ya'ni mustaqil ravishda kerakli axborotni topish, o'zlashtirilgan bilimni tahlil qila olish va uni ish jarayonida tadbiiq qila olish. Ushbu maqsadda darslarda quyidagi innovasion texnologiyalardan foydalaniladi: "Aqliy hujum", pazl, klaster, jamoa bo'lib ishlash, axborotni to'ldirish, tartib bilan joylashtirish metodlari va boshqalar. Undan tashqari, dars mazmunli va foydali bo'lishi uchun audio va video texnika hamda internetdan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN DARSLIKLAR VA QO'LLANMALAR

Asosiy darsliklar va qo'llanmalar

1. G'afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
2. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – T., 2012
3. Mo'minov O., Turg'unov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. –T., 2008.
4. Мусаев Қ., "Таржима назарияси асослари". – Т., 2005
5. Одилова Г., Махмудова У., Ўзбек таржимонлари ва бадий таржималар. – Т., 2012
6. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – T., 2011.
7. "Таржима масалалари" мақолалар тўплами – Т., 2012
8. Н.В.Владимирова. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Т., 2011

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ж.Шарипов. Бадий таржималар ва мохир таржимонлар – Т., 1972
2. Ж.Шарипов. Ўзбекистонда таржима тарихидан. –Т., 1965
3. Комилов Н. "Бу қадимий санъат". – Т., 1988.
4. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т., 1978.
5. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т., 1983.
6. Таржимон маҳорати. – Т., 1979.
7. "Таржима санъати" мақолалар тўпламлари. 1-6-китоблар. – Т., 1971-1985.
8. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М., 1986.
9. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968.

TARJIMASHUNOSLIK FANINING ISHCHI DASTURI

ma'ruza – 20 soat

amaliy mashg'ulotlar - 20 soat

mustaqil ta'lim – 20

Jami – 60

3-SEMESTR

Hafta	Darslarning o'quv mavzulari	Dars shakli	soat	Adabiyotlar	Mustaqil ish mavzusida	Nazorat shakli	Ball	
							Auditoriya ishi	Mustaqil ish
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Tarjimashunoslik fanining predmeti va maqsadi	Ma'ruza	2	Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978; Til va tarjima. – T., 1966.	Tarjimashunoslik bilan bog'liq sohalarni jadval asosida tasniflash	Savol-javob	1	1
2.	Tarjimashunoslik fanining boshqa lingvistik fanlar orqasida tutgan o'rni.	Amaliy	2	Tarjima san'ati (maqolalar to'plami 5-kitob) G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at .1980. 23-34	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
3.	Tarjima tarixini davrlashtirish.	Ma'ruza	2	Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978; Til va tarjima. – T., 1966. Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan,	Tarjima tarixini davrlashtirish yangi ma'lumotlarni o'qib tahlil qilish	Savol-javob	1	1
4	Eng qadimgi davrdan XII asrgacha bo'lgan davr tarjimachiligi	Amaliy	2	Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978; Til va tarjima. – T., 1966. Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan,	O'tilgan mavzular bo'yicha takrorlash XII asrda G'arbda tarjima rivoji	Savol-javob	1	1
5	Tarjima tarixida tarjima maktablari faoliyati	Ma'ruza	2	F. Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T.:O'zbekiston. 1997, 83–160; Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan, 23-34	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
6	Bog'dod va Toledo tarjima maktablari. Sharq va G'arb madaniyatida tarjimaning o'rni va tarjima maktablarining ahamiyati	Amaliy	2	F. Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T.:O'zbekiston. 1997, 83–160; Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan, 23-34 Tarjima nazariyasi asoslari 1983	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish Mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha slayd yaratish	Savol-javob	1	1
7	XII-XV asrlar tarjimachiligi	Ma'ruza	2	F. Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T.:O'zbekiston. 1997, 83–160; Konrad N.I. Zapad i Vostok. – M.: Nauka. 1972. 208–230. Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan,	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
8	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari	Amaliy	2	Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan,	Alisher Navoiy tarjimonlik faoliyati va uning asarlari	Suhbat	1	1

	tarjimalari			Komilov N. Bu qadimiy san'at.	tarjimalari			
9	XVI-XVIII asrlar tarjimachiligi	Ma'ruza	2	Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan, 23-96; Komilov N. Bu qadimiy san'at. ; Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi.	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	2	2
1. O.N							10	5
10	Firdavsiyning "Shohnoma" asari va uning tarjimalari hususida	Amaliy	2	Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan, 23-96; Komilov N. Bu qadimiy san'at. 11-25;	"Shohnoma" tarjimalari hususida	Savol-javob	1	1
11	Bilingvizm va tarjima	Ma'ruza	2	Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. 75–200; Hamidov H. Boqiy bo'ston tarovati.– T.: G'. G'ulom, 1987; J. Sharipov. O'zb-kistonda tarjima tarixidan.	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
12.	Zullisonayn adiblar va ularni tarjimashunoslikga qo'shgan xissalari xususida	Amaliy	2	Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. 75–200; Hamidov H. Boqiy bo'ston tarovati.– T.: G'. G'ulom, 1987; J. Sharipov. O'zb-kistonda tarjima tarixidan. 82–94;.	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
13	Xorazm tarjima maktabi va unda ijod qilgan tarjimonlar	Ma'ruza	2	Otajonov N. "Boburnoma" jahon kezadi. – T., 1984; Sobirov M. "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari. ND. – T., 2002.	Tarjima asarlardan parchalar va ularning qiyosiy tahlili	Suhbat	1	1
14.	Muhammadrizo Ogahiy faoliyati va tarjimonlik mahorati	Amaliy	2	Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixi. 101–132-betlar; Komilov N. Tarjima tarixida uslub. «Tarjima san'ati» 1973. 99–117-betlar;	Tarjimon mahorati (1979) to'plamida mazkur mavzuning yoritilishi Slayd yaratish	Savol-javob	1	1
15.	XIX-XX asr tarjimachiligi Toshkent tarjima maktabi.	Ma'ruza	2	Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixi. 101–132-betlar; Komilov N. Tarjima tarixida uslub. «Tarjima san'ati» 1973. 99–117-betlar;	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
16.	O'zbek adabiyotini dunyoga tanitgan mohir ijodkor tarjimonlar	Amaliy	2	Jumaniyoz Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixi. G. Odilova, U.Mahmudova, O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar T., 2012	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
17.	O'zbek adabiyotiga kirib kelgan Bevosita va bilvosita tarjimalar hususida	Ma'ruza	2	Komilov N. . Bu qadimiy san'at. T., 1987; Salomov G'. Tarjima tashvishlari. T., 1983. 65-93; J. Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixi., 105-140;	Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash	Savol-javob	1	1
18.	O'zbekiston mustaqilligi davrida tarjima rivoji Jahon adabiyoti durdonalari o'zbek tilida.	Amaliy	2	G. Odilova, U.Mahmudova, O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar T., 2012J. Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixi Uvatov U. Muhaddislar Sultoni. – T.:Movarounnahr. 2000; Imom Buxoriy ta'rifi. Tarjima va izohlar muallifi: Saidazim Muhammad Ali. – T.: Cho'lpon. 1996.	O'tilgan nazariy mavzu bo'yicha tavsiya qilingan adabiyotlar bo'yicha konspekt tuzish	Savol-javob	1	1
19.	Tarjimada muqobillik. Portret, peyzaj, ruhiyat	Ma'ruza	2	Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978; Til va tarjima. – T., 1966. Musayev Q. "Tarjima nazariyasi	Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash	Savol-javob	1	1

	tarjimasining murakkabliklari. Yozuvchi va tarjimon orasidagi yaqinlik va tafovutlar			asoslari”, T., 2008.				
20	Tarjimashunoslik fan sifatida shakllanishi. Tarjimashunos olimlar faoliyati.	Amaliy	2	Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978; Til va tarjima. – T., 1966. Musayev Q. “Tarjima nazariyasi asoslari”, T., 2008.	Mavzuga doir yangi adabiyotlar bilan ishlash va slayd yaratish	Savol-javob	1	1
2- O.N.							10	5
	Oraliq nazorati					ON	20	
	Joriy nazorat						20	
	Mustaqil ta’lim						30	
	Yakuniy nazorat					YaN	30	
	Umumiy ball						100	

TARJIMASHUNOSLIK FANIDAN ma'ruzalar matni

1-MAVZU. TARJIMASHUNOSLIK FANINING PREDMETI VA MAQSADI

Tarjimashunoslik umumfilologik fan sifatida

1965 yil 15 dekabrda O'zbekistonda «Respublikada badiiy tarjima sifatini yanada yaxshilash tadbirlari haqida» maxsus qapop qabul qilindi. Qarorga binoan universitetlar hamda boshqa bir qancha pedagogika institutlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti yuzasidan fakultativ darslar tashkil etish lozim deb topildi. 1966—1967 uquv yilida ToshDU hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti filologiya fakultetining IV kursida ilk daf'a qiyosiy uslubiyot va tarjima buyicha maxsus kurs o'qildi.

1969—1970 o'quv yilida ToshDUNing jurnalistika fakultetida tarjima nazariyasi va redaksiya-nashriyot ishlari kafedrasida tashkil etildi. U 1973—1974 o'quv yilidan boshlab tarjima nazariyasi, radio va televidenie kafedrasiga aylantirildi. Nihoyat, 1975—1976 o'quv yilidan e'tiboran shu universitetning filologiya, jurnalistika, sharq, roman-german tillari fakultetlarida taxsil kurslari, amaliy mashg'ulotlar olib boradigan mustaqil tarjima nazariyasi kafedrasida qaror topdi va u filologiya fakulteti bazasida faoliyat kursata boshladi.

1972 yil 18 iyulda «Mamlakatda oliy ta'limni yanada takomillashtirish tadbirlari haqida» maxsus qapop qabo'l qildi. 1972 yil 1 sentyabrda xukumat shu masala yuzasidan tegishli tadbirlarni belgiladi. Shundan keyingi yillar ichida mamlakat oliy maktablarining o'quv planlari birmuncha yangilandi, ularda, ayniqsa, fanning yangi tugilayotgan istiqbolli sohalariga kengroq yul ochishga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi.

Davlat universitetlarida tarjimashunoslik fanlarining o'qitilishi bilan bog'liq ahvol hozirgi vaqtda quyidagicha:

roman-german filologiyasi va sharq tillari fakultetlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti umumiy majburiy predmet (70 soat) sifatida o'quv planlaridan mustahkam o'rin olgan;

ularda maxsus o'quv-tarjima va yalpi tarjima praktikalari joriy etilgan;

universitetni bitiruvchi talabalar, o'zlarining asosiy ixtisoslaridan tashqari, qo'shimcha ravishda tarjimon degan ixtisosga ham ega bo'lganlar;

jurnalistika fakultetlarida yangi tarjimachilik ixtisosi paydo bo'ldi, o'quv planida bir qancha tarjimashunoslik predmetlaridan tahsil kurish nazarda tutilgan;

Hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ham tarjimachilik ixtisosi rasmiylashtirilishi barobarida, maxsus tarjima guruhlari tuzildi. Ularda tarjima tarixi, tarjima nazariyasining turli davrlari, sohalar, janrlari va yirik problemalari maxsus kurslar, maxsus seminarlar tarzida o'qitilmoqda. 1976—77 o'quv yilining boshidan tarjima guruhlari tashkil etilishi munosabati bilan ularda tarjimashunoslik buyicha yalpi majburiy kurslar joriy etilgan;

umumuniversitet miqyosida, barcha tabiiy va gumanitar fanlar fakultetlarida, lisoniy tahsil chuqurlashtirilgan maxsus programma asosida olib borilgan bo'lsa, ularning bitiruvchilariga ham tarjimon degan qo'shimcha guvohnoma berish huquqi rasmiylashtirildi.

Xullas, agar ilgari ayrim tilshunos olimlar (prof. A. A. Reformatskiy) tarjimashunoslikni mustaqil filologik fan sifatida e'tirof etmagan bo'lsalar, endilik-da boshqa xavf tugildi: kuni kecha bu predmetni «tan olmagan» tor filolog mutaxassislar o'zlarini «tarjimashunos» deb e'lon qila boshladilar. Ular tarjimashunoslikni «odatdagi» til yoki adabiyot predmetlarining biri deb tushunib, yangi o'quv planlaridagi tarjima foydasiga bo'lgan o'zgarishning mohiyati, maqsadi, xususiyati hamda bulardan kelib chiqadigan tadbirlarning mazmuni va mundarijasini durust idrok etmaydilar.

O'zbekistonda tarjimaning, xususan, badiiy tarjimaning nazariy masalalari ancha keng o'rganildi. Bizda hozir ilmiy darajaga ega bo'lgan 30 dan ortiq tarjimashunos mutaxassis bor, o'nlab monografiyalar, to'plamlar, yuzlab ilmiy maqolalar nashr qilingan.

Rus tarjimashunosligida, bu sohadagi qamrovi keng amaliy faoliyatga muvofiq holda, katta ishlar qilingan. Ustod tarjimashunos olim A. V. Fyodorovning «Umumiy tarjima nazariyasi asoslari» darsligi, Yu. M. Katser, V. A. Kunin, Ya. I. Resker, V. N. Komissarov, L. S. Barxudarov, V. N. Krupnov, R. K. Minyar-Beloruhev, S. S. Tolstoy, M. M. Morozov, A. D. Shveyser va boshqa ko'p olimlarning Garbiy Yevropa tillaridan rus tiliga (va aksincha) qilingan tarjimalar sohasidagi ulkan tajribani o'rganish asosida barpo etilgan turli-tuman darslik, o'quv qullanmalari mavjud. Xatto o'rta maktablarda tarjimaviy ta'lim masalasiga bag'ishlangan ishlar ham bor. (Masalan, N. D. Cheburashkinning bir qancha predmetlar ingliz tilida olib boriladigan maktablarning IX—X sinflari o'quvchilari uchun mo'ljallangan «Maktabda texnikaviy tarjima» kitobi, Moskva, «Prosveshenie» nashriyoti, 1972). Bulardan tashqari, Gruziyada marhum G. R. Gachechiladzening «Badiiy tarjima nazariyasiga kirish» (Tbilisi, 1970) nomli asari ma'lum. Jumaniyoz

Sharipovning «O‘zbekistonda tarjima tarixidan» (Toshkent, 1965), ozarbayjonlik Bayram Xorun ugli Tohirboyevning «Tarjima haqidagi fanning falsafiy problemalari» (Boku, 1974), belorus P. I. Koianevning «Badiiy tarjima tarixi va nazariyasi masalalari» (Minsk, 1972) singari yirik monografiyalari ham tarjimashunoslikning taqsiliy aspektlarini oydinlashtirishda mo‘him dastur bo‘lib xizmat qiladi.

Rus tarjimashunosligida va qardosh respublikalarda bu sohada orttirilgan boy tajriba, shubzsasiz, biz uchun maktabdir. Lekin, shu bilan birga, har bir milliy respublikada tarjima tahsilining o‘ziga xos tomonlari borki, bo‘larni nazardan soqit qilib bo‘lmaydi.

Avvalo, rus tarjimachiligi maktabida tarjima tahsili an‘anaviy tus olgandir.

Yana shuni kayd etish lozimki, qariyb butun rus tarjimashunosligi tahsili, asosan, ingliz, nemis, fransuz tillaridan — rus tiliga va rus tilidan usha g‘arb tillariga tarjima amaliyotiga asoslangan.

Ma‘lumki, o‘zbek tiliga qilinayotgan umumiy tarjima mahsulotining 60 foizini — rus tilidan o‘girilayotgan tarjima kitoblari tashkil etgan. G‘arbiy Yevropa adabiyoti asarlari ham o‘zbek tiliga rus tilidan tarjima qilingan. Tarjima ta‘limida bu muhim omilni nazardan coqit kilib bo‘lmaydi. Ayni vaqtda G‘arbiy Yevropa adabiyotini bevosita asl nusxalardan o‘zbek tiliga ugrish vazifasi ham ko‘ndalang bo‘lib turgan. Ana shu ulkan, murakkab ijodiy problemani uddalay oladigan yetuk tarjimon kadrlar tayyorlash ishi g‘oyat aktual ahamiyatga ega bo‘lgan va hozirda ham muhimdir.

Tarjimashunoslik fanining nazariy ildizlari

Ikki ming yil muqaddam yunoniy Liviy Andronik buyuk Gomerning «Odiseya»sini lotin tiliga o‘giran. Bu bilan u amaliy tarjimachilik faoliyatiga asos solibgina qolmay, balki birinchi bo‘lib tarjima nazariyasining og‘ir masalalariga duch kelgan ham. Biroq Yevropada tarjima problemalari faqat VIII—IX asrlardan boshlab chinakamiga e‘tiborni torta boshladi. Bu davrda tarjima nazariyasi fan sifatida endigina bolalik davrini o‘tay boshlagan edi. Tarjimoni ilmiy idrok qilish masalasi bilan ming yillardan buyon shug‘ullanib kelinayotgan bo‘lishiga qaramasdan, hanuzgacha chin ma‘nodagi tarjima nazariyasi o‘z o‘rnini topgan emas.

Tarjima nazariyasi sohasidagi salmoqli ilmiy tafakkur ayniqsa XX asirning ikkinchi choragida tez rivoj topa boshladi. Chet ellarda tarjimaning nazariy problemalarini chuqurroq ishlab chiqish ham xuddi shu davrga to‘g‘ri keladi. Jon Ketfordning Edinburgda o‘qigan leksiyalari va Oksfordda nashr qilingan «Tarjimaning lingvistik nazariyasi» (London, 1965) monografiyasi, Jorj Munenning fransuz (Parij, 1963) hamda italyan (Turin, 1965) tilida doktorlik dissertatsiyasi asosida chop etilgan «Tarjimoni nazariy problemalari» degan asarlarni bu sohadagi katta yutuqlardan hisoblanadi.

To‘g‘ri, chet elda tarjimachilik faoliyatini nazariy tomondan idrok etish bo‘yicha urinishni oldinroq Yujin Naydaning Tavrot tarjimalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishida (Nyu-York, 1947) kuzatish mumkin. Ammo bu tarjima problemalariga lisoniy prinsiplar nuqtai nazaridan pragmatik yondashish edi, xolos. 1969 yili Yujin Nayda va Charlz Teybor Londonda «Tarjima nazariyasi va amaliyoti» degan kitobni nashr qildilar. Unda lingvistikani tarjimaga tatbiq etish va foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadigan nazariy xulosalar har tomonlama pishitildi.

Angliya va Fransiya tashqari, tarjima nazariyasi Germaniya hamda boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlarida ham ishlendi. Xususan, nemis tilida Avstriyada Yulius Virlning tarjimashunoslik problematikasiga oid monografiyasi (Vena, 1958); GFRda Vilgelm Vilmarning tarjimada uyg‘unlik va nomutanosiblik haqidagi kitobi (Kyoln, 1959), Rudolf Yumpeltning ilmiy va texnikaviy adabiyot tarjimasiga oid fundamental asari (Berlin, 1961) va Nafis san‘at akademiyasi tomonidan tayyorlangan «Tarjima san‘ati» to‘plami (Myunxen 1962); Shveysariya Fridning kitobi (Syurix, 1963) va boshqa asarlar bosmadan chiqarildi. Yevropadagi sotsialistik hamdo‘stlik mamlakatlarida ham tarjimashunoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari avj ola boshladi. GDRda Garold Raab va Otto Braunning «Tarjima nazariyasiga kirish» to‘plami (Berlin, 1959); Otto Kadening «Tarjimada tasodif va qonuniyat» (Leypsig, 1968) degan tadqiqoti, Vengriya Iofef Kardoshning «Badiiy tarjima problemalari» (Budapesht, 1965), Emil Saboning «Badiiy tarjima» (Budapesht, 1961), Bolgariya Lyubomir Ognyanov Rizovning «Tarjima san‘ati asoslari» (Sofkya, 1955), Polshada O. Voytasevichning «Tarjima nazariyasiga kirish» (Vrotslav—Varshava, 1957), Chexoslovakiya Irji Leviyning «Tarjima san‘ati» (Praga, 1963), Yugoslaviya «Tarjima nazariyasi asoslari» to‘plami (Belgrad, 1963) va boshqa ilmiy ishlar bosilib chiqdi. Yujin Naydaning «Tarjimachilik faniga doir» (Leyden, 1964) kitobida aktual nazariy konsepsiyalar obzori berildi. Bunday obzor birmuncha torroq doirada Edmon Qarining «Hozirgi zamonda tarjima» (Jeneva, 1956), Teodor Sevorining «Tarjima san‘ati» (London, 1957) kabi mashhur kitoblarda ham o‘z aksini topgan.

Amerika qit‘asida ham tarjima iroblemalari jadal sur‘atlar bilan tadqiq qilinmoqda. AQShda «Tarjima haqida» maqolalar to‘plami (Kembrij-Mas-sachusets, 1959; Nyu-York, 1966 va hokazo), 1961 yili Ostindagi tarjimachilik Markazi tayyorlagan «Texas to‘plami» tarjimashunoslik asoslariga bag‘ishlangan. Urugvayda

Olaf Bliksen nashr qilgan «Badiiy tarjima va uning problemalari» (Montevideo, 1954), Braziliyada Bazilio Silveyraning «Tarjima san'ati» (San-Paulo, 1954; ikkinchi nashri—1956) va Paulo Ronaining «Tarjima mahorati» (Rio-de-Janeyro, 1956) asarlari shuhrat qozondi.

Tarjimaning nazariy muammolari mutaxassislarining bir qancha mahalliy va regional uchrashuvlarida kun tartibiga qo'yildi. Bu o'rinda 1958 yili Varshavada (Polsha), 1959 yil iyulida Bad-Gadesbergda (GFR), 1963 yil avgust-sentyabrida Dubrovnikda (Yugoslaviya), 1966 yil avgustda Laxtada (Finlyandiya) bo'lib o'tgan Tarjimonlar Xalqaro Federatsiyasi kongressi, 1977 yil oktyabrida Sovet Ittifoqida (Moskva) tarjimashunoslarning xalqaro simpoziumi va boshqa anjumanlarni eslash kifoya. Tarjimonlar Xalqaro Federatsiyasining (FIT) Bonn (hozir Berlinda) va boshqa Yevropa davlatlari poytaxtlarida chiqib turadigan markaziy organi «Vavilon» («Bobil») jurnali hamda Monrealdagi (Kanada) «Tarjimonlar jurnali», Bryusseldagi (Belgiya) «Lingvist» va Jenevadagi (Shveysariya) «Tilmoch» jurnallarida, Kembrijdagi (AQSh) «Avtomatik tarjima» to'plami, Shtutgart, keyinchalik Mayndagi Frankfurtda (GFR) chiqayotgan «Tarjimon» oylik byulleteni va boshqa vaqtli matbuotda ham ko'pgina nazariy maqolalar bosilib turadi.

Sovet Ittifoqida qardosh xalqlar madaniyatlarining gullab-yashnashi va yaqinlashuvi tarjimachilik faoliyatining samarali taraqqiyoti tufayli amalga oshiriladi. Mamlakatimizda keng quloch yoygan tarjimachilik ishi milliy adabiyotlarning yuksalishi, fanning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kuchaykshida tayanch nuqtasi hisoblanadi. Tarjima kommunizm, jahonda tinchlikni barqaror etish uchun kurash goyalarini tashviq qiluvchi ta'sirchan omil bo'lib qoldi.

Keng quloch yozgan tarjimachilik faoliyati bilan bir qatorda, tarjima nazariyasi bobida ham katta ishlar qilinmoqda. Rus hokimiyatining dastlabki yillaridanoq tarjimalarni ilmiy o'rganish ishida M. Gorkiy boshqosh bo'ldi. Bu faoliyatning boshlanishi Q. I. Chukovskiyning «Badiiy tarjima prinsiplari» degan kitobiga borib taqaladi. Tarjima sohasidagi bu ilk asar o'sha vaqtlarda Petrogradga birin-ketin ikki marta (1919, 1920) nashr qilindi. Bu nashrni K. I. Chukovskiy A. V. Fyodorov bilan hamkorlikda yozgan «Tarjima san'ati» (L., 1939) kitobida davom ettirdi. Kitob tarjima problematikasini nazariy o'rganish sohasidagi o'ttizinchi yillarda mavjud bo'lgan ikki tarmoqni aks ettirdi: K. I. Chukovskiy (badiiy tarjima prinsiplari haqidagi asari «Oliymaqom san'at», 1936, 1941, 1964 yillarda nashr qilindi) — adabiyotshunoslik, A. V. Fyodorov (darsligi — «Tarjima nazariyasiga kirish» bir necha marta—1941, 1953, 1958, 1968 yillarda bosilib chiqdi) — lisoniy-uslubiy tarmoqlarini yoritdilar.

Uttizinchi va qirqinchi yillarda boshqa avtorlarning bir necha tadqiqotlari bosilib chiqdi. Bular M. P. Alekseyevning «Badiiy tarjima problemalari» (Irkutsk, 1931), D. S. Usovning «Tarjimachilik ishining asosiy prinsiplari» (M., 1934), G. P. Serdyuchenkoning «Tarjima masalalari ocherklari» (Nalchik, 1948) edi. Elliginchi-oltmishinchi yillarda «Sovetskiy pisatel» nashriyotida Ittifoq Yozuvchilar soyuzi tayyorlagan, tarjima estetikasi bilan bog'liq maroqli to'plamlar chiqqan boshladi. Bular — «Badiiy tarjima masalalari» (1955) va «Tarjima mahorati» (1959, 1963, 1964, 1966, 1968, 1970, 1971, 1973, 1975, 1977) to'plamlaridir. L. S. Barxudarov tahrkrida «Mejdunarodnie otnosheniya» («Xalqaro munosabatlar») nashriyotida chop etilayotgan «Tarjimon daftarlari» muntazam to'plamida, ko'pincha, tarjimaviy-lingvistik problemalar yoritilmoqda (1963 yildan bugungacha mazkur majmuaning 15 ta soni chiqdi).

Keyingi yillarda bu nashriyotda tarjimashunoslikka oid yana bir qancha monografiyalar bunyodga keldi: 1973 yili ikkita — V. N. Komissarovning «Tarjima haqida so'z», A. D. Shveyserning «Tarjima va lingvistika» (Voenizdat), 1975 yili L. S. Barxudarovning «Til va tarjima» kitoblari, 1976 yili birdaniga uchta — V. N. Krupnovning «Tarjimonning ijodiy laboratoriyasida», T. R. Leviskaya va A. Fitermanning «Tarjima problemalari», L. A. Chernyaxovskayaning «Tarjima va ma'no strukturasi» asarlari chop etildi.

Tarjima problemalarni elliginchi-etmishinchi yillarda bir necha marta Yozuvchilar soyuzi s'ezdlarida (1954 yil dekabrda Butunittifoq yozuvchilarining II s'ezdida P. Antokolskiy, M. Avezov, M. Rilskiyning qo'shkmcha dokladi stenogrammasiga qaralsin), yig'ilish va konferensiyalarda muhokama qilindi. Chunonchi: Moskvada 1954 yil dekabrda Ittifoq xalqlari adabiyotlari tarjimonlari konferensiyasi; 1960 yil oktyabrda Ittifoq Yozuvchilar soyuzi sekretariatining tarjima problemalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi; 1970 yili yozuvchi-tarjimonlarning Butunittifoq yig'ilishi; 1978 yilda tarjimashunoslarning xalqaro simpoziumi va boshqalar; Olmaotada 1960 yil yanvarida rus tilidan O'rta Osiyo, Qozog'iston va Ozarbayjon xalqlari tillariga tarjima qilish bo'yicha respublikalararo kengash, Frunzda 1961 yil dekabrda badiiy adabiyot tarjimasi bo'yicha regional yig'ilish, Qozonda 1962 yil yanvarda shu masalada Butunrossiya yig'ilishi, Tibilisida 1962 yil martda tarjimonlarning Zakavkaze regional konferensiyasi, Bokuda 1967 yil aprelda Ozarbayjon Yozuvchilar soyuzining maxsus plenumi, Ulan-Udada Bu singari yirik anjumanlarning materiallarini chop etish odat tusiga kirdi. Leningradda — «Tarjima nazariyasi va tanqidi» (1962) Moskvada — «Badiiy tarjima nazariyasining aktual problemalari» (ikki jild, 1967), Moskvada — «Tarjima nazariyasi va o'qitish metodikasi masalalari» (1970) alohida kitob holida bosilib chiqdi.

Rossiyada tarjima tarixini yaratish yuzasidan birinchi qadam qo'yildi — «Rus yozuvchilari tarjima haqida. XVIII—XX asrlar» (1960) kitobi nashrdan chiqdi. Leningradda adabiy-estetik problemalarga bagishlangan, Moskvada struktural-lingvistika planida yozilgan nazariy tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu azaliy tarjima markazlaridan tashqari, Kievda 1958 yili rus tilida M. Rilskiyning «Bir slavyan tilidan ruschaga badiiy tarjima», ukrain tilida O. Kundzichning til va tarjima problemalariga oid maqolalar to'plami e'lon qilindi (bu asar «So'z va obraz» nomida 1973 yili to'ldirilib Moskvada rus tilida chiqdi). Tiblisida G. R. Gachschiladzening «Realistik tarjima problemalari» nomli monografiyasi (1959 yili gruzin tilida, 1964 yili — ruschada) nashrdan chiqdi. Ittifoqning boshqa shaharlarida ham tarjimani nazariy o'rganish kuchaydi. Masalan, 1955 yili Bokuda ozarbayjon tilida Jumshud Azimovning «Tarjima prinsiplari», 1962 yili S. Taljonovning qozoq tilida «Badiiy tarjimaning asosiy problemalari», 1965 yilda Yerevanda Levon Mirtchyaning «She'rlar va tarjimalar», 1978 yilda shu avtorning Moskvada «Jonajon va qadrdon» nomli maqolalar to'plamlari bosilib chiqdi.

Bu borada O'zbekiston olimlarining tajribasi alohida diqqatga sazovor O'zbekiston Markaziy Komitetining badiiy tarjima ishlarini tubdan yaxshilash haqida 1965 yili chiqargan qaroridan keyin badiiy ijodning bu sohasida ancha sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek adabiyotidan qilingan tarjimalar miqyosi ham kengaydi. O'zbekiston markasi bilan chiqayotgan kitoblarni jahonning 97 mamlakatida, shu jumladan, Angliya, AQSh, GFR, Fransiya, Italiya, Kanada, Eron, Turkiya, Pokiston, Hindiston va boshqa davlatlarda o'z ona tillarida o'qimoqdalar. Mavjud tarjimalarni ilmiy tadqiq qilish ishi respublikada juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda ellikka yaqin tadqiqotchi tarjima problemalari bilan band. Ularning o'ttizdan ortig'i ilmiy darajaga ega. Respublikada qisqa muddat ichida yirik ilmiy asarlar bunyod etildi. Jumaniyoz Sharipovning «O'zbekistopda tarjima tarixidan» (1965), «Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar» (1972), G'aybulla Salomovning «Til va tarjima» (1966), «Tarjima nazariyasiga kirish» (1978), G. G'afurovning «O'zbekistonda tarjima taraqqiyoti» (1973), Z. Umarbekovanning «Lermontov va o'zbek she'ikyti» (1973), Q. Musaevning «Badiiy tarjima va nutq madaniyati» (1976) kitoblari, shuningdek, G'. Salomov, N. Komilov, Z. Salimova, Q. Jo'raev, N. Otajonovlar yaratgan «Tarjimon mahorati» (1979) monografiyasi, A. Klimentonovning «Do'stlik ramzi» (1974), K. Jo'raevning «Tarjima — san'at» (1975), N. Otajonovning «Badiiy tarjima va ilmiy sharh» (1978) risolalari, respublika va Ittifoq matbuotida e'lon qilingan bir necha salmoqdor maqolalar fikrimizni quvvatlaydi. A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutining adabiy aloqalar va badiiy tarjima nazariyasi sektori «Badiiy tarjima — do'stlik quroli» (1974), «Badiiy tarjimaning aktual masalalari» (1977) mavzuida, M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining tarjima nazariyasi kafedrasida esa rus va o'zbek tillarida «Tarjima nazariyasi masalalari» (1977) to'plamlarini nashrdan chiqardilar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti muntazam chop etayotgan «Tarjima san'ati» maqolalar to'plami Butunittifoq miqyosida tanilib bormoqda, bu adabiy-tanqidiy minbar, ilmiy nashr O'zbekistondagi yirik tarjimon va tarjimashunoslar, yosh tadqiqotchilar, o'zbek adabiyotining chet eldagi va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridagi jonkuyarlarini birlashtirib, ulkan xayrli ishni amalga oshirmoqda. Qisqasi, tarjimani ilmiy tomondan o'rganish masalasiga bu yerda katta ahamiyat berilmoqda.

Bizning Ozarbayjon respublikamizda ham katta tarjimachilik amaliyotining ilmiy negizlarini yaratish ishiga jiddiy e'tibor berilayotir. «Badiiy tarjima sohasidagi nazariy tafakkur ildizlari uzoq o'tmishga borib qadalsa ham, Ozarbayjonda tarjimashunoslik muntazam fan sifatida faqat so'nggi 20 yil ichida taraqqiy etib boshladi» (J. Mamedov). Bu borada Yu. A. Xudabashev, Yu. Graninning «Literaturny Azerbaydjan» jurnalida chiqqan «Badiiy tarjima problemalari» (1940, 12-son, 1941, 1-son) va M. A. Da-dashzoda (Mamed Orifiy)ning ham o'sha nomdagi (1954, 8-son), M. Rafiliyning «Drujba narodov» jurnalida bosilgan (1959, 4-son) «Badiiy tarjima madaniyati» degan maqolalari ancha yaxshi taassurot qoldiradi. J. A. Azimovning «Tarjima prinsiplari» nomli kitobi, F. G. Valixonovanning «Samad Vurg'un poeziyasi rus tilida» degan 1965 yili Moskvada yoqlangan dissertatsiyasi (bu tadqiqot 1967. yilda Bokuda «Samad Vurg'un she'riyatining ruscha tarjimalari» nomi ostida chop etildi), M. M. Poshayeva (1964), A. I. Kozimov (1967), B. G. Huseynov (1967), A. A. Rizaev (1969), T. A. Abbosquliev (1971), H. H. Bayramov (1971), O. K. Boboyevlarning (1972) dissertatsiyalari respublikamizda tarjimashunoslik fani muayyan yutuqlarni qo'lga kiritayotganiga dalil bo'la oladi.

Tarjima haqidagi mavjud nazariy adabiyotlar nimani tarjima qilish mumkinu, nimani o'girish amri-mahol degan muammoni tahlil qilishga bagishlanadi.

Tarjima ilmiy tadqiq qilish mumkinligiga ko'p mutaxassislar hamon ishonmay keladilar, ular o'zlarining umidsizligini ko'proq tarjimachilikning xususiyatlarini ro'kach qilish bilan niqoblashga intiladilar. «Nazariyani «san'atning alohida turi bo'lgan tarjima» qiziqtirishi kerak», — deb uqtiradi rus klassik va sovet adabiyotidan nemis tiliga tarjimalar muallifi, GDR San'at akademiyasining a'zosi Alfred Kurella. «Mening biz yaratayotgan «tarjima nazariyasi»ga unchalik ishongim kelmaydi. Ishqilib, keyin

o‘zimiz qurgan qal’ani o‘zimiz buzib o‘tirmasak bo‘lgani»,— deb unga hamovoz bo‘ladi litvalik shoir va tarjimon V. P. Bleje.

Ana shu o‘rinda hozirgi zamon fantast-yozuvchisi Stanislav Lemning «Magsllan buluti» romanidan bir dialogni keltirish joiz bo‘lar. Voqea davrimizdan bir ming ikkn yuz yil keyin — XXXII asrda go‘yo sodir bo‘ladi:

«— Ilgarilari odamlarning dengizda suzishganlari senga ma’lum-mi?

— Paroxod degan narsadami? — javob berishga shoshildim men.

Balli. Ammo undan ham oldin, qadim zamonlar-da yelkanli kemalarda suzishgan. Uni shamol harakatga keltiradi. Ha, ular hali gidrostatika, gidrodinamika, to‘lqinlanish nazariyasi va boshqa fanlardan bexabar bo‘lgaplaridan, kemalarni chamalab qurardilar. Tushunyapsanmi? Shuning uchup ular qurgan birorta ham kema bir-biriga o‘xshamasdi. Bir-biriga mutlaq o‘xshaga kkkita kemani topib bo‘lmasdi, Machta, qil, korpus tuzilishida yuz beradigan jiddiy farq ham rulnnng itoatkorligiga ta’sir qilardi. Dengiz sayyohlari safar paytida xavf-xatarlarga yo‘liqib, halokatlariga duchor bo‘lib, asta-sekin tajriba yig‘dilar. Bu tajribalardan kema yurgizishning katta san’ati paydo bo‘ldi. Tushunyapsanmi? Bu ilm emas, san’at edi. Chunki u haqiqiy ilmiy dalillardan tashqari, bir qancha ertak, rivoyat, xurofotlarga ham suyanardi. Kemani yurgizish uchun faqat bilim emas, shaxsiy jasurlik, mahorat va iste’dod ksrak edi. Biroq, keyinchalik fan bularning hammasini siqib chiqardi, san’atkorlikning ulushi kamaydi.

Necha yuz yil avval yulduzlarga sayohatda ham shunga o‘xshash hodisa qaytarilgan».

Uzoq kelajakdagi dialog qatnashchisi o‘z kalimasini shundan tugallaydi. Bir necha ming yillik biografiyaga ega tarjimaning ham shunga o‘xshash tarixi bormi? Lem romanidagi satrlarni o‘zlashtirib, tadqiqotchilar butun mana bunday deyishga haqlidirlar:

«Ilgari, eski zamonlarda, odamlar intuisiyaga ishonib va ists’dod bilan tarjimalar qilardilar. Ha, hali lingvistika, estetika, axborot nazariyasi va boshqa fanlardan bexabar bo‘lganlaridan, ular asarlarni chamalab tarjima qilardilar. Tushunyapsanmi? Shuning uchun ularning bironta ham tarjimasi bir-biriga o‘xshamasdi. Bir-biriga aynan o‘xshash ikkita tarjimani topib bo‘lmasdi. Ritm, asarning shakl xususiyatidagi ozgina tafovut esa tarjimalarning kitobxonga turlicha ta’sir qilishiga olib kelardi. Tarjimonlar ijod mashaqqatini chekaverib, muvaffaqiyatsizliklarga yo‘liqa-yo‘liqa tajriba yig‘dilar. Bu tajribalardan katta tarjima san’ati paydo bo‘ldi. Tushunyapsanmi? Bu ilm emas, san’at edi. Chunki u haqiqiy ilmiy dalillardan tashqari, allaqancha ertak, rivoyat, xurofotlarga suyanardi. Asarlarni tarjima qilish uchun faqat bilim emas, shaxsiy ilhom, mahorat va iste’dod kerak edi. Biroq, keyinchalik fan bularning barchasini siqib chiqardi, san’atkorlikning ulushi kamaydi...»

Insoniyat endilikda turli hajmdagn dengiz kemalarini qurshi sirlarini bilib olgan. U qanday qilib kosmik kemalarni yaratish va nechuk qonuniyatlar asosida ularni avvaldan hisoblangan orbitaga chiqarishni ham biladi. Atomlarni parchalash va polimerlarni sintezlash ham kgshshlarga ma’lum. Ammo «Urush va tinchlik» romani kabi asarlarni qanday qilib «yigish», tolstoycha «andakkina» siz tasavvur qilib bo‘l-maydigan san’atni qayta tiklagan holda, asarni «parchalash» va boshqa tilda sintez qilishning sir-asrori hanuzgacha noma’lum (agar ma’lum bo‘lganida, badiiy adabiyot tomon «yo‘llanayotgan» asarlar «orbitasi»ni aniqlash bu darajada muammo bo‘lib turmasdi).

Tarjima nazariyasiga nisbatan yuqorida tilga olingan umidsizlik kayfiyatlari ham xuddi shu vaziyat bilan bog‘liq. Bunday shakkoklik, hamma narsaga shubha bilan qarash mayli ba’zan oshkora nigilizmga aylanib ketadi.

«Badiiy tarjimaning yagona jiddiy nazariyasini yaratish menga prinsip jihatidan mumkin emasday tuyuladi. Sabab, badiiy tarjima badiiy matn bilan chambarchas bog‘liqdir»,— degan edi M. I. Zand Moskva simpoziumidagi nutqida. «Badiiy tarjimaning jiddiy nazariyasini yaratish ona tilidagi badiiy matnning unga to‘la, adekvat ravishda mos keladigani bilan almashtirishga imkon beradigan nazariyani barpo qilish demakdir. Uz navbatida, bu tarjima qilinadigan badiiy matnni alohida-alohida mazmunan va shaklan tugal qismlarga ajratish va keyin ikkinchi til materialidagi xuddi shunday adekvat birliklarni «yig‘ish»ni anglatishi mumkin». Biroq, uning fikricha, badiiy tekstning o‘z mohiyati, tugal birliklarga ajrala olmasligi yoki ma’nodosh interpretatsiyaga moyil-masligi tufayli ham «bunday vazifani amalga oshirish prinsip e’tibori bilan mushkul narsa».

B. B. Vaxtinning «Narodi Azii i Afriki» (1965, 3- son) jurnalida bosilgan «Badiiy tarjimaga ilmiy munosabatda bo‘lish mumkinmi?» degan maqolasiga ko‘ra, tarjimaning vazifasi boshqa til muhitida original o‘quvchisi olgan taassurotni qayta yaratishdan iborat. Bu taassurot «mutlaqo sub’ektiv» bo‘ladi, chunki u «mantiqiy mazmunga emas, intuisiyaga suyanadi: uni tamomila isbotlab ham, mantiqiy asoslab ham bo‘lmaydi». Shu boisdan tarjimon ijodi «shoir ijodidan hech narsa bilan farqlanmaydi; shoir uchun faqat o‘zigagina xos qonuniyatlardan bo‘lak qonuniyat bo‘lmaganidek, uning ijodi haqida ham faqat o‘sha o‘zi

yaratgan qonuniyatlar asosida fikr yuritish mumkin. Zotan, shoir-tarjimonlar uchun hech qanday qonun va standart talablar bo'lmagan va bo'lmaydi ham».

Notiqlarning gaplariga qaraganda, ular badiiy matnning tugal birliklarga ajrala olmasligi haqidagi mujma dalillarga asoslanadilar. Ular tarjimannng adekvatligini tugal ajratiluvchi birliklarining ma'nodoshlik muposabati, ya'ni ularni qapdaydir «donabay» kalka qilishdangina iborat, deb tushunib, noaniqlikka yo'l qo'yadilar. Aslida esa, «tarjima birliklari» orasidagi munosabat shakkok nazariyachilar o'ylagandan ko'ra murakkabroq va tarjima nazariyasiga Lingvistik nuqtai nazardan yondashnshga yetarlicha asos tug'dirmaydi.

S. A. 'Goropsev tomonidai simpozium materiallariga yozilgan taqrizda («Narodi Azii i Afriki», 1965, 3-son) tarjimaga, umuman, nazariya kerakmi, degan «deyarli anarxistik» masalaning qo'yilishi favqulodda quyushqondan chiqib ketish bnlan barobar ekanligi qayd etiladi. «Tarjimonning, qolaversa, avtorning o'ziga xos, sub'ektiv o'lchovlari, andozalarini tan olmaslik qanday xunuk oqibatlariga sabab bo'lishini o'ylashning o'zi ayanchli», deb yozadi u. Bunnng ustiga, hozirgi badniy tarjima amaliyoti bunday «aksiltarjimachilik aqidasi» puch ekanligini dangal ko'rsatib turibdi.

Ijodiy va noijodiy tarjima jarayoni o'rtasidagi chegara qat'iy va barqaror emas, binobarin, bu chegara qachon va qaerda boshlanib, qachon va qaerda tugashini belgilash amrimahol. Bunga faqat amaliy tajriba javob bera oladi, deb hisoblaydilar. Ammo kelajak tarjima jarayonining ijodiy xarakteriga qarashlarni butunlay o'zgartib yuborishi ham mumkin.

I. I. Revzin va V. Rozensveygning «Umumiy va mashinaviy tarjima asoslari»da ta'kidlanganidek, tarjimashunoslik ishlarida qo'llanilgan tushuncha va ta'riflardan ularning noaniqligi sababli ko'z yumib ketmasdan, tajribada erishilgan yutuqlarni aks ettiruvchi eng ahamiyatli xulosalarni saqlagan holda, ularni ravshanlashtirib berish favqulodda muhim qimmatga ega. Ulardan tarjimaga ilmiy yondashish negizini tashkil qiladngan umumiy va qat'iy nazariya doirasida foydalanish lozim.

2-MAVZU. TARJIMA TARIXINI DAVRLASHTIRISH

Eng qadimgi davrdan xii asrgacha bo'lgan davr tarjimachiligi

Biror-bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlanolmaydi. U boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi. Ma'lumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq hisoblanadi. Aleksandr Makedonskiy Sharqni istilo qilganda qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyatini muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda Yunonistonda antik davr uyg'onishi sodir bo'ldi. Keyin katta hududda o'z saltanatini o'rnatgan arablar fan va madaniyatini rivojlantirishga e'tibor berdilar. Ma'mun ar-Rashid IX asrning boshida Bag'dodda Ma'mun akademiyasini tashkil qiladi. «Bayt ul-hikma» («Bilimlar uyi») deb atalgan bu ilmiy markazga turli joylardan iste'dodli kishilarni to'plab, yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilinadi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatiladi. Beruniy ham yunon, sanskrit va suryoniy tillarini o'rganib, bu tillardagi asarlardan bevosita foydalanganligi, hatto ularni tarjima qilganligi ma'lum. Yoki Ibn Sino Aristotelning «Metafizika» asarini bir necha marta o'qisa-da tushunmaydi. Keyin unga Forobiy yozgan sharh orqali uni xatm qiladi. So'ng XII-XIII asrlarda arablar tasarrufidagi Ispaniyaning Toledo va Kardova shaharlarida tarjima maktablari vujudga kelib, arab tilidagi barcha ilmiy, ba'zi adabiy kitoblar ham lotin tiliga tarjima qilinadi va ular orqali Yevropaga tarqaladi.

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlagnadi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tarjimon (tilmoch) orqali ish bitkazganlar. Tarjimonsiz ish bitirish qiyin bo'lgan. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda hamma vaqt tarjimaga zarurat tugilgan. Qadim zamonlardan beri xalqlar o'z tarjimonlariga katta hurmat bilan qaraganlar. Ularning nomlari tarix sahifalarida abadiy yozilib qolgan. Tarjima terixi madaniyat, san'at, adabiyot tarixi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati qadimiy davrlardan boshlanadi. Arablar istilosiga qadar ham O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan olim va yozuvchilar o'zlari-dan keyin boy ilmiy va adabiy meros qoldirganlar, balki ular ichida ko'pgina tarjima asarlari ham bo'lishi haqi-qatdan uzoq emas. Ammo arab istilochilari mamlakatni zabt qilgach, bu ajoyib asarlarni islom diniga qarshi deb yondirib yuborganlar. VII asrda Iroq, Suriya, Falastin, Eronni bosib olgan arab istilochilari Marv, Xorazm, Buxoro va Samarqandn! qo'lga kiritadilar. VIII asrning boshlarida Movarounnahr (ikki daryo o'rtasi)ni arablar butunlay egallagan edilar. O'rta Osiyo arab xalifaligi hukmronlig ostida qoldi.

Bosqinchilarning zulmi ostida azob chekkan xalqlar ularning buyruqlariga bo'ysunar, tartiblarini so'zsiz bajarishga majbur edilar. Arablar dastlab islom dinini O'rta Osiyo xalqlariga majburan qabul qildiradi boshladilar. Qadimgi Xorazm, so'g'd yozuvlari o'miga arab yozuvi joriy qilindi. Madrasalarda arab tilini

o'rganish majburiy qilib qo'yildi. Arab istilochilari turk va fors tillarini bilgan tarjimonlardan ham foydalandilar. Ular turkiy xalqlar bilan arablarni bir-biriga bog'lovchi vositachi rolini o'ynadilar.

Islom dini mamlakatda hukmron din, arab yozuvi yagona yozuv, arab tili adabiy til bo'lib qoldi. Olimlar va shoirlar arab tshshda kitoblar yoza boshladilar. Arablar istilosi davrida eng ko'p tarjima qilingan asarlar tarixiy-badiiy janrda yaratilgan kitoblar bo'lib, ularni ko'pincha adib, shoirlar tarjima qilar edilar.

Katta-katta olimlar, tarixchilar yetishdi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o'z asarlarini arab tilida yozdilar. 359 yilda vafot qilgan olim Abu Bakr Muhammad bin Ja'fariy Narshaxiy Buxoro tarixiga oyid «Tahqiqul-viloyat» (O'lkani o'rganish) nomli asarini yozdi. Bu asar fors tiliga, keyingi davrlarda rus tiliga ham tarjima qilindi. Eng qadimiy asarlardan biri 922 yilda vafot qilgan Abu Ja'far Muhammad bin Jarir Tabariyning «Tarixi Tabariy» nomli bir necha tomli asari bo'lib, 963 yilda Buxoroda somoniy amirlarining saroyida vazir bo'lgan Mir Abu Ali bin Muhammad Bal'amiy tojikchaga qisqartib tarjima etgan. Keyinchalik bu asarning o'zi ham boshqa tillarga tarjima qilingan. Tabariy va Bal'amiy haqida shunday so'zlarni o'qiymiz.

Somoniyar saroyida tarix va geografiyaga katta diqqat berilar edi. Movarounnahrda tarix va geografiyaga oid ko'p sonli asarlarni qiziqib o'qilar edi. Ma'daniy, Balozuriy, Tabariy, ibn Miskavey va boshqalar o'sha davrning mashhur tarixchilari edi.

Movarounnahrning madaniy kishilari orasida Tabariy o'z tarix kitobi tufayli mashhur bo'lganini shu faktdan ko'rish mumkin: somoniylarning Abulmalik va Mansur degan ikki amirining atoqli vaziri Bal'amiy Tabariy asarini tojik tiliga qisqartirib tarjima qildi. De Rde nashriga kirgan variantdan tashqari, boshqa yo'qolgan variantdan qilingan bu tarjima arab tilidagi so'nggi nashrlarda bo'lmagan bir qancha axborotlarni beradi. Ko'p mamlakatlardagi kishilar hozirga qadar Tabariy asari bilan Bal'amiy tarjimasi orqali tanishadilar. Qizig'i shuki, haligacha o'z qimmatini yo'qotmagan Bal'amiyning tarjima kitobi uz navbatida turk fransuz va, hatto, arab tillariga tarjima qilingan» (257-bet).

Bu asar «Tarixi Narshaxiy» nomi bilan mashhur. Abu Nasr Ahmad bin Muhammad al Qubaviy XII asrda uni qisqartib, fors tiliga tarjima qilgan (FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, inv. №2110). 1892 yilda Parijda bu asarning teksti Shefer tomonidan bostirilgan. 1897 yilda N. S. Likoshin «Tarixi Narshaxiy»ni ruschaga tarjima etib, akad. V. V. Bartoldning tahririda Toshkentda nashr qildirgan. «Sobranie vostochnix rukopisey AN» (SVR), 1-tom. U bir necha Sharq tillarini, shu jumladan arab tilini o'z ona tiliday bilgani holda, yunon falsafasini o'rganish zarur bo'lib qolgani uchun yunon tilini ham bilib oldi.

«Forobiy grek olimlarining asarlarini asl nusxasida o'qib, ularning ko'piga, masalan, Aristotelning «Metafizika», «Fizika», «Meteorologiya»siga va logika soha Tabariyning asari XVIII asrda o'zbek tilining qashg'ariy lahjasida tarjima etilgan. Tarjimonning oti noma'lum, ammo uning aytishiga qaraganda, asar Yorkandninig hokimi Mirza Muhammad Husayn Hakimbekning amri bilan tarjima etilgan.

Bal'amiy tarjimasini Xiva xoni Muhammadrahim II (Firuz)ning amri bilan mashhur tarixchi va shoir Muhammad Yusuf Bobojon o'g'li Bayoniy 1882 yilda o'zbekchaga tarjima eta boshlagan. Bu tarjimaning qo'lyozmasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda. Uni 1913 yilda domullo Muhammad Rasul bin Muhammad Karimbek degan kotib ko'chirgan. Tabariy asari Bal'maiy tarjimasi orqali bir necha tillarga tarjima etilganligi bu kitobning naqadar mashhur ekanini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida asarga bir qancha qo'shimchalar ham kiritilib, hajmi ancha kengaytirilgan.

Qadimgi davrda sharq va garbda tarjimachilik

Biror-bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlanolmaydi. U boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi. Ma'lumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq hisoblanadi. Aleksandr Makedonskiy Sharqni istilo qilganda qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyatini muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda Yunonistonda antik davr uyg'onishi sodir bo'ldi. Keyin katta hududda o'z saltanatini o'rnatgan arablar fan va madaniyatini rivojlantirishga e'tibor berdilar. Ma'mun ar-Rashid IX asrning boshida Bag'dodda Ma'mun akademiyasini tashkil qiladi. «Bayt ul-hikma» («Bilimlar uyi») deb atalgan bu ilmiy markazga turli joylardan iste'dodli kishilarni to'plab, yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilinadi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatiladi. Beruniy ham yunon, sanskrit va suryoniy tillarini o'rganib, bu tillardagi asarlardan bevosita foydalanganligi, hatto ularni tarjima qilganligi ma'lum. Yoki Ibn Sino Aristotelning «Metafizika» asarini bir necha marta o'qisa-da tushunmaydi. Keyin unga Forobiy yozgan sharh orqali uni xatm qiladi. So'ng XII-XIII asrlarda arablar tasarrufidagi Ispaniyaning Toledo va Kardova shaharlarida

tarjima maktablari vujudga kelib, arab tilidagi barcha ilmiy, ba'zi adabiy kitoblar ham lotin tiliga tarjima qilinadi va ular orqali Yevropaga tarqaladi.

Ulug' mutafakkir olimlar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariylarni qadimgi madaniyatimizni boyitishda katta xizmat qilgan birinchi tarjimonlarimiz ham deb hisoblaymiz. Ular jahon faniga, matematika, astronomiya, falsafa, tabiiyot, tilshunoslik bilimlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlari kabi, tarjimachilik ishlarida ham katta xizmat qilganlar. Ular asarlarini arab tilida yozgan bu ulug' siymolar grek, hind, fors tillariga ham birmuncha asarlarni tarjima qilganlar.

O'rta Osiyoning mashhur faylasufi Forobiyning (873— 950) zakovati, talanti, ayniqsa diqqatga sazovordir. U bir necha Sharq tillarini, shu jumladan arab tilini o'z ona tiliday bilgani holda, yunon falsafasini o'rganish zarur bo'lib qolgani uchun yunon tilini ham bilib oldi.

«Forobiy grek olimlarining asarlarini asl nusxasida o'qib, ularning ko'piga, masalan, Aristotelning «Metafizika», «Fizika», «Meteorologiya»siga va logika sohasidagi asarlariga, grek avtorlarining etika, psixologiya va tabiatshunoslik to'g'risidagi kitoblaridan Ptolomey kabilarning traktatlariga sharhlar yozdi. Ayrim zarur kitoblarni grekchadan arab tiliga tarjima qildi». O'z davrining fan ahlari orasida Forobiya Aristoteldan so'nggi «al muallimus-soniy», ya'ni «ikkinchi muallim» degan juda yuksak baho berilgan edi.

Ulug' mutafakkir, butun dunyoga dong taratgan mashhur tabib, faylasuf va tilshunos olim Abu Ali ibn Sino o'zining tarjimai holida Forobiya yunon falsafasini o'rganganini qayd etadi. U mantiq, tabiiyot, riyoziyot (matematika) va jo'g'rofiya ilmlarini tahsil qilgan, so'ngra «Moba'dat tabiat» (Tabiatdan tashqari bo'lgan narsalar («Metafizika»)) kitobini o'qiy boshlagan. Biroq u dastlab kitobni o'qib tushunolmagan. Abu Ali ibn Sino bu murakkab kitobni qirq bir marta qayta-qayta o'qigan, hatto yod qilib olgan. Shunday bo'lsa ham u avtorning maqsadiga tushunib yetmagan. Nihoyat, bu tushunib bo'lmaydigan kitob ekan, deb umidini uzgan. Ana shundan keyingi tafsilotlarni Ibn Sino shunday hikoya qiladi: «Qunlardan bir kun asr vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Unda bir dallol qo'liga muqovalangan bir kitobni tutib, uni maqtardi. U meni ham chaqirib, menga uni ko'rsatdi... Men bu ilmni bilishning foydasi yo'q, degan xayolda uning ko'rsatishi menga malol kelib, rad qildim. Dallol menga «bu kitobni mendan olgin, buning narxi arzon — uch dirhamga sotaman; egasi buning puliga muhtoj», — dedi. Men uni sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning «Metafizika» (Aristotelning «Metafizika»siga Forobiyning yozgan sharhi —J. Sh.) kitobi maqsadlari haqida yozgan asari ekan. Uyimga qaytib, darrov uni o'qishga tushdim. «Metafizika» dilimda yod bo'lib qolgani sababli o'sha paytdayoq bu kitobning maqsadlari menga ochildi. Bundan juda xursand bo'lib ketdim. Tangriga shukr qilib, o'sha kunning ertasigayoq ancha narsa sadaqa qildim».

Bundan ko'rinadiki, Forobiy Aristotel kitobiga sharh yozar ekan, uning asarining nozik tomonlarini to'g'ri tarjima qilib bergan. Yunon tilini yaxshi bilgan Forobiy uning boyligini arab tilida ham namoyon qildi va shu bilan birga, arab tilida ham chuqur falsafiy asarlarni yaxshi tarjima etish mumkinligini ko'rsatdi. Arab tilini ona tiliday bilgan, yunon tilidan tarjima etgan ulug' olim Forobiy fors tilida badiiy jihatdan yuksak falsafiy ruboiylar yozgan.

«Devonu lug'otit- turk» asari haqida

«Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni») hijriy 469, milodiy 1076-1077 yillarda yozilgan bo'lib, Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan. Bu vaqtda muallif 50 yoshda bo'lgan. Yangi manbalarga ko'ra bu asar 1072 yilda yozila boshlangan va 1074 yilda tugatilgan (hijriy 464-466 y). Muallif bu haqda shunday degan: «Kitob 464 yilda (hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to'rt karra yozilgandan (ko'chirilgandan) va tuzatilgandan so'ng 466 yil jumadul oxirning 12~kuni bitirildi».

Umuman olgandabu asar XI asrda yozilgan bo'lib, turkiy so'zlar lug'ati hisoblanadi. Bu kitobda O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda qadimgi qabilaviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog'lanib ketadigan lavhalar qo'p uchraydi. Muallif unda so'zlarning ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida ko'plab xalq maqollari, hikmatlari, qo'shiqlaridan keltiradi. Bu haqda Mahmud Koshg'ariyning o'zi yozadi: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim».

«Devonu lug'otit turk» asarining asl qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan emas. Uning yozilgan sanadan 200 yil o'tgach ko'chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Uch jiddan iborat bu kitob 1939-1941 yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. O'zbekistonda «Devon» ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos olim S. Mutallibov hozirgi o'zbek tiliga ag'dargan.

«Qo'shiq», «she'r», «qasida», «marsiya», «afsona», «maqol» kabi atamalar ilk bor shu asarda qo'llangan va uyg'ur yozuvi haqida ham ilk ma'lumotlar keltirilgan. Asarda mehnat va marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va o'gitnomalar, «Qish va yoz» munozarasi, «Alp Er To'nga» (Afrosiyob) marsiyasi, savlar (afsonalar), maqollar, "Oltin qon" afsonasi (unda qadimgi turkiy ajdodlarimizning Iskandar Zulqarnayga qarshi mardliklari hikoya qilinadi), «Tangutlar bilan jang», «Yaboqular bilan jang» kabi parchalar va shu kabilar keltirilgan. «Devon» da turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog'liq bo'lgan she'riy parchalar katta o'rin tutadi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarzi, mashg'uloti, ishonch-e'tiqodlari ifodasi ochiq ko'rinadi. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da'vat kabi qadimgi turmush tarzidan olingan qo'shiqlar maxsus berilgan.

Lirik qo'shiqlarda insonning qalb kechinmalari, noeik his-tuyg'ulari ifodasi, tabiat va ona yurt manzaralari tasviri yetakchilik qiladi. Kishilarni qurshagan olam haqidagi qo'shiqlarda turkiy xalqlarning doimiy yo'ldoshi - otlar ham alohida mavqe tutadi. Asardagi ko'pgina qo'shiqlar ovchilik, chorvachilik bilan - turkiy xalqlarning yashash tarzi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Mahmud Koshg'ariy «qo'shiq» atamasiga «she'r, qasida» deb izoh bergan. «Devon»ga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini to'rtliklar tashkil qiladi. Ular a-a-a-b va a-a-a-a yoki a-b-v-b shaklidagi qofiyadoshlikka ega. To'rtliklarda Vatan va yurt muhabbati, xalq uchun jang qilgan bahodirlar bilan faxrlanish, tabiat manzaralari go'zalligi, mehnat shavqi, turli insoniy kechinmalar talqini mavzusi yetakchilik qiladi.

«Devonu lug'otit turk»dagi she'riy parchalar shakliga ko'ra ikkilik, to'rtlik va murabba'lardan tashkil topgan bo'lib, ularning ko'p qismi pand -nasihat, o'gitlardan iborat. Asardagi xalq ko'shiqlarining tasvir usullari ham nihoyatda xilma-xil. «Qaqlar qamug' ko'lardi» to'rtligi, «Qish bilan Yoz» munozarasida jonlantirish, «Bulnar meni ulas ko'z» to'rtligida esa sifatlash asosiy o'rin tutadi.

Qoraxoniylar davlati davrida yaratilgan eng katta ilmiy yodgorliklardan biri Yusuf **Xos Hojibning «Qutadg'u bilik»** («Baxtli bo'lish to'g'risida bilim») asari bo'lib, u 1069 yilda yozilgandir.

«Qutadg'u bilik» didaktiv tipdagi asar bo'lib, ham lingvistik ham tarixiy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Yusuf Xos Hojib Bolasag'un (hozirgi Qirg'izistonga qarashli To'qmoq) shahrida tug'ilib o'sdi, bir necha tillarni o'rganib, o'z zamonasining madaniyatli, dono olimlaridan biri sifatida mashhur bo'ldi. Yusuf Xos Hojibning asari qadimgi o'zbek tili va adabiyoti tarixida katta ro'l o'ynagani kabi, tarjima tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, avtor dehqonchilik hunarmandchilikka oid juda ko'p terminlarni ishlatadiki, bularning qaysi tillardan kirib kelganligi va tarjima etilganini aniqlash tilshunoslarimiz zimmasiga tushadigan vazifalardan Qoraxoniylar davrida Narshaxiyning Buxoro tarixiga oid asari 1128 yilda Abu Nosir Ahmad bin Muhammad al Quvayi tomonidan tarjima etildi.

XI asrda turk urug'laridan saljuqiylar Eronni istilo qildilar. «G'aznaviylar davrining vayronasi ustida saljuqiylar davlati tashkil topdi». Saljuqiylar davlati Sulton Sanjar (1118—1157) davrida yana kuchayib, qoraxoniylarga ham o'z ta'sirini o'tkazib turdi.

Sanjar 1130 yilda Samarqandni ham qamal qilib olgan edi. Saljuqiylar davrida huquqshunoslikka doir bir qancha asarlar vujudga keldi. Tarjimon Marvaziy bir qancha shunday asarlarni arab tilidan forschaga ag'dargan edi.

Saljuqiylar davrida yozilgan «Nasixatul-muluk» (Podshohlarga nasihat) asari fors tilidan arabchaga tarjima etilgan edi. Bu asar saljuqiy sultoni Muhammad bin Malikshohga atalib yozilgan bo'lib, kitob avtori 505/1111 yilda o'lgan Abu Homid Mu-hammad bin Muhammad al-G'azzoliy edi. G'azzoliy nasihatlar yozib, ularni badiiy yo'sinda, turli-turli latifalar, hikoyalar orqali berdi. Keyinchalik asark o'zbek tiliga ham tarjima etildi.

XII asrning boshlarida Sharqdan qoraxitoylilar degan istilochilar kelib, saljuqiy va qoraxoniylarga qarshi hujum boshladilar. Ular 1138 yilda Samarqanddan Mahmudni haydab, 1141 yilda esa saljuqiylarning so'nggi sultoni Sanjarni tormor qildilar. 1172 yilda qoraxitoylilar Xorazmni ham olgan edilar. Lekin bu uzoqqa bormadi. Xorazmshohlar dinastiyasi kuchayib ketdi. Otsizning nabirasi Tekish davrida Xorazm territoriyasi ikki marta ko'paydi. Sharqiy Eron, Iroq ham Xorazmshohga qaragan edi. Muhammad Xorazmshoh 1210 yilda qoraxitoylarni tormor qildi. Movarounnahr ham unga vassal bo'ldi. Muhammad Xorazmshoh o'zini «Ikkinchi Iskandar» laqabi bilan atadi. Bu davrda tarjima etilgan kitoblar «qaqida aniq ma'lumot yo'q».

1247 yilda vafot etgan Alouddin Abdurahim bin Umar bin Muhammad at-Tarjumoniyy «Yatimatut-dahr fi fatoviyyi ahli-l-asr» (Zamon ahlining fatvolari haqidagi zamonning eng yirik durlari) degan kitobni arab va qadimiy Xorazm tilida yozdi. Bu kitob qonunlar haqid, yuridik masalalarga taalluqli bo'lib, lingvistlar uchun qadim Xorazm tilini o'rganishda boy material beradi. Buning ikki tilda yozilishi tarjimashunoslarni qiziqtiradi. Avtorning taxallusi «Tarjumoniyy» bo'lishi qiziq faktlardan biridir, u balki original asar yozishdan tashqari, boshqa kitoblarni ham tarjima qilgandir. Bu kitob qanday qilib Chingiz xonlaridan eson-omon

saqlanib qolgani kishini hayratda qoldiradi. Chingizxon davrida zo'rg'a saqlanib qolgan kitoblardan biri shu bo'lsa keraq Ma'lumki, Chingizxon qaerni bosib olsa, o'sha yerdagi madaniy boyliklarni vayron qilib, kitoblarni o'tga yoqar edi.

Chingizxon O'rta Osiyoga hujumni 1219 yilda boshlab yubordi. Og'ir janglardan keyin u Utrorni zabt etgach, 1220 yilda Buxoroga hujum qilib, uni zo'rlik bilan bosib oldi. Eron tarixchisi, o'sha davrning jonli guvohi Juzjoniyning so'ziga Karaganda, Chingizxon Buxoroni talagach, ko'p odamlarni o'ldirib, uylarni, masjidlarni yoqqan, kitoblarni gulxan qilgan. 1221 yilga borib Chingizxon Urganchni qamal qildi. Xalq yovga qarshi qahramonlarcha kurashdi, ammo olti oy qamalda yotgan shahar xalqi kuchli istilochilarga bardosh berolmadi. Shahar butkul yondirilgan edi. Odamlar qirg'in qilinib, yosh-yosh bolalarni mo'g'ullarga qul qilib berildi. Shunday fojiali yong'in, ur-yiqit paytida biron kitobning qolishi ham mo'jiza edi.

O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston xalqlari chet el bosqinchilari zulmida ingradi. Xalq bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarsa ham (masalan, 1238 yildagi Torobiy qo'zg'oloni), tezda, ayovsiz ravishda bostirilar edi. Butun bir yuz yilga yaqin bo'lgan davr ichida adabiy asarlar, shu jumladan tarjima asarlari ham vujudga kelmadi.

Qutb Xorazmi. Xorazmlik shoir Qutb 1340 yilda Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin» asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Qutbning bu tarjima asari X asrdan to asrgacha bo'lgan badiiy tarjima asarlari ichida eng fun.gamental va eng yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qchlingan birdan-bir asardir.

Badiiy tarjima sohasidagi durdona asari sifatida mashhur bo'ldi. Tarjima tarixi yozilar ekan, Qutb Xorazmiy nomi. alohida tilga olinib, zo'r faxr bilan eslanadi. U ulug' shoir Nizomiy Ganjaviyning asarini o'zbek tiliga. Tarjima etar ekan, o'zbek tilining kuch-qudratini ko'rsata bildi.

Qutb Xorazmiy o'z zamonasining, ilg'or va kuchli shoiri, klassik adabiyotning atoqli namoyandalaridan biridir. Uning boshqa tarjimalari haqida bizning zamonamizgacha biron ma'lumot yetib-kelmagan.

«Xisrav va Shirin» tarjimasining qo'l yozmasi Parijda «Nasional bibliotek»da saqlanadi. Bu asarning fotokopiyasini Navoiy komiteti tashabbusi bilan Parijdan oldirilgan edi. 1940 yilda uni Navoiy komitetining xodimi, taniqli adabiyotshunos olim Hodi Zarifov nashrga tayyorlagan va ushbu satrlarni yozuvchi tahrir qilgan edi, ammo bu asar urush boshlanishi bilan chiqmay qoldi. Hozir nashrga tayyorlangan nusxa O'zbekiston Fanlar akademiyasi, A. S. Pushkin nomli Til va adabiyot institutida saqlanmoqda. «O'zbek adabiyoti» xrestomatiyasining 1-tomida bu asardan ayrim, parchalar bosilgan.

Qutbning tarjimai holi, qachon tug'ilib, qachon vafot et-ganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Qutb Oltin Urda xoyalaridan O'zbekxonning o'g'li davrida yashagan. O'zbekxon 1312—1340 yillarda xonlik qiladi. Uning Tinibek degan o'g'li bo'lib, shoir-tarjimon Qutb o'z asarini shunga va uning xotini Malikaga bag'ishlagan. Shoir «Xisrav va Shirin»ni masnaviy tarzida aruzning «hazaj musaddas maqsur» vaznida tarjima etar ekan, originalning ma'nosi, syujeti, obrazlarini saqlaydi.

Nizomiy Ganjaviy (1141-1203) ozarboyjon xalqining ulug' shoiri bo'libgina qolmay, dunyo adabiyoti xazinasiga kirgan ulug' siymolardan biri. U kuchli iste'dodga ega bo'lib, o'z zamonasinki: «Ilg'or fikrlarini talqin qilgan mutafakkir, donishmand va muarrix edi. Nizomiy Ganjaviy (Ozarboyjonning Ganja shahrida tug'ilgani uchun Ganjaviy nomi bilan mashhur bo'lgan) devon tartib berdi va «Xamsa»ni yozdi. «Xamsa»ning ichiga besh dostoy: «Maxzanul-aror» (Sirilar xazinasini), «Xisrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» (Yeti go'zal) va «Iskandarnoma», ya'ni besh xazina kiradi. U fors-tojik adabiyotiga, turkiy xalqlarning, jumladan o'zbek xalqining adabiyotiga va hatto xind adabiyotiga katta ta'sir qildi. U yaratgan «Xamsa» xalqlar dilidan joy oldi. Shunday qilib, Nizomiy «Xamsa» yaratish tradisiyasini boshlab berdi.

Nizomiy Ganjaviyning uch dostoni o'zbek tiliga tarjima etilgan: «Xisrav va Shirin» (Qutb Xorazmiy tarjimasini), «Maxzanul-asror» (Haydar Xorazmiy tarjimasini) va «Haft iaykar» (Ogahiy tarjimasini). Uchchala shoir-tarjimon ham Xorazmdan chiqqan. Ularning har biri o'zbek xalqiga ozarboyjon xalqining o'lmas adabiy yodgorligini tuhfa qilib qoldirdi va bu bilan buyuk yozuvchiga bo'lgan samimiy hurmatni izhor qildi.

Uchchala shoir-tarjimon ham Nizomiy Ganjaviy asarlarini o'zbek tiliga o'g'irar ekanlar, har qaysisi dostonga o'zidan kirish so'zi yozadi. Unda genial shoirga bo'lgan muhabbat hurmatlar izhor qilinib, o'zlarining orzu-umidlarini bayon qiladilar va ayni dostonni nima uchun tarjima qilayotganliklarining sababini aytadilar.

Qutb Xorazmiy asarning boshida: «Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur» degan 34 baytdan iborat muqaddima yozadi.

Qutb Xorazmiy «Xisrav va Shirin»ni tarjima etar ekan, undagi asosiy obrazlar: Shirin, Xisrav, Farhod, Ma-hinbonu, Shopur, Sheruyalarning xarakter, xususiyatlarini o'zbek tilida originalning aynan o'ziday berishga tirishadi, voqea va syujet liniyasini to'laligi bilan saqlashga harakat qiladi.

3-MAVZU. TARJIMA TARIXIDA TARJIMA MAKTABLARI FAOLİYATI

Eng qadimgi davrdan xii asrgacha bo'lgan tarjimachiligi

Ulug' mutafakkir olimlar Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Mahmud Koshg'ariylarni qadimgi madaniyatimizni boyitishda katta xizmat qilgan birinchi tarjimonlarimiz ham deb hisoblaymiz. Ular jahon faniga, matematika, astronomiya, falsafa, tabiiyot, tilshunoslik bilimlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlari kabi, tarjimachilik ishlarida ham katta xizmat qilganlar. O'z asarlarini arab tilida yozgan bu ulug' siymolar grek, hind, fors tillariga ham birmuncha asarlarni tarjima qilganlar.

O'rta Osiyoning mashhur faylasufi Forobiyning (873— 950) zakovati, talanti, ayniqsa diqqatga sazovordir. U bir necha Sharq tillarini, shu jumladan arab tilini o'z ona tiliday bilgani holda, yunoy falsafasini o'rganish zarur bo'lib qolgani uchun yunon tilini ham bilib oldi.

«Forobiy grek olimlarining asarlarini asl nusxasida o'qib, ularning ko'piga, masalan, Aristotelning «Metafizika», «Fizika», «Meteorologiya»siga va logika sohasidagi **asarlariga, grek avtorlarining etika**, psixologiya va tabiatshunoslik to'g'risidagi kitoblardan Ptolomey kabilarning traktatlariga sharhlar yozdi. Ayrim zarur kitoblarni grekchadan arab tiliga tarjima qildi». O'z davrining fan ahllari orasida Forobiya Aristoteldan so'nggi «al muallimus-soniy», ya'ni «ikkinchi muallim» degan juda yuksak baho berilgan edi.

Ulug' mutafakkir, butun dunyoga dong taratgan mashhur tabib, faylasuf va tilshunos olim Abu Ali ibn Sino o'zining tarjimai holida Forobiya yunon falsafasini o'rganganini qayd etadi. U mantiq, tabiiyot, riyoziyot (matematika) va jo'g'rofiya ilmlarini tahsil qilgan, so'ngra «Mo ba'dat tabiat» (Tabiatdan tashqari bo'lgan narsalar («Metafizika»)) kitobini o'qiy boshlagan. Biroq u dastlab kitobni o'qib tushunolmagan. Abu Ali ibn Sino bu murakkab kitobni qirq bir marta qayta-qayta o'qigan, hatto yod qilib olgan. Shunday bo'lsa ham u avtorning maqsadiga tushunib yetmagan. Nihoyat, bu tushunib bo'lmaydigan kitob ekan, deb umidini uzgan. Ana shundan keyingi tafsilotlarni Ibn Sino shunday hikoya qiladi:

“Qunlardan bir kun asr vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Unda bir dallol qo'liga muqovalangan bir kitobni tutib, uni maqtardi. U meni ham chaqirib, menga uni ko'rsatdi... Men bu ilmni bilishning foydasi yo'q, degan xayolda uning ko'rsatishi menga malol kelib, rad qildim. Dallol menga «bu kitobni mendan olgin, buning narxi arzon uch dirhamga sotaman; egasi buning puliga muhtoj, dedi. Men uni sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning «Metafizika» (Aristotelning “Metafizika”siga Forobiyning yozgan sharhi J. Sh.) kitobi maqsadlari haqida yozgan asari ekan. Uyimga qaytib, darrov uni o'qishga tushdim. «Metafizika» dilimda yod bo'lib qolgani sababli o'sha paytdayoq bu kitobning maqsadlari menga ochildi. Bundan juda xursand bo'lib ketdim. Forobiy Aristotel kitobiga sharh yozar ekan, uning asarining nozik tomonlarini to'g'ri tarjima qilib bergan. Yunon tilini yaxshi bilgan Forobiy uning boyligini arab tilida ham namoyon qildi va shu bilan birga, arab tilida ham chuqur falsafiy asarlarni yaxshi tarjima etish mumkinligini ko'rsatdi. Arab tilini ona tiliday bilgani, yunon tilidan tarjima etgan ulug' olim Forobiy fors tilida badiiy jihatdan yuksak falsafiy ruboiylar yozgan”.

Somoniylar davrida yashab ijod etgan **Abu Ali ibn Sino** (980—1037) Buxoroning Afshana qishlog'ida tug'ildi. U yoshlik yillaridayoq arab tilini o'rganib, o'zining tibbiy, ilmiy kitoblarini asosan shu tilda yezdi, she'rlarini esa fors tilida ijod qildi. Besh tomdan iborat «Alqonun fi-t-tib» («Tib qonunlari») nomli asari va tibbiyotga oid boshqa kitoblari olimni jahonga mashhur qildi. Bu monumental asar Yevropada XV asrda lotin tilida o'n olti marta, XVI asrda esa yigirma martadan ko'proq nashr etildi. «Tib qonunlari» Yevropaning boshqa tillariga ham tarjima etilgan. Abu Ali ibn Sino Yevropada *Avisenna* degan nom bilan dong taratdi. Ibn Sino Xorazmda bo'lganida Beruniy bilan tanishib, do'stlashdi.

Uning («Ash-shifo») nomli asari lotin tiliga ham tarjima etilib, Yevropada darslik qatorida o'qitilardi. Ibn Sinoning 300 ga yaqin ilmiy asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. U Sharq mamlakatlarining ko'p joylarida bo'ldi, arab, fors va turkiy xalqlari tilida bimalol gaplashar, unga tarjimon kerak emas edi. Bu esa tabib kishi uchun ulug' fazilat edi.

“Al qonun fit-tib” asari: Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildlik “Al-qonun fit-tib” (Tib qonunlari) nomli qomusiy asari dunyoga mashxurdir.

Asarda kasalliklarning kelib chiqish sabablari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlariga katta ahamiyat berilib, asar tarjimalarida ham xuddi shu asosiy jihatlar mavjud **G'arb tillariga tarjimalari:** “Al-qonun fit-tib” qomusiy asarining g'arb tillariga tarjimasi XII asrdan boshlangan. Asar ilk marotaba XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan.

Keyingi tarjimalar: XIII asrdan boshlab Ibn Sinoning bu asari avval ingliz tiliga, oʻrta asrlarning soʻnggi davriga kelib deyarli barcha yevropa tillariga, jumladan, nemis, fransuz tillariga ham tarjima qilingan. Asar to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qoʻllanma sifatida foydalanilgan.

Abu Ali ibn Sinoning zamondoshi, u bilan birga ishlashgan buyuk olim **Abu Rayhon Beruniy** (973—1048) Xorazmda tugʻilib, Abu Ali ibn Sinodan 11 yildan keyin vafot etdi. Beruniy davrida Xorazmda madaniyat oʻsgan va u yerda Sharqning mashhur olimlari toʻplanib, ilm-madaniyatni yuksaltirishga oʻz hissalarini qoʻshgan bir joy edi. Beruniyda favqulodda talant bor edi va u bu talantni yana ham oʻstirdi. Yosh vaqtidanoq arab, fors tillarini mukammal oʻrganib olgan Abu Rayhon Beruniy tez orada koʻzga koʻringan olimlardan biri boʻlib tanildi. U «Utmish avlodlarining yodgorliklari» nomli asarini arab tilida yozdi.

Beruniy «Hindiston» degan mashhur kitobini yozish uchun hind tilini oʻrganib oldi. Beruniy oʻz kitobini arab tilida yozar ekan, hindcha yozilgan kitoblardan foydalandi, hind tilidan kupgina materiallarni tarjima qildi.

Oʻzining yuksak talanti, ajoyib isteʼdodi bilan hammani qoyil qoldirgan, haliga qadar avlodlariga ulugʻ bir ibrat boʻlgan Beruniy hind tili, hind tarixi, hind fan-madaniyatini oʻrganishdagi qiyinchiliklarni yengib, hind madaniyati mutaxassisi boʻlganini yozadi.

Beruniyning aytishicha, u oʻzini hindlarning munajjimlari yonida ustoz oldida turgan shogirddek vazmin tutgan. Asta-sekin hindlarning tili, madaniyati va urf-odatlarini yaxshi oʻrganib olgan Beruniy ularga matematika fani asoslaridan tahsil beradigan boʻlgan. Ulugʻ olimning noyob talantidan va chuqur bilimidan hayratlangan hindlar unga «devonavor» taajjub va havas bilan qarar, undan foydalanishga harakat qilar edilar. Hindlar Beruniyning matematika sohasidagi bilimi, oʻlchovlar sohasidagi kashfiyotidan voqif boʻlib, uni hatto *sehr*gar deb eʼlon qishshshlariga sal qolgan. Hind olimlari oʻz tillarida Beruniyni «daryo» debagan.

«Bu til (hindi tili J. Sh.) arabchaga oʻxshash uzun va kengdir. Bu tilda bir narsa bir qancha yasama soʻzlar bilan ataladi yoki koʻp narsalarga birgina ism beriladiki, alohida aniqlovchi sifatlersiz soʻzning maʼnosini aniqlab boʻlmaydi. Faqat soʻzning borishidan xabardor, gapning oldi-ketini tekshirib boruvchi kishigina tushuna oladi. Holbuki, bu xususiyat tilda kamchilikdir. Soʻng bu tilda bozorchiarga xos deyarli ahamiyatsiz soʻzlar ham koʻpdir. Shu bilan birga, sarf qoidalariga muvofiq soʻz yasashda fasihlik holatlari barobarida nahvning nozik nuqtalariga javob beruvchi, ilmiy va badiiy talablarni qondiruvchi soʻzlar ham bordir. «Pekin bularni fozil kishilardan oʻzga kishilar tushunmaydi. Soʻng u tilda baʼzisi arab ham fors tili harfiga toʻgʻri kelmaydi va oʻxshamaydi. Ularning tovushlarini quloqlarimiz ayira olishi qiyin boʻlganiday, tilimizda talaffuz qilish ham ogʻirdir. Shuning uchun oʻzimizning harflarimiz bilan ularning soʻzlaridan bir narsani isbot qilish mumkin boʻlmaydi, bir narsaning isboti uchun ularning yozuvlaridagi nuqta va alomatlarini oʻzgartish yoki oʻzimizga aniq boʻlganbelgilar qoʻllashga majbur boʻlamiz. Buning ustiga nusxa koʻchiruvchi kotiblarning ahamiyat bermasligi hamda ularning baʼzi birlarining beparvoliklari natijasida kitob birinchi yoki ikkinchi koʻchirishda buziladi. Natijada, uning mundarijasi na oldingilar va na soʻngilar tushuna olmas bir holga oʻtib, yangi soʻz boʻlib qoladi.

4-MAVZU. XII-XV ASRLAR TARJIMACHILIGI

Shunday hollar boʻladiki, ularning oʻz ogʻizlaridan eshitilgan soʻzlarni oʻzlariga qaytarib soʻzlansa, tushuna olmay qoladilar, zoʻr bilan tushunadilar. Mana shu ahvol u tilda soʻzlarning talaffuzi qanchalik nozik ekanini koʻrsatish uchun yetarlidir». Beruniy hind tilining musiqiyliigi, koʻp kitoblarning nazm bilan yozilganini qayd etadi. «Ularning (hindlarning J. Sh.) kitoblari oʻz zavqlariga muvofiq turli vazifalarda nazm bilan yozilgandir. Bundan maqsadlari asarni oʻz holida va aniq oʻlchovida saqlashdir. Chunki nazm Beruniy, Hindiston («Beruniy Oʻrta asrning buyuk olimi» toʻplamidan), 1950, 179-bet.

Asarlarda orttirish, kamayish orqasidagi buzilish tezroq maʼlum boʻladi, yodlash oson boʻladi. Hindlar yozuvga emas, balki yod oʻqishga asoslanadilar. Maʼlumki, nazm asarlar vaznini toʻgʻrilash, buzilgan joylarini tuzatish, kamchi-liklarini toʻldirish uchun zarur boʻlgan bir tartibdir».

Abu Rayhon Beruniy tarjimon va tarjimashunos sifatida Ulugʻ faylasuf, tarixshunos, matematik olim Abu Rayhon Beruniy til masalalariga ham katta eʼtibor bilan qaragan va ayniqsa, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish ishidagi qiyinchiliklarni har taraflama koʻrsatib bergan. Hind tilini oʻz ona tili kabi bilish uchun, albatta, Beruniy bir qancha tekst va asarlarni tarjima etib, zoʻr qunt bilan mashq qilgan. Turli janrlarga oid 150 ga yaqin asar yozgan Beruniyning hindchadan va boshqa tillardan qilgan tarjimalari koʻp. Lekin, baxtga qarshi, ularning koʻplari bizning zamonamizgacha yetib kelmagan.

Hindlarga g'azavot e'lon qilgan jahongir Maxmud G'az-naviyga qarshi Beruniy hind xalqiga hurmat bilan qarab, har qanday zo'rliq qilich va shamshirlar o'rniga madaniy aloqani kuchaytirish tarafdori bo'lib chiqdi. Xalqlar o'rtasida do'stona aloqa o'rnatishning katta omillaridan biri tarjima ekanini juda yaxshi bilgan Beruniy, jumladan Hindistonni o'rganish va hind xalqi yaratgan ilm-fan yangiliklarini targ'ib qilishda asosiy vosita bo'lgan tarjimachilik ishidan keng foydalandi. U o'nlab asarlarni tarjima qilib, uning prinsiplari haqida o'zining fikrlarini bayon qildi.

«Mening butun orzu-niyatlarim, jonu dilim bilimlarni targ'ib qilishdan iborat bo'lib qoldi, zeroki men bilim to'plashga bo'lgan hoyu-havas davrini bosib o'tgan edim, bu esa men uchun buyuk bir baxt edi. Haqiqiy voqif bo'lgan kishi mening hind tilidan musulmonlarning tasavvuriga muqobil yoki zid narsalarni uzluksiz tarjima qilganim va bu sohada hafsala qilish vaqt ajratganim uchun meni ayblamas. Ammo meni adbiyot bilan ayblovchi kishi meni nodon hisoblab, asarlarimni o'zi bilganicha buzib talqin qiladi». Beruniy matematika va astronomiyaga taalluqli juda ko'p kitoblarni tarjima qilgani haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, u taniqli hind faylasuflarining asarlar to'plamlarini ham ag'daradi.

«Men ilgari arab tiliga ikki kitobni tarjima qilgan edim, uning biri «Sankhya» nomidagi kitob bo'lib, unda olamning boshi va yaratilishi haqida tasnif beriladi, ikkinchisi esa jonning jismdan ozod bo'lishi haqida yozilgan «Patanjala» nomi bilan mashhur bo'lgan kitobdir».

Beruniy arab, hind, fors tillaridan tashqari yunon va suriya tillarini ham bilgan. Ulug' olim o'zi tarjima etgan asarlariga katta mas'uliyat bilan qarab, ularning to'g'ri va aniq bo'lishiga ahamiyat bergan. Beruniyning hind tilidan arab tiliga tarjima qilgan va xozircha fan olamiga ma'lum bo'lgan asarlari shulardir:

- ✓ Khandakhadyaka («al Arkanda jadvali»).
- ✓ Brahmasiddihonta (matematikaga oid kitob).
- ✓ Ikkita Balian butparasti haqida hikoya.
- ✓ Barohamihira.
- ✓ Nilufar haqida hikoya.
- ✓ Kapayara (kasallar haqida yozilgan kitob).
- ✓ Sankhya (falsafaga oid kitob).
- ✓ Patanjala (falsafaga oid kitob).

Beruniy hind hikoyalari to'plami «Kalila va Dimna» asarining tarjimasidagi xato-nuqsonlarni aytib, o'zi shu asarni qayta tarjima qilishga orzumand ekanligini bildiradi:

«Bizda «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo'lgan «Panchatantra» kitobini tarjima qilishni juda ham istar edim. U Abdulloh al Muqaffa kabi, asarni buzmay tarjima qilishlariga ishonib bo'lmaydigan kishilar tomonidan hind tilidan forschaga, so'ngra fors tilidan arabchaga o'girilgan. Ibn Muqaffa diniy e'tiqodi mustahkam bo'lmagan kishilar orasida shubha tug'dirib, ularni manixeizm ta'limotiga ishonishga moyil qilish maqsadida Barzuy haqidagi bobni asarga qo'shgan. Binobarin, uning qo'shgan narsalari qanchalik shubha tug'dirsa, uning tarjimasi ham shunday shubhadan xolizmas» (166-bet).

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning zamondoshi, XI asrning atoqli lingvist olimi Mahmud Koshg'ariy ham ilk tarjimonlarimizdan biri deb ayta olamiz.

Asrlar aro yodgor bo'lib qolgan bebaho uch tomlik «Devonu lug'oti-turk» («Turkiy so'zlar devoni») Mahmud Qoshg'ariyning ulug' iste'dodidan dalolat beradi. Bunday ajoyib asarni bino qilar ekan, u juda ko'p turkiy so'zlarni arabchaga tarjima etib, ularning nozik tomonlarini ustalik bilan talqin qilib berdi. Har bir leksikograf olim, o'z yo'li bilan, kuchli tarjimon hamdir. Zotan, lug'at tuzuvchi kishi bir necha tilni mukammal bilgan bo'lishi keraq Turkiy so'zlar devonini arab tilida yozgan Mahmud Qoshgariy siymosida buni yaqqol ko'ramiz.

«Men, deb yozadi Mahmud Qoshg'ariy, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning (qirg'izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim, bo'lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay tilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim».

Bundan to'qqiz yuz yil ilgari turkiy so'zlarni, maqol, matal, she'r parchalarini birinchi marta arabchaga tarjimasi bor.

Mahmud Koshg'ariyning asl ismi Mahmud Ibnulhusayn ibn Muhammadil Koshg'ariy bo'lib, uning bobosi Qashqarda tug'ilgan bo'lsa ham, ammo u asosan Bolosog'unda yashagan. Ba'zi manbalarda Koshg'ariyning to'liq ismi Shamsiddin Mahmud Ibn Husayn tariqasida keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy

taxminan 1028-1037 yillar o'rtasida Qoshg'ar shahrining janubi-g'arbidagi Upol qishlog'ining Ozig' mahallasida tug'iladi.

U qoraxoniylar hukmdorlaridan Yusuf Qodirxonning evarasi. Otasi Husayn ibn Muhammad (Qodirxonning nevarasi) Arslon elig nomi bilan 1056-1057 yillarda Barsxon amiri bo'lgan. Mahmudning ona tomondan buvasi Xo'ja Sayfiddin buzrukvor ham o'qimishli kishi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy arab, fors, rumoniy kabi 8-9 tilni mukammal zallagan. U qandaydir bir qirg'in paytida ota yurtini tashlab chiqib kegadi, ko'p o'lkalarni kezadi va 1118 yilda Qashg'arga qaytib kelib madrasada dars beradi.

97 yoshida (milodiy 1126 yilda) vafot etadi va O'poldagi ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Maqbara hozirgacha «Hazrati Mullom mozori» nomi bilan mashhur. M, Koshg'ariy ilk geograf, botanik, zoolog, turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim, folklorshunos, elshunos (etnograf), adabiyotshunos, shoir, tarixchi va qomusiy olimdir. Uning «Javohir-un nahv fi lug'otit turk» («Turk tili sintaksisi qoidalari») asari topilmagan.

5-MAVZU. XVI-XVIII ASRLAR TARJIMACHILIGI

Shariat qonunlariga oid «Tarjimai Barchandiy sharhi «Muxtasarul-viqoya» Barchandiyning «Muxtasar viqoya» sharhining tarjimasini] asarining ikkinchi jildi tarjima bo'lgan. Bu kitob hijriy 1311 yili domla Bekmuhammad tomonidan tarjima qilinib, o'sha yili ko'chirilgan, asarning hajmi 496 bet. Bu qo'lyozmaning ikki nusxasi Sharqshunoslik instituta fondida mavjud.

Garchand revolyusiyaga qadar «Qur'on» o'zbek tiliga tarjima etilmagan bo'lsa ham, uning ba'zi bir tafsir, sharhlari ag'darilgan edi. Masalan («Tafsiri «Qur'on») 1261 yilda ko'chirilgan, tarjimoni noma'lum. Surayi Maryamdan surayi maloikaga qadar bo'lgan tafsir ham o'zbekchaga ag'darilgan, hajmi 248 bet. Bunday tafsirlar fors-tojik tiliga ham tarjima qilingan. Bundan tashqari, Abdurahmon Jomiyning tafsiri ham bor.

«Qur'on»ning «Baqra» surasidan «Moida» surasiga qadar fors va o'zbek tiliga tarjimasini bor. Uning tarjimoni, qachon tarjima qilingani ham ma'lum emas, hajmi 207 bet.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoro, Toshkent va fargonada arab, fors-tojik tillaridan o'zbek tiliga tubandagi badiiy asarlar tarjima qilindi:

(«Jangnomai Abu Muslim») asarining tarjimasini hijriy 1332 yilda mulla Pardaboy tomonidan ko'chirilgan (236 bet), tarjimoni va qachon tarjima qilingani ma'lum emas.

Shoir Xiromiy xind shoiri Xisrav Dehlaviyning «Chor-darvesh» nomli asarini she'riy yul bilan erkin tarjima qilgan. Bu qo'lyozma (Chahor darveshi» Xiromiy») degan nom bilan 1272/1855 yilda ko'chirilgan, hajmi 270 bet.

«Chor darvesh»ni shoir Siddiq ham nasr va nazm aralash tarjima qilgan. Bu tarjimadan ba'zi bir parchalar va Xiromiy tarjimasidan ayrim namunalar «O'zbek adabiyoti» to'plamining IV tom, II kitobida bosilgan.

«Kitobi chahor darvesh» (To'rt darvesh kitobi) yoki «Qissai Chahor darvesh» (To'rt darvesh qissasi)] shoir Xisrav Dehlaviyning asari bo'lib, uni kimdir tojik xalq tilida sodda qilib qayta ishlagan. Bu variant da hikoyalar she'riy parchalar bilaQo'shib beriladi. Asar o'zbekchaga ham tarjima qilingan, ammo tarjimonning nomi ma'lum emas.

Biz yuqorida Barxurdor bin Mahmud turkmani Faraxiy Mumtozning «Mahbul-qulub» Qo'ngi-«Boburnoma tarjimalari» XVI asr Hindiston tarixiga oid («Tabaqoti Akbarshohiy») kitobini Ogahiy o'zbek tiliga tarjima qilgan. Muhammad Mehdiy Astrobodiy bin Muhammad Nosir 1736—1747 yillar ichida hukmronlik qilgan Nodirshohning tarixini yozgan. Bu asar («Tarixi jahonkushoyi Nodiri») yoki («Tarixi Nodiri») deb ataladi. Uni Ogahiy fors tilidan o'zbekchaga tarjima etar ekan, «Tarixi Nodiri» deb qisqartib olgan. (Ikkinchi qo'lyozma nusxasi 1227 raqam bilan Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda).

XVIII asrning boshlarida Muhammad Yusuf Munshi bin xo'ja Baqo yozgan («Tarixi Muqimxoniy») nomli asarni Ogahiy tarjima qilgan. Shoir o'zining devoniga yozgan muqaddimasida bu kitobni («Tazkirai Muqimxoniy») nomi bilan tarjima qilganini aytib o'tadi. Atoullo bin Fazullo Husayniy («Ravzatul-ahbob»), varaqlar. Usmonli turk tilidan tarjima qilingan katta asarlardan biri Ibrohim Haqqiyning («Tarixi umumiy») nomli asaridir. Bu asar Istanbulda 1889 yilda bosilgan, uni 1908 yilda domla Ro'zmuhammad Xorazmiy Firuzning topshirig'i bilan tarjima qilgan.

Buxoro tarixiga oid bo'lmish «Abdullonoma» ba'zan («Sharifnomai shohiy») deb ham ataladi) nomli kitob ham o'zbek tiliga ag'darilgan. Afsuski, tarjimonning nomi ko'rsatilmagan.

Muhammad Amin bin Muhammad Zamoni Buxoriyning Buxoro tarixiga oid «Muxitut-tavorix» tarjimasini (Tarixlar okeani) nomli ikki tomndan iborat asari ashtarxoniy davrida bo'lib o'tgan tarixiy

voqealarni talqin qiladi. Bu kitobni Muhammad Rafi' oxun Xorazmiy fors tilidan o'zbekchaga o'giran. Qo'lyozma 1320/1902 yilda ko'chirilgan. "Muntaxabut-tavorix" (Terma tarixlar), «Intixobut-tavorix" (Terma tarixlar) deb yozilgan kitobning fors tilidan o'zbekchaga tarjimasidir. Bunda kitob avtor hoji Muhammad Hakimxon bin Said Maxsumxon qadim tarixdan tortib to Otaliqxon (1842—1845) vafotiga qadar bo'lgan voqealarni tasvirlagan. Qo'qon xonlari haqida ham ko'pgina tarixiy materiallar bor.

Komil Nishonchizoda Ahmad o'g'lining (hijriy 1031 yilda vafot qilgan) «Mir'otul-koinot» (Koinot oynasi) nomli usmonli turk tilida yozilgan tarixiy kitobi Xorazmda hijriy 1327 yilda mulla Xo'janiyoz tomonidan tarjima qilingan va 1331 yilda ko'chirilgan. (Sharq qo'yozmalari to'plamida bu asarning na originali va tarjimasini haqida ma'lumot berilmagan). "Muzakkarul-axbob" ("Yaxshi ko'rganlar haqida eslatma") nomli asarning tarjimasini haqida hamda Navoiydan keyingi davrda yashagan fors-tojik shoirlarining tarjimai hollari beriladi. Shoir fors tilidan o'zbekchaga shu asardan bir parcha tarjima qilgan. Fors-tojikchadan o'zbek tiliga o'girilgan tarixiy asarlardan yana biri Muhammad bin Saxaniy Ravzatul-munozir") nomli asari bo'lib, hijriy 1324 yilda o'zbekchaga agdarilgan, ammo kim tarjima qilgani ma'lum emas, hajmi 240 bet. Abdullo-bin. Muhammad bin Ali Nasrullohiyning umumiy tarixga oid "Zabdatul-osor" (Asarlar qaymog'i.) nomli asar o'zbek tiliga sakkizinchi bo'limdan, boshlab tarjima qilingan. Asar 1500—1510 yillarda hukmronlik qilgan Shayboniyxonga qarshi bo'lgan kurashlar tarixini xikoya qiladi. Kitobning tarjimoni noma'lum. Uni Ahmad Ali Joniy Xo'jandiy, Valadi hoji Sangin ko'chirgan. Bu asar haqida V. V. Bartold o'zining «1902 yilda Turkistongv bo'lgan komandirovkaning hisoboti" degan ishida ma'lumot berib o'tadi.

Abduraxmon bin Husanning "Ajoyibul-osor" (Ajoyib asarlar) nomli to'rt jildidan iborat tarqxiy asari o'zbek tiliga to'la agdarilgan - birinchi va ikkinchi jild bir muqovada, hajmi 708 bet. Uchinchi va to'rtinchi jild ikkinchi muqova ichida berilgan, hajmi 445 bet. O'zbekchaga tarjima qilingan nusxalar hijriy 1327 yilda ko'chirilgan, ammo tarjimonning ismi ko'rsatilmagan. (Bu asarning asl nusxasi va tarjimalari haqida Sharq qo'l yozmalari to'plamida ma'lumot berilmagan). Asarning asl nusxasi hijriy 1236 yilda yozilgan ("Nafoisul—maosir") Alouddavla bin Yahyo Sayfiy (al Kazviniy) 973-982/ 1565-1575 yillar mobaynida tuzgan she'riyat antologiyasi bo'lib, Hindiston podshosi Akbarga- bag'ishlangan. Unda o'sha davrdagi shoirlarning tarjimai hollari va tarixga oid qimmatli fikrlar bor. Asar fors tilidan o'zbekchaga Xorazmda XIX asrning oxirida tarjima qilingan. Hijriy 1321 yilda mulla Muhammad Sharif xo'ja valadi Muhammad Yusuf ko'chirgan, hajmi 229 bet tarjimonning ismi noma'lum.

Samarqand tarixiga oid («Samariya") asarini Mir abu Tohir xo'ja Samarqandiy o'tgan asrning 30-yillarida yozgan, uni o'zbekchaga Abdulmo'min Sattoriy tojikchadan ag'dargan. Tarjimini mashhur adib Sadridin Ayniy tahrir qilgan. Qo'lyozma 178 bet bo'lib, kirish so'zi, izoh va xotima bilan berilgan. Bu asarni V. L. Vyatkin rus tiliga tarjima qilgan. Asarning tojikcha tekstini prof. Veselovskiy nashrga tayyorlagan va « — Samariya (nochnaya beseda), avtor Abu-Taxyir Veled kazn Abu Sa'id, 1322 po xidjre (1904)" Degan nom bilan nashr qildirgan.

V. L. Vyatkinning ruscha tarjimasini 1899 yili Samarqandga bag'ishlanib chiqqan to'plamda bosilgan edi.

“Shohnoma” tarjimasini hususida

Shoislom Mahmudovich Shomuhamedov sharqshunos olim, filologiya fanlari doktori , professor, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan fan arbobi, Xalqaro Firdavsiy mukofoti sovrindori

1921-yil 16-aprelda Toshkent shahrida tavallud topgan. Sh.Shomuhamedov 1939-yili yengil sanoat tehnikumini bitirib, Toshkent temiryo'lichilar institutiga o'qishga kirdi. U birinchi kursda o'qib turgan davrida armiya safiga chaqirildi va 1939-yildan boshlab Toshkent harbiy piyodalar maktabida kursant bo'lib o'qidi. Mazkur bilimgo'hnini 1941-yilda bitirib, urushga ketdi.

Qattiq janglarning birida Sh.Shomuhamedov og'ir yaralandi va harbiy gospitalda davolanib chiqqach, harbiy komissariyatda, chegara soqchilari safida xizmatni davom ettirdi. 1947-yili harbiy xizmatdan qaytgach, O'rta Osiyo davlat universiteti sharq fakultetiga o'qishga kirdi va uni 1952-yilda tugatdi. Bo'lajak olimga fors adabiyotidan tadqiqot mavzusi berilib, aspiranturaga qoldirildi. O'sha davrdan boshlab hozirgi kunga qadar Sh.Shomuhamedovning butun ilmiy-pedagogik faoliyati, ijodi mana shu fakultet bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi.

Sh. Shomuhamedov 1957-yilda "Progressiv fors yozuvchisi va shoiri Ehson Tabariyning ijodi " mavzusida nomzodlik dissertatsiyani himoya qildi. 1968-yili esa "Fors-tojik klassiklari ijodida gumanistik g'oya taraqqiyoti masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va professor(1970-y.)lik ilmiy unvoniga erishdi.

Sh.Shomuhamedov olim, tarjimon va shoir sifatida 40 yil davomida barakali ijod etib, 76 ta kitob yaratdi. Bulardan 21 tasi klassiklar va hozirgi zamon Eron adabiyoti namoyandalari ijodi haqidagi tadqiqotlardan, 10tasi hikoyalar va she'rlar to'plamidan, 5tasi fors-tojik adabiyoti klassiklari asarlaridan qilingan tarjimalaridan iborat.

Sh.Shomuhamedov ning qator asarlari Amerika, Afg'oniston, Pokiston, Chechoslavakiya, Bolgariya kabi chet mamlakatlarda ham chop etilgan.

Asosiy ilmiy asarlari.

1. Ehson Tabariy , T., 1959.
2. Umar Xayyom (hayoti va ijodi), T., 1962.
3. Abdurahmon Jomiy (hayoti va ijodi) T., 1963.
4. Fors-tojik adabiyoti klassiklari, T., 1963.
5. Sa'diy Sheroziy (hayoti va ijodi) T., 1964.
6. Hofiz Sheroziy (hayoti va ijodi) T., 1965.

Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" kitobi rustamona jasorat mahsulidir. "Shohnoma" asari jahon adabiyotida eng katta epik doston

Insoniyat badiiy fikrining ulug' mevasi bo'lgan Firdavsiy "Shohnoma"si 60 ming baytdan iborat. U jida katta afsonaviy va tarixiy hujjatlarni qamrab olgan. Unda 50 podsholikdan iborat 4 sulolaning mufassal tarixi buzilmas mantiq va tartib bilan bitib berilgan.

"Shohnoma"ga formal qaraganda undagi qissalar shohliklarga bo'linib olib boriladi. O'zi ham "Shohlar haqida kitob" deb ataladi. Ammo uning mazmuniga husgyorroq nazar tashlansa, uning xalq hayolida yaratilgan va xalq qalbida ardoqlanib kelayotgan qadimiy qahramonlar, epik bahodirlar, oddiy mehnat ahli vakillari haqidagi qissalardan iborat ekanligini idrok etish unchalik mushkul emas.

Abulqosim firdavsiy nomi jahonga mashhur. Uning Yevropa kitobxonlari qalbini maftun etganiga ham ikki asrdan oshdi. Shrqda esa u ming yildan beri kishilar zavqi-shavqini qo'g'ab, fikru o'yi, orzu-umidlariga madad berib kelmoqda. Shoirga boqiy umr, nomiga bezavollik baxsh etgan asar uning "Shohnoma"sidir. U faqat forsiy tilda so'zlashuvchilar orasidagina emas, balki butun O'rta va Yaqin Sharq, bora-bora esa, butun jahon shuhratiga muyassar bo'ldi.

Firdavsiyning yoshi 60 ga yaqinlashganida o'z asaridagi lirik chekinishlaridan birida qarib qolganidan shikoyat qilib deydi:

*Falakdan o'tinchim bevafo olam,
Zulmidan necha yil omonlik topsam.
Bu qadimiy mashhur nomadan jahon,
Ahliga qoldirsam yaxshi bir doston.
Kim suxan mulkini aylasa obod,
Adolatda nomim etar erdi yod.*

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Sh.Shomuhamedov "Shohkitob va uning muallifi" Risola. Tosh.G'.G'ulom nash.-1992.
2. A.Firdavsiy "Shohnoma" tanlangan dostonlar. Tosh.G'.G'ulom san'at nash.-1984.
3. Sh.Shomuhamedov "Mumtoz Fors Adabiyoti (X-XV asrlar)" o'quv qo'llanma. Tosh-2011.

O'zbekistondagi tarjima maktablari

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlovchi xalqlar bir-biri bilan muomala qilganda tarjimon orqali ish bitkazganlar. Tarjimonsiz ish bitish qiyin bo'lgan. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda tarjimaga zarurat tug'ilgan.

Markaziy Osiyoning dastlabki tarjimonlari

- ☉ Abu Nasr Forobiy
- ☉ Abu Ali ibn Sino
- ☉ Abu Rayhon Beruniy
- ☉ Mahmud Qoshg'ariy
- ☉ Mahmud Zamaxshariy

1. **Forobiy** Aristotelning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya"siga sharhlar yozgan. Ayrim zarur kitoblarni grekchadan arab tiliga tarjima qilgan.

2. **Ibn Sinoning** 5 tomdan iborat “Alqonun fit-tib” nomli asari Yevropada XV asrda lotin tiliga 16 marta, XVI asrda esa 20 martadan ko’proq nashr qilindi. “Tib qonunlari” Yevropaning boshqa tillariga ham tarjima etilgan.
3. **Beruniyning** Arab tiliga qilgan tarjimalari
 - Khandakhadyaka (“al Arkanda jadvali”).
 - Brahmasiddihonta (matematikaga oid kitob).
 - Ikkita Balian butparasti haqida hikoya.
 - Barohamihira.
 - Nilufar haqida hikoya.
 - Kapayara (kasallar haqida yozilgan kitob).
 - Sankhya (falsafaga oid kitob).
 - Patanjala (falsafaga oid kitob).
4. **Qoshg’ariyning** “Devonu lug’otit turk” (“Turkiy so’zlar devoni”) asarini yozayotganda juda ko’p turkiy so’zlarni arabchaga tarjima etib, ularning nozik tomonlarini ustalik bilan talqin qilib berdi. Turkiy so’zlarni, maqol, matal, she’r parchalarini 1-marta arabchaga tarjima etgan.
5. **Zamaxshariy** “Muqaddimatul-adab” (Nafis so’zlarga muqaddima) degan arabcha va forscha lug’at tuzdi. Bu lug’at hozir O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida saqlanadi.

6-MAVZU. BILINGVIZM VA TARJIMA

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur, ta’bir joiz bo’lsa, u o’zbekning o’z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiydan tortib, barcha mumtoz shoirlarimiz uni o’zlariga ustoz deb bilishgan. XIV asr o’rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni – “Xusrav va Shirin”ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Oradan bir asr o’tgach, Haydar Xorazmiy xamsa asoschisining “Maxzan ul-asror” dostoniga javoban “Gulshan ul-asror” asarini yaratadi. Zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy “Haft paykar”ni erkin nasriy tarjima qiladi. “Iskandarnoma” dostoni ham o’tmishda ilmu adab ahlining diqqati-ni o’ziga jalb etgan. Jumladan, “Shohnoma” tarjimoni, shoir va adib Shohi Hijron “Qissai Doroi Zarrinkamar” asarida “Iqbolnoma”ning muxtasar mazmunini bayon etgan. Nurmuhammad Buxoriy, Mulla Fozil Xomushiyar ham Nizomiy “Xamsa”sini sharhlar ekanlar, “Iskandarnoma”ni batafsilroq tahlil qilishga harakat etishgan¹.

1947 yil Nizomiyning 800 yillik yubileyi sobiq Ittifoq miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan O’zbekistonda ham shoir “Xamsa”si dostonlari tarjimasidan namunalar – “Xusrav va Shirin” (Qutb tarjima-si), “Maxzan ul-asror” (Haydar Xorazmiy tarjimasi)², “Haft paykar” (Ogahiy tarjimasi) hamda “Layli va Majnun” (N.Oxundiy, Xislat va M.Muhammadjonovlar tarjimasi)dan parchalar Maqsud Shayxzoda so’zboshisi bilan alohida to’plam holida nashr qilindi³. Keyinchalik taniqli tarjimon, fors-tojik adabiyoti bilimdoni Shoislom Shomuhamedov shoirning 2 qasidasi, 20 g’azali, 8 qit’asi, 49 ruboiysi, 74 hikmati hamda “Maxzan ul-asror” va “Haft paykar” dostonlaridan parchalar tarjima qilib, “Sharq klassiklari merosidan” seriyasida chop ettirdi⁴. Fors-tojik shoirlari asarlarining o’zbekcha tarjimalaridan tartib berilgan “Injular ummoni” to’plamida Ganja pirining yana 2 g’azali⁵ va “Xusrav va Shirin” dostonidan Shirin ta’rifiga bag’ishlangan parcha Sh.Shomuhamedov tarjimasida berilgan⁶. Olimjon Bo’riev “Xusrav va Shirin” hamda “Layli va Majnun”, Jonibek Suvonqulov “Iqbolnoma” dostonlarini o’zbekchalashtirdilar⁷. Biz shoirning 15 ruboiysini o’z aruziy vaznida tarjima qildik⁸.

¹ Х о м и д и й Х. Ганжалик пир // “Сино” журнали, 2002 йил, 7-сон, 31-бет.

² Хайдар Хоразмийнинг “Гулшан ул-асрор” маснавийси “Махзан ул-асрор” дostonи таъсирида ёзилган мустақил асар бўлиб, у узок йиллар мобайнида янглиш равишда Низомий “Хамса”си илк дostonининг таржимаси ҳисобланиб келди ва унинг ушбу тўплагма кириб қолиши ҳам шу хато қарашлар натижасидир. – Э.О.

³ Қаранг: Н и з о м и й Г а н ж а в и й. Гулдаста (“Панж ганж”дан парчалар). – Тошкент, 1947.

⁴ Қаранг: Низомий шеърятдан. – Тошкент, 1983.

⁵ Қаранг: Инжулар уммони. – Тошкент, 1988. 256-бет.

⁶ Ўша ерда. 272-275-бетлар.

⁷ Қаранг: Н и з о м и й Г а н ж а в и й. Лайли ва Мажнун. – Техрон, 2005; Н и з о м и й Г а н ж а в и й. Хusrav va Shirin. – Техрон, 2005; Н и з о м и й Г а н ж а в и й. Иқболнома. – Тошкент, 2009.

⁸ Қаранг: Донишмандлар тухфаси. Рубойлар (Эргаш Очилов таржимаси). – Тошкент, 2009. 96-100-бетлар.

Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni tarjimasi bilan mashhur bo‘lgan va shu orqali o‘zbek mumtoz adabiyotidan o‘ziga munosib o‘rin egallagan. “Xusrav va Shirin” tarjimasi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan ozarbayjon olimi A. Tohirjonov u 1330-1336 yillarda yaratilgan, degan fikrni ilgari suradi. Doston tarjimasi amir Qutlu Xo‘janing tavsiyasi bilan 1383-1384 yillarda Misrda Berka Faqih ibni Barokaz Edgu Qipchoqiy tomonidan ko‘chiriladi. Bu qo‘lyozma 1914 yili Parij Milliy kutubxonasidan (inv.№ 312) topilib, ilmiy muomalaga kiritiladi va sharqshunoslar o‘rtasida mashhur bo‘lib ketadi. 1940 yilda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish komiteti tomonidan uning fotonusxasi olinib, Hodi Zarif uni nashrga tayyorlagan. Bu nusxa hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida saqlanadi. 1958 yilda polyak sharqshunosi A.Zayonchkovskiy tarjimani faksimile va transkripsiyasi bilan Varshavada nashr ettirgan.

Qo‘lyozma 120 varaq (240 bet) bo‘lib, 4750 baytni o‘z ichiga oladi. Shundan 4685 bayti Qutb qalamiga mansub bo‘lib, qolgani kotib tomonidan qo‘shilgan. Doston 91 bobdan iborat. Holbuki, Nizomiy dostoni 102 bob bo‘lib, 6 mingdan ortiqroq baytni o‘z ichiga oladi. Tarjimon asliyat mazmunini, syujetini saqlab qolish bilan birga, uni ancha erkin tarjima qiladi, o‘z davriga moslashtiradi. O‘sha davrda badiiy tarjima prinsiplari shunday bo‘lib, tarjimon tarjimani ijodiy ish sanab, unga xohlagancha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin bo‘lgan. Jumladan, Qutb ham asar muqaddimasiga “Shahzoda Tinibekxon madhi”, “Malika marhuma Xonmalik madhi”, “Kitob nazm qilmoqqa sababi bayon ayur” boblarini qo‘shadi. Ayni paytda, dostonning umumiy syujetiga aloqasiz hisoblaganidan bo‘lsa kerak, “Chihil qissa az “Kalila va Dimna” (“Kalila va Dimnadan qirq qissa”), “Natijai afsonai Xusrav va Shirin” (“Xusrav va Shirin afsonasining natijasi”), “Me‘roji Muhammad” (“Muhammad Me‘roji”), “Dar nasihati farzandi xud Muhammad” (“O‘z farzandim Muhammadga nasihat bayonida”) kabi qator boblarni qisqartiradi, ayrim boblarni ixchamlashtirib, bir-biriga qo‘shib yuboradi. Lekin “Qutb tarjima qilganda voqea va syujetni qisqartirmaydi, balki bularga xalal yetkazmaydigan darajada boblarni bir-biriga qo‘shgan, aniqrog‘i, boblarning nomlarini o‘zgartirgan, xolos. Masalan, asliyatdagi: “53-bob. Ogoh shudani Xusrav az holi Farhod”, “54-bob. Talab kardani Xusrav Farhod”, “55-bob. Munozarai Xusrav bo Farhod” degan uch bobni Qutb ikki bobga keltirgan: “52-bob. Xusrav Farhod birla munozara qilib, Farhod tog‘ qazimoqligi so‘zi”. Lekin shu ikki bobda asliyatdagi uch bobning mazmuni, voqea va syujeti to‘la berilgan, hatto uch bobning satrlar soni ham saqlangan”⁹.

Qutb Nizomiy dostonidagi XII asr hayotiga oid ayrim lavhalarini tushirib qoldiradi, qisqartiradi yoki tahrir qiladi, ularning o‘rniga Oltin O‘rda hayotiga doir voqealarni kiritadi. Natijada, Sodir Erkinov ta‘biri bilan aytganda: “Doston bilan tanishgan o‘quvchi ko‘z o‘ngida sosoniy davlatining manzaralari emas, ko‘pincha Oltin O‘rda hayotini eslatuvchi taf-silotlar, O‘rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, turmush yo‘sinlarini ang-latuvchi misralar diqqatni tortadi. Saroy va u yerdagi rasm-rusumlar, kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi axloq-odob qoidalarini bevosita Qutb-ning o‘zi yashagan turmush sharoitini eslatib turadi”¹⁰. Qutb Nizomiy dostonidagi davlatlar va mamlakatlar nomini ham o‘ziga tanishlari bilan almashtiradi.

Dostonni erkin tarjima qilgani haqida shoirning o‘zi muqaddimada shunday degan edi:

Qazontek qaynab-ush savdo pishurdum,
Nizomiy bolidin halvo pishurdim.

Har qanday yetuk tarjima ham asliyatning o‘rnini bosolmaydi. Shuning uchun ham Qutb o‘z tarjimasini Nizomiy bolidan pishirilgan halvo deb ataydi.

Qutb Nizomiy dostoni asosida o‘zbekcha doston yaratish va uning vositasida o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini namoyon qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi va u buni muvaffaqiyat bilan uddalaydi. Bu tarjima o‘sha davr o‘zbek tilini o‘rganish uchun muhim manba bo‘libgina qolmay, balki o‘zbek adabiy tili va adabiyotining taraqqiyotida ham muhim rol o‘ynadi. Mahorat bilan nazm silkiga terilgan hassos misralar Qutbning o‘zbek tilining katta bilimdoni bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qutb tarjimasini Nizomiy dostoni bilan qiyoslar ekan, mutarjimning she‘riy salohiyati balandligi va u asliyatga qoyilmaqom tarjima yaratib, “Nizomiy panjasiga panja” ura olganligini ko‘ramiz.

Sayf Saroyining hayoti haqida yetarli ma‘lumot yo‘q. Uning qachon tug‘ilib, qachon vafot etgani ham ma‘lum emas. Lekin «Guliston»ning tarjima qilingan yili aniq (793/ 1391—92 yillar). Tarjimaning tili sodda va shirali bo‘lib, kishini o‘ziga jalb etadi, adabiyotchilarimiz, ham lingvist olimlarimiz uchun qimmatli material beradi.

Sayf Saroyi «Guliston» kabi dunyoga mashhur bo‘lgan asarni tarjima qilishga qo‘l urar ekan, buning naqadar mas‘uliyatli ish ekanini sezib, juda ehtiyotlik bilan ish boshlaydi va uning har bir satrini qunt bilan

⁹ Ша р и п о в Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. – Тошкент, 1965. 46-47-бетлар.

¹⁰ Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 1977. 211-212-бетлар.

tarjima qiladi. Natijada u katta g'alabaga erishib, o'zbek tilida durdona bir asarni avlodlarga tuhfa qilib qoldirdi. Sayf Saroyi juda kamtar tarjimon. U o'zini «jahon oriflarining xoki poyiman» deb ataydi:

Atoqli tarjimon Sayf Saroyi klassik fors shoiri Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarini to'la tarjima etdi. Bu asar 8 bobdan iboratdir. Birinchi bob — «Podshohlarning xislati» («Dar sifati podshohon»); ikkinchi bob — «Darveshlarning axloqi» («Dar axloqi darveshon»); uchinchi bob — «Qanoatning yaxshiligi» («Dar fazilati qanoat»); to'rtinchi bob — «Xomushlikning foydasi» («Dar favoidi xomushi»); beshinchi bob — «Ishq va yoshlik» («Dar ishq va-chavony») oltinchi bob — «Notavonlik va qarilik»

(«Dar za'f va piri»); yettinchi bob — «Tarbiyaning ta'siri» («Dar ta'siri tarbiyat»); sakkizinchi bob — «Suhbat Odobi» («Dar odobi suhbat»). Bu boblar bir necha kichik-kichik hikoyalarga bo'linadi. Hikoyalar o'z ichiga she'r yoki hikmatli so'zlarni oladi. Sa'diy bular orqali tarbiyaviy, didaktik fikrlarni badiiy yo'sinda beradi. Tarjimon Sayf Saroyi ham hamma boblarni va deyarli barcha hikoyat, she'rlarni ag'dargan. Lekin u tarjimada boblar nomini ko'rsatmaydi. Ba'zan tarjimon hikoyatlarni qisqartib yoki originalning to'la tushunarli bo'lishi uchun ayrim so'z va iboralarni qo'shadi, Tarjimon originaldagi «hikoyat» terminini o'zicha qoldirgan; tekstda she'r kelsa, uni katta harflar bilan alohida uqtirib ko'rsatgan; bundan tashqari, tarjimon «hikmat» terminini ham kiritganki, bu «qissadan hissa» mazmunini anglatadi.

1954 yilda Anqarada «Sevfi Sevari», «Gulistan terçiiimesi» asari bosilib, u bosh so'zdan tashqari 373 betni tashkil qiladi. Bosh so'zni prof. Fridun Nafiz yozgan, Anqarada chiqqan bu kitobda Sayf Saroyi tarjimasining qo'lyozmasi haqida bir qancha ma'lumot beriladi, lekin ular yetarli emas. Sayfi-Saroyi «Guliston-tarjimoni»

Sayf Saroyi' tarjima qilgan «Guliston» dostonining qo'lyozmasi Gollandiyadagi Layden kutubxonasida saqlanmoqda. Usha qo'lyozmadan olingan foto nusxa Til va adabiyot ilmiy-tekshirish, institutida mavjud. (Biz o'sha foto nusxadan foydalandik). Foto nusxaning sifati yaxshi emas, uning ko'p betlari yoyilib ketgan, xira, chalkash va aniq emas, o'qish uchun katta qiyinchilik tug'diradi.

7-MAVZU. XORAZM TARJIMA MAKTABI VA TARJIMASHUNOSLIK

Keyingi davrlarda bajarilgan tarjimalar haqida yozar ekanmiz, XIX asrning birinchi yarmida qilingan tarjimalar haqida alohida to'xtashga va ikkinchi yarmida tarjima qilingan asarlarni mustaqil o'rganishga to'g'ri keladi, chunki bu asrda Turkistonda, shu jumladan hozirgi O'zbekiston territoriyasida, juda ko'p tarixiy voqealar ro'y berdi va tarjima asarlarining soni va salmog'i ham ancha oshdi. Shu vaqtga qadar faqat arab, fors adabiyotidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan o'sha tillarga tarjima qilingan bo'lsa, endi bular bilan bir qatorda, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari rivojlandi. Bundan tashqari, o'zbek tilida yozilgan bir qancha she'riy asarlarni rus tiliga ag'darish ishlari ham boshlandi.

XIX asrning boshlarida O'rta Osiyoda mustaqil, bir-biriga itoat etmovchi Buxoro, Xiva, Quqon xonliklari hukmdon bulib keldilar, ular bir-birlari bilan territoriya talashib, mol-jon ustida urishib, uzaro janjallashib keldilar. XIX asr O'rtalariga kelib Quqon xonligi uz ichiga butun Farg'ona vodiysini, Pishpaq Avliyoota (hozirgi Jambul), Chimkent. Oqmachit shaharlarini, Issiqko'l va uning atrofini kurashib olgan edi. Buxoro territoriyasi janubda Badaxshon va Pomirga borib taqalsa, shimolda Orol dengizi buylarigacha chuzilgan edi (hozirgi Tojikiston ham Buxoroga qarardi). Xiva (Xorazm) xonligi ham Amudaryoning ung va chap tomonlarini egallab, Chorjuydan to Ustyurtgacha, Ashxoboddan to Orol dengizining shimoliy chegaralarigacha bulga« joylarni uz ichiga olgan edi. Xiva xonligi, bir tomondan, Qoraqum, ikkinchi tarafdan, Qizilqum urab olgan va shular o'rtasida qolgan kattakon voqea bulib, Xorazm xalqining o'ziga yarasha xususiyati, odatlari bor edi.

Quqon bilan Buxoro O'rtasida Uratpa va Darboz uchun, Buxoro bilan Xiva O'rtasida esa Marv shahri uchun janjal chiqdi, shuning natijasida qonli janglar boshlanib ketdi. Har uch xonlikda yashovchi xalqning iqtisodiy-maishiy ahvoli nihoyat darajada yomon, faqat bir turkum xon, bek, tura, boylargina mehnatkash xalq hisobiga boyib ketib, yaxshi hayot kechirar edi. Xalqning 99 protsenti savodsiz edi. Usha davrda xonliklar O'rtasida uzaro urush bulib turgan bir paytda, Farg'onaning talantli shoirlaridan bir qanchalari gunohsiz Halok buldilar. Masalan, 1842 yilda Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonni bosib olganda bir qancha gunohsiz odamlar qatorida Shoir Mohlaroyim — Nodirabegimni ham qatl qildi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va Buxoroda bir qancha shoir va adiblar yetishib chiqdi. Chunonchi, Farg'ona vodiysida Amir (Amiriy), Fazliy, G'oziy, Gulxaniy, Nodira, Mahzuna» Uvaysiy, Maxmur kabi atoqli o'zbek shoir va shoirlari o'zbek adabiyotini boyitdilar. Ularning ko'pchiligi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) she'r yozar edilar.

XIX asrning birinchi yarmida Xorazmda bir qancha badiiy-tarixiy asarlar tarjima qilindi. Bu faxrli ishni ham shoir, ham davlat arbobi Munis boshlab berdi.

Munis. Shoir Munisning asli ismi Shermuhammad bo'lib, Avazbey mirobning o'g'lidir. Munis 1878 yilda Xivadan 8 kilometr, masofada joylashgan Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik chog'laridayoq u tarix va adabiyotga qiziqib, tez orada o'z talantini namoyon qildi. Shoir, tarixchi, tarjimon bo'lib yetishdi. Muhammad Rahimxon I ning (1806—1825) topshirig'i bilan u Xorazm tarixini yoza boshladi. Intihosiga yetkazilgan bu kitobga «Firdavsul iqbol» degan nom berilib, undz 1812 yilgacha Xorazmda bulib utgan tarixiy voqealar qamrab olingan. Bu asar katta tarixiy kitoblar siklining qaldirg'ochi edi.

Munis bundan tashqari, ulug' bir ishni — Mirxondning bir necha tomli tarixiy kitobi — «Ravzatus-safo»ni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish ishini boshlab yubordi. Muhammad Rahimxon I hayot vaqtidayoq (1825 yilgacha) Munis bu kitobning birinchi jildini o'zbekchaga o'girib bo'lgan edi. Ikkinchi jild esa Olloqulixon vaqtida (1825—1842) tarjima etish ishiga kirishildi.

Munis shunday katta asarning tarjimasini boshlab berar ekan, boshqa tarjimonlarga ham ibrat bo'ladigan ulug' bir ishni bajardi. Munis «Ravzatus-safo»ning tarjimasini qay tariqada bulgani haqida shunday deb yozadi.

Munis o'sha vaqtda kasal bo'lib va boshiga ko'p og'ir musibatlar tushganiga qaramay, bu qiyin asarni tarjima qilganini bayon etadi. Ishga dadil kirishgan tarjimon birinchi tomni tamom qilib, ikkinchi tomning yarmiga yetganda, 1244/1829 yilda vabo kasalidan vafot qildi.

XIX asrning birinchi yarmida qilingan tarjimalardan biri «Chor darvesh» asaridir. Bu haqda «O'zbek adabiyoti» kitobida qisqagina ma'lumot berilgan: «Farg'onalik Siddiq degan kishi XIX asrning birinchi yarmilarida forscha «Chor darvesh» kitobini o'zbekchaga tarjima qildi».

XIX asrning birinchi yarmida tarjima etilgan asarlar tubandagilardir:

1. («Nasihatnoma»), Fariddin Attorning («Pandnoma») asarining tarjimasini bo'lib, 1255 hijriyda ko'chirilgan.

2. («Do'rul-majolisi») asarini mulla Rahmonquli qori tarjima etgan. 1238 yilda ko'chirilgan; 251 varaq.

3. («Maqomati xo'ja Zayniddin»). Tarjimoni Abulxalil, 1260 hijriyda o'chirilgan.

4. («Bahori donish»). Avtori Shayx Inoyatulla, buni Muhammad Qosim bin mulla Nurmuhammad Buxoriy tarjima qilgan. 1263 yili ko'chirilgan. Bu asar Xorazmda hijriy 1309 yilda ham tarjima etilgan, 245 bet.

5. («Tarixi Amir Temur tarjimasini»). «Zafarnoma» dan tarjima bo'lib, tarjima Xudoyberdi bin Qo'shmuhammad so'fi Xivaqiydir 1238 yilda ko'chirilgan. 212 bet. Shu kitobning 64-varag'ida tarjima Munis topshirig'i bilan bo'lganligi aytilgan.

6. («Jahonnamo tarjimasini»). Avtori mulla Kotib Chalabiy bo'lib, mutarjimi Mir Abulqosim xo'ja bin Mirbadal Boysuniydir. 1259 hijriyda turk tilidan fors-tojik tiliga tarjima qilingan.

7. («Hikoyatus-solihin tarjimasini») kitobining tarjimoni Tolibxo'ja bo'lib, Said Abdullo Xorazmiy ko'chirgan. Tarjima qilingan yili aniq emas.

8. («Qissasul-anbiyo»). Mashhur Xorazm yozuvchisi Rabg'uziyning o'zbek tilida yozilgan. «Qissasul-anbiyo» kitobi (1309—1310) fors-tojik tiliga ham o'girilgan bo'lib, tarjimoni ma'lum emas.

9. («Qissai mirza Hamdam»). Bu asar har ikki tilda (tojikcha va o'zbekcha) hijriy 1469 yilda ko'chirilgan.

Eng ko'p tarjima etilgan davr XIX asrning ikkinchi yarmi hisoblanadi. Bu vaqtda Xorazmda ham ilmiy, ham badiiy, ham tarixiy kitoblar tom-tomlab tarjima etiladiki, o'tgan asrlardagiga qaraganda ham son jihatdan, ham tarjima turlari jihatidan ko'p va ulardan tamom ajralib turadi. Tarjima tarixida alohida o'rin egallagan bu davr klassik shoir, ulug' tarjimon Ogahiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning shogirdlari Bayoniy, Rojii, Tabibiy kabilar tarjima fondiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi davridir. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlarining Rossiya bilan bo'lgan munosabatlari, ilg'or rus madaniyati, adabiyotining ta'siri va bu davrda qilingan tarjimalar, kuchli, zabardast, yetuk tarjimonlar haqida alohida to'xtashga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi va tarjima masalalari O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalar qadim vaqtdan boshlangan. Petr I vaqtida va, hatto, undan ilgariyoq Rossiya o'z tovarlarini O'rta Osiyoga yuborib, bu yerdan paxta, jun, ipak sotib olgan. Rossiyada XVIII asr oxirida kapitalizm kuchaya borgan edi. Uzaro iqtisodiy munosabatlardan, savdo-sotiqlardan faqat Rossiya emas, O'rta Osiyo xonliklari ham manfaatdor ekani hammaga ma'lum. XVIII asrda Xorazm xonligi va Buxoro amirligi Rossiya bilan mustaqil ravishda savdo aloqalarini kuchaytirib yubordilar.

Xorazm tarjima maktabi: tarixiy voqealar ro'y berdi va tarjima asarlarining soni va salmog'i ham ancha oshdi. Shu vaqtga qadar faqat arab, fors adabiyotidan o'zbek tiliga va o'zbek hududidan o'sha

tillarga tarjima qilingan bo'lsa, endi bular bilan bir qatorda, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari rivojlandi. Bundan tashqari, o'zbek tilida yozilgan bir qancha she'riy arlarni rus tiliga ag'darish ishlari ham boshlandi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va Buxoroda bir qancha shoir va adiblar yetishib chiqdi. Chunonchi, Farg'ona vodiysida Amir (Amiriy), Fazliy, G'oziy, Gulxaniy, Nodira (Mahzuna), Uvaysiy, Maxmur kabi atoqli o'zbek shoir va shoiralari o'zbek adabiyotini boyitdilar. Ularning ko'pchiligi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) she'r yozar edilar.

XIX asrning birinchi yarmida Xorazmda bir kancha badiiy-tarixiy asarlar tarjima qilindi. Bu faxrli ishni ham shoir, ham davlat arbobi Munis boshlab berdi.

Munis. Shoir Munisning asli ismi Shermuhammad bo'lib, Avazbey mirobning o'g'lidir. Munis 1878 yilda Xivadan 8 kilometr, masofada joylashgan Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik chog'laridayoq u tarix va adabiyotga qiziqib, tez orada o'z talantini namoyon qildi. Shoir, tarixchi, tarjimon bo'lib yetishdi. Muhammad Rahimxon I ning (1806—1825) topshirig'i bilan u Xorazm tarixini yoza boshladi. Intihosiga yetkazilgan bu kitobga «Firdavsul iqbol» degan nom berilib, undz 1812 yilgacha Xorazmda bulib utgan tarixiy voqealar qamrab olingan. Bu asar katta tarixiy kitoblar siklining qaldirg'ochi edi.

Munis bundan tashqari, ulug' bir ishni Mirxondning bir necha tomli tarixiy kitobi «Ravzatus-safo»ni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish ishini boshlab yubordi. Muhammad Rahimxon I hayot vaqtidayoq (1825 yilgacha) Munis bu kitobning birinchi jildini o'zbekchaga o'girib bo'lgan edi. Ikkinchi jild esa Olloqulixon vaqtida (1825—1842) tarjima etish ishiga kirishildi.

Munis shunday katta asarning tarjimasini boshlab berar ekan, boshqa tarjimonlarga ham ibrat bo'ladigan ulug' bir ishni bajardi. «Ravzatus-safo»ning tarjimasini qay tariqada bo'lgani haqida: Munis o'sha vaqtda kasal bo'lib va boshiga ko'p og'ir Musibatlar tushganiga qaramay, bu qiyin asarni tarjima qilganini bayon etadi. Ishga dadil kirishgan tarjimon birinchya tomni tamom qilib, ikkinchi tomning yarmiga yetganda, 1244/1829 yilda vabo kasalidan vafot qildi.

Xorazmda tarjima qilingan, tarixi-badiiy va falsafiy asarlar

- ⊙ “Mirotul-koinot” (Koinot oynasi) Xo'janiyoz hoji Xonqohiy Xorazmiy tarjimasini.
- ⊙ “Tarixi Tabariy” Bayoniy tarjimasini.
- ⊙ “Ravzatus-safo” (Safo bog'i) Munis, Ogahiy, Rojiy tarjima qilishgan.
- ⊙ Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini Munisning topshirig'iga binoan Xudoyberdi Qo'shmuhammad so'fi Xivaqiy tarjima qilgan.
- ⊙ “Ravzatul-mavozir” Xudoynazar Otaxonxo'ja ibn domullo Qalandar Muhammad Rahimxon I ning topshirig'iga binoan tarjima qilgan.
- ⊙ Eng katta asarlardan biri “Tarixi komil”ning 12 tomini Nurullo Isa oxun Muhammad Sharif oxun, domla Xo'ja oxun, Muhammad Rafi bin Nurullo kabilar tarjima qilishgan.
- ⊙ Ibrohim Haqqiyning “Tarixi umumiy” asarini domullo Ro'zimuhammad Xorazmiy tarjima qilgan.
- ⊙ Husayn Vo'iz Koshifiyning “Latoifut-tavoif” asarini Komil Xorazmiy tarjima qilgan.
- ⊙ Tabibiy “Yetti jom” va “Vomiq va Azro” asarlarini tarjima qilgan.
- ⊙ Rojiy Mirxondning “Ravzatus-safo” asarining IV tomini tarjima etgan.
- ⊙ Muhammad Rafi bin Nurullo mahdum “Tarixi komil”ning 2-jildini, “Tazkirai Davlatshoh” asarlarni tarjima qilgan.
- ⊙ Xuvodorning “Badoel-insho” asarini, “Qissai Mehru Moh”, Amir Xeraviyning “Haft kishvar” asarini Sanoiy tarjima qildi.
- ⊙ “Tarixi komil” asarini Habibiy tarjima qilgan.
- ⊙ “Tarixi farishta” asarini Muhammad Yoqub tarjima etgan.
- ⊙ Al-Tabriziyning “Mishkotul-masobih” asarini Xivaqiy tarjima etgan.

Xorazmda tarjima qilingan badiiy asarlar

- ⊙ “Shoh va gado”
- ⊙ “Yusuf va Zulayxo”
- ⊙ “Guliston”
- ⊙ “Ra'no va Zebo”
- ⊙ “Shayboniynoma”
- ⊙ “Haft paykar”
- ⊙ “Yetti jom”
- ⊙ “Qissai Mehri Moh”

Bayoniy tarjimalari

- ⊙ “Tarjimai tarixi Tabariy”
- ⊙ Darveshning “Sahoiful-axror” (Xabarlar sahifalari)
- ⊙ Atoullo bin Fayzullo Husayniyning “Ravzatul-axbob” (Do’stlar bog’i) asari
- ⊙ Binoiyning “Shayboniynoma” asari

Xorazm tarjima maktabida faoliyat yuritgan tarjimonlar

- ⊙ **Ogahiy**
- ⊙ **Munis**
- ⊙ **Komil Xorazmiy**
- ⊙ **Tabibiy**
- ⊙ **Bayoniy**
- ⊙ **Muhammad Yusuf Rojiy ibn Xo’jambari.**
- ⊙ **Muhammad Rafi bin Hurullo mahdum**
- ⊙ **Sanoiy**
- ⊙ **Habibiy**
- ⊙ **Mahammad Yoqub**
- ⊙ **Domla Otajon**

MUHAMMAD RIZO OGAHY

(1809 - 1874)

Hayoti va ijodi: Muhammadrizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy barakali ijod qilgan san’atkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi. U 1809 yil 17 dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog’ida Erniyozbek mirob oilasida tug’ilgan. 3 yoshligida otasi vafot etgan va uni amakisi Munis o’z tarbiyasiga oldi. Shoir boshlang’ich ma’lumotni Qiyotda olgan, keyin Xiva madrasalarida o’qigan.

1829 yilda Ogahiy amakisi Munisdan ajraldi, Olloqulixon uni Munis o’rniga mirob etib tayinladi. Shoir 1845 yilda otdan yiqilib, oqsaydigan bo’lib qoladi va 1857 yilda miroblik vazifasidan iste’fo beradi. Mukammal mustazod kashfiyotchisi bo’lgan Ogahiy 1874 yilda 65 yoshida vafot etgan.

Ogahiy ijodiy faoliyati davomida devon tuzdi, 19 ta asarni o’zbek tiliga tarjima qildi, 5 ta tarixiy asar yozdi. U shoir sifatida Navoiy an’alarini davom ettirdi. “Ta’vizul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devon tuzgan. Unda 18.000 misra she’ri jamlangan, shundan 1.300 misrasi forsiy she’rlari. U 20 ga yaqin she’riy janrlarda asarlar yaratgan.

O’zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon siyosatchi, tarixchi sifatida ham yorqin iz qoldirgan. U “Riyojud-davla” (1844), “Zubdatut-tavorix” (1845-1846), “Jome’ul-voqeoti Sultoniy” (1856), “Gulshani davlat” (1865), “Shohidi iqbol” (1873) kabi tarixiy asarlar yozdi. Bu asarlarda Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1843-1846), Muhammad Aminxon II (1846-1855), Sayyid Muhammadxon (1856-1865), Muhammad Rahimxon II (1865-1872) davridagi voqealar bayon qilingan. Mirxond, Xondamirning tarixiy asarlarini tarjima qildi.

Ogahiy tarjima maktabi yaratgan adib. Yigirmadan ortiq sharq mumtoz adabiyoti namunalari Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Ular quyidagilar:

- ❖ “Haft paykar” (nasr bilan) Nizomiy Ganjaviy
- ❖ “Guliston” Sa’diy She’roziy
- ❖ “Qobusnoma” Kaykovus
- ❖ “Ravzatus-safo” Mirxond
- ❖ “Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy” Muhammad Mahriy Astrabodiy
- ❖ “Badoe’ul-vaqoe” Zayniddin Vosifiy
- ❖ “Miftohut-tolibin” Mahmud G’ijduvoni
- ❖ “Taboqoti Akbarshohiy” Muhammad Muqim Hirotiy
- ❖ “Tazkirayi Muqimxoniy” Muhammad Yusuf Munshiy
- ❖ “Ravzatus-safoyi Nosiriy” Rizoqulixon Hidoyat
- ❖ “Axloqi Muhsiniy” Husayn Voiz Koshifiy
- ❖ “Zubdatul-hikoyat”, “Sharhi daloyilul-hayrot” Muhammad Voris
- ❖ “Yusuf va Zulayho” Jomiy
- ❖ “Shoh va gado” Badriddin Hiloliy

Tarixiy asarlari:

- ❖ «Firdavs ul-iqbol»
- ❖ «Zubdat-ut tavorix»
- ❖ «Gulshani davlat»
- ❖ «Riyoz ud-davla»
- ❖ «Jome ul voqeoti sultoni»
- ❖ «Shohidi iqbol»

Tarjima qilingan she'rlar

- ❖ «Ta'vizul-oshiqin» («Oshiqlar tumori» 19 janrdagi asarlar mavjud) devoni
- ❖ «Ustina» (rajaz bahrida yozilgan) she'ri
- ❖ «Bizki bukun...» she'ri
- ❖ «Arzimas» she'ri
- ❖ «Navro'z» she'ri
- ❖ «Choy» she'ri

- ❖ «Bo'lmasa bo'lmasun, netay» (Navoiy g'azaliga nazira, radd ul-matla', radif shakli va mazmuniy mukammallikni taminlagan)
- ❖ «Donoyi oliyjohtar» (davlatchilik, davlatni oqilona boshqarishdan, amaldorlar qanday bo'lishi kerakligidan bahs etuvchi g'azal)
- ❖ «Ogohnoma» qasidasi (M. Rahimxon II (Feruz) ga bag'ishlangan)

OGAHIYNING TARJIMONLIK MAHORATI

Klassik shoir, tarixchi, olim Ogahiy yigirmaga yaqin asarini tarjima qilganligi haqida o'zi quyidagicha ma'lumot berib o'tadi.

Faqirning turki tili bilan tarjima qilgan kitoblari: «Ravzatus-safo»ning ikkinchi daftaridan chahor yor izomning voqeasi, uchlanchi daftari, «Nodirnoma», «Zafarnoma», «Zub-Aatul-hikoyot», «Miftohud-tolibin», «Axloki Muhsiniy», «Vosifiy», «Nasihatnomai Kaykovus», «Salamoni Ibsoliy» Jomiy, «Gulistoni» Sa'diy, «Bahoristoni» Jomiy, «Rav-zatus-safoi» Nasiriyning birinchi daftari, «Daloilul-hayrat» sharhikim, rum turkidan chig'otoy tiliga o'tkarildi. «Tazkirai Muqimxoniy», «Tabaqoti Akbarshohiy», «Haft paykari» Nizomiy, «Hasht bihishti» Xisraviy, «Yusuf va Zulayxo» Jomiykim, manzum bo'ldi va «Shoh va gadoi» Hiloliykim, manzum bo'ldi⁶⁹. Bulardan o'n sakkiztasi mavjud, ikkitasi hali topilgani yo'q. Ulug' tarjimonning bizga qoldirgan yodgorliklari shulardir:

Sevimli tarjimon Ogahiy o'zbek tiliga o'g'irgan asarlar nihoyatda qiyin bo'lgan monumental asarlar edi. Tarjimon o'z umrining eng ko'p qismini va eng jo'shqin hayotini tarjimaga — buyuk san'atga bag'ishladi.

Ogahiy tarjima qilar ekan, mas'uliyat naqadar zo'r ekanini sezib, butun talant, kuchini shunga sarf etdi va natijada yaxshi va o'lmas tarjimalarni asrlarga yodgor qilib qoldirdi.

«Shoh va gadoi» asarini tarjima qilish sababini Ogahiy she'riy tilda shunday bayon qiladi:

Garchi Ogahiy o'z tarjimasini shoh Muhammad Rahimxon nomi bilan bog'lasa-da, aslida bu o'sha muhit taqozosi bo'lib, asl muddao boshqa tomonda edi. Ogahiy tarixiy-badiiy va axloqiy-falsafiy asarlarni tarjima etar ekan, hamma vaqt bir o'y, bir maqsad uning oldida ko'ndalang turar, u ham bo'lsa, o'zbek xalqiga xizmat etish edi.

«Firdavsul-iqbol», «Riyozud-davla», «Jomi'ul-voqeoti Sultoni», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol», «Zubdatut-tavorix» va bir qancha badiiy asarlar (devon, g'azaliyot, bayozlar)ni yaratgan Ogahiyning yana 20 ta fundamental asarni tarjima qilgani shoir ijodining naqadar barakali bo'lganligini tasdiqlovchi faktdir. Uning ijodiy parvozi, g'ayrati, shijoati va benihoya ishchanligini ko'rsatish uchun bundan ortiq dalil kerak bo'lmas.

Ogahiy o'z asarlarining litografiyada bosilganini ko'rmas, 65 yoshida, ya'ni 1874 yilda vafot etdi.

Ogahiy fors-tojik klassik shoiri Shayx Sa'diyning nasr va nazm aralash yozilgan «Guliston» asarini to'la-to'kis tarjima etdi.

Ogahiy Shayx Sa'diyning «Guliston» asarini tarjima etar ekan, o'zidan besh asr ilgari Sayf Saroyi tomonidan tarjima etilgan «Guliston»ning qo'lyozmasini ko'rmagan, buning asosiy sababi ham bor, u tarjimaning qo'lyozmasi Xorazmda yo'q edi.

8-MAVZU. XIX-XX ASR TARJIMACHILIGI TOSHKENT TARJIMA MAKTABI

Tarjima tarixining ba'zi bir nazariy masalalari tarjima san'atida ayrim umumiy va xususiy holatlar haqida

Tarjima san'atida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilina boshlagan davrdan to hozirgacha ikki tendensiya hukm surib, ularning tarafdorlari o'rtasida munozara davom etadi.

Birinchi tendensiya — erkin tarjima.

Ikkinchi tendensiya — aniq va to'g'ri tarjima.

Erkin tarjimada tarjimon o'z istagi bilan tarjima qilayotgan asarni o'zgartib, ba'zan unga hatto yangi boblar qo'shib, syujetlarni qisqartirib yoki kengaytirib beradi. Bunday tarjimada asarning nomini ham o'zgartirish hollari uchraydi.

Tarjima tarixida erkin tarjima qilish hollari tez-tez uchrab turadi. Bizningcha, «erkin» va «ijodiy» tarjima tushunchalarini bir-biridan farqlamoq kerak.

Ijodiy tarjima ilmiy aniq va badiiy muqobil-tarjima demakdir, ya'ni asarning ruhini, ma'nosini, obrazlarini to'la berish demakdir. Erkin tarjima etish tendensiyasi hech qachon ustun bo'lgan emas. Qadimgi tarjimonlar original asarga va uni ijod qilgan avtorga katta hurmat bilan karaganlar. Original asarning ma'nosi va strukturasini, syujet va kompozitsiyasini, xarakter va obrazlarini buzmasdan tarjima etishga tirishganlar. Badiiy jihatdan yuqori darajada tarjima etilgan asarlar uz qimmatlarini to'la saqlagan holda davr va asrlar osha bizga yetib keldilar.

XIX asrgacha bo'lgan tarjimalarning umumiy xususiyatlaridan biri shuki, tarjimonlarning ko'pchiligi shoir va adiblar bo'lib, ular badiiy, tarixiy-falsafiy asarlarni ham tarjima etganlar. Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, original tarixiy asarlar mualliflarining o'zlari ham ko'pincha shoir yoki adib bo'lganlar. Tarjimonlar hozirgiday maxsus soha yoki ayrim janrlar bo'yicha mutaxassislashmaganlar. Hikoyani tarjima etgan adib tarixiy asarni, falsafiy kitoblarni ham tarjima qilgan.

XIX asrga qadar O'zbekiston territoriyasida biron nashriyot va yoki biron tashkilot tarjima ishlarini xalqning talab va ehtiyojlari asosida rejalashtirib nashr qilmagan. Ko'pincha tarjimonlarning o'zlari asar tanlab, o'zlari tashabbus ko'rsatganlar, ba'zan kitoblar ayrim hukmdorlar, beklar yoki ruhoniylar talabi bilan tarjima qilingan. Tarjima asarlari qo'lyozma holida tarqatilgan, kotiblar ularni ko'chirganda ba'zi bir o'zgarishlar kiritganlar. Shuning uchun tarjima asarlarining qo'lyozma nusxalarida har xillik bor.

Eski tarjimalarda ba'zi bir ilmiy, tibbiy, falsafiy asarlar, hatto, lug'atlar ham she'rda berilgan. Biz bunday holni tarixiy asarlarning tarjimasida ko'plab uchratamiz.

XIX asrga qadar tarjima nazariyasiga oid asarlar bo'lmagani uchun tarjima qilish tajribalarini umumlashtirish, nuqsonlarni bartaraf qilishga urinish ham bo'lmagan. Tarjimonlar haqida ma'lumotlar yozib qoldirish narida tursin, hatto ba'zi bir asarlarda ularning nomlari ko'rsatilmagan. Bular tarjima tarixini yaratishda va tarjimonlarning ijodiy faoliyatini ko'rsatishda bir qancha kiyinchiliklar tug'diradi.

Tarjimonlarning ko'plari og'ir ahvolda, o'zlarining ta'biri bilan aytganda, «faqir-haqir bo'lib» yashaganlar. Ko'pchilik tarjimonlar mehnatkashlar guruhiga mansub kishilar-dir. Ularning peshona terini to'kib, yurak qoni bilan tarjima qilgan asarlarini va og'ir mehnatini taqdirlovchi, qo'llab-qo'ltiqlovchilar topilmagan. Mehnatsevar tarjimonlar'

doim xalq uchun, xalq madaniyati uchun biron yodgorlik qoldirish maqsadida astoydil xizmat qilganlar. Ba'zi bir «homiyalar» o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida tarjimonlarga diniy-afsonaviy asarlarni tarjima qilishni topshirganlar. Ko'pchilik tarjimonlar xalq bilan yashab, uning ma'naviy hayotini mazmundor qilish uchun o'zlarining butun kuch va talantlarini sarf etganlar.

Agar biz XIX asrga bo'lgan badiiy tarjimani zamonaviy tarjimalar bilan solishtirsak, juda katta farq borligini ko'ramiz. Bu farq, birinchidan, uslub va metod jihatidan ko'zga tashlanib turadi, ikkinchidan, XIX asrdan keyin o'zbek adabiy tilida ro'y bergan katta o'zgarishlar tarjima san'atiga ham ta'sir qildi. Yangi-yangi so'z, termin va iboralar bilan boyigan o'zbek tili har qanday ilmiy jihatdan chuqur va badiiy mukammal asarlarni ham tarjima qilish imkonini tug'dirdi.

XIX asrgacha bo'lgan tarjima amaliyotida ikki turli yo'nalish mavjud edi. Birinchi yo'nalish — asarlarni murakkab yo'l bilan, ya'ni uzundan-uzoq tuzilgan jumlar, xalq tushunishi qiyin bo'lgan arabcha, forsha so'zlar, dab-dabali iboralar bilan tarjima qilish bo'lsa, ikkinchisi — qisqa va aniq jumlar bilan, xalq jonli tilida, soddada uslubda tarjima qilishdir.

Odatda, tarjima qilingan she'riy asarlarda vazn, qofiya tizimi asl nusxada qanday bo'lsa, aynan shunday saqlangan.

O'zbek tarjimachiligi tarixining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, arab va fors tillaridan ko'plab yirik va fundamental asarlar to'la-to'kis, aniq va to'g'ri tarjima qilingan. Halol mehnat bilan tirikchilik qilgan zahmatkash tarjimonlarimiz dunyo adabiyoti xazinasiga kirgan asarlar bilan o'zbek xalqini tanishtirdilar va xalqlar o'rtasidagi madaniy, adabiy aloqani kuchaytirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

XIX asrga cha bo'lgan tarjimalarning ayrim xususiy tomonlari ham bor edi. Ma'lumki, eski vaqtda kitoblarning nomlari arabcha yozilar edi. Bu hol musulmon xalqlari ichida an'ana bo'lib qolgan edi. Masalan, fors-tojik shoiri Nosir Xisravning (1004—1088/89) falsafiy, axloqiy asarlari «Jomeul-hiqmatayn»

(Ikki hikmatning jami), «Vajhi din» (Diniy dalillar) deb atalgan. Ulugʻ ozarboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1121—1203) mashhur asarlari «Xamsa» (Beshlik) «Maxzanul-asror» (Sirlar xazinasi) deb nomlangan. Ulugʻ shoir Navoiyning adabiy, tarixiy, ilmiy asarlarining nomlari ham arabchadir. Masalan: «Xamsa» (Beshlik), «Hayratul-abror» (Yaxshikishilarning hayratlanishi), «Mezonul-avzon» (Vaznlar oʻlchovi), «Mahbubul-qulub» (Qoʻngillarning sevgani), «Xazoyi-nul-maoniy» (Maʼnolar xazinasi), «Sabʼai sayyor» (Yetti sayyora yoki yetti kezuvchi) va boshqalar. XIX asrda ham xuddi shu holni koʻramiz. Masalan, Ogahiy ham baʼzi bir asarlariga arabcha nom qoʻygan: «Taʼvizul-oshiqin» (Oshiqlarning tumori), «Firdavsul-iqbol» (Iqbol bogʻi) kabi.

Oʻzbek tiliga tarjimada ham kitoblarning nomlari oʻgirilmay, oʻzining asli arabcha shakli aynan saqlangan. Masalan, tarixiy, falsafiy kitoblar: «Ravzatus-safo», «Tazkiratul-avliyo» va hokazolar. Bundan tashqari, asarlarning nomlari yo tojikcha izofa konstruksiyasi bilan yoki aniqlovchi-aniqlanmish shaklida berilgan. Masalan, «Tar-jimai «Tarixi komil», «Tarjimai «Saloti masʼudiy», «Tarjimai tarixi «Shamsul-maorif», «Tarjimai «Nafahotul-uns» yoki «Tarixi «Sayful-axbor» tarjimasi», «Ajo-yibul-osor» tarjimasi», «Mirotul-koinot» tarjimasi»; badiiy asarlar: «Maxzanul-asror» tarjimasi» (Nizomiy asari), «Mahbubul-qulub» tarjimasi» (Mumtoz asari), «Tarjimai «Badoeul-vaqoe»i Vosifiy», «Alf layla va layla» tarjimasi» va hokazo.

Nomi forsha boʻlgan asarlar ham baʼzan aynan oʻzicha qoldirilgan. Masalan, «Haft paykar» tarjimasi» (Nizomiy asari, Ogahiy tarjimasi), «Haft kishvar» tarjimasi» (Amir Xusrov asari, mulla Bobojon Sanoiy tarjimasi), «Chil hadis» tarjimasi» va shu kabilar. Tarjima kitoblarining nomlari baʼzan tamom oʻzgartirilib, ularga yangi nom qoʻyilish hollarini aytgan edik. Masalan, Jomiyning «Nafahotul-uns» asarini Navoiy tarjima qilib, unga yangi boblar qoʻshib, nomini «Nasoyimul-muhabbat» deb qoʻygan. Har bir tarjima etilgan asarga tarjimon koʻpincha soʻz boshi yozgan, bunda anʼanaviy hamd-u sano yozilib (odatda ularda «Qurʼon»dan oyatlar keltirilgan boʻladi), soʻngra tarjima qilinayotgan asarning nomi, avtor, asar nima uchun va kimning topshirigʻi yoki tashabbusi bilan tarjima qilinayotgani bayon etiladi. Koʻpincha tarjimon oʻz kitobini ustoziga bagʻishlaydi, soʻngra avtorning «kirish soʻzi»ni ham baʼzan qisqartib tarjima qilib beradi. Baʼzan tarjimonlar kirish soʻzini, asarning janriga qarab, yo nasrda va yoki nazmda beradilar. Masalan, Navoiy «Chil hadis»ni tarjima qilganda soʻz boshini nazm bilan yozgan. Munis ham Mirxondning «Ravzatus-safo» asarini tarjima etar ekan, soʻz boshi yozib, uning bir qismini nazm bilan, bir qismini nasr bilan bitgan. Baʼzan tarjimon shu asrga soʻz boshi yozmasa, kitobning oxirida «xotima» yozadi, unda oʻzining oti, kotibning nomi va yozilgan yillari haqida qisqacha maʼlumot beradi. Soʻz boshida tarjimonning tarjimai holiga oid baʼzi muhim faktlarni topish mumkin. Tarjimonlar kirish soʻzida oʻzlarining ogʻir qismatlaridan shikoyat qiladilar. Masalan, «Ravzatus-safo» asarining tarjimasiga Rojiiy yozgan soʻz boshini koʻraylik: «Men haqir bedastgir, yaʼni Muhammad Yusuf mulaqqab bil-Rojiiy bin qozi Xoʻjamberdi Xorazmiy bir aftoda erdimkim, eʼtibor doirasidin xorij va ishtihor martabasidan soqit, olami havodis hujumidan ahvolim xarob va davron navoyibi vufuridin ishim talfasa va iztirob...»da ekanligini bildirgach, mehnat va mashaqdat chekib qalam surganini va, agar xatosi boʻlsa, kechirishlarini iltimos qiladi. Ayrim tarjima asarlariga yozilgan soʻz boshilarda xonlar va ularning vazirlariga atab madhiyalar bitilgan, ayniqsa Xorazm xoni Muhammad Rahimxon haqida haddan ortiq xushomadgoʻy maqtoqlar, madhiyalar uchraydi. Tarjima etilgan asarlarning xotimasida baʼzan ayni asarni tarjima qilishning qisqacha tarixi va uning nechanchi yilda agʻdarilganligi nazm bilan bayon qilinadi. Masalan Jomiyning «Yusuf va Zulayxo» asarini tarjima qilgan Ogahiy kitob oxirida: Bu nodir nusxai farxanda anjom, Muborak soat ichra topdi anjom, yil hijridin erdi bekamu bish, Ming ikki yuz ham sakson besh, deb yozadi. Tarjimonlarning kirish soʻzlari ularga tarjima etayotgan asar haqida oʻz munosabatlarini bildirishga va shu yoʻl bilan asar muallifining ijodini tashviq qilishga katta imkon bergan.

9-MAVZU. OʻZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELGAN BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMALAR HUSUSIDA

VII asrda Oʻrta Osiyoni zabt qilgan arab istilochilari oʻz dini, oʻz madaniyati va tilini Oʻrta Osiyo xalqlariga zoʻrlab qabul qildirishga urindilar. Islom dini — hukmron din, «Qurʼon» — xudo osmondan tashlagan kitob, arab tili esa muqaddas til deb daʼvat qilindi. Koʻp asrlargacha arab tili Oʻrta Osiyoda, jumladan hozirgi Oʻzbekiston territoriyasida ham mahkama tili, ham adabiy til boʻlib qoldi. Mahalliy olimlar, shoirlar va adiblar oʻz asarlarini shu tilda yozdilar. Mazkur kitoblar, rasmiy yozishmalar, arab xalqi bilan boʻlgan jonli aloqa-munosabatlar va tarjima asarlari orqali arab tilining koʻp soʻzlari oʻzbek tili lugʻat sostaviga kirib bordi. Arabcha soʻzlar Oʻzbek tili grammatika normalariga binoan maʼlum bir oʻz-garishlar orqali qabul qilindi. Atoqli otlar, geografik nomlar, ilmiy termin va ayrim frazeologii iboralar arab tilidan oʻzbek tiliga kirib, unga singib ketdi.

Qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi qo'shni xalqlar, ayniqsa forslar va tojik xalqi bilan o'zaro munosabatlarda bo'lib keldi. Ularning juda ko'p so'zlari o'zbek tiliga kirib keldi. Buning ustiga, IX—X asrlarda O'rta Osiyoning arab xalifatligidan chiqishi va somoniylar davrida fors tilining adabiy til bo'lib qolishi bu jarayonni tezlash tirdi.

Arab va fors so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishida tarjimonlar ham katta hissa qo'shdilar. Bundan olti asr ilgari Qutb Xorazmiy tarjima qilgan «Xisrav va Shirin» dostonida arabcha, forsha so'zlar juda ko'p ishlatilganki, ularning aksariyati hozir o'z suzlarimiz bulib ketgan. Masalan, «nazm», «asr», «kitob», «farmon», «jahon», «xurram», «ishq», «doston», «san'at», «ta'lim», «munavvar», «jamol», «haq», «xushnud», «maqsud», «dil» va boshqalar. Shoir Qutb yuksak badiiy nafosat va musiqiy lavhalar yaratishda bu suzlarni uz urnida, ustalyk bilan ishlatgan.

XIV asrda yashab ijod etgan Sayf Saroyi «Guliston» asarini tarjima qilarkan, u ham «ash'or», «ta'rif», «qanoat», «tarbiya», «suhbat», «odob», «sohib jamol», «ustod», «tasvir», «ne'mat», «quvvat», «zafar», «vafo», «oqibat» va boshqa shu kabi arabcha, forsha suzlardan barakali foydalandi.

Qutb Xorazmiy, Sayf Saroyi, Haydar Xorazmiylar arab, fors so'zlarini o'ransiz ishlatmadilar, ular ma'lum bir me'yorda, ko'p hollarda ayni so'zning ekvivalenti O'zbek tilida bo'lmagan taqdirda, xalqqa qanchalik tushunarli bo'lishini hisobga olgan holda, o'z tarjimalarida ishlatdilar.

Masalan, Haydar Xorazmiy o'z tarjimasida ishlatganki arabcha, forsha so'zlarning hozirgi zamonimizda ham, aynan o'sha ma'noda qo'llanayotganini ko'ramiz. Masalan, «oqil», «gavhar», «ganj», «ranj», «meros», «ayol», «pisand», «ma'ni» va boshqalar.

Alisher Navoiy arab tiliga juda katta baho berib, shunday deb yozgan edi:

«Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz vabalog'at taz'yini bila mo'jiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qtur» («Bu tillarning barchasidan arab tili nafislik bilan ajralgan va badiiylik bezagi bilan mo'jiza ko'rsatuvchandirki, bunda hech bir til ahllarining da'vosi yo'q „Muhokamatul-lug'atayn"ning Porso Shamsiev tomonidan soddalashtirilgan tekstidan».

Navoiy fors-tojik xalqi bilan O'zbek xalqining bir-biriga inoq, azaldan do'st-birodar ekanini, o'zbeklar fors tilini yaxshi ko'rgani va u tilda so'zlashganini yozadi:

«Ammo turkning ulug'din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidan bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig'a ko'ra ayta olurlar, balki ba'zi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar, Hatto turk shuaro-sikim forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar». («Ammo turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan be-gigacha sart tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirik-chiliklariga oid ahvollar ustida so'zlasha olurlar, balki ba'zilar adabiy ravishda so'zlasha olurlar. Hattoki turk shoirlari forsi tilida rangdor she'rlar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar»).

Navoiy yuqori, dabdabali uslubda ijod etganida arab, fors so'zlarini ko'proq qo'shadi va ikki tilni bir-biriga chog'ishtirganda, jonli xalq tilidagi so'z, jumalarga katta o'rin berib, arab, fors so'zlarini kam qo'llaydi.

Tarjimonlarning o'zlari yozgan so'z boshida arab, fors, tojik so'zlari haddan tashqari ko'p uchraydi, chunki bu so'z boshilar eski adabiyotga xos ko'tarinki, dabdabali uslubda yozilgan bo'lib, «ulug'» zotlar, pir-ustozlarining nomlari tilga olinadi, tarjima ana shularga bag'ishlanadi yoki hukmdorga madh yoziladi.

Masalan, tarjimon mulla Muhammad Temurning (XVII asr) «Kalila va Dimna» asariga so'z boshi yozarkan, «zamon umarolari», «muktado», «komkor», «peshvo», «murabbiy», «sohibi kamol», «tavfiq», «istitoat», «salohiya», «bahra», «shuru'», «tu'ma» va boshqa bir qancha arab, fors so'zlarini ishlatadi. Lekin shu tarjimon «Kalila va Dimna» dagi hikoyalarni tarjima qilganda ko'pincha jonli tilga xos, sodda, asl o'zbekcha so'zlarni ko'p qo'llaydi.

Bu kabi holni XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ijod qilgan Munis, Ogahiy, Sayqaliy, Xiromiy, Bayoniy, Rojiy, Siddiqiy, Almaiy va boshqa tarjimonlarning asarlarida ham uchratamiz. Masalan, Ogahiy «Shoh va gado» asariga yozgan «Bu qissa tarjimasining boisi» degan so'z boshisida «xiradmand», «ovar», «mahzun», «mohi», «lutf karam», «sidqi ixlos», «farrux», «jovidon», «ko'shish», «bistari za'f», «sarshor», «afshon», «mujda», «iste'jol» kabi arabcha, forsha so'zlarni ko'p ishlatgan bo'lsa, asl tekstni ancha sodda va jonli til bilan tarjima qilgan.

Shuni ham aytish kerakki, arab, fors so'zlarining oz yoki ko'p ishlatilishi o'sha asarning xarakteriga va janriga ham bog'liq bo'lgan.

Panturkistlar arab, fors, rus va boshqa tillardan kirgan soʻzlarni tilimiz qatoriidan chiqarish, faqat turk tiliga mansub leksikanigina qoldirish va shu bilan til «sof»ligini saqlash kabi zararli gʻoyani targʻib qildilar.

Hoji Moʻin «Oina» jurnalida «Til birlashtirmoq haqida» degan maqolasida: «*Mumkin qadar ajnabiy soʻzlardan tilni soflandurmoq ham til birlashturarga xiyol yordam beradur*», — deb yozgan edi. Panturkistlar — burjua millatchilari isteʼmoldan allaqachon chiqib ketgan eski turk soʻzlarini adabiy tilga kiritishga urindilar va xalq. tiliga singib, fuqarolik huquqini olgan arab, fors soʻzlarini chiqarib tashlamoqchi boʻldilar. Masalan, «dunyo» soʻzi oʻrniga «ochun», «kitob» oʻrniga «bitik», «mushkul» oʻrniga «chetin» soʻzini olishni va shu tariqa boshqa soʻzlarni ham qadimiy «**chigʻatoy tili**» dagi soʻzlar bilan almashtirishni targʻib qildilar. Burjua millatchilari arab, fors soʻzlarigagina qarshi boʻlib qolmay, rus va internasional soʻzlarga ham qarshi kurash ochdilar. Ular «samovar» oʻrniga «oʻzi qaynar», «samolyot» — «oʻzi uchar», «poezd» — «otash arava», «velosiped» — «shayton arava», va hokazolarni taklif qildilar.

Albatta, har bir tilning oʻziga yarasha normalari bor. Arab, fors soʻzlarini ishlatishni suiisteʼmol qilish tilni chigallashtirishga olib boradi.

Sinonimlarni oʻz oʻrnida ishlatish yozuvchining kuch-quvvati va isteʼdodidan darak beradi hamda har bir shoir, har bir adibning bilim doirasi, turmushni anglashi va, ayniqsa, xalq jonli tilini qanchalik bilishini koʻrsatadi. Ulugʻ yozuvchilarning asarlarini tekshirib koʻrganda, ularda rang-barang sinonim soʻzlarning keng va oʻrinli ishlatilganligining shohidi boʻlamiz.

Sinonimlar tilning turli nozik maʼno ottenkalarini ifodalaydi. Ular fikrni aniqroq, chuqurroq va mukammalroq ifodalashga yordam beradi.

Sinonim grekcha soʻzidan olingan boʻlib, «nomdosh», «otdosh» degan maʼnoni beradi. Shudnay qilib, shakl jihatidan har xil, lekin maʼnolari bir xil yoki uygʻun boʻlgan soʻzlar sinonimlardir.

Sinonim soʻzlarni ishlatish tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. XI asr yozma yodgorligi «Devonu lugʻotit-turk»da ham sinonim soʻzlarning keng koʻlamda qoʻllanilgani maʼlum. Filologiya fanlari kandidati S. Mutallibov XI asr yozma yodgorliklarida ishlatilgan soʻzlarni uchga boʻladi:

«1. Juda qadimgi vaqtlardan boshlab qabilalarning xos soʻzlari tarzida qoʻllanib, u qabilalar birikkanda sinonim holiga koʻchgan soʻzlar.

2. Turmush zarurati bilan til taraqqiy qoidalariga muvofiq qoʻllanib turgan soʻzlardan yangi soʻzlar yasash asosida kelib chiqqan sinonimlar. Turmush talablariga muvofiq, chet soʻzlarni qoʻllash natijasida maydonga kelgan sinonimlar». (S. M. Mutallibov, *Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk, Oʻzbekistan Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959, 191-bet.*

XI asrdagi yozma yodgorliklarda uchragan sinonim soʻzlar juda koʻp, masalan:

«Dam olish»ni bildiradigan soʻzlar: «kaytu», «sijdu», «qoʻshpichoq».

«Shaharlik» bildiradigan soʻzlar: «qand», «ulush», «baliq».

«Molxona» — «ogʻil», «otxona», «uzliq».

«Chumchuq»ni bildiradigan soʻzlar: «chungurxa», «sajo», «qoʻshgʻoch» va boshqalar. Bu sinonimlarning bir qismi hozir ham tilimizda aynan oʻsha maʼnoda ishlatilsa, koʻpgina soʻzlarning maʼnolari davrlar oʻtishi bilan oʻzgarib kettan va baʼzilari isteʼmoldan chiqib qolgan yoki oʻsha vaqtda sinonim boʻlgan soʻzlar hozir sinonimlikdan chiqqan boʻlishi mumkin. Chunonchi, ilgari «tuya» soʻzining «tavay — atay — engon — davay» kabi sinonimlari boʻlsa, hozir ular ishlatilmaydi. Alisher Navoiy «Muhokamatul-lugʻatayn» nomli asarida oʻzbek tilining sinonimlarga nihoyatda boy ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab berdi. Masalan, u oʻzbek tilida «ot» maʼnosida juda koʻp soʻzlar ishlatilishini quyidagicha koʻrsatgan edi. «Yana ot anvoidagi, *tubuchoq* va *argʻumoq* va *yaka* va *yobu* va *totu* yoʻsunliq — barini turkcha-oʻq ayturlar. Va otning yoshin dagʻi koʻprakini turkcha ayturlar. Bir *qulunni* «kurra» derlar. Uzga: *toy* va *gʻoʻnan* va *doʻnan* va *tulan* va *chirgʻa* va *langʻa* deguncha fasihroqlari turkcha derlar».

Oʻzbek klassik shoirlarining koʻplari ham ikki tilda (Oʻzbek va tojik tillarida) soʻzlashib, oʻsha tillarda sheʼrlar yozganlar. Shu yoʻl bilan Oʻzbek tiliga tojikchadan kirgan bir qancha soʻzlar sinonimik shaklga kirib qolgan. Masalan, «oltin—tilla», «yayov — piyoda», «bulok. — chashma», «oʻrnak — namuna», «manglay — peshona», «kulgi — xanda», «kiyik — ohu», «ulugʻvor — buzrukvor», «yuz — chehra», «bilim—donish», «koʻngil — dil», «erkak — nar», «soʻz — suxan» va hokazo.

Arabchadan kirgan soʻzlar evaziga ham sinonimlar koʻpaygan. Masalan, «yer yuzi — olam—jahon—dunyo», «payt—vaqt — zamon», «goʻzal — chiroyli — badiiy», «daryo — bahr», «mayda — juzʼiy», «kunlar — ayyom», «bogʻ-firdavs — jannat». «ayriliq — firoq — hijron», «tonmoq — inkor», «yagona—nodir — kamyob», «sevgi — muhabbat» va hokazo.

Arab, fors-tojik tilidan kirib kelgan soʻzlar oʻzbek tilidagi boshqa soʻzlar bilan sinonimlarni hosil qiladi. Bunday sinonim soʻzlar oʻzbek tiliga boshqa tillardan — turk, hind, moʻgʻul tillaridan ham kirib kelgan. Bundan bir necha asrlar ilgari tarjima etilgan asarlarni oʻqib chiqar zkanmiz, talantli va tajribali tarjimonlarimiz sinonim soʻzlardan ustalik bilan foydalanganlarini aniqlaymiz. Bundan ikki chorak asr ilgari firdavsiyning Xomushiy tarjima qilgan va soʻngra toshbosmada bir necha marta qayta nashr etilgan «Shohnoma» dostonida turli-tuman sinonim soʻzlar ustalik bilan ishlatilgan. Arab, fors tillarini oʻz ona tiliday bilgan Xomushiy soʻzlarning nozik maʼnolari va ottenkalarini yaxshi anglab, har bir iborani oʻz oʻrnida ishlatib, sinonimlardan juda oʻrinli foydalangan.

Xomushiy bir yerda «farzand», ikkinchi bir yerda «oʻgʻil», uchinchi yerda «pisar» soʻzlarini ishlatar ekan, shu maʼnoda «navjuvon», «sherbachcha», «sherdil», «juvonmard» soʻzlarini ham kontekstga muvofiq holda juda oʻrinli qoʻllagan.

Yuqorida aytilganlardan xulosa shuki, har bir tarjimon sinonim soʻzlarni oʻz oʻrnida, maʼnosiga qarab, toʻgʻri ishlata bilishi kerak. Sinonimlarni oʻz joyida maʼnoga muvofiq holda qoʻllash tarjimonning tilga boyligini koʻrsatishi bilan birga, adabiy tilning tobora boyishida katta ahamiyat kasb etadi.

10-MAVZU. TARJIMADA MUQOBILLIK. PORTRET, PEYZAJ, RUHIYAT TARJIMASINING MURAKKABLIK LARI. YOZUVCHI VA TARJIMON ORASIDAGI YAQINLIK VA TAFOVUTLAR Mustaqillikdan avvalgi davr tarjimachiligi

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida tatar ziyolilari oʻrtasida rus tilini bilgan kishilar Rossiyaning boshqa chekka oʻlkalariga (masalan, Turkistonga) qaraganda koʻpchilikni tashkil qilar edi. Buning tarixiy sabablari bor, albatta. Gazeta va jurnal sahifalarida rus tilini oʻqitish va oʻrganishga bagʻishlab chiqqan maqolalar koʻp, rus tilidan badiiy asarlarni tarjima qʻiluvchi shoir, adiblar ham yetarli edi. Ayniqsa 1905 yil rus badiiy adabiyotidan tatar tiliga tarjima qilish ishi rivojlanib ketdi. Bu vaqtlarda yangi chiqqan gazeta, jurnal va yangi tashkil etilgan nashriyotlarda rus klassik adabiyotining namoyandalari Jukovskiy, Pushkin, Gogol, Lermontov, Goncharov, Chexov, Pisarev, Gorkiy va bopma shoir, adiblarning asarlari tatarcha tarjimada alohida kitob yoki maqola tarzida bosilib chiqdi. Bu tarjima asarlari Boku, Ashxobod, Xorazm, Buxoro va boshqa joylarga ham tarqatilar edi.

Tatar adabiyotining tarakdiylarvar namoyandalari rus adabiyoti durdonalarini badiiy tarjima orqali targʻib qilishni oʻzlariga vazifa qilib oldilar. Tatar xalqining isteʼdodli shoir va yozuvchilari Abdulla Toʻqay, Majid Gʻafuriy, Fotih Karimiy, Dardmand, S. Sunchalay, A. Battol va boshqalar rus yozuvchilarining ajoyib asarlarini tarjima qilib, tatar adabiyoti xazinasini boyitdilar.

Shoir Majid Gafuriy I. Q Krilovning bir qancha masallarini, Abdulla Toʻqay esa A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov va boshqa rus klassik shoirlarining juda koʻp sheʼrlarini

Rus adabiyotining buyuk siymosi L. N. Tolstoyning asarlarini tatar xalqi oʻz ona tilida sevib oʻqishga muyassar boʻldi. Shuni qayd etish kerakki, L. N. Tolstoyning tatar tiliga tarjima qilingan asarlari faqat Tataristonda emas, balki Oʻrta Osiyo va, jumladan Oʻzbekistonda ham keng tarqaldi. Masalan, «Hoji Murod», «Kavkaz asiri» Toshkent, Fargʻona, Samarqandda ham mashhur edi.

Tabiiyot, tibbiyot, taʼlim-tarbiyaga hamda tarix va muzikashunoslikka doyr asarlar ham «Shoʻro» jurnali sahifalarida muntazam berib borilar edi. Masalan, «Upka ogʻrigʻi» (chaxotka), «Sutdagi mikroblar va onlarning sovliqgʻa foydasi» (Mechnikov maqolasi), «Qartliq ham oʻlim» (Mechnikov asari) va hokazo (jurnalning 1910 yil, 1,3-sonlari; 1911 yil, 6—9-sonlari hamda 1912 yil, 21-soniga qarang).

Rus olimi M. Kovalevskiy va mashhur sharqshunos V. V. Radlovlarining ham qator asarlari tatar tiliga agʻdarilib, ular haqida maqolalar yozilgan. Tatar shoirlari rus olimlari shaʼniga sheʼrlar ham toʻqigan edilar. Janibekovning «Radlov janoblarina» degan sheʼriga qarang (1913 yil, 7-son).

Biz yuqorida 1908—1913 yillar davomida Toshkent, Samarkand va Fargʻonada bironta gazeta yoki jurnal chiqmagan Faqat 1913 yil oktabr oyidagina («Zerkola») — (Oina) nomida jurnal chiqq boshladi.

Bu jurnal ikki, baʼzan uch tilda chiqib, xabar, maqolalar ruschadan tarjima qilib bosilardi.

Jurnal sahifalarida 1914 yil Birinchi jahon urushi janglarining borishi haqida ruscha gazetalardan olinib tarjima qilingan xabar va maqolalarni hisobga olmasaq unda arzigulik tarjima materiallari berilmas edi.

(«Samarkand») gazetasi ham Behbudiyning muxarrirligi va noshirligida 1913 yil mart oyidan e'tiboran chiqa boshladi.

Garchand gazeta o'z oldiga kattagina vazifalarni qo'ygan bo'lsa ham, bularning uddasidan chiqa olmadi, «Samarkand» gazetasida ham badiiy tarjima materiallari bosilmagan.

1914 yil, 4 aprelda Toshkentda («Sadoyi Turkiston») gazetasi chiqa boshladi.

«Sadoyi Turkiston» gazetasi sahifalarida «Til va din», «Til va imlo masalasi», «Til masalasi» kabi maqolalar bosildi (1915 yil, 60, 63, 64-sonlariga qarang).

«Sadoyi Turkiston» o'zigacha chiqqan gazetalardan poligrafik jihatdan, gazeta texnikasini egallaganligi bilan ajralib turadi. Bu gazeta 1915 yil, aprel oyining oxiriga borib chiqishdan to'xtagan edi.

1917 yilgacha Turkiston, Buxoro, Xivada o'zbek tilida birona gazeta chiqmadi. Faqat 1915 yilda («Al isloh») jurnali chiqa boshladi. Jurnalning muharriri va noshiri Sayyoh Abdurahmoi Sodiq o'g'li bo'lib, 1918 yildan e'tiboran noshir qilib Asqarxon Pahlavonov tayinlanadi.

Bu jurnalda badiiy asarlar yo rus tilidan va yoki arab-fors tilidan maxsus tarjima etilmadi, ammo maqolalar ichiga kirgan arab, fors tilidagi she'r yoki ayrim iboralar o'zbek tiliga tarjima etildi, xolos. Masalan, jurnalning 1916 yil, 15-sonida yozilgan bosh maqolada, «Qur'on»dan olib bosilgan oyat tarjima etilgan.

«Isloh» jurnali 1918 yil, mart oyining oxirida, 6-sondan boshlab taqiqlandi. 1917 yil fevralda Turkistonda bir qancha gazeta-jurnallar chiqa boshladi; masalan, («Al-izoh») jurnali «Ulam» jurnalida diniy hamda adabiy-siyosiy muvaqqat hukumatning qarorlari, dasturulamal va yo'l-yo'riqlari tarjima etib bosilgan.

Shular jumlasida chiqqan gazetalardan biri («Najot») bo'ldi. Bu gazeta «Turkiston vi-loyatining gazetasi» o'rnida nashr qilina boshlagan edi. Bunda Behbudiy va boshqa jurnalistlar faol qatnashdilar. Gazeta Vaqtli hukumatning organi bo'lib qoldi. Unda Vaqtli hukumatning farmon va murojaatlari tarjima qilinib bosilar edi.

1917 yil may oyida («Sho'roi islomiya») va iyun oyida uning o'rniga «Kengash» gazetasi chiqa boshladi. Ahmad Zakki Validiy sakkizinchi songacha gazeta muharriri bo'lib so'ngra uning o'rnini Munavvar qori Abdurashidxon egalladi. Bu gazetalar mehnatkashlar manfaatiga qarshi ish ko'rdilar.

Usha vaqtlarda «Kengash» gazetasi bilan birga 1917 yil, 20 apreldan boshlab «Turon» nomida ham gazeta nashr qilina boshlagan. Uning birinchi bosh muharriri Nizomiddin qori mulla Husayn o'g'li bo'lib, noshiri «Maktab» jamiyati edi.

«Turon» gazetasida ham adabiy-badiiy tarjima asarlari bosilmadi. (Unda ayrim xabarlargina tarjima qilinar edi, xolos). Gazetaning tili turk so'zlari, turkiy ibora va ifodalar bilan to'lgan edi.

1917 yil, sentyabrda «Turon» va «Kengash» gazetalari birlashib «Turk eli» nomli yangi gazeta chiqa boshladi.

«Yurt» jurnali Qo'q'on shahrida 1917 yil, 1 iyundan boshlab chiqa boshladi. Jurnalning bosh maqolalarida nemis yozuvchisi F. Shillerdan sitata olinib, uni «Eskilik vayron bo'lub, zamon o'zgarib, xarobalarda yangi-yangi hayot ochiladur (Shiller)» deb tarjima qilingan.

Bu haftalik jurnalning noshir va muharriri Ashur Ali Zohiriy edi.

«El bayrog'i» gazetasi ham Qo'qonda chiqar edi, 1917 yil, 8 sentyabrdan nashr qilina boshlagan).

Gazeta chet el imperialistlari, Angliya kolonizatorlari va oqgvardiyachilarning Qo'qon hukumati haqqdagi fikrlarini o'zbekchaga ag'darib, katta xarflar bilan, ko'zga ko'rinarli qilib bosib chiqardi.

Qo'qonda chiqqan gazetalardan yana biri «Tirik so'z» bo'lib, 1917 yil, aprel oyida Obidjon Maxmudov muharrirligida nashr etildi.

Qo'qonda nashr qilingan «Ravnaqi islom» gazetasi o'sha davrda boshqa gazetalarda takrorlangan «Yashasun hurriyat, adolat va musovot! Bitsun nafsoniyat, adovat vaxolat!» so'zlarini o'ziga shior qilib olguyon bo'lsa-da, Toshmuhammad Nurmuhammad o'g'li muharrirlik qilgan, «har kun chikadigan siyosiy, adabiy, xalq foydasi yo'lida yuradigan gazeta» deb e'lon qilingan bu gazeta ham xalq manfaatini kuzlamadi. Bu matbuot sahifalaridan tarjima materiallariga o'rin berilmagan edi.

«Farg'ona sahifasi» («Ferganskiy listok») gazetasi ham o'z maslagi jihatidan «Ravnaqi islom» dan hech farq qilmadi.

Samarqadda haftada ikki marta chiqadigan «Hurriyat» gazetasi. Bu gazetaga asosan Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Mar-donquli Shohmahmud zodalar yaqindan rahbarlik qildilar. Gazetaning uchinchi sonidan boshlab Fitrat unga muharrirlik qila boshladi.

Usha vaqtda Samarqandda Behbudiy bilan Fitrat eng kurashchan rahbarlari edilar. Ular ham tojik ham o'zbek tilida maqola va asarlar yozdilar. Ularning asarlari ba'zan ruscha tarjimada ham bosilar edi. Masalan, Fitratning «Sayyoh hindi» asari rus, tojik va o'zbek tillarida nashr etildi.

Matbuot sahifalarida bosilishi zarur bo'lgan turli-tuman rasmiy hujjatlar va siyosiy varaqalarni tarjima qilish va chor ma'murlari bilan savodsiz aholining muomala-munosa-batlarini amalga oshirish uchun tarjimon ko'plab talab qilinardi. Ammo, o'sha davrlarda nashr qilingan gazeta sahifalarida tez-tez chiqib turgan e'lonlar tarjimonlar yetishmaganligidan dalolat beradi. Masalan, «Hurriyat» gazetasida shunday e'lon yozilgan: «Tilmoch kerak Samarkand shahrida, Abramov rastasida tilmoch (perevodchik) olinadur». Toshkent-da chiqib turgan «Ulug' Turkiston» gazetasida esa quyidagi e'lonni o'qiydiz: **«Tilmochlar byurosi. Rus tilida yozilgan har xil qog'ozlarni: gazeta maqolalarini, maktublar va arizalarni, jamiyatlarning ustafi, qonun, loyiha va qarorlarini sarti o'zbek qozoqi va tatar tillariga tarjima qila...» (1918 yil, 21 fevral).**

«Sartcha til barobarina nemischa, fransuzcha yoki polyakcha til ugratam. Adres idorada Qurilavqa» (1917 yil, 46-son). Shu gazetada «Ajoyibul maxluqot» degan kitobning o'zbek tiliga tarjima etilgani haqida tubandagi xabarni o'qiydiz: «Imomiddin Zikriyo ibn Mahmud al Kazvinii tarafidin to'liq etilgan forsi «Ajoyibul maxluqot» turk zabonig'a tarjima qilinub, uch yuzdan ziyoda ajoyib va g'aroyib, hayron qolurliq maxluklar surati birla ziynatlandi va to'rt rang birla to'bi berilib, ahboblar xizmatiga taqdim etildi. Har bir kitob suyularda biror dona bo'lmog'i zarur rujada erur. Mutarjim va rassom kotibi Sirojiddin Sidqiy Xandayliqiy sokini Toshkent. Noshiri Andijonda mullo Teshaboy mirza Karimov» (1917 yil, 24 dekabr).

1905 yilda chiqqan gazetalar hali kattaroq tarixiy, ilmiy asarlarni tarjima etib ulgura olmadilar. Ularda arab, fors-tojik tillaridan kichik she'rlar, ayrim badiiy parchalar tarjima qilib bosildi, xolos

Rus adabiyotidan qilingan tarjimalar

Rus adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asar va she'rlar juda ko'pdir. Ayniqsa, XIX asrning ohirlari hamda XX asr rus adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilish asri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyoga mashhur rus adiblarining shoh asarlarni o'zbek o'quvchilari ham o'qishga musharraf bo'ldilar.

Har bir xalq, millatning o'zga hos urf-odatlarini bo'lgani kabi, ushbu millat adibi va shoirlarining ham o'z uslub va yo'nalishlari bo'ladi. Rus va o'zbek tillari grammatikasida tafovutlar bo'lganligi, ikki millat urf-odatlarini hamda dunyoqarashlari o'rtasida farq bo'lganligi tufayli rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni ham birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Biroq shunday bo'lsada, bizning buyuk shoir va adiblarimiz bu kabi qiyinchiliklarni yengib o'tib, o'z xalqining kitobxonlari uchun tengsiz tarjimalarni yaratib qoldirdilar. Keling hozir shunday buyuk adiblarning bir nechtalarini yana bir bor yodga olsak ...

Hamid Olimjon 1909 yil 12 dekabrda Jizzax viloyatida tug'ilgan. Samarqanddagi bilim yurtida (1923-28), Pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultetida o'qigan (1928—31). Asarlari — «Ko'klam» (she'rlar, 1929), «Tong shabadasi» (hikoyalar, 1930). «Olov sochlar» (1931), «Poyga», «O'lim yovga» (1932), «Daryo kechasi» (1936), «She'rlar» (1937), «O'lka», «Oygul va Baxtiyor» (1939) she'riy to'plamlar muallifi. «Oygul bilan Baxtiyor» (1937) hamda «Semurg' yoki Parizod va Bunyod» (1939) dostonlari xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan.

N. Ostrovskiyning «Po'lat qanday to'blandi» romanini hamda A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, V. Mayakovskiy, T. Shevchenko va boshqa shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Zulfiya 1915 yilning 1 martida Toshkentda tug'ilgan. O'rta maktabdan so'ng pedagogika institutida va aspiranturada ta'lim olgan. 1938-1948 yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, keyinchalik O'zdnashrda bo'lim boshlig'i, 1950 yildan 1980 yilga qadar «Saodat» jurnalida ishlagan. 1932 yilda «Hayot varaqlari» nomli birinchi she'riy to'plami bosilgan. «Uni Farhod der edilar», «Quyoshli qalam», «Xotiram siniqlari» kabi lirik va lirioepik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vafotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Maqsud Shayxzoda 1908 yil 25 oktyabrda Ozarbayjon Respublikasi Ganja viloyatining Oqtosh shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1964). Bokudagi dorulmualliminni tugatgan (1925). Dastlabki she'riy to'plami- «Loyiq soqchi» (1932). «Jaloliddin Manguberdi» (1944) va

«Mirzo Ulugʻbek» (1961) kabi dramatik asarlar muallifi. A. S. Pushkinning «Mis chavandoz», M. Yu. Lermontovning «Kavkaz asiri», V. Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Juletta» tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning sheʼrlarini, shuningdek, dunyo adabiyotidagi bir qancha buyuk siymolarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Usmon Nosir 1912 yil 13 noyabrda Namangan viloyatida tugʻilgan. Moskvadagi Kinematografiya institutining stsenariy fakultetida (1929—30) va Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining til va adabiyot fakultetida bir muncha muddat taxsil olgan (1933—34). «Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1934), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) kabi sheʼriy toʻplamlari, «Norboʻta» va «Naxshon» (1934) dostonlari nashr etilgan. A. S. Pushkinning «Bokchasaroy fontani», M. Yu. Lermontovning «Demon» («Iblis») dostonlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Qudrat Hikmat 1925 yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Toshkent Pedagogika institutini tugatgan (1957). Dastlabki sheʼriy toʻplami — «Mening Vatanim» (1950). «Baxtli bolalar» (1951), «Obodlik» (1953), «Doʻstlik» (1954), «Uch oʻrtoqning sovgʻasi» (1957), «Nevara mehri», «Chirchiq farzandi» (1961), «Alisher va kitob» (1962), «Ilonshoh va uning amaldorlari xaqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964), «Toshbaqalar hujumi» (1965), «Shamol botir» (1966), «Oʻgʻlim bilan suhbat» (1970), «Olmos mening yuragim» (1983), «Mening yuragim» (1986) va boshqa sheʼriy toʻplamlari nashr etilgan. V. Mayakovskiy, S. Marshak, S. Mixalkov, A. Surkov, M. Bajan A. Barto va boshqa shoirlarning bolalarga atalgan sheʼrlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Tursunov Mirtemir 1910 yil 30 mayda Turkiston shahrining Iqon qishlogʻida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq shoiri (1971). Eski maktabda taʼlim olgach (1919—20), Toshkentga kelib, Almaiy nomidagi namuna ish maktabida tahsil olgan. (1925—29). Ilk sheʼrlar toʻplami — «Shuʼlalar qoʻynida» (1928) milliy oʻzbek sheʼriyati uchun yangi janr — sochma (nasriy sheʼr) janrida yozilgan. «Zafar» (1929), qissasi esa 60—70-yillarda oʻzbek sheʼriyatida doston janriga eʼtiborning kuchayishi va lirik doston janrining kamol topishiga katta taʼsir koʻrsatgan. A. S. Pushkinning sheʼrlarini, N. A. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi», Sh. Rustavelining «Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon»ni oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti (1979), Berdaq nomidagi Qoraqalpogʻiston Davlat mukofoti (1977) laureati. «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni soxibi (2002) boʻlgan.

Uygʻun (Otakoʻziev Rahmatulla) 1905 yil 14 mayda Jambul viloyati Marki qishlogʻida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq shoiri (1965). Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi (1956). Mehnat Qahramoni (1985). Samarqanddagi pedagogika akademiyasida taxsil koʻrgan (1927-30). Dastlabki sheʼrlar toʻplami - «Bahor sevinchlari» (1929). «Quyosh oʻlkasiga» (1963), «Gʻazab va muhabbat», (1944), «Hadya» (1946), «Oʻzbekiston» (1947), «Hayot ishq» (1948), kabi sheʼr va hikoyalar toʻplamlari, «Gulandom» (1938, 1-oʻzbek baleti librettosi), «Alisher Navoiy» (1943, hamkorlikda), «Navbahor» (1948) singari sahna asarlari muallifi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, A. P. Chexov, L. N. Tolstoy, V. Shekspir asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati (1984).

Oybek – 1905 yilda 10 yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tugʻilgan Muso Toshmuhammadning adabiy taxallusi. 1922 yildan unring oxirigacha Oybek sheʼr, dostonlar yozdi. «Onamning mozorida» (1924), «Ovchiga» (1924), «Yoshlik xotiralaridan» (1925), «Gunafsha» (1927) singari sheʼrlarida yosh shoir ruhiyatining holatlari tasvirlanadi. «Fanga yurish» (1930), «Fikr» (1931), «Tansiq» (1935), «Dala yoʻlida» (1935), «Qishloq qizi student» (1933), «Brigadir ayol» (1935) singari sheʼrlarida ijtimoiy hayot aks ettiriladi. Shoir «Dilbar – davr qizi» (1932), «Oʻch» (1932), «Navoiy» (1947), «Qizlar» (1947), «Davrim jarohati» (1965) kabi poemalar yozgan

Oybek poemalarining qahramonlari «Qutlugʻ qon» (1940), «Navoiy» (1944), «Oltin vodiyan shabadalar» (1949) singari romanlariga ham oʻtgan. «Quyosh qoraymas» (1954), «Ulugʻ yoʻl» (1963), «Nur qidirib» (1955), «Bola Alisher» (1967) – Oybekning muhim asarlaridan. U nosir sifatida xalqning boy, murakkab tarixini aks ettirdi.

Oybek 1943 yilda Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasiga aʼzo boʻldi. Olim «Adabiyot qoidolari haqida» (1926), «Abdulla Qodiriyning ijodiy yoʻli» (1936), «Tanqidchilikda savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi oʻt ochaylik» (1939), «Muqimiy asarlarida sotsial tiplar» (1939) singari tadqiqotlarni, Navoiy haqidagi maqolalarni yozdi.

A. S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» sheʼriy romani, M. Yu. Lermontovning «Maskarad», Molerning «Tartyuf» dramalarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. 1968 yil 1 iyulda Toshkentda vafot etgan. Vafotidan soʻng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan (2001).

Oʻzbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar

Oʻzbek tilidan rus tiliga tarjima etish ishlari qadim zamonlardan beri davom etib kelgan. Bu tarjimaning birinchi yozma yodgorliklari diplomatik hujjatlar, turli shartnomalar va hokazolardan iborat edi.

O'zbekistan Rossiya sostaviga qo'shib olingandan keyin tarjimaning bu turi yanada kuchaydi. Endi tarixiy asarlar, etnografik materiallar, folklor asarlari, ocherk, memuarlar va turli hikoyalar ham o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilina boshladi.

O'zbek tilidan ruschaga tarjima qilingan dastlabki asarlardan biri «Bobirnoma» edi. 1857 yilda sharqshunos olim N. I. Ilinskiy «Bobirnoma»ning tekstini Qozonda bostirib chiqardi. 1871 yilda N. N. Pantusov, S. I. Polyakovlar mazkur asarning ayrim boblarini rus tiliga ag'dardilar. (M. Sale revolyusiyadan keyin «Bobirnoma» ning to'la tekstini tarjima qilib, birinchi kitobni 1948 yilda chiqardi, 1958 yilda esa asarning to'la-to'kis tarjima nashrini ta'minladi).

Ruschaga tarjima etilgan katta asarlardan yana biri «Shayboniynoma»dir. Sharqshunos olim I. Berezin «Shayboniynoma»ning asl tekstini tarjimasi bilan birga bostirib chiqardi.

O'zbek tili, tarixi va urf-odatlarini yaxshi bilgan rus sharqshunos olimi N. S. Likoshinning birinchi tarjimasi Temurning tarjimai holiga oid kitob bo'lib, uni «Avtobiografiya Temurnoma» nomida 1894 yilda Toshkentda bostirib chiqardi.

N. S. Likoshin «Tarixi Narshaxiy» asarini fors tilidan tarjima etdi va bu asar 1897 yilda V. V. Bartoldning tahririda Toshkentda nashr qilindi.

«Devona- i- Mashrab»ning dastlabki ruscha tarjimasi ham N. S. Likoshin qalamiga mansub bo'lib, u 1910 yilda Samarqandda nashr qilingan edi.

N. S. Likoshin rus tilidan o'zbekchaga ham bir qancha asarlarni tarjima qilgan edi. Masalan, S. M. Solovevning «Rus tarixi» nomli darsligini va qishloq xo'jaligiga oid bir qancha risolalar: asalarichilik, o'g'itdan foydalanish haqidagi kitoblarni rus tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. U mahalliy xalq orasida mashhur bo'lgan afsonalardan foydalanib, «Мурadbек и Фатима» («Хивинское придание») degan hikoyani yozib, 1896 yilda Toshkentda nashr qildirdi.

XVII asrga doir tarixiy asarlardan biri — Abulgoziyning «Shajarai tarokima» asarini sharqshunos olim A. G. Tumanskiy rus tiliga tarjima qilib, 1897 yilda Ashxobodda chiqardi. Boshqa bir tarixiy asar — «Samaruya»ni Ulugbek observatoriyasini birinchi bo'lib topgan sharqshunos olim V. L. Vyatkin rus tiliga tarjima qilib, 1904 yilda Peterburgda nashr ettirdi.

Musulmon odati va huquqiga oid «Hidoya» nomli asarni sobiq Samarqand gubernatori Grodekov rus tiliga ag'darib, 1893 yilda nashr ettirdi. Arab tilini mukammal bilgan Sattorxon Grodekovga o'zining qimmatli maslahatlari bilan juda katta yordam bergan edi.

Rus olimlari o'zbek adabiyoti namunalari qidirib topib, nashr va tarjima etib, bular to'g'risida maqola va katta asarlar yozganlar. Ayni zamonda ruschadan ko'pgina risola, badiiy asarlarni ham o'zbek tiliga tarjima qilganlar. Masalan, akademik A. N. Samoylovich Fuzuliy, Mashrab, Huvaydo, Sidqiy, Furqat, Bahodir, mulla G'oyib Bahriy, Do'st Ali, Xoksor, mulla Mirzo kabi 38 ta shoirning asarini to'plash bilan birga, ularning ba'zilarini tarjima qilishga ham kirishdi va ko'plari haqida ilmiy asarlar yozdi.

Akademik V. V. Bartold turkiy tillarni, jumladan o'zbek tilini bilishidan tashqari, fors, arab tillarini ham egallagan edi. U ko'pgina tarjima asarlarining mas'ul muharriri bo'lgan. Akademik V. V. Bartold O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va adabiyoti to'g'risida yozgan asarlari bilan butun dunyoga mashhurdir.

M. V. Kosovskiy o'zbek xalq qo'shiqlarini tarjima qilib, notasi bilan etnografiya jurnalida e'lon qildi. Folklor namunalari to'plab tarjima qilishda o'qituvchi Vasilevning xizmati katta. «Turkiston viloyati gazetida»da uzluksiz 30 yilga yaqin redaktorlik vazifasini o'tagan N. P. Ostroumov rus yozuvchilarining asarlarini o'zbekchaga va o'zbek yozuvchilarining asarlarini rus tiliga tarjima qilishda hormay-tolmay ishladi.

O'z sinfining sodiq o'g'li N. P. Ostroumov chor Rossiyasining manfaatlarini ko'zlagan va ularni qattiq himoya qilgan xolda, taraqqiyparvar o'zbek shoirlarining ajoyib asarlarini gazetada bostirishga majbur bo'ldi. Uning o'zi Muqimiy, Furqat va boshqa shoirlarning asarlarini rus tiliga tarjima qilgan edi.

N. P. Ostroumovning uzoq, muddatli tarjimachilik faoliyati ko'p qirrali bo'lib, turli-tuman janrlarni o'z ichiga oladi. U tarixiy risolalar, sarguzashtlik kitoblari, she'r va folklor asarlarini tarjima qilgan edi.

N. P. Ostroumov shoir Furqatning «Akt majlisi xu-susida», «Toshkand shahrida bo'lgan na'ma bazmi xususida», «Suvorov haqida», «Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida», «1891 yil 22 yanvarda...», «1891 yil 10 fevralda...» kabi she'rlarini tarjima qilib, uning asarlarini rus xalqiga birinchi bo'lib tanitdi.

N. P. Ostroumov «Sattorxon Abdul G'afforovning xotiralari» («Воспоминание Саттархана Абдул гаффарова»), «Qo'qon shoiri Zokirjon Furqatning avtobiografiyasi» («Автобиография Кокандского поэта Закирджан Фурката») kabi memuar asarlarni ham rus tiliga o'g'irgan.

N. P. Ostroumovning hamma tarjimalarini ushbu ishda batafsil tahlil qilish imkon doiramizga sig'maydi va bu bevosita bizning vazifamizga kirmaydi. Shunday bo'lsa ham, uning Furqat ijodidan qilgan ayrim tarjimalari bilan hozirgi tarjimalarni bir-biriga qiyos qilishga ob'ektiv zarurat tug'ilganiga, quyidagi mulohazalar tufayli, kitobxon iqrar bo'lsa kerak, deb umid qilamiz.

Furqat 1890 yil, 5 oktyabrda Toshkent teatrida bo'lgan vaqtida «Suvorov» spektaklini ko'rganidan so'ng ilhom bilan o'zining «Suvorov haqida» she'rini yozadi. N. P. Ostroumov shoirning ana shu she'rini rus tiliga satrma-satr tarjima yo'li bilan ag'dargan.

G'arb yozuvchilarining o'zbek tiliga o'girilgan asarlari

Davrlar o'tishi, fan-texnika, adabiyot va san'at taraqqiyoti munosabati bilan xilma-xil sohalar bo'yicha ko'plab adabiyotlar paydo bo'la boshlagan ekan, ularni ham muloqotga kirishilayotgan mamlakatlar tillariga yoki ular tillaridan ona tiliga tarjima qilishga ehtiyoj sezila boshlagan

- arab
- fors
- hind
- yunoncha
- usmonli turkcha
- rus

G'arbiy Ovro'po kabi tillardan o'girilgan asarlar o'zbek xalqi yozma adabiyotining katta ulushini tashkil etadi.

Shayx Sa'diy "Guliston", Nizomiy Ganjaviy "Mahzanul asror", Firdavsiy "Shohnoma", Kaykovus "Qobusnoma", Umar Xayyom ruboiylari, Hofiz g'azallari, "Ming bir kecha Arab ertagi", Hind ertagi "Kalila va Dimna", Qirg'iz xalqi eposi "Manas", A.S.Pushkin she'riyati, Muxtor Avezov "Abay" romani, Robindranat Tagor romanlari, L.N.Tolstoy romanlari, T.G.Shevchenko she'riyati, Maxtumquli ijod mahsullari, Nizomiy Ganjaviy "Xisrav va Shirin"

Bizning e'tiborimizni o'ziga ko'proq tortayotgan mamlakatlar, chunonchi, G'arbiy Ovro'po mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo'lagi hisoblanmish Angliya adabiyoti va inglizxonalar ijodkorlar sanalmish amerika adabiyoti vakillari asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketadigan bo'lsa, shuni alohida qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o'zbek kitobxonlari e'tiborini darhol o'ziga tortdi va tez orada ularning ko'pchiligi xalqimizning sevimli asarlariga aylanib, kitob javonlaridan o'rin oldi.

30-yillarning birinchi yarmidan e'tiboran o'zbek kitobxonlari inglizxonalar mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e'tiborini buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspir ijodi ko'proq o'ziga tortdi.

Keyingi o'n yilliklarda o'zbek kitobxonlari jahon adabiyotining bir talay yirik namoyandalari asarlarini ona tilida mutolaa qila boshladilar.

- Abdulla Oripov Dantening "Ilohiy komediya"si;
- Erkin Vohidov Gyotening "Faus"i;
- Qodir Mirmuxammedov Gomerning "Odisseyasi", Jovanni Bokkaoning "Dekameron"i;
- Mirtemir qirg'iz eposi "Manas";
- Muhammad Ali hind xalqining "Ramayana" eposi va boshqalar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, xalq e'zoziga sazovar bo'ldilar
- 1978 yilda V.Shekspirning sonetlari alohida kitob tarzida (o'zbek tiliga o'girilgan) bosib chiqarildi.
- 1971 yilda Shotlandiya shoiri Robert Bernsning "Qo'shiq va balladalar" kitobi Muhammad Ali tarjimasida nashr etildi.
- 1974 yilda Bayronning she'r va balladlari M. Shayxzoda, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Rauf Parfi tarjimalarida kitob shaklida chop etildi.
- 1988 yilda buyuk ingliz shoiri Jorj Bayron tug'ilganiga 200 yil to'lishi munosabati bilan qator gazeta va jurnallar sahifalarida shoirning "Don Juan" dostonidan Abdulla Sher asliyatdan bevosita o'girgan parchalar bosildi.
- 1960 yilda V.Shekspir asarlarining o'zbek tilidagi birinchi to'plami bosib chiqarilgan.
- 1956 yilda taniqli yozuvchi-tarjimon Mirzakalon Ismoilij ingliz yozuvchisi E.Voynichning "So'na" romanini qayta o'girib, asarning ancha mukammal tarjimasini kitobxon e'tiboriga havola etdi.

O'zbekchaga o'girilgan asarlarning ko'pchiligi mamlakatimiz teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Iste'dodli sahna ustalari Abror Hidoyatov, Olim Xo'jaev, Shukur Burxonovlar Otello, Hamlet va Brut rollarini qoyilmaqom ijro etganliklari tufayli qator yillar davomida tomoshabinlar tahsiniga sazovor bo'ldilar.

1943 yilda mamlakatimizga mehmon bo'lib kelgan Britaniya parlamenti delegatsiyasining Hamza nomli Akademik drama teatri sahnasida "Otello" tragediyasini tamosha qilganidan keyin, teatrlarning taassurotlarni qayd etish daftarida yozib qoldirgan ushbu so'zlarini keltirish joizdir: "Britaniya parlament delegatsiyasi Toshkent drama teatri sahnasida "Otello"ni ko'rib, juda huzur qildi. Buyuk asarning bu qadar

zo‘r va mohirona ijro etilishini xonadonimizdan juda o‘zoqda turib ko‘rish – bu bamisoli qadimiy do‘st bilan yangi do‘stlar davrasida uchrashish, uni yangilangan alp bahodir holida ko‘rishga o‘xshaydi.”

V. Shekspir asarlari dunyo asarlaridan o‘zbek tiliga eng ko‘p tarjima qilingan daholaridan hisoblanadi “Hamlet”, “Otello”, “Veronalik ikki yigit”, “Makbet”, “Romeo va Juletta”, “Qirol Lir”, “Yuliy Sezar”, “Qiyiq Qizning quyilishi”, “Antoni va Kleopatra”, “Qish ertagi”, “Koriolan”, “Venetsiya savdogari”.

Hozirgi kunda inglizabon yozuvchilar ijodidan o‘zbekchaga o‘girilgan asarlar katta miqdorni tashkil etadi. Ulardan ayrimlarining nomlarini tilga olamiz. Yuqorida eslatilgan asarlar tarjimalaridan tashqari ingliz adabiyotidan yana Jeyms Grinvudning «Juldur kiyimli bola» (1961, N. Turmuxammedov tarjimasi), A. Konan Doylning «Chipor lenta» (1963, V. Ro‘zimatov tarjimasi), «Sherlok Xolms haqida hikoyalar» (1963, M. Mirzoidov), «Baskervillar iti» (1971, N. Habibullaev), R. Kiplingning «Maugli», U. Herbertning «Ko‘rinmas odam» asarlari (1961, R. Komilov), Garriet Bicher Stouning «Tom tog‘aning kulbasi», R. Stivenzonning «Xazinalar oroli», G. Xeggardning «Blosholm sohibasi» (1975, N. Shomirzaev), Jeyms Oldrijning «Dengiz shunkori» romani (1977, E. Mirobidov), Amerika adabiyotidan Jek Londonning «Martin Iden» (1968, Q. Mirmuxammsdov), «Uch qalb» romanlari va «hikoyalar to‘plami» (1958, F. Abdullaev), Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari va Geklberri Finning boshidan kechirganlari», «Shaqzoda va gado» hamda «Janna d'Ark» (1965, R. Komilov), Oliver Tvist romanlari, Teodor Drayzeriing «Baxti qaro Kerri», «Amerika fojiasi» romanlari (1976, U. Usmonov), F. Kuperning «So‘nggi Mogikan» (1973, E. Mirobidov), «Chingachuk ulkan ilon» (1971, E. Mirobidov) romanlari, Ernest Hemingueyning «Alvido, qurol!» romani, Janubiy Afrika adabiyotidan Piter Abrahamsning «Chaqmoqli yo‘llar», «Qabrdagi gulchambar» romanlari va boshqa ko‘pgina asarlar tarjima qilinib, keng o‘zbek kitobxon ommasini mulkiga aylantirildi.

Xullas, mamlakatimizda bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o‘tish jarayoni boshlab yuborildi. Bu sa‘y-harakat o‘zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi, degan umiddamiz.

Nihoyat, qayd kilish zarurki, mamlakatimizda ko‘p asrlik tarixiy davr mobaynida juda katta badiiy-adabiy, tarixiy, ahloqiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o‘zbek tiliga o‘girildi. Tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan yonma-yon paydo bo‘lib, rivojlanib, xalqimizning g‘oyaviy-estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmokda.

G‘aybulla As-salom O‘zbekistonda tarjimashunoslik fani asoschisi Ijodiy faoliyati

Olim, muallim, mutarjim, muharrir, noshir, shoir, maqolanovis va O‘zbekiston tarjimashunoslik fani asoschisi – G‘aybulla As-Salomovdir.

O‘ttiz besh yillik ijodiy faoliyati davomida jumhuriyat, shuningdek, ittifoq ro‘znoma va oynomalarida 200 dan ortiq kata kichik ilmiy, publisistik maqola, taqriz, suhbatlari bilan qatnashdi va qatnashib, radio va televideniya da bot-bot chiqishlar qilib kelmoqda; yigirmadan ortiq yirik, salmoqli nazariy kitob, darslik chiqardi (shulardan «Maqol va ideomalar tarjimasi», «Til va tarjima», «Tarjima nazariyasi asoslari», «Tarjima nazariyasiga kirish», «Tarjimon mahorati», «Do‘stlik ko‘priklari», «Adabiy an‘ana va badiiy tarjima», «Tarjima tashvishlari» va boshqalar keng o‘quvchilar ommasini, ilmiy jamoatchilikka yaxshi tanish);

O‘ndan ortiq o‘quv-metodik qo‘llanma, dastur chiqardi; o‘ttizga yaqin kitob, to‘plam, lug‘atga (jumladan, Maxmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk», J. Sharipovning «O‘zbekistonda tarjima tarixidan» asariga, O‘zbek Qomusi so‘zliklari, 1-jildiga, an‘anaviy «Tarjima san‘ati» to‘plamlariga) ilmiy va adabiy muharrirlik qildi, o‘zi ham ellik bosma tabaq hajmida badiiy, ilmiy, publisistik asarlarni (Chexov, Dostoyevskiy, Ushinskiy, Dorneman asarlarini) o‘zbekchaga o‘girib, bu ishning mashaqqatini chekdi, azobli rohatini to‘ydi; asarlari, ijodiga bag‘ishlab o‘ttiz beshga yaqin maqola, taqrizlar yozildi, ellikdan ortiq maqola, suhbat va boshqa tadqiqotlarda ilmiy, pedagogik, insoniy sifatlari haqida ilk fikrlar bayon etildi; bir necha yil muqaddam, xali fan nomzodi paytidayoq, O‘zbekistonda tarjimashunoslik fani asoschisi sifitida tan olindi; 1969 yili Toshkent Davlat dorilfununida ittifoq dorilfununlari ichida birinchi va hozirga qadar yagona tarjima nazariyasi kafedrasini ochdi va shu kunga qadar unga bosh qosh bo‘lib kelgan.

Jahon adabiyoti durdonalari haqida fikrlari

G‘aybulla Salomov «Shohnoma», «Manas», «Ramayana», «Ilohiy komediya», «Faust», «Dekameron», «Yevgeniy Onegin», «Revizor», «Urush va tinchlik», «Anna Karenina» va jahon adabiyotining boshqa durdonalari; Shekspir, Gogol, Chexov, Dostoyevskiy, Aytmatov shoh asarlarining

aksariyati; izdaniy hayotda voqea bo'lgan badiiy, ilmiy, siyosiy, publisistik asarlarning ko'pchiligi haqida o'z fikrini bayon etdi, munosabatini bildirdi. Bunga o'ttiz besh yil ichida gazeta va jurnal sahifalarida bosilgan maqola va taqrizlari, kitob va dissertatsiyalari, anjumanlar, ilmiy kengashlar, o'zaro suhbat-mubohasalarda bildirgan fikr-mulohazalari guvoh. Ularning nechog'li bilib aytilganligi, asosli va juyali, teran va salmoqliligiga taniqli tarjimashunos olimlar Fransua Per Kayyua (Fransiya), Yan Komarovskiy (Slovakiya), Anna Lilova (Bolgariya), ittifoq va jumhuriyatning tanqli olim, tarjimonlarining yozma va og'zaki fikrlari, iliq gaplari shahodat

Ijodi

Olimning ijodi G'aybullas Salomov yozgan, ugirgan, tahrir qilgan, tartib bergan maqola, kitoblar taxlansa, buyi barobar keladi, degan gapda jilla ham mubolag'a yo'q. Shogirdlari, hamkasblari olim tavalludining 50 yilligiga bag'ishlab bibliografii ko'rsatkich (mas'ul muharrir Najmiddin Komilov, tuzuvchilar Tilak Jo'raev, 3. Alimova, Toshkent, ToshDU, 1982), 60 yilligiga bag'ishlab «Professor G'aybulla as-Salom» nomli ilmiy va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotnoma (tuzuvchilar fan doktori Muhammadjon Xolbekov, fan nomzodi Saloxiddin Hayitov, Poshali Usmon, Zohidjon Sodiqiy, Salim Jabborov, muharrir prof. S. Komilov, so'z boshi muallifi — Beruniy mukofoti sovrindori, prof. E. Karimov) nashr etdilar.

Tadqiqotlari

Tarjima nazariyasi, qisman, tarjima tarixi masalalari bilan shug'ullanadi. Muayyan tarjima tahliliga kirishganida: 1) mavjud tarjima an'analari, 2) ayni tarjimaning yuzaga kelishini, 3) shu tilda yoki boshqa tillarda yaratilgan tarjimalardan farqini, 4) amalga oshirilgan tarjimaning ma'lum davr o'tishi bilan vatan adabiyoti taraqqiyoti yoxud tarjimonning o'z ijodiy takomiliga ta'sirini aniqlashga urinadi Tarjima va mantiq, tarjima va lug'at, tarjima tahriri, zullisonaynlik (bilingvizm) va tarjima, tarjima tadoriki (metodologiyasi), tarjimada adabiy o'g'rilik (plagiatlik)ning o'ziga xos ko'rinishi, adabiy an'ana va badiiy tarjima, realistik tarjima talabi va uning qaror topish tadrijiyoti (evolyusiyasi), o'zbek adabiyotining tarjimaviy xaritasini tuzish, tarjimon mahorati (ijodiy siymo) singari masalalar ustida tadqiqot ishi olib boradi

Kitoblari

Matbuot yuzini ko'rgan ilk maqolasi «A.P. Chexov hikoyalarining ba'zi bir til va uslub xususiyatlari tug'risida» («Lenin yuli», 1954 yil 13 iyun), ilk risolasi «Urischadan o'zbekchaga badiiy tarjimaning ba'zi nazariy masalalari xususida» (Toshkent, 1957) deya atalib, ularda Chexovning «Bukalamun», «Oyni etak bilan yopib bulmas», «Yovuz niyatli kishi» hikoyalari tarjimasi xususida so'z yuritiladi.

Badiiy tarjima va adabiy tahrir problemalari. Ilmiy tadorik qo'llanma. ToshDU, 1973, 98 bet. Muallif oliy dorilfunun tahsilida tarjimaviy saboqning nazariy va ilmiy-tadorik mazmun mundarijasiga doyr masalalarni keng talqin qilish yo'rig'ida ilgari suradi.

Til va tarjima. Monografiya. Toshkent, 1966, 382 bet. Kitobda rus tilidan o'zbekchaga tarjima kilishning birinchi umumfilalogik masalalari yoritilgan. Unda tarjimaning asosiy «qurilish ashyosi» bulgan so'z, uning fonetik libosi, ma'noviy (semantik) va uslub xususiyatlari hamda tarjima jarayonida sinonimlardan istifoda etish kabi muammolar mufassal tekshirilgan. Badiiy tarjimada muallif uslubini aks ettirishga daxldor muhim fikrlar ilgari surilgan. Turli-tuman tarjimalarni, dalillarni chog'ishtirish asosida yaratilgan bu asarda muallif badiiy tarjimaning bir qancha lisoniy sirlarini ochishga harakat qilgan. U hozirgacha ilmiy jamoatchilikka ma'lum bulmagan ko'pgina tarjimashunoslikka doir asarlarni va ko'hna tarjimalarni qidirib topdi, tahlil qildi, ilmiy muomalaga yo'naltirdi. «Til va tarjima» G'. Salomovning eng yirik, salmoqli, jiddiy asari bo'lsa-da, badiiy asarday maroq bilan o'qiladi.

Tarjima asoslari. Uquv qo'llanma. ToshDU, 1976, 88 bet (hammuallif S.A'zamov). Muqddima kurs sifatida yaratilgan bu qo'lanmada oliy maktab talabalariga amaliy tarjimachilik ishi va nazariy tarjimashunoslik yuzasidan muxtasar bilim berilgan. Unda zullisonaynlik (bilingvizm) va tarjima, ijtimoiy siyosiy va ilmiy-texnikaviy kitoblar tarjimalarida istilohot, ilmiy uslubni ifodalash yuriqlari, tarjima va lug'at, in'ikos nazariyasi va tarjima muammolari yuzasidan bahs yuritilgan, mazkur masalalar buyicha talabalarga ma'lumot berilgan.

Tarjima nazariyasiga kirish. Darslik. Toshkent, 1978, 218 bet (muharrir O.Togaev). Tarjima—lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so'z san'ati, tarjimon esa ijodkordir. Muallif tarjima jarayonini keng miqyosda tadqiq etadi. Kitobda tarjima nazariyasi, tanqidi, qisman tarixiga doir ko'pgina kiziqarli ma'lumotlar berilgan. Darslik tarjimonlar, til va adabiyot muallimlari, oliy maktab talabalar, aspirantlar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Adabiy an'ana va badiiy tarjima. Toshkent, 1980, 160 bet. Uris hamda Sharq va G'arb, Ovrupo adabiyotlari asarlarining tarjimalari o'zaro aloqa va ta'sir asosida tadqiq etilgan. Unda uslub va uslubiy

moslashtirish, shuningdek, o'zbek tarjimonlarining ijodiy tadoriki takomilida G'arb, birinchi galda uris va qardosh xalqlar badiiy tarjimachiligida ortirilgan boy tajribalarning roli masalalari yoritilgan.

Do'stlik ko'priklari. Monografiya. Toshkent, 1979, 224 bet (hammuallif N. Komilov). She'riy tarjima xususida bahs yuritiladi. Unda nazm tarjimasi adabiy an'analari va adabiy aloqalar bilan uzviy bog'lik holda olib tekshiriladi. Ishning birinchi bobida, asosan, G'arb adabiyoti, xususan, Uris she'riyati namunalarining o'zbekcha tarjimalari hamda, qisman, o'zbek shoirlari asarlarining urischa tarjimalari tahlil qilinsa, ikkinchi bobda gazal tarjimasi muammolari haqida fikr yuritiladi. Mualliflar she'riy tarjima qurilmasi, uning asosiy talablari, o'ziga xos nozik tomonlari, vazn, qofiya, radif, bayt-barbaytlik (ekvileneartlik), ohang muqobilligi (ekviritmiya), vazn muqobilligi (ekvimetriya) kabi sof tarjimaviy tushuncha va kategoriyalar yuzasidan mulohaza yuritib, xiyla keng nazariy umumlashmalarga kelganlar.

Tarjima tashvishlari. Toshkent, 1983, 192 bet. Tarjima jarayoni tarjima qurilmasi, tarjima san'ati bilan bog'lik barcha jabhalarni qamragan holda tarjimaga ehtiyoj tug'diruvchi omillar, pirovard natijada erishilgan hosila, ya'ni muayyan tarjima tufayli vatan adabiyotida paydo bulgan sifat o'zgarishlari ham baqamti tahlildan o'tkazilgan. Uslubniyag sof nazariy-qoliplovchi (tipodogik) talqini berilib, so'ngra u tarjima mavqeidani turib talqin qilingan. Ishda tillararo ayrim vositalar va lisoniy-uslubiy qatlamlar qiyosiga e'tibor qilingan holda keng ma'noda tarjima imkoniyatlari, tarjima bo'lish (yoki bo'lmaslik) konsepsiyasiga munosabat bildirilgan.

Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. Toshkent, 1983, 232 bet. Madaniy-ilmiy hamkorlik va tarjima bazasi tarixiy negiz asosida o'rganilgan. Muallif uslubiy ifoda tarzining uning ijodi va badiiy tarjima jarayonidagi xususiyatini ko'rsatishga harakat qilgan. Uslub tushunchasiga vobasta umumiy mushtarak-tipik ko'rinishlar bilan birga, xususiy, yakka, betakror jihatlar ochib berilgan. Milliy xoslik so'z, musiqa, harakat va rang tushunchalariga tatbiqan tahlil qilingan. Muallif va tarjimon uslubi, tarjimada o'zlik (sub'ektivizm)ning ikki xil ko'rinishi, tarjimaviy moslashtirish (transformatsiya va lokalizatsiya) hodisalari, ularning me'yori va darajalari, milliy idrok xususiyatlari, badiiy tarjima va talqinda donishiylik, soddalik, murakkablik masalalari oydinlashtirilgan. Uslubiy moslashtirish (stilizatsiya), ma'noviyot (semantika), sinonimiya, naqlchilik iborasoqlik istilohotning ishtiroki aniqlangan. She'riy tarjimadagi vazn transformatsiyam va muqobil ohang problemasiga katta o'rin ajratilgan.

She'riyati

G'aybullas-Salomning «Qaldirgochning raketaga degani», «Falsafaga raddiya yoki quloqa isirg'a», «Bir quv og'amga», «Hayvonot bog'ida» kabi she'rlari ilk bor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligining 1989 yil 10 mart sonida bosildi. Shundan keyin turli nashrlarda «Dunyo ekan bir ko'shiq», «Ohuni ko'zlab», «Paymona», «Darz ketdi», «Bo'lganim bo'lgan», «Uzimni uylayman», «Odamlar», «Erk haqida cho'pchak», «Kashpirovskiyga xat», «Qodirxon», «Kunglimday siniq satrlar», «Surmai Sulaymon», «Shatranj», «Yashil kitob», «Ey, metin qalb...» «Ramz, Kuyosh, Mehriston», «Dovul» kabi she'rlari birin-ketin e'lon qilindi, ayrimlari radio, televideniedan ukildi (she'rlarining mavzu, muammolari sarlavhalaridan ham bir. qadar ko'rinib turibdi).

Jamol Kamol tarjimonlik mahorati

E.Ochilov maqolasidan

O'zbekiston xalq shoiri, serqirra va sermahsul tarjimon Jamol Kamolning xizmatlari beqiyos. U bir necha tarjimon umri bo'yi qila olishi mushkul bo'lgan keng ko'lam va katta miqyosdagi tarjimalarni bir o'zi amalga oshirdi – 30 ga yaqin alohida asar va 20 dan ortiq shoir she'rlarini o'zbekchallashtirdi.

Jamol Kamol esa bir necha tildan – rus, ingliz, fors, tojik, turk, ozarbayjon tillaridan tarjima qiladi.

Rus tilidan – A.S.Pushkinning «Motsart va Saleri» kichik fojiasi, Radiy Fishning «Jaloliddin Rumi» tarixiy-biografik romani, fransuz klassisizmining yirik namoyandasi Bualoning «She'riy san'at» asari, latish shoiri Yan Raynisning «Oq tulpor» dramatik ertagi, nemis adibi Bertold Brextning «Sichuandan chiqqan mehribon» dramasi, Shandor Patefi (venger), Lesya Ukrainka (ukrain), Maksim Tank (belorus), Nikolay Gribachev (rus), Fridon Xolvashi (gruzin) she'rlarini o'zbekchallashtirdi.

Ozarbayjonchadan Baxtiyor Vahobzodaning «Faryod» to'plami va «Shabi hijron» dostoni, Xalil Rizoning «Samarqandim» she'rini, turk tilidan Hazrat Alining devonini, tojik tilidan Sotim Ulug'zodaning «Firdavsiy» romani, G'affor Mirzoning «Davlat toji» lirik dostonidan «Oshiq dil rozi» nomli kattagina parchani o'girdi.

Ingliz tilidan – buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning jahon dramaturgiyasining gultojlari bo'lmish «Qirol Lir», «Hamlet», «Makbet», «Afinalik Timon», «Romeo va Juletta», «Otello», «Koriolan», «Yuliy Sezar», «Venesiya savdogari», «Qish ertagi», «Qirol Genrix VI», «Antoni va Kleopatra» kabi 12 ta

dramasini¹¹, shuningdek, Bilqiz Aladinning Budda, Muso, Iso va Muhammad singari paygʻambarlarga bagʻishlangan qissalarini, «Akbar va Birbal» hikoyatlarini mahorat bilan tilimizda jaranglatdi. Yaqinda Shekspir sonetlari tarjimasini nihoyasiga yetkazdi.

Fors tilidan – Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abdulloh Ansoriy, Hakim Sanoiy, Adib Sobir Termiziy, Mavlono Jaloliddin Rumi, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Xusrav Dehlaviy, Mirzo Abdulqodir Bedil ruboiylari, Mavlono Jaloliddin Rumiyni olti kitobdan iborat muazzam «Masnaviyi ma'naviy»si, Shayx Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr», «Ilohiynoma», «Asrornoma» dostonlari, Abdurahmon Jomiy gʻazallarini oʻzining aruziy vazni bilan oʻzbek tilida yangrati oldi.

U Sharq soʻz sanʼati durdonalarini ham, Gʻarb adabiyoti barkamol namunalarini ham qiyomiga yetkazib tarjima qilib kelayapti – rus, ingliz, fransuz, latish, fors, tojik, turk, arab, ozarbayjon adabiyotidan qilgan tarjimalari buning yorqin dalilidir.

Jamol Kamol tarjimalari janr jihatidan ham chegaralanmagan – u roman, qissa, hikoyat, drama, doston, gʻazal, ruboiy, sonet, ertak, rivoyat kabi koʻplab janrdagi asarlar tarjimasida qalamini sinab koʻrib, ularning barchasida muvaffaqiyatga erishgan.

Darhaqiqat, Jamol Kamol Shekspir va Pushkinning oq sheʼrda yozilgan fojialarini ham, Ibn Sino, Umar Xayyom va Mirzo Bedilarning teran falsafa va yuksak badiiyat omuxta purmaʼno ruboiylarini ham, Rumi va Attorlarning islomiy gʻoyalar, tasavvufiy qarashlar hassoslik bilan nazm rishtasiga terilgan irfoniy dostonlarini ham, Bualoning «Sheʼriy sanʼat» nomli adabiyot nazariyasiga oid sheʼriy asarini ham, Yan Raynisning bolalarga bagʻishlangan «Oq tulpor» nomli sheʼriy dramatik ertagini ham, Radiy Fish va Sotim Ulugʻzodalarning tarixiy romanlarini ham ularning ruhiga kirib, uslubiga kalit topib, muvofiq shaklda asliyatga munosib tarjima qilishning uddasidan chiqqan.

Shu tariqa, u «rus, turk, ozarbayjon, fors-tojik va ingliz tillarini puxta oʻzlashtirgan, nafosatini teran his qila biladigan poliglot tarjimon sifatida nafaqat oʻz ona-Vatanida, balki Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Ozarbayjon va Tojikiston singari mamlakatlarda tanildiki, buni uning mazkur tarjimalari uchun Turkiya jumhuriyati Madaniyat vazirligining Jaloliddin Rumi oltin medali hamda Eron Islom Respublikasi davlat mukofoti bilan taqdirlanganligi»dan¹² ham bilsa boʻladi.

Hech mubolagʻasiz, Jamol Kamol bir necha tillar, har xil adabiyotlar, turli janrlar, rang-barang uslublardagi mahorat bilan amalga oshirilgan «koʻb va xoʻb» tarjimalari bilan oʻziga oʻlmas haykal qoʻyib ulgurdi.

Jamol Kamolning barcha tarjimalari – ruboiylardan tortib «Masnaviyi ma'naviy»gacha adabiy hayotda voqea boʻlgan. Jumladan u 9 nafar fors-tojik soʻz sanʼatkorining 333 ta ruboiysini maromiga yetkazib tarjima qilgan.

¹¹ Булардан учтаси – «Макбет», «Антоний ва Клеопатра», «Венеция савдогари» драмаларини аввал русчадан таржима қилиб, кейинчалик уларни инглизча нусхасига қиёсан қайта кўриб чиққан. – Э.О.

¹² Сафаров О., Шарипова Л. «Аср билан видолашув» // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008, 5-сон, 101-бет.

XX ASR IJODKOR TARJIMONLARI

Cho'lpon



Oybek



Hamid Olimjon



Uyg'un



G'ofur G'ulom



Zulfiya



Abdulla Qahhor



Shayxzoda



Mirtemir



Usmon Nosir



GI DE MOPASSAN (1850-1893)

FRANSUZ YOZUVCHISI MOPASSAN 6 TA ROMAN, 18 TA HIKOYALAR TO'PLAMI VA BIR QANCHA OCHERK, QISSALAR MUALLIFIDIR. UNING DUNYOGA MASHHUR "AZIZIM", "HAYOT" ROMANLARINI **IBROHIM G'AFUROV** MAHORAT BILAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILGAN.



ilova 2


ERNEST XEMINGUEY (1899-1961)

BUYUK AMERIKALIK YOZUVCHI XEMINGUEY DUNYOGA MASHHUR BIR QANCHA ASARLAR YOZIB QOLDIRGA. UNING ASARLARIDA DUNYO DAVLATLARINING SIYOSATDAGI ASL QIYOFASI YORITIB BERILGAN. AYNIQSA UNING FASHIZM, QIG'INBAROT JAHON URUHLARI HAQIDAGI ASARLARI SEVIB O'QILADI. UNING TARJIMA QILINGAN ASARLARI QUYIDAGILAR:

1. "DAHSHATLI KUTISH" HIKO'YASI (O'ROQ RAVSHANOV TARJIMASI)

2. "CHOL VA DENGIZ" (IBROHIM G'AFUROV TARJIMASI)

3. "ALVIDO, QUROL"



2 SEMESTR
Tuzuvchi: f.f.n. E. Ochilov

BIRINChI MA'RUZA
TARJIMA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA,
TARJIMANING TIL MUAMMOLARI

Dars rejasi:

1. Tarjima tushunchasining mazmun va mundariyasi.
2. Tarjimaning siyosiy-ijtimoiy, ma'daniy-ma'rifiy ahamiyati.
3. Tarjima, tarjimon, tarjimashunos so'zlarining etimologiyasi va ta'rifi.
4. Tarjima tarixiga bir nazar.
5. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari.
6. Interpretatsiya va tarjima.
7. Tarjimada jins kategoriyasi.
8. Xalqlar va tillar.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmalik, g'ofilik, milliy mahdudlikka olib keladi"¹³. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'pri deb qaraladi.

Demak, tarjima:

- xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvchi;
- madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'siri;
- tillarning boyishida muhim rol o'ynaydi.

Tarjima – muayyan tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash.

Tarjima tarjimon so'zidan hosil bo'lgan, **tarjimon** esa forscha **tarzabon** so'zidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, qadimda O'rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notqlik san'ati juda rivojlangan. Notqlarni esa tarzabon deb ataganlar. **Tar** – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma'nolarni bildiradi. **Zabon** – til degani. **Tarzabon** – notiq, chiroyli gapiruvchi, so'z ustasi, yangi va o'tkir so'zlarni aytuvchi demak. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notqlik mahoratiga ega bo'lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarini o'z ta'sirlariga olganlari kabi, ko'pgina so'zlarni ham o'zlashtirib, arab tili qoidalariga bo'ysundirganlar. Jumladan, **tarzabon** so'zi ham arabcha talaffuzda "tarjamon" (yoki "tarjimon")ga aylanadi. Shundan keyin u arab tilining so'z yasash qonuniga bo'ysunib, undan yangi masdar (o'zak), fe'l va otlar hosil qilingan. Masalan: tarujama, tirijama, tarjama, mutarjim, mutarjimun.

Shunday qilib, **tarjimon** – tarzabon so'zining arabcha tarjimasini bo'lsa, **tarjima tarjimon** so'zidan kelib chiqqan.

Tarjimon – bir tildagi og'zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch, tarjimachi.

Tarjimonlik – tarjima qilish, tarjima ishi bilan shug'ullanish. Kasb oti.

Tarjimashunos – tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, olim.

Tarjimashunoslik – tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidi bilan shug'ullanuvchi fan.

Tarjima o'tmishda hozirga ma'nosidan tashqari, **bayon etish, tushuntirib berish, matnni sharhlash, tafsir, ma'noni chaqish, sodd qilib ifodalash** ma'nolarini ifodalab kelgan. Chunonchi, **tarjimai hol** – ahvolni bayon etish. Shuning uchun hatto XX asr boshlariga qadar ham **tarjima** va **sharh, tarjimon** va **shorih** (sharhlovchi) tushunchalari o'rtasida qat'iy chegara bo'lmay, biri ikkinchisining o'rniga qo'llanavergan. Bunga tarjimalarning shakli va tarjimonlarning tarjima prinsiplari ham asos bergan. Chunonchi, 1909 "G'ulomiya" matbaasida bosilib chiqqan Murodxo'ja ibn Solihxo'ja qalamiga mansub "Shavqi Guliston" kitobi Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining ham tarjima, ham sharhi edi. Chunki asarning

¹³ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент, 1978. 18-бет.

forsiy matni bilan o'zbekcha so'zma-so'z tarjimasida berilib, kitob hoshiyasida turli so'z, ibora va hikmatlar sharhlangan.

Sharhning ham turlari ko'p. Ba'zi sharhlar izohli lug'at xarakterida bo'lib, asar matnidagi tushunarsiz so'z va iboralarni izohlab beradi. Boshqa bir xil sharhlarda asarning g'oyaviy mazmuni izohlanadi – bu tafsirga o'xshab ketadi (Birinci turi – izohli lug'at, ikkinchisi – adabiyotshunoslikka yaqin). **Tafsir** so'zi garchi sharh so'zi bilan ma'nodosh bo'lsa-da, uning ayni o'zi emas, u keng sharhlash, ma'noni bayon etish demakdir. Shuning uchun ham tafsir so'zi ilmiy, falsafiy va diniy asarlarga nisbatan qo'llangan. G'arb adabiyotidan tarjimalar munosabati bilan boshqa xalqlarning tarixi, an'ana va udumlari, dini, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tushunchalarni sharhlash ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday sharhlar tarixiy xarakterga ega. Ilmiy asarlar sharhi o'z-o'zidan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alibek Rustamov Atoullloh Husayniyning "Badoe' ul-sanoyi" nomli she'riy san'atlarga oid asari tarjimasida ko'plab ilmiy-adabiy sharhlar beradi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (B.Ahmedov tarjimasida) va Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (I.Bekjon tarjimasida) tazkiralari tarjimasida ham tarixiy, ham adabiy mavzudagi sharhlar berilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (S.Mirzaev, B.Ahmedov tarjimalari), Nosir Xisravning "Sayohatnoma" (G'.Karim tarjimasida) asarlari tarjimasida esa tarixiy mavzudagi sharhlar yetakchilik qiladi.

O'zbek shoirlar tarjima so'zi o'rniga **o'girish, ag'darish, qaytarish, chevurish** kabi atamalarni ham keng ishlatganlar. Chunonchi, Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini "Gulistoni bit-turkiy" nomi bilan tarjima qilgan Sayfi Saroyi (XIV) tarjimini bir tildan ikkinchisiga **qaytarish** deb atagan:

Turkiga qaytib Ajamdin bu kitob,

Ma'rifatqa ochti sakkiz turli bob.

Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarini "Nasoyim ul-muhabbat" nomi bilan o'zbekchaga tarjima qilgan Alisher Navoiy tarjima so'zi bilan birga, **o'tkarish** atamasini ham qo'llaydi: "Xotirg'a kechmishkim, agar sa'y qilsam, bu kitobni turk tiliga **tarjima** qila olg'aymuman va ul daqoyiqu mushkilotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o'tkara olg'aymuman, deb mutaammil erdim"¹⁴.

Zabardast tarjimon Muhammadrizo Ogahiy ham **tarjima** bilan birga, **kiritish, o'tkazish, bayon etish** so'zlarini qo'llagan. "Shayx Nizomiyniing "Haft paykar" otlik kitobini... **tarjima** qilib, turkiy lafzig'a **kirguzmak** xizmatini buyurdilar" yoki:

Bu nusxa tarjimasig'a ochib til,

Iboratini turkiy masnaviy qil,

yoxud:

Turk alfozi birla ayta bayon...

Hozirgi kunda ham tarjima so'zining **o'girish, ag'darish, o'tkazish** kabi ma'nodoshlari qo'llanadi.

Tarjima o'rnida ba'zan **o'girma** ham deyiladi.

Asliyat – tarjimaga asos bo'lgan asar, original.

Abu Rayhon Beruniy: "Til – so'zlovchining istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir", – deb yozadi.

Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan **qayta yaratish**dan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir. Chunki san'atning boshqa turlari (tasviriy san'at, musiqa, raqs) tarjimasiz ham barchaga tushunarlidir.

"**Tarjima** tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'giriladi"¹⁵.

Har qanday tarjima oldiga ikki talab qo'yiladi:

– asliyatda ifodalangan fikr tarjimada ham to'la, aniq va ta'sirchan tarzda o'z akasini topishi kerak;

– tarjima o'zi o'girilgan til me'yorlariga mos kelishi kerak.

Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan narsani dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi – bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'i nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

¹⁴ А л и ш е р Н а в о и й. МАТ. 17-жилд. – Тошкент, 2001. 12-бет.

¹⁵ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 95-бет.

1. Tarjimonning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o‘sha asar matni (yoki og‘zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to‘la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to‘la ifodalash demakdir (Tarjima – qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu’, taqlid, har xil “adaptatsiya”lardan o‘zining xuddi ana shu aniqligi va to‘laligi bilan farq qiladi)¹⁶.

Tarjima bosqichlari

“Tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat:

- 1) asl nusxani idrok etish;
- 2) asl nusxa interpretatsiyasi;
- 3) asl nusxani qayta ifodalash.

Asarni o‘z tiliga o‘g‘irish maqsadida qo‘lga olgan tarjimonning asl nusxasini anglashi uch bosqichda sodir bo‘ladi:

birinchi bosqichda matn so‘zma-so‘z, ya‘ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro‘y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so‘zni xuddi shunday jaranglaydigan bo‘lak so‘z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; kontekstni noto‘g‘ri o‘zlashtirish, ayrim xos so‘zlarning ma‘nosiga tushunib yetmaslik; muallifning muaddosini anglamaslik;

ikkinchi bosqichda uslubiy omillarga e‘tibor qilinadi. Tekstni to‘g‘ri o‘qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham anglaydi, ya‘ni kayfiyat, piching yoki fojiaiy ma‘no, ohangdorlik yoxud voqeani quruq bayon kilishga moyillik va hokazo. Rosmana kitobxon barcha bu sifatlarni anglab yetishi shart emas, tarjimon esa avtor qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o‘qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo‘lishni talab qiladi;

uchinchi bosqich – ayrim til vositalarini uslubiy va ma‘no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, avtorning g‘oyaviy niyatini anglashga o‘tadi. Tekstni anglashning bu yo‘li ancha murakkab va og‘ir – muallif yaratgan badiiy voqelikni to‘laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo‘lmog‘i darkor. Asl nusxani to‘laligicha qamrab olish, idrok etish uchun, aytaylik, rejissyorga qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo‘lishi zarur¹⁷.

Tarjima va interpretatsiya

Interpretatsiya lotinchi **interpretatio** so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish ma‘nosini bildiradi.

Interpretatsiyalash – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demakdir.

Boshqa tildagi ayrim so‘z va iboralar, jumlar agar o‘ziday olinadigan bo‘lsa, bunday tarjimadan hech qanday ma‘no chiqmaydi. Bunday hollarda asliyatda bo‘lmagan ayrim so‘zlar tarjimada “qo‘shiladi”. Aslida esa “qo‘shilgan” narsaning o‘rni shaklan asliyatda bo‘lmasa ham, mazmunan biz uni bor deb bilamiz.

Maksim Gorkiy: “Chelovek zvuchit gordo!”

Odam mag‘rur jaranglar!

Inson so‘zi mag‘rur jaranglar!

Mag‘rur jaranglaydi inson degan so‘z!

Stanislav Yeji Les:

“Odryaxlevshis, vosklisatelniy znak stanovitsya voprositelnim”.

J.Kamol: “Alif qartayib, dol bo‘ldi”.

R.Parfi: “Undov undalib-undalib savolga aylandi”.

So‘zma-so‘z: “Undov alomati shalag‘i chiqib, savol alomatiga aylanadi”.

Erkin: “Belidan madori ketib, undov alomati savol alomatiga aylanadi”.

“Undov belgisi qariganda so‘roq alomatiga aylanadi”.

“Qartayganda undov belgisi ham so‘roq alomatiga aylanadi”.

Rodnoy sin – o‘z pushti-kamarimdan bo‘lgan.

Eto ne shutka – bu hazil gap emas.

L.N.Tolstoy “Ana Karenina”: “... no on malchik i ves u menya na rukax” – “... lekin u qip-qizil yosh bola, “gah” desam, qo‘limga qo‘nadi”. (M.Ismoilov).

Tarjimaning lisoniy va g‘ayrilisoniy muammolari

Til bilish – tarjimaning birlamchi sharti bo‘lsa-da, tarjima uchun faqat shuning o‘zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun

¹⁶ Ўша ерда. 95-96-бетлар.

¹⁷ С а л о м о в F. Таржима назариясига кириш. 102-бет.

ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'g'ri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari **lisoniy**, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari **g'ayrilisoniy** muammolar hisoblanadi. G'.Salomovning yozishicha, "tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki she'riy sistema, ikki individual yozuvchi – avtor va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir"¹⁸.

"Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga "ekvivalentlik holatida bo'lmaydi. Shu sababdan ko'r-ko'rona tarjima qilish mumkin emas. So'zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatleri o'zaro bir-birining o'rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matnning tili qanchalik serma'no, badiiy tarafdin serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi"¹⁹.

Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi tafovutlar:

- so'zlar aro tafovutlar;
- ikki tilning grammatik tuzilishi o'rtasidagi farqlar;
- obrazli iboralar, maqol-matallar tarjimasi;
- ikki adabiy uslub aro tafovutlar;
- ikki madaniyat, ikki urf-odat, ikki din aro tafovutlar;
- she'riy tizimlar aro o'zgachaliklar;
- muallif va tarjimon uslubidagi mushtarak va farqli jihatlar;
- badiiy san'atlarni qayta yaratish;
- milliy o'ziga xosliklar (axloq me'yorlari, imo-ishoralar);
- bir tilda bo'lib, ikkinchi tilda yo'q tushunchalar;
- bir tilda ijobiy, ikkinchi tilda salbiy ma'no ifodalaydigan so'z va tushunchalar;
- shakldosh, ma'nodosh va ko'p ma'noli so'zlar tarjimasi;
- tarjimada ruhiy omillar;
- muallif va mutarjimning ruhan yaqinligi va hamfikrligi;
- muallif va mutarjimning usluban yaqinligi;
- tarjimada yosh masalasi;
- tarjimada teran hissiyot, nafosat, kinoya-piching, hazil-hajv, kosa tagidagi nimkosalarni berish;
- tarjimada ohang, jo'shqinlik va vazminlikni ifodalash.

"Ikki lisoniy sistemani chog'ishtirish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin: a) ikki tilning qaysi axborot vositalarini taxminan ekvivalent hisoblasa bo'lishi; b) asl nusxa tilida mavjud bo'lgan qanday axborot vositalarining tarjima tilida mavjud emasligi; v) asl nusxa tilida mavjud bo'lmagan qanday axborot vositalari tarjima tilida mavjudligi"²⁰.

Xalqlar va tillar

Yer yuzida o'lik tillar bilan birga 2500 tadan 7000 tagacha til mavjud deb taxmin qilinadi.

Hozirda sayyoramiz aholisi 2976 ta tilda muomala qiladi. Insoniyat 11 ta asosiy va 50 ta "mayda" lisoniy turkumlarga kiradigan tillarda fikr almashadi. Xalqlar jami 7-8-mingtacha shevalardan foydalanadilar.

Qo'llanish doirasiga ko'ra quyidagi tillar buyuk tillar hisoblanadi: xitoy, ingliz, ispan, rus, arab, fransuz, hind, nemis, yapon, italyan.

Ushbu tillardan oltitasi BMT tomonidan jahon tillari sifatida tan olingan: ingliz, rus, fransuz, ispan, xitoy, arab.

"Dunyoda taxminan 2 ming xalq yashaydi. 200 ga yaqin ko'p millionli xalq mavjud, ular yer kurrasining 95 foiz aholisini tashkil qiladi. Dunyo aholisining bor-yo'g'i 5 foizi qolgan 1 mingu 800 xalqning hissasiga to'g'ri keladi"²¹.

Sayyoramiz aholisining uchdan ikki qismidan ko'prog'i 27 tilda, uchdan bir ulushidan kamrog'i esa taxminan 2 mingdan ortiq tilda so'zlashadi"²².

Xalqlarning qanchalik taraqqiy etgani yoki xalqaro nufuziga qarab, ularning tillari ham mashhur bo'lgan. Chunonchi, antik davrdan to arablar tarix sahnasiga chiqqunga qadar yunon tili mashhur bo'lgan. VIII-IX asrdan to XII-XIII asrlargacha arab tilining nufuzi yuksak bo'ldi. XVI asrgacha lotin tili shuhrat

¹⁸ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. 40-41-бетлар.

¹⁹ Ўша ерда. 49-бет.

²⁰ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 50-бет.

²¹ Ўша ерда. 31-бет.

²² Ўша ерда.

qozondi. “XVI asrda Yevropada va hatto butun dunyoda ispan tili shoyon bo‘ldi, XVIII-XIX asrlarda fransuz va nemis tillari, XIX-XX asrlarda ingliz tili keng tarqaldi. Hozirgi vaqtda rus yoki ingliz tilini bilish dunyoda mavjud bo‘lgan barcha axborotlarning 70-80-foiziga yo‘l ochadi”²³.

1952 yili Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi tuzilgan.

Yevropa kengashi 2001 yildan 26 sentyabrni xorijiy tillar kuni deb e‘lon qilgan.

Medium lotincha o‘rta degani bo‘lib, boshqa til orqali tarjima qilish ma‘nosini bildiradi.

Tarjimada jins kategoriyasi

Dunyo tillari o‘z tuzilish tasnifotlari bo‘yicha bir-birlaridan farqlanadilar. Chunonchi, ba‘zi tillarda grammatik rod kategoriyasi bor, boshqalari esa bunday xususiyatga ega emas. Aytaylik, Bantu negrlari tilida rus tilidagi rodga muvofiq keladigan 24 kategoriya bor.

“Jahondagi ko‘pgina tillarda (ingliz, turk, xitoy, arman, o‘zbek, tatar va hokazo) otlar rod belgilariga ega emas. Ba‘zi hollarda esa, aytaylik, rus tilida mujskoy rodga deb hisoblangan otlar boshqa tillarda jenskiy rodga deb talqin qilinadi (Masalan, “stol” so‘zi ruschada – mujskoy rodga, fransuz tilida – jenskiy roddadir)”.

Bunday jins kategoriyasi ham tarjimada ba‘zan tarjimonlar oldiga o‘tib bo‘lmas g‘ovlarni qo‘yadi.

Masalan, **solnse** – rus tilida – sredniy rodga, nemis tilida – jenskiy rodga, fransuz tilida – mujskoy rodga.

Lojka – rus tilida jenskiy, nemis tilida – mujskoy rodga

Stul – rus tilida mujskoy, ispan tilida – jenskiy rodga

“Dunyodagi ko‘pchilik tillarda rod (jins) kategoriyasining mavjudligi, turkiy tillarda hamda fin, gruzin, arman va boshqa bu kabi tillarda esa bunday xususiyatning yo‘qligi, ayniqsa tarjimachilik ishida katta qiyinchilik tug‘diradi. Rod kategoriyasiga ega bo‘lgan tildan bunday grammatik xususiyatga ega bo‘lmagan tilga tarjima qilishda qiyinchiliklar tug‘ilishi o‘z-o‘zidan ravshan. Ammo rod kategoriyasiga ega bo‘lgan tillarning hammasida ham bu xususiyat aynan muvofiq kelmaydi”.

Henrix Heyne. “Qarag‘ay va Palma” (Der Fichtenbaum va diy Palme). Uzoq shimolda qoya toshlar ustida tanho qolgan oshiq “der Fichtenbaum” o‘z ma‘shuqasi “diy Palme”ning visoliga yetish orzusida oh uradi.

M.Yu.Lermontov tarjima qiladi. Rus tilida “sosna” ham, “palma” ham jenskiy rodga. Oshiq-ma‘shuq dugonalarga aylangan.

F.I.Tyutchev “kedr” daraxtini oladi.

A.A.Fet “dub” (eman) daraxtini ma‘qul ko‘radi.

“Mutaxassis botaniklarning fikricha, F.I.Tyutchev tarjimasida noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan: kedr shimolda unmaydigan, janub daraxti bo‘lib, faqat O‘rta dengizda uchraydi. Shimolda esa kedr emas, balki kedrovaya sosna – kedr-qarag‘ay o‘sadi.

F.I.Tyutchev tomonidan qilingan keyingi tarjimada qarag‘ay o‘rniga eman daraxti qo‘yilishi bilan uzoq shimol qoyasi tepalik bilan almashtirilgan, negaki eman janubda o‘sadigan daraxt, u shimolda unmaydi”.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasi deganda nimani tushunasiz?
2. Mumtoz va zamonaviy tarjima prinsiplari o‘rtasidagi tafovutlar haqida misollar vositasida gapirib bering.
3. Tarjimaning til bilan bog‘liq va til bilan bog‘liq bo‘lmagan muammolari qaysilar?
4. Interpretatsiya nima?
5. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarni izohlang: tarjima, qayta yaratish, lisoniy va g‘ayrilisoniy, interpretatsiya.

Adabiyotlar:

1. G‘. Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978;
2. G‘. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983;
3. J. Sharipov. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. – Toshkent: “Fan”, 1965;
4. Komilov N. Bu qadimiy san‘at // Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar;
5. O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1985.

²³ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 35-бет.

IKKINCHI MA'RUZA
TARJIMA NAZARIYASI PREDMETI
TARJIMASHUNOSLIK FANLARINING TASNIFI

Dars rejası

1. Tarjima nazariyasi predmeti.
2. Tarjimaning ijodiy xarakteri.
3. Badiiy tarjimaning san'at ekanligi.
4. Tarjimashunoslikning fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi.
5. Tarjima haqidagi fikrlar taraqqiyoti.
6. Beruniy tarjimon va tarjimashunos sifatida.
7. Tarjimashunoslik fanlarining tasnifi.
8. Tarjima antinomialari.

“Tarjimashunoslik problematikasi (muammolar majmui – E.O)da quyidagi munosabatlar haqida gap boradi: 1. Asl nusxa bilan tarjima tillari o'rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi). 2. Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi formalarning estetik funksiyalarini aks ettirish) – bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va poetika yutuqlaridan foydalaniladi. 3. Umuman asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmatı o'rtasidagi munosabat – bu yerda adabiy tanqid metodlari qo'l keladi.

Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini *qidirib topish* va muvofiq variant *tanlash* ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnat talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima *san'at* jumlasiga kiradi.

Til vositalarini u yoki bu darajada tanlash xususiyatini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima ma'lum ma'noda **ijodiy** xarakterga ega bo'ladi.

“Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbatning qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida, xususiy xarakterdagi tarjima hodisalaridan tug'ilgan xulosalarni ilmiy ma'lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta'sir o'tkazish, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat. Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model', qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi formalar tarjima nazariyasining **asosiy predmeti** hisoblanadi.

O'zbekistonda tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatida XX asrning o'rtalaridan shakllandi. Holbuki, tarjimachilik ming yillik tarixga ega. “Avvalo, arab, fors, hind, turk, rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, adabiy kitoblarni o'zbekchalashtirgan bizning tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, sistemalashtirilmagan, umumlashtirilmagan bo'lsa-da, qabul etilgan, o'qilgan, rioya qilingan ma'lum tarjimachilik aqidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Masalan, nazm – nasr bilan yoki goho, aksincha, proza – she'riy maqomga solinib o'girilgan; hijjalab yoki erkin, kisqartirib yoki qo'shib, lokalizatsiya yoki modernizatsiya yo'li bilan tarjima kilingan va hokazo. Hatto ba'zi tarjimalarga yozilgan an'anaviy muqaddimalarda nima sababdan u yoki bu tarjimachilik aqidasiga, nazariy prinsiplarga rioya qilinganligi tarjimonlar tomonidan asoslangan ham. Bu esa tarjima nazariyasining ibtidosi Oktyabr' inqilobidan oldin tug'ila boshlaganidan, qadim zamonlardayoq nazariya kurtaklari paydo bo'la boshlaganidan dalolat beradi”²⁴.

Tarjima san'atiga oid fikrlar tarjima vujudga kelgan dastlabki davrlardan e'tiboran bildirila boshlagani ma'lum. Chunki u yoki bu tarjimani amalga oshirgan tarjimon o'zining tarjima prinsiplari, tarjima haqidagi qarashlarini yo'l-yo'lakay bildirib ketgan. IX asrning birinchi yarmida xalifa Ma'mun ar-Rashid tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi – “Bayt ul-hikma” (“Bilimlar uyi”)da rejali asosda tarjimachilik bilan shug'ullangan tarjimonlarning faoliyatlari tufayli esa bu boradagi fikrlar sistemali tus oldi. Bu ilmiy markazda yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilingani, ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatilgani ma'lum.

²⁴ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 150-бет.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab, fors, sugʻdiy, xorazmiy, suryoniy, yahudiy, hind va yunon tillarini bilgan, tarjima bilan ham muntazam shugʻullangan. U Maʼmun akademiyasida amalga oshirilgan tarjimalardan foydalanish bilan birga, “oʻzi asl nusxadan tarjimalar qilar, shubhali, ishonchsiz tarjimalarni rad qilib, bevosita aslidan foydalanar yoki oʻzi ularni yangidan tarjima qilardi.

“Hindiston” kitobini koʻzdan kechirganda, uning bir necha joylarida “shu faslda tarjimon baʼzi soʻzni qorishtirib yuborgan” yoki “ana shu aytilgan soʻzlar fikr yurgizmay turib, taxminan qilingan tarjimalarning va bilmasdan turli fikrlarni bir-biriga qorishtirish natijasidir” kabi tanqidiy mulohazalarni uchratamiz. “Ramayana” asari tarjimasi munosabati bilan diniy mutaassiblikning tarjimachilik ishiga, umuman fan rivojiga salbiy taʼsir oʻtkazayotganligini tanqid qiladi²⁵. Ulamolar oxiri “S” bilan tugallanadigan yunon va rim olimlarining nomlaridan oʻlguday nafratlanadilar, natijada har turli taʼqiblardan qutulish maqsadida mutarjimlar ularning nomlarini arablashtirishga majbur boʻladilar – yunoncha “Katigoriyas”, “Analitikus”, “Aristotelus” kabi soʻzlarning “Al-maqolot”, “Al-qiyos va burhon”, “Arastu” boʻlib ketishining sababi shunda, deydi²⁶.

Olimning tarjima bilan bogʻliq koʻpgina fikrlari hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Jumladan:

“Tarjimalarda iboralarida ixtilof boʻlmay iloj yoʻq”.

“Agar (tarjimalarimizda) ishlatgan soʻzlarimiz odatda ishlatiladiganga toʻgʻri kelmasa, maʼnolariga eʼtibor berilsin, chunki maqsad maʼnolarni bildirishdir”.

“Baʼzi soʻzlar borki, u bir din va bir tilda bemaʼni boʻlsa ham, boshqa bir din va boshqa bir tilda bemaʼni boʻlmaydi”²⁷.

Mohir tarjimon sifatida u Mahmud Gʻaznaviy saroyining malik ush-shuarosi Unsuriyning “Vomiy va Uzro”, “Xingbut va Surxbut” dostonlari, “Veda” va “Mahobxorot” kabi hind eposlari, forsiy xalqlar ijodidan esa “Qosim us-surur va Ayn ul-hayot”, “Hurmuzdyor va Mehryob”, “Bomiyonning ikki sanami”, “Dodmoh va Kiromiduxt”, “Nilufar”, “Dabistiy bilan Borbahokor hikoyasi” kabi asarlarni arab tiliga oʻgʻirgan.

1340 yilda buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning “Xisrav va Shirin” dostonini oʻzbek tiliga oʻgʻirgan Qutb Xorazmiy oʻz tarjimasi haqida, jumladan shunday deydi:

Nizomiy nazmi yangligʻ tuz soʻzungni,
Anin bilgut xoninggʻa bu oʻzungni...
Qozontek qaynab-ush savdo pishirdum,
Nizomiy bolidin halvo pishurdum.

Hiloliyning “Shoh va gado” dostoni tarjimasiga ilova qilgan “Bu qissa tarjimasining boisi” degan bobda Ogahiy asarni asl nusxadan chekinmay, unga mos tarjima qilishga uringanligini qayd etadi:

Har na soʻzdin qilibdurur tahrir,
Bayt-barbayt ayladim taqdir.
Barcha soʻz kim, dedim, oning soʻzidir.
Man demaykim, degan oning oʻzidir.
Goʻiyo men aning tilidurmen,
Tutgʻali xomani alidurmen.

Tarjima nazariyasining ahamiyati shundaki, turli yoʻnalishda ijod qiladigan tarjimonlarning oʻzboshimchaliklariga chek qoʻyib, ularga badiiy tarjimaning amaliyotda sinovdan oʻtgan maqbul yoʻllarini koʻrsatadi. Tarjimaga qanday yondashish, tarjima jarayonida qanday usullardan foydalanish, u yoki bu muammoni hal qilishda qanday yoʻl tutishni oʻrgatadi. Koʻp asrlik tarjima tarixi yutuq va qusurlarini tahlil qilish asosida muayyan prinsip va qoidalarni ishlab chiqqan tarjimashunoslik fani har qanday tarjimonga umumiy yoʻl-yoʻriq berishga yoʻnaltirilgan. Ana shu umumiy qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda, har bir tarjimon konkret asar tarjimasida yuzaga kelgan oʻziga xos muammolarni oʻzi individual ravishda hal qiladi.

Tarjimashunoslik fanining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tarjima tarixi
2. Tarjima nazariyasi
3. Tarjima tanqidi

Tarjima tarixi tarjima adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini oʻrganish bilan shugʻullanadi.

Tarjima nazariyasi – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish prinsiplarini oʻrganadigan filologik fan.

²⁵ Комилов Н. Бу кадимий санъат. 64-65-бетлар.

²⁶ Бу ҳақда қаранг: Комилов Н. Тафаккур қарвонлари. – Тошкент, 1999. 53-54-бетлар.

²⁷ Абу Райхон Беруний. Ҳикматлар. 21-22 ва 28-бетлар.

Tarjima nazariyasining vazifasi – tarjima amaliyotidagi yutuqlar asosida asliyat-tarjima munosabatlari orasidagi qonuniyatlari kuzatish, barqarorlashgan qoidalarni umumlashtirib, tartibga solish hamda keyingi tarjimalarda foydalanish uchun yo‘l ko‘rsatuvchi prinsiplarga aylantirishdan iborat.

Tarjima nazariyasining amaliy ahamiyati – tarjimachilikda har bir til biluvchi o‘zicha prinsip yaratib olishining oldini olish uchun ilmiy asoslangan prinsiplarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish.

Tarjima nazariyasining ilmiy ahamiyati – tarjima jarayonida ikki til vositalarining “to‘qnashuvi”dan kelib chiqqan muammolar natijasida tilning keyingi rivojlantirish imkoniyatlari ochiladi.

Tarjima tanqidi – tarjima jarayonini kuzatib, chop etilayotgan asarlarni baholab boradi, tarjimalar sifatining yaxshilanishiga ko‘maklashadi. Tarjima tanqidi tarjimachilik ishining amaliy va tashkiliy masalalarini ko‘tarib chiqadi, adabiy tanqid bilan hamkorlikda rivojlanadi.

O‘zbekiston boy tarjima tarixiga ega, bu tarixni sxematik tarzda quyidagicha tadqiq qilish maqsadga muvofiq:

1) sohalar va janrlar bo‘yicha – aniq va gumanitar fanlarga doir kitoblar tarjimasi; tarjima va lug‘atshunoslik (ikki tilda va ko‘p tilli lug‘atlar tuzish tajribasi);

2) til prinsiplari bo‘yicha (arabcha-o‘zbekcha, forsa-o‘zbekcha, turkcha-o‘zbekcha, ruscha-o‘zbekcha va hokazo tarjimalar); bilingvizm va tarjima;

3) tarixiy an‘analar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar bo‘yicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi va hokazo);

4) davrlar bo‘yicha (XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi...).

TARJIMA ANTINOMIYALARI

Antinomiya so‘zi yunoncha bo‘lib, anti – zid, nomos – qonun degani.

Tarjima nazariyasida xam bir qator ziddiyatlar mavjud:

Birinchisi: tarjima nazariyasi adabiyotshunoslik asosiga qurilishi kerakmi yoki tilshunoslik zahirida rivojlanishi joizmi?

Ikkinchisi: asar hijjalab, so‘zma-so‘z o‘girilishi lozimmi yoki erkin, ijodiy tarjima qilinishi kerakmi?

Uchinchisi: asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni aynan koldirish kerakmi yo milliyashtirish lozimmi?

To‘rtinchisi: tarjima bo‘lish yoki bo‘lmaslik haqidagi qarashlar o‘rtasida ham ziddiyat mavjud – bir guruh bir tildan ikkinchi tilga umuman tarjima qilish mumkin emas desalar, ikkinchi guruhning fikricha, har qanday asarni tarjima qilish mumkin.

Beshinchisi: she’rni she’r bilan berib bo‘lmaydi, binobarin, har qanday she’riy asar nasriy tarjima qilinishi kerak. Masalan, Fransiya uzoq davr mobaynida she’riy asarlar nasriy tarjima qilinib kelgan.

Aslida bunday antinomiya tarjima nazariyasida ko‘p. Masalan:

- tarjima asl nusxaning so‘zlarini bersin;
- tarjima asl nusxaning g‘oyalarini ifodalasin;
- tarjima original asarday o‘qilsin;
- tarjima tarjimaday o‘qilsin;
- tarjima asl nusxaning uslubini aks ettirsin;
- tarjima tarjimoning uslubini aks ettirsin;
- tarjima asl nusxaga nisbatan zamonaviy asar sifatida o‘qiladigan bo‘lsin;
- tarjima tarjimonga nisbatan zamonaviy asar sifatida o‘qiladigan bo‘lsin;
- tarjimada asl nusxaga nimanidir qo‘shish yoki undan nimanidir chiqarib tashlash mumkin;
- tarjimaga hech narsani qo‘shib ham, undan hech narsani chiqarib tashlab ham bo‘lmaydi;
- she’rni nasrga o‘tkazib o‘girish lozim;
- she’rni she’r bilan tarjima qilish lozim²⁸.

“Har bir tilda o‘sha xalqning sohibi hisoblanmish xalqning o‘zi ko‘proq mashg‘ul bo‘lgan xo‘jalik, ishlab chiqarish sohaları hamda uni o‘rab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va o‘simliklar olami, tog‘, cho‘l, sahro, suv va hokazo)ga aloqador so‘zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi mumkin²⁹.”

Aytaylik, suv o‘lkasi bo‘lmish Buyuk Britaniya suv xo‘jaligi, baliqchilik, Arabiston sahrolarida cho‘l, uning o‘simlik va hayvonlar dunyosiga oid so‘zlar, obrazli iboralar, maqol-matallar ko‘p bo‘lishi mumkin. Masalan, Shekspirning “Hamlet” tragediyasida Daniya shahzodasi Poloniyni “baliqfurush” deb ataydi. Dramaturg zamonida bu so‘z ko‘chma ma’noda “qo‘shmachilik” degani ekan. Holbuki, tarjimalarning birortasida uning bu ma’nosi aks etmagan – baliqfurush shunchaki kasb oti sifatida berilgan.

²⁸ Кўчирма куйидаги китобдан олинди: С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 40-бет.

²⁹ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 43-бет.

“Qirol Lir” fojiasida Albani qirolning shafqatsiz qizlarini arslonga o‘xshatadi. Bu bilan ularning ham arslon kabi yirtqichligini nazarda tutadi. Lekin o‘zbek tilida arslon ijobiy ma’noga ega: botir, jasur, dovyurak ma’nolarini bildiradi, mardlik, oliyanoblik, viqor timsoli bo‘lib keladi. Mard, botir yigitlarni arslonga o‘xshatadilar. Shuning uchun ham G‘afur G‘ulom tarjima jarayonida bu so‘zga salbiy bo‘yoq singdirish uchun urg‘ochi so‘zini qo‘shadi: “urg‘ochi arslonlarmisiz”.

Tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Tarjimashunoslik nisbatan yangi fan bo‘lib, XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Dastlab 40-yillarda tarjimashunoslikda *lisoniy yo‘nalish* paydo bo‘ldi. “Bu yo‘nalishning mohiyati shundan iborat ediki, tarjimaga, asosan, hamma hollarda va barcha janrlarda lisoniy faoliyatdan iborat deb qaraladi. Tarjima problemi predmetini bunday talqin qilganda, umumiy tarjima nazariyasini tilshunoslikka mansub deb qarashni, tarjima problemalarini tadqiq qilishga yondashish esa lisoniy asnoda bo‘lishini taqozo etadi.

Mazkur yo‘nalishni tanqid qilish asnosida *adabiyotshunoslik yo‘nalishi* atalmish yangi bir qarash paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalish namoyandalarining da’vosicha, badiiy va nobadiiy tarjima o‘rtasida jiddiy tafovut bor: badiiy tarjima – adabiyot sohasidagi ijodiy faoliyat, nobadiiy tarjima esa til sohasidagi noijodiy faoliyatdan iborat. Problemani bu tarzda talqin etish o‘z-o‘zidan shunga olib keladiki, bunda tarjimashunoslik go‘yo ikki “tarjima nazariyasi”dan iborat bo‘lib qoladi: biri – *badiiy tarjima nazariyasi* bo‘lib, u *adabiyotshunoslik* sohasi hisoblanmog‘i darkor, ikkinchisi esa *nobadiiy tarjima nazariyasi* bo‘lib, *tilshunoslik* sohasiga mansub bo‘lmog‘i lozim”³⁰.

Tarjimashunoslik tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesishgan nuqtada vujudga kelgan umumfilologik fandır.

1965 yil 15 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining “Respublikada badiiy tarjima sifatini yanada yaxshilash tadbirlari haqida”gi maxsus qarori qabul qilinadi. Shunga binoan 1966-1967 o‘quv yilida ToshDU filologiya fakul’tetining IV kursida ilk bor qiyosiy uslubiyot va tarjima bo‘yicha maxsus kurs o‘qildi.

1969-1970 o‘quv yilida ToshDUning jurnalistika fakul’tetida tarjima nazariyasi va tahririyat-nashriyot ishlari kafedrasida tashkil etildi. U 1973-1974 o‘kuv yilidan boshlab tarjima nazariyasi, radio va televidenie kafedrasiga aylantirildi. Nihoyat, 1975-1976 o‘quv yilidan e’tiboran filologiya, jurnalistika, sharq, roman-german tillari fakul’tetlarida tahlil kurslari, amaliy mashg‘ulot olib boradigan mustaqil tarjima nazariyasi kafedrasida qaror topdi va u filologiya fakul’teti bazasida faoliyat ko‘rsata boshladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarjima nazariyasi nimani o‘rganadi?
2. Tarjimaning ijodiyligi nimadayu san’atligi nimada?
3. Tarjimashunoslik qachondan buyon fan sifatida o‘qitila boshlagan?
4. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlarini sanab bering.
5. Tarjima antinomiylari deganda nimani tushunasiz?
6. Quyidagi tayanch so‘z iboralarni izohlang: tarjima nazariyasi predmeti, umumfilologik fan, tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi, antinomiya.

Adabiyotlar:

1. G‘.Salomov. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966;
2. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978;
3. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983;
4. Komilov N. Bu qadimiy san’at // Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar.
5. Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqlar, she’rlar. – Toshkent, 1973.

UCHINCHI MA’RUZA

TARJIMANING TUR VA XILLARI, SOHALAR VA JANRLAR BO‘YICHA BO‘LINISHI

Dars rejasi:

1. Tarjimaning ijrosiga ko‘ra turlari.
2. Tarjima xillari.

³⁰ С а л о м о в Г. Таржима назариясига кириш. 152-153-бет.

3. Tarjima sohalari.
4. Tarjima janrlari.
5. Adekvat, erkin, ijodiy, soʻzma-soʻz, hijjaviy, taglama va tabdil kabi tarjima usullari haqida.
6. Antonimik tarjima toʻgʻrisida.
7. Avtomatik tarjima xususida.

Tarjima ijrosiga koʻra **yozma** va **ogʻzaki** turlarga boʻlinadi.

Oʻz navbatida, **yozma** tarjima xarakteriga koʻra:

- badiiy asarlar;
- ilmiy adabiyotlar;
- rasmiy-idora hujjatlari;
- publisistik materiallar;
- kinofilmlar tarjimasiga boʻlinadi.

Bularning har biri yana oʻz ichki boʻlinishlariga ega. Badiiy tarjima nasriy, sheʼriy, dramatik asarlar tarjimasini oʻz ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlar fanning turli sohalaridagi tadqiqotlar tarjimasidan iborat: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, matematika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisod va hokazo. Rasmiy idora hujjatlariga xatlar, qarorlar, bayonnomalar, farmoyishlar, patentlar va boshqalar kiradi. Publisistik materiallarga maqola, xabar, feleton, ocherk, pamflet, publisistika kabi vaqtli matbuot va ommaviy axborot vositalaridagi barcha materiallar kiradi. Kinofilmlar tarjimasiga ham badiiy, ilmiy, hujjatli filmlardan tashkil topadi.

Ogʻzaki tarjima ham keng tarqalgan boʻlib, davlat rahbarlari oʻrtasidagi xalqaro ahamiyatga molik siyosiy-iqtisodiy mavzudagi oʻzaro fikr almashuvlardan tortib, oddiy suhbatgacha boʻlgan katta doirani qamrab oladi. Ogʻzaki tarjima ham xarakteriga koʻra:

- sinxron tarjima;
- ketma-ket tarjima;
- tushuntirib berish;
- oʻqib tarjima qilib berish;
- oʻqib gapirib berish;
- eshitib gapirib berish kabilarga boʻlinadi.

Sinxron³¹ tarjima katta anjumanlar, konferensiyalar, xalqaro miqyosdagi uchrashuvlarda til bilmaydigan ishtirokchilar uchun amalga oshiriladi.

Ketma-ket tarjimada notiq bir gap yoki abzasni oʻqiydi, tarjimon uni tarjima qiladi – notiq va tarjimon oʻrin almashib turadi.

Tushuntirib berish biror narsani oʻqib, uning mazmunini ogʻzaki aytib berish.

Biror mavzudagi adabiyotni oʻqib, jumla-jumla tarjima qilib borish oʻqib tarjima qilib berish deyiladi.

Biror narsani oʻqib, uning shunchaki mazmuni gapirib berish oʻqib gapirib berishga kiradi.

Eshitib gapirib berish boshka tilda eshitganini til bilmaydigan kishilarga tushuntirib berish.

Tarjima sohalari boʻyicha quyidagicha boʻlinadi:

- badiiy asarlar;
- ilmiy adabiyotlar;
- ijtimoiy-siyosiy kitoblari;
- rasmiy idora hujjatlari;
- kinofilmlar;
- radioeshittirish va telekoʻrsatuvlar.

Til prinsiplari boʻyicha: ruscha-oʻzbekcha, inglizcha-oʻzbekcha, forschacha-oʻzbekcha, arabcha-oʻzbekcha tarjima va hokazo. Bilgizizm va tarjima.

Tarixiy anʼanalar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar boʻyicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi va hokazo)

Davrlar boʻyicha: XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi.

Umuman, tarjima janriy xususiyatiga koʻra 4 turga boʻlinadi:

- badiiy;
- ilmiy;
- publisistik;

³¹ С и н х р о н и з м – (грекча) икки ёки бир неча ходиса, процесс ва шу кабиларнинг бир-бирига мос равишда айна бир вақтда, баб-баравар содир бўлиши. С и н х р о н – бир-бирига мос равишда, айна бир вақтда, баб-баравар содир бўлган ёки бўладиган, синхронизмга, синхронликка эга бўлган. С и н х р о н л а м о қ – икки ёки бир неча ходиса, процесс ва ш.к.нинг бир-бирига мос равишда айна бир вақтда, баб-баравар содир қиладиган бўлмоқ. С и н х р о н и с т – нуткни нотик билан кетма-кет таржима қилиб боровчи таржимон.

- rasmiy idora hujjatlari.
- Bu turlar, o‘z navbatida, o‘z ichki bo‘linishlariga ega.
- sohalar;
- tillar;
- lug‘at tuzish;
- davrlar;
- tarjima maktablari bo‘yicha ham bo‘linadi.

Tarjima xillari quyidagicha:

1. Bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tilga tarjima qilish.
2. Qadimiy davr tilidan o‘sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish.
3. Muayyan tilning u yoki bu shevasidan adabiy tilga tarjima qilish.

Bundan tashqari, mana bunday tasniflash ham mavjud:

- uzoq tillardan tarjima;
- yaqin tillardan tarjima;
- qadimiy tildan zamonaviy tilga tarjima, ya‘ni tabdil.

Har bir davrning o‘z tarjima prinsiplari bo‘lgan. O‘tmishda asosan erkin va ijodiy tarjima, ko‘pincha ularning o‘zaro omuxta shakli amalda bo‘lgan, ya‘ni ham erkin, ham ijodiy. Ba‘zan mutlaqo erkin tarjimalar ham uchrab turgan. Adekvat tarjima tushunchasi keyingi asrlar mahsuli.

Quyidagi tarjima usullari mavjud:

- adekvat (mukammal);
- erkin;
- ijodiy;
- so‘zma-so‘z;
- hijjaviy;
- aniq;
- taglama;
- tabdil;
- adaptatsiya.

TARJIMA USULLARI

Adekvat tarjima – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha “adekvatus” – “tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan”).

“Erkin tarjima bu asl nusxaning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o‘zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bundan tarjimalarda **muallif uslubi** emas, balki **tarjimon uslubi** ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli xillari mavjud. Sharq klassik she‘riy tarjimasiga kelganda, **erkin tarjima** shunda ko‘rinadiki, bu usulni qo‘llagan tarjimon aksariyat hollarda, asosiy mavzu va g‘oyadan chetga chiqmagan holda, muallifning bayon tarzida she‘riy san‘atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarini chetlab o‘tib, ular o‘rniga o‘zi ijod qilgan san‘atlar va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panohida o‘z she‘rini taqdim etgan, o‘zining ijodiy manerasini ko‘rsatgan bo‘ladi.

Masalan, Sayfi Saroyi tarjimasidagi Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, Qutb Xorazmiy tarjimasidagi Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” asarlari. “Kalila va Dimna” tarjimalari ham.

Ijodiy tarjima esa asar g‘oyasi va badiiy o‘ziga xosligini o‘zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so‘zma-so‘z tarjimaga ham, o‘zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo‘ladigan so‘z san‘ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni³² taqozo etadi. Masalan, A.Oripov tarjimasidagi Qaysin Qulievning “Hayrat” she‘ri. E.Vohidov tarjimasidagi Sergey Yesenin she‘rlari. Xurshidning Hofizdan qilgan tarjimalari.

“Guliston” besh marta tarjima qilingan (Sayfi Saroyi, Ogahiy, Mulla Murodxo‘ja, Ahmad Jalil, G‘afur G‘ulom – Sh.Shomuhamedov – R.Komilov). Ularni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, “tarjimaga bo‘lgan talab zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib turgan. Agar Abu Rayhon Beruniy erkin tarjimini tanqid qilib, original ruhini boshqa tilda aniq qayta yaratishni talab qilsa, Muhammad Temur erkin tarjima tarafdori sifatida maydonga chiqadi. Ogahiy ijodiy erkin tarjima prinsipiga amal qilsa, Murodxo‘ja tarixiy-lingvistik aniqlikka intilib, so‘zma-so‘z tarjima aqoidlariga sodiq bo‘lib qoladi³³”.

³² Комилов Н. Бу қадимий санъат // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент, 1976. 75-76-бетлар.

³³ Ўша ерда. 89-бет.

Soʻzma-soʻz va hijjaviy tarjima. Ya.I.Resker “doslovnii” va “bukvalniy” terminlarining maʼnolari boshqa-boshqa boʻlib, ularni bir-biri bilan aralashtirish yaramasligini alohida qayd etgan edi: “... soʻzma-soʻz va hijjalab tarjima qilish degan ikki xil tushunchani aralashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish – turli-tuman tillarning soʻzlari oʻrtasidagi nuqul tashqi, shakliy oʻxshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir. Soʻzma-soʻz tarjima esa “soʻzni-soʻz” bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Soʻzma-soʻz tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir”³⁴.

Demak, doslovnii perevod – aniq tarjima, bukvalniy perevod – hijjalab tarjima qilish

Soʻzma-soʻz tarjimaga misollar:

1. Terpi, kazak, atamanom budesh. – Sabr qil, kazak, ataman boʻlasan. (Erkin tarjimasi: Sabr qilsang, gʻoʻrada halvo bitar).

2. Yesli vrag ne sdayotsya, yego unichtojayut. – Agar dushman taslim boʻlmasa, uni yanchib tashlaydilar.

3. Duraku zakon ne pisan. – Ahmoqqa qonun bitilmagan.

4. Zoʻri behuda miyon meshikanad. – Behuda kuchanish belni sindiradi.

5. Holva degan bilan ogʻiz chuchimaydi. – “Xalva” skolko ne govori, vo rtu sladko ne stanet.

Hijjaviy tarjimaga misollar:

1. “krestyanin krepko osel – dehqon mustahkam eshak (dehqon mustahkam oʻrnashdi)

2. “park zanesen snegom” – “parkni qor bosdi” (par qor bilan olinib ketildi)

3. uglovatyi (qoʻpol, dagʻal) – burchakli

4. barxatniy golos (Mayin ovoz) – duxoba ovoz

5. golubie glaza (koʻk koʻz) – kaptar koʻzlar

6. krasa i gordost (koʻrk va savlat) – boʻyoq va faxr

7. uchenaya sobaka (oʻrgatilgan it) – olim it

8. Jigar-bagʻrim kabob boʻldi (Mashrab). – Serdse stalo shashlikom.

9. U qizilmagʻizdan kelgan edi (A.Qodiriy. “Obid ketmon”). – On priexal iz Kizilmagiza.

10. Perevesti dux (Kafka). – Ruhiyatni tarjima qilmoq (V.Fayzullo tarjimasi).

Akram Qodiriyning “Tarjimon” nomli bir pardali komediyasi. Mulla Mirgarang yozgan ariza: “Glavni bosh paxtaqoʻmgʻa. Maya jilizni daroʻga yuk taskayt. Adin polovina luna boʻladi. Xotinim uyda pitir delayt. Shunga denga dayut.”

“Bagdadskiy vor” – “Bagʻdod ham bor”. “Va glavniy roli” – yaʼni aptamibilini roʻlini burab turadigan odam. “Miravuy bayavik – “Meros boyvachchasi”.

Aniq tarjima – soʻzma-soʻz aniqlikka intilish. Buning yorqin misoli V.Bryusov tarjimasidagi Vergiliyning “Eneida” asari. U asarni olti-etti marta tarjima qilgan. Har gal yangi prinsip qoʻllagan: 1) erkin tarjima yoki “qayta hikoya qilib berish” usuli; 2) chin maʼnodagi “sheʼriy tarjima” (aniq, ammo bukvalistik belgilardan holi); 3) sof bukvalizm.

Taglama – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan soʻzma-soʻz, jumlama-jumla, satrma-satr (sheʼriy tarjimada) aynan tarjima, tahtullafz, podstrochnik. Sovet davrida rus tarjimonlari oʻzbek adabiyoti namunalarini asosan taglamadan tarjima qilganlar (L.Penkovskiy, V.Derjavin, S.Lipkin, K.Simonov, M.Sale. “Farhod va Shirin”ning ayrim boblarini nemis tiliga oʻgʻirgan Alfred Kurella ham taglamadan foydalangan).

Tabdil. “Klassik adabiyot asarlarining lugʻatida, jumladan, Alisher Navoiy asarlari lugʻatida ham shu darajada katta tafovut borki, bu asarlarni toʻla tushunib yetish uchun ularni toʻla maʼnoda tarjima qilinmasa ham, loaqal, “yarim tarjima” qilishga zarurat tugʻiladiki, buning nomini **tabdil qilish** deyiladi”. Masalan, Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostonlari, “Lison ut-tayr” dostoni nasriy bayon qilingan boʻlsa, “Mahbub ul-qulub” hozirgi oʻzbek tiliga tabdil qilingan. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari ham nasriy tarjimada oʻqilayapti. Bu asarlarning asl nusxasini faqat mutaxassislar oʻkiydi.

Adaptatsiya – soddalashtirish, moslashtirish. Chunonchi, Xomushiy Firdavsiyning “Shohnoma”, N.Komilov Atorning “Ilohiynoma”sini xalq saviyasi va oʻquvchilar darajasini hisobga olib, nasriy tarjima qilganlar. Menimcha, “Shohnoma” tarjima qilinadigan boʻlsa, hozir ham uni soddalashtirib, nasriy tarjima qilish kerak. Chunki 120 000 misralik bu ulkan asarni birov oʻqimaydi.

Mualliflashtirilgan tarjima – Muallifning oʻzi tomonidan (Ayniy asarlari) yoki muallif va tarjimon hamkorligida (P.Qodirov va Yu.Surovsev) amalga oshirilgan tarjimalar. Ch.Aytmatov qissalari ham.

³⁴ Кўчирма куйидаги китобдан олинди: С а л о м о в Ф. Тил ва таржима. – Тошкент, 1966. 272-273-бетлар.

Qayta tarjima. Asliyat barcha zamonlar va o'quvchilar uchun o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Lekin har bir davr, har bir avlod yangi, zamonaviy tarjimaga ehtiyoj sezadi. Aytaylik, Sa'diy "Guliston"ining Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari lisoniy jihatdan bugungi o'quvchi talabini qondir olmaydi. Shuning uchun XX asrda uning yangi tarjimasi paydo bo'ldi. Chunki bu tarjimalarning o'zi tarjimaga muhtoj.

Umuman, qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- avvalgi tarjimaning til jihatdan eskirganligi;
- badiiy jihatdan bo'sh tarjima qilinganligi;
- vositachi til orqali o'girilganligi;
- ijodiy bellashuv istagi.

Masalan, Braziliya adibi Paulo Koelening "Alkimyogar" asarini bir vaqtning o'zida uch tarjimon – Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboyev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir tomondan, jahon adabiyotida voqea bo'lgan asarga davr talabi bo'lsa, ikkinchidan, mohir adib "panjasiga panja urish", o'z iste'dod kuchini sinab ko'rish.

Jamol Kamol ilgari rus tilidan o'girilgan Shekspir fojialarini bevosita ingliz tilidan tarjima qildi. Yoki Bayronning "Don Juan" asarini Abdulla Sher ingliz, Sulaymon Rahmon rus tilidan tarjima qildilar. Shavkat Rahmon otashnafas ispan shoiri Garsia Lorka she'rlarini dastlab rus tilidan tarjima qilgan edi. Keyin ispan tilini o'rganib, bevosita asl nusxadan o'zbekchalashtirdi.

Oybek tarjimasidagi A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romani asliyatning mazmunini to'la-to'kis aks ettirgan bo'lsa-da, shaklan buyuk rus shoiri asariga qoyimmaqom emas, badiiy jihatdan ham uncha baland emas edi. Shuni hisobga olib, oradan yarim asr o'tib, Mirzo Kenjabek uni qayta tarjima qildi.

"Vorisiylik" – bir tarjimadan ikkinchisiga meros bo'lib o'tadigan xususiyatlar... bir asarning dastlabki tarjimasida erishilgan yutuqlar, asliyat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar keyingi, ta'bir joiz bo'lsa, musobaqadosh tarjimon tarafidan ham istifoda etilishi mumkin. Chunki o'sha narsaning shu tilda bundan ortiq muqobili bo'lmasligi ham mumkin-da³⁵.

"Evgeniy Onegin"ning Oybek va M.Kenjabek tarjimasi.

Pushkin va Lermontov she'rlari tarjimalari.

Asarni ilk bor tarjima qilgan tarjimon oldida murakkabliklar bilan birga, imkoniyatlar ham bo'ladi – qanday xohlasa shunday, ko'rinib turgan ma'nolari bilan tarjima qiladi. Keyingi tarjimon esa o'xshab qolmasligi uchun atay boshqa so'zlar, o'zgacha ifodalar izlaydi. Umar Xayyom, Jaloliddin Rumi, Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimasida biz ham shu muammoga duch keldik.

Qaysi tildan o'girilishiga qarab ham tarjima ikkiga bo'linadi:

- bevosita tarjima (asl nusxa tilidan tarjima);
- bilvosita tarjima (vositachi tildan tarjima);

AVTOMATIK TARJIMA

Avtomatik tarjima faqat bir ma'noli so'zlar va bir xil grammatik tuzilishga ega tillardan tarjimada muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Aksincha, u so'zlarni o'z o'rnida tarjima qilib qo'ya qoladi – keyin ular asosida qayta gap tuzish kerak bo'ladi. Bu ikkinchi ish bo'ladi.

Badiiy bo'yoqqa ega matnlarni esa hech qachon avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki badiiy matnda so'zlar ko'pincha o'z ma'nosida kelmaydi, yoki bir necha ma'noga ega bo'ladi.

"Odryaxlevshis, vosklisatelniy znak stanovitsya voprositelnim".

"Buket v blagorodnom vine" – "Olijanob vinodagi guldasta" – "Sof sharob ta'mi".

"Sol soli zemli" – "Er tuzining tuzi" – "ona zaminimizning mag'z-mag'zi" – "jamiyat gullarining guli" – "el-yurt guli".

Georgiy Markov. "Sol zemli" – "Er mag'zi".

ANTONIMIK TARJIMA

Shakli bir-biriga zid, ammo ma'nolari monand bo'lgan birikmalar antonimik birikmalardir. Masalan, rus tilida "nima bo'lsa, shu bo'lsin", "mening parvoyimga kelmaydi" degan ma'noda **xot trava ne rasti** degan frazeologik butunlik ishlatiladi. Buni "Menga desa, o't o'smasin" deb tarjima qilsa, o'zbekchada qoyim maqom chiqmaydi. Shuning uchun "Menga desa, g'ovlab ketsin!" deb o'giriladi.

Odnoy rukoy v ladoshi ne xlopesh. – Yak dast besado ast.

Qars ikki qo'ldan chiqadi. – Qars bir qo'ldan chiqmaydi.

TARJIMADA "SOXTA EKVIVALENT" TUSHUNCHASI

³⁵ Олимов С., Матёкубов А. Лермонтовнинг ўзбек таржимонлари. – Тошкент, 1989. 19-20-бетлар.

Tarjimashunoslikda shaklan o'xshagani bilan ma'nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so'zlar **soxta ekvivalentlar** deb qabul qilingan.

Masalan, "akademik" so'zi nemis tilida "oliy ma'lumotli kishi", "student", "oliy maktab o'qituvchisi" va goho "akademik" ma'nolarini anglatadi, rus va o'zbek tillarida asosan "Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi" ma'nosida keladi. Yoki "dramaturg" nemis tilida "rejissyor", "teatr repertuarining mudiri" ma'nolarida kelsa, bizda "dramatik asar muallifi" ma'nosida keladi.

Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov turli tillarda faqat ayrim so'zlarninggina fonetik jihatdan o'xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo'lsa, G'.Salomov bu terminni tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshash, ammo ma'nosi jihatidan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba'zida bir-biriga zid bo'lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo'llaydi.

Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. – Sapyor oshibaetsya odin raz.

Onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq. – Pokazat kuzkinu mat.

Savol va topshiriqlar:

1. Qanday tarjima turlari mavjud?
2. Qanday tarjima xillarini bilasiz?
3. Bevosita va bilvosita tarjima nima?
4. Antonimik tarjimaga misol keltiring.
5. Avtomatik tarjima deganda nimani tushunasiz?
6. Soxta ekvivalent nima?

Quyidagi tayanch so'z va iboralarni izohlab bering: og'zaki tarjima, yozma tarjima, adekvat, erkin, ijodiy, so'zma-so'z, hijjaviy, taglama, tabdil, avtomatik, antonimik tarjimalar, soxta ekvivalent.

Adabiyotlar:

1. G'.Salomov. Til va tarjima. – Toshkent: "Fan", 1966;
2. G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978;
3. Komilov N. Bu qadimiy san'at // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 3-kitob. – Toshkent, 1976. 54-89-betlar.

TO'RTINCHI MA'RUZA TARJIMA VA MILLIY KOLORIT

Dars rejasi:

1. Tarixiy, milliy va mahalliy kolorit tushunchasi.
2. Realialar – milliy xos so'zlar haqida.
3. Realialarni tarjima qilishning uch usuli.
4. Milliy koloritning tarkibiy qismlari.

MILLIY KOLORIT VA REALIYALAR

Kolorit – lotincha kolor, italyancha kolorito so'zidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq, manzara ma'nosini bildiradi.

Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi.

Adabiyotda esa badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi ko'zda tutiladi.

Kolorit biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuini bildiradi.

Ma'lumki, tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarning umumiyligi asosida vujudga kelgan kishilar guruhiga millat deyiladi.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir.

Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda **milliy kolorit** deyiladi.

Adabiyotshunoslikda yana **mahalliy kolorit** degan tushuncha ham mavjud. **Mahalliy kolorit** – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish³⁶.

Ana shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar **realiylar**, boshqacha aytganda, **milliy xos so‘zlar** deyiladi. **Realiya** lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma‘noni bildiradi.

“Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi”³⁷. Shuning uchun ham realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo‘yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko‘pincha uni chalg‘itadigan jihatlarini tashkil etadi.

“Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me‘morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi”³⁸.

“Milliy o‘ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma‘naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san‘ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi”³⁹.

MILLIYLIK VA TARJIMA

Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash – badiiy tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Milliy o‘ziga xoslikni boshqa til vositalari bilan berish sohasida katta tajribalar to‘plangan. Biroq bu sohaning prinsip va mezonlari ishlab chiqilgani yo‘q.

Adabiyotning milliy xarakterga egaligi harakatdagi obrazlarning xarakterida, jumladan qiliqlari, yumor xususiyatlarida, fikrlash va intilish tarzida namoyon bo‘ladi.

Har qanday kishi biror millat vakili sifatida ma‘lum xarakterga va o‘ziga xosa psixologik bilimlarga ega. Badiiy obrazning milliy xakteri – uning nutqi, muhitga munosabati, surati, siyrati, his-tuyg‘ulari va boshqalarda ko‘rinadi.

Milliy xarakter ma‘lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining in‘ikosi hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini o‘sha millatning hayotini, milliy tarixini, o‘ziga xosligini, milliy, madaniy va adabiy an‘analarini o‘rganish orqali to‘g‘ri tushunish mumkin.

Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy, adabiy sharoitlarini o‘rganishdir. Undan keyingi bosqich xarakterning asosiy belgilarini, uning mazmunini belgilash. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo‘lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo‘llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli vositalarini axtarib topish.

Adabiy asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzida, turmush sharoitida, kiyimida, urf-odatlarida, ko‘cha, shahar, san‘at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Bularning yig‘indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi asliyatda nutq vositalari orqali bayon etilgan bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tarjimasi juda muhimdir.

Har bir tilda psixikaning milliy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan obrazli ifodalar mavjud.

Masalan, o‘zbek tilida qora ko‘z, qo‘y ko‘z, quralay ko‘z, ohu ko‘z va boshqalar go‘zallik alomati sifatida qo‘llaniladi. Qadimgi yunonlarda go‘zal, shahlo ko‘z ho‘kizning ko‘ziga o‘xshatilgan. Qirg‘iz va qozoqlarda bo‘tako‘z chiroyli ko‘zning sifati bo‘lib keladi. Hindistonda sigir – nafosat, go‘zallik, saxovat va ona mehrining timsoli bo‘lganligi sababli go‘zal mahbuba sigirga nisbat beriladi. Ko‘p xalqlarda arslon yirtqichlik, shafqatsizlik ramzi bo‘lsa, bizda dovyurak kishilarni arslonga o‘xshatadilar. Masalan, Qirol Lirning shafqatsiz qizlari arslonlarga o‘xshatiladi. Bizda arslon ijobiy ma‘noga ega bo‘lganligi uchun ham tarjimada G‘afur G‘ulom bu so‘z oldidan “urg‘ochi” sifatini qo‘shadi:

Nima qilib qo‘ydingiz, yo urg‘ochi arslonlarmisiz?

Nemislarda esa cho‘chqa omad va baxt timsoli ekan. O‘zbeklarda yo‘lpashsha – mehmon darakchisi.

³⁶ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшunoslik terminlarining ruscha-ўzbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1983. 192-bet.

³⁷ Хамроев Х. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадий таржима // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Toshkent, 1982. 158-bet.

³⁸ Файзуллаева Р. Ёўллар йироқ, кўнгиллар якин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Toshkent, 1973. 257-bet.

³⁹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. 101-bet.

Ana shunday tabiiy, ijtimoiy, tarixiy sabablar taqozosi bilan tug'ilgan hamda har bir xalqning o'ziga xos ruhiy hayotini aks ettiruvchi (ko'pincha xos so'zlar bilan ifodalangan) tasavvur va tushunchalarni bir tildan boshqa tilga o'tkazish tarjimondan nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etadi.

"Har bir tilda o'sha tilning sohibi hisoblanmish xalqning o'zi ko'proq mashg'ul bo'lgan xo'jalik, ishlab chiqarish sohalari hamda uni o'rab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va o'simliklar olami, tog', cho'l, sahro va hokazo)ga aloqador so'zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin"⁴⁰.

"Suv o'lkasi bo'lmish Buyuk Britaniyada tabiatning bu ne'mati, suv xo'jaligi, baliqchilik bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar serob bo'lishi o'z-o'zidan tushunarli. Ingliz tilida water (suv) so'zidan yasalgan ko'chma ma'noli birikmalar, idiomalar, maqol va matallar ham ko'p uchraydi"⁴¹.

Masalan, "baliqfurush" so'zining ko'chma ma'nosi "qo'shmachi" ekan. Chunonchi, "Hamlet"da Hamlet Poloniyni "baliqfurush" deb ataydi.

"Qirol Lir"da Alboni Lirning qizlarini yovuzligi uchun arslonga nisbat beradi. Bu so'z ruscha va o'zbekchaga salbiy ma'noni aks ettirish maqsadida "urg'ochi arslon" deb tarjima qilinadi ("tigrisi").

Turkmancha "Ovozingdan" she'ri:

Bu ashrat chog' ichinde,
Boz gach kabi tog' ichinde,
Andalibsan bog' ichinde,
Soz ochmayin ovozingdan.

Tarjimasi:

Bu ayshu ishrat kechinda,
Bo'z qo'chqorday tog' ichinda,
Bir bulbulsan bog' ichinda,
So'z ochmayin ovozingdan⁴².

Bantu negrlari tilida rus tilidagi rodga to'g'ri keladigan 24 ta kategoriya bor. Arablarda tuyaning 5714 ta nomi mavjud⁴³.

"Panchatantra" tarjimasi. Delfin – toshbaqa. Dafn marosimi bilan bog'liq o'rinlar qisqartirilgan.

Xalqlarda qavm-qarindoshlikning turli darajalari va xillarini farqlashda tafovutlar bor: aka-uka, opa-singil, amma-xola, tog'a-amaki va hokazo.

"Venger tilida "aka" va "opa" so'zlari yo'q. Biroq aka va opalarning har biri uchun alohida so'zlar mavjud. Malaya tilida "aka" "opa" so'zlarini ifodalovchi birgina "sudara" mavjud. Braziliyadagi hinduslar tilida to'tiqushning turlari juda ko'p so'zlar bilan ifodalanadi. Biroq "to'tiqush" so'zining o'zi yo'q. Bu so'z to'tiqush umuman bo'lmagan mamlakatlar tillarida ishlatiladi. Sahroi Kabirdagi tillarda palma daraxtining oltmishga yaqin turlaridan har birining nomini ifodalovchi so'z bor. Biroq "qor" so'zi yo'q. Neneslar tilida esa buning aksi – qorning turlarini ifodalovchi qirqqa yaqin so'z mavjud, lekin "palma" so'zi yo'q. Chunki neneslar qattiq sovuq bo'lib, qor qalin yog'adigan Sharqiy Sibirda yashashadi. U yerda palma daraxti o'smaydi. Sahroi Kabir jazirama issiq bo'ladi, u yerdagilar qishni, hatto qorning nimaligini ham bilishmaydi"⁴⁴.

"G'arbiy Avstraliyadagi qabilalardan birining tilida qo'lning mushak qismini, o'ng va chap qo'lni ifodalovchi so'zlar mavjud, biroq "qo'l" ma'nosiga to'g'ri keluvchi so'zning o'zi yo'q"⁴⁵.

"G'arbiy Arizonada yashovchi mohave tilida so'zlashuvchilarda "ayol kishining otasi" bilan "erkak kishining otasi" farqlanadi, binobarin, ularda har ikkala jinsning "otasi"ni anglatadigan boshqa-boshqa so'zlar mavjud"⁴⁶.

"Sudan va Janubiy Saxarada esa tuareg atalmish kichik bir xalq yashaydiki, ularda erkaklar yuzlarini yashirib yuradilar"⁴⁷.

1 aprel: Amerikada – ahmoqlar kuni, Shotlandiyada – kakku kuni, Fransiya – baliq kuni, Yaponiyada – qo'g'irchoq kuni, Ispaniyada – laqmalar kuni deb aytiladi⁴⁸.

Yevropada aza rangi – qora, Xitoyda – oq.

⁴⁰ С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 43-бет.

⁴¹ Ўша ерда. 44-бет.

⁴² С а л о м о в Ф. Таржима назариясига кириш. 45-бет.

⁴³ Ўша ерда. 46-бет.

⁴⁴ А б д у а з и з о в А. Тиллар оламига саёхат. – Тошкент: "Ёш гвардия", 1988. 29-30-бетлар.

⁴⁵ Ўша ерда. 21-бет.

⁴⁶ Ўша ерда. 53-бет.

⁴⁷ Ўша ерда. 56-бет.

⁴⁸ Ўша ерда.

Herman Vamberi bilan bog'liq hikoya.

Mark Tver qahramoni: "Fransuz ham odammi?"

Bahor.

Qor.

Novvot va sho'rdanak voqeasi.

Tarjimada jins kategoriyasi.

Hayvon nomi.

Turli xalqlarning moddiy va ma'naviy hayotida o'ziga xos maxsus tushunchalar ko'p uchraydi:

– nemis fikrini o'zbek tilida nima deb berish kerak?

– o'zbek paranjisini nemis tilida qanday tushuntirsa bo'ladi?

Shuningdek, o'zbek qishlog'i, ukrain xuroti, qozoq ovuli, qirg'iz aili har biri o'ziga xos milliy-hududiy xususiyatga ega bo'lgan aholi va xo'jalik birliklaridir. Demak, umumiy til vositalaridan tashqari, har bir ijodkorning o'ziga xos individual uslubidan kelib chiqadigan milliylikni aniqlash va buni tarjimada qanday aks ettirish yo'llarini izlab topish murakkab ish.

"Mehrobdan chayon" romani tarjimasida "tahsil" – "visshee obrazovanie", "mudarris" – "rektor", "mullavachcha" – "student" deb o'girilganki, bu tarixiy-milliy koloritga to'g'ri kelmaydi. Yoki Ra'nonning ukasi opasidan achchiqlanganda uni "Mullatani xotini" deb qochadi. Bu iboraning "Jena uchenogo brata" deb olinishi o'zini oqlamaydi, chunki u yosh bola tilidan aytilayapti. Yoki ruscha tarjimada Nigorxonim Solih Maxdumga "erxon", "erginam" ("mujenok") deb murojaat qiladiki, bu o'zbek xalqining tabiatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi⁴⁹.

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani nemis tiliga ruschadan tarjima qilingan. "Sovut"ni – "kolchuga", "dubulg'a" – "shlem", "xanjar" – "kinjal" tarzida asliga mos berganlari holda, "supa" – "skameyka", "yo'lak" – "tunnel", "chilim" – "trubka", "kuloh" – "shapka"ga aylanib ketgan. Endi XV asrda darveshning boshiga shapka kiyib, og'ziga trubka qo'ndirib olganini o'zingiz tasavvur qilib olavering!

M.Javbo'riev yana bir nozik o'lchov birligiga e'tiborni qaratadi. Asarda quduqning chuqurligi nari borsa, o'n-o'n besh gaz deb ko'rsatiladi. Bir gaz – 0,71 m.ga tengligini hisobga olsak, asl nusxada tilga olingan quduqning chuqurligi 7-10 m. ekanligi ma'lum bo'ladi. Ruscha va nemischa tarjimalarda gaz o'lchov birligi sajen o'lchov birligi bilan berilgan. Bir sajen uch gazga teng ekan. Demak, quduq chuqurligi ham uch barobarga oshib ketadi – 30 m.ga borib qoladi⁵⁰.

Masalan, Sharq hayoti tasvirlangan asardi "katorga" so'zining uchrashi...

Yoki cho'qintirish marosimini beshik to'yi deb tarjima qilish mumkinmi?

Bobur "Boburnoma"da Hindiston podshohlaridan Sulton Muzaffar haqida gapirar ekan, jumladan "doim Mushaf kitobat qilur erdi" deydi. Asarni ingliz tiliga o'giran V.Erskin uni "doim Qur'on yozardi" deb beradi. Holbuki, "kitobat qilish" – "ko'chirib yozish" degani.

S.E.Palastrov o'zbek xalq ertaklarini tarjima qiladi. "Uch og'ayni botirlar":

"To'ng'ichi – yigirma bir yoshda, o'rtanchasi – o'n sakkiz yoshda, kenjasi – o'n olti".

Tarjimasi: "Starshemu – Tonguch-batiru bil dvadsat odin god, srednemu – Ortincha-batiru – vosednadsat let, a mladshemu – Kendja batiru – shestnadsat".

"O'zbekchadan ruschaga o'girmalarda rus tarjimonlari o'zbek tilidagi "siz" ("vi") olmoshini ko'pincha "ti" qabilida beradilar. Ma'lumki, o'zbekdarda kattalarga "siz" deb murojaat qilinadi. Nazarimizda, bu o'ziga xoslikni ham saqlash kerak"⁵¹.

Pirimqul Qodirovning "Olmos kamar" romani tarjimasida "kosa" – "glubokaya tarelka" deb ruschaga o'giriladi.

O'lmas Umarbekovning "Damir Usmonovning ikki bahori" qissasi tarjimasida "moshkichiri" – "risovaya kasha" deb berilgan.

"Milliy o'ziga xoslik deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalk hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyot va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqida tasavvur, tushunchalari, atamalari tushuniladi", – deb yozadi G'.Salomov.

"Tarixiy asarlardagi milliy o'ziga xosliklarni va davr koloritini tarjimada qayta yaratishni quyidagi asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin:

a) qahramonlarni o'rab turgan ijtimoiy va moddiy muhit, predmetlar dunyosi, turmush tarzining o'ziga xosligini o'zga til kitobxoniga to'la anglatish orqali;

⁴⁹ Аъзамов Қ. "Мехробдан чаён"нинг икки таржимаси // Таржима муаммолари (Мақолалар тўплами). Уч китобдан иборат. 2-китоб. – Тошкент-Самарқанд, 1991. 154-бет.

⁵⁰ Жавбўриев М. Таржимада тарихий давр колорити // Таржима муаммолари. 2-китоб. 120-бет.

⁵¹ Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. 72-бет.

- b) urf-odat, udumlar, marosimlar, e'tiqod, axloqiy aqidalarni qayta yaratish bilan;
- v) asar qahramonlarining psixologiyasi, xatti-harakati, dunyoqarashi, nutqi, portreti, "narsalarni tushunish tarzi"ni to'la gavdalandirish orqali;
- g) tasvirlangan voqealar, hodisalar, xarakterlarda aks etgan, ularga singib ketgan davr koloritini to'la saqlab qolish orqali".

XOS SO'ZLARNI TARJIMA QILISHNING UCH USULI

Xos so'zlar tarjimasida asosan quyidagi uch usul qo'llanadi:

1. **Transliteratsiya** – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko'rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so'zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash. Masalan: jigit, sultan, kishlak, kasa, piyala. Oybekning "Navoiy" romani ruscha va fransuzcha tarjimasida "devon", "parvonachi" kabi terminlar transliteratsiya qilib berilgan.

Albatta, transliteratsiyadan keyin ko'pincha matn ostida izoh beriladi. Masalan, Parda Tursun fransuz adibi Emil Zolyaning "Tegirmon qamali" povesti tarjimasida frank, mer kabi tushunchalarni aynan qoldirib, matn ostida ularga izoh beradi: F r a n k – "O'tgan asrdagi fransuz pul birligi, bir frank ruslarning 37 tiyinig teng bo'lgan". M e r – "Qishloq yoki shaharni boshqaruvchi qilib saylangan kishi, ayni vaqtda, hukumat chinovnigi ham bo'lgan". Mopassanning "Tuan" novellasi tarjimasida dastlab "Iyo" o'lchov birligini "o'ntosh" deb olgan bo'lsa, keyin o'zini qoldirib, unga izoh beradi: "Lyo taxminan 4 km.ga teng bo'lgan fransuz o'lchov birligi"⁵².

"Transliteratsiya qo'llanilishi tarjima tilida realiyalarga to'g'ri ekvivalentlarning yo'qligi bilan sharhlanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning taraqqiyot yo'llari va hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo'lganligi, ikkinchidan, realiyalarning ko'p ishlatilishi tarjima tili ularni hazm qila olmasligi va o'quvchi uchun realiyalar ajib tushunmovchiliklar keltirishi bilan tushuniladi"⁵³. Shuning uchun ham Q.A'zamov Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ruscha tarjimasida o'zbek turmushi bilan bog'liq xola, opa, dada, devor, bo'ya, choydosh, yo'lak so'zlarining rus tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilganini tanqid qiladi. "To'g'ri, transliteratsiya metodidan hozir ham foydalaniladi, lekin bu usulning nozikligi shundaki, me'yor buzilsa, realiyalar milliy o'ziga xoslik belgilari emas, balki unga yot bo'lgan ekzotik belgilarga aylanadi, kitobxonni chalg'itadi. Realiyalar ekvivalent topilmaganda va tarjima qilishning iloji bo'lmagandagina transliteratsiya qilinishi mumkin"⁵⁴.

1. Transliteratsiya vositasida til xazinasini boyiydi – yangi so'zlar, terminlar, tushunchalar kirib keladi.
2. Bir paytlar transliteratsiya vositasida kirib kelgan so'z keyinchalik tilga singib ketishi mumkin.
3. Transliteratsiyada ham muayyan me'yor bo'lii kerak (masalan: milord – moy prins – shahzodam, gospodin – janob, assalomu alaykum – zdrastvuyte).

2. **Analogiya** – o'xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Masalan: Oybekning "Navoiy" romani ruscha tarjimasida "sholcha" – "palas" deb o'girilgan. Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romani tarjimasida "rojdestvo" – "yilboshi" deb olingan. Bunda so'zlarning ma'nosi umuman to'g'ri berilgan bo'lsa-da, milliy-tarixiy kolorit yo'qolgan. E.Vohidov Gyotening "Faust" asari tarjimasida "yuristlar"ni – "ulamo", "magistr"lar"ni – "fuzalo" deb berishi ham to'g'ri emas.

Analogiya usuli "yaqin tarjima" deb ham ataladi. Lekin bu termin nomining o'ziyoq asl nusxadagi milliy xos so'zlarning barcha vazifalarini, ma'no qirralarini to'liq ifoda etmasligini ko'rsatib turibdi: o'xshash o'xshash-da – aynan o'zi emas!⁵⁵.

3. **Yangi so'z va so'z birikmasi yaratish** – ba'zi tarjimonlar milliy xos so'z va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilarki, bu hol ko'pincha o'zini oqlamaydi. Masalan, M.Kenjabek "Evgeniy Onegin" tarjimasida "troyka"ni – "uchot", "kotlet"ni – "qiyima et" sifatida tarjima qiladiki, bunda termin ifodalagan ma'no berilib, terminning o'zi qurbon qilinadi. Yoki "Kreshenskie vecheri" marosimini – "hayit shomi", "muqaddas shomlar" deb beradi. Holbuki, bu nasroniylarga xos but yuvish bayram oqshomi hisoblanadi. Shunga o'xshab, "palov"ni – "risovaya kasha", "pirog"ni – "somsa", "kosa"ni – "glubokaya tarelka", "kasha"ni – "shovla", "shiy"ni – "sho'rva" deb o'g'irish ham o'zini oqlamaydi.

MILLIY KOLORITNING TARKIBIY QISMLARI

Milliy kolorit tarjimaning:

⁵² Қаранг: Х о л б е к о в М. Пarda Tursun – француз адабиётининг таржимони // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). 127-128-бетлар.

⁵³ Х а м р о е в Х. Миллий сўзлар – реалиялар ва бадий таржима. 159-бет.

⁵⁴ А ь з а м о в Қ. "Мехробдан чаён"нинг икки таржимаси. 154-бет.

⁵⁵ Ўша ерда.

– asarda tasvirlangan xalqning milliy o‘ziga xosligini aks ettirish kerakmi?

– asarni boshqa milliy zaminga ko‘chirish kerakmi?

degan ikki bir-biriga zid prinsipini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

Tarjimada til almashadi, lekin milliylik qoladi.

Milliy kolorit tushunchasining tarkibiy qismlari:

1. Xalqning moddiy tirikchilik sharoitidan olingan xos so‘zlar va ularni tarjima qilish xususiyatlari: paxta, g‘o‘za, yagana, o‘toq, pilla, ho‘p, juvoz yog‘i, jo‘xori; yetti xazina: qovoq, turp, sabzi, piyoz, sholg‘om, mosh, lavlagi, loviya va hokazo.

2. Moddiy tirikchilik sharoitidan olinib, majoziy ma‘noda ishlatiladigan xos so‘zlar tarjimasining xususiyatlari: paxtaday oppoq, paxtaday yumshoq, joni paxtaday, qo‘yday bezabon; ko‘zi charosday – ko‘zi qorag‘atday – ko‘zi sigirday; musichaday beozor – sigirday beozor (koreys); ohuday qiz – bo‘z qo‘chqorday qiz (turkman).

3. Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi: Ilya – Ilyos, Solomon – Sulaymon, Avraam – Ibrohim, Iisus – Iso (Masih), Kain – Qobil, Adam – Odam Ato, Yeva – Momo Havo, Aristotel – Arastu, Platon – Aflotun, Sokrat – Suqrot, Galen – Jolinus, Gippokrat – Buqrot, Ibn Sino – Avisenna va hokazo.

“Badiiy ijod vakillari ba‘zan o‘z personajlarini shunday ismlar bilan ataydilarki, bu nomlar o‘sha personajlar xususiyatini o‘zida mujassamlashtirganlari sababli “gapiruvchi nomlar” deb ataladilar”⁵⁶. Masalan, “Qutlug‘ qon”da – Tantiboyvachcha, “Tobutdan tovush”da – Zargarov, “Sudxo‘rning o‘limi”da – Qori ishkamba va hokazo. Bunday nomlarning transliteratsiya qilinishi muallif maqsadining ro‘yobga chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi.

4. Diniy istilohlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada berilishi: Olimp xudolari, ilohlar, ma‘budlar – Ollohlar (Q.Mirmuhamedov), Injil – Kalomulloh (V.Fayzullo), pasxa – ro‘za, g‘usl – cho‘milish, namoz – ibodat (“Qutadg‘u bilig” tarjimasida), faqih – sudya, azon aytish – cho‘qintirish va hokazo.

5. Jug‘rofiy nomlar: Dashti Qipchoq – Velikiy step, Yegipet – Misr, Suriya – Shom, Rum – Kichik Osiyo, Farang, Ajam, Ural – Yoyiq, Sayhun – Sirdaryo, Jayhun – Amudaryo, Samarqand – Maroqand, Chin – Xitoy, Kanada – uylar, kulbalar va hokazo.

6. Pul birliklari tarjimasida: dinor, dirham, so‘m, tanga, miri, tiyin, rubl, dollar, rupiya, tuman, riyol, funt-sterling va h.k.

7. O‘lchov birliklari: kilometr, chaqirim, farsang, lyo, tosh, qadam.

Qadoq, botmon, pud, kilo.

Gaz, sarjin, qarich, tirsak.

8. Taom nomlari: palov – risovaya kasha, chalob – okroshka, pirog – somsa, kotlet – qiyma et, sho‘r bodom – sho‘rdanak, kasha – shovla, shiy – sho‘rva.

9. Cholg‘u asboblari va musiqiy atamalar tarjimasida: doira, nay, qo‘shnay, karnay, surnay, chang, fleyta, gitara, muza, barbat, ud.

Lapar, katta ashula, shashmaqom, xirgoyi.

Tansevat – raqsga tushish. tansevat – tansa tushish.

10. Kiyim-kechaklar nomi: to‘n, do‘ppi, qiyiqcha, kuloh, guppi, nimcha; galstuk, frak, shuba, plashch, shlyapa, pal‘to, kostyum-shim. Shuba – charm to‘n, xalat – guppi, kuloh – shapka, to‘n – palto.

11. Adabiy terminlar tarjimasida: ruboiy, g‘azal, tuyuq, fard, xokku, tanka, qasida – oda, marsiya – elegiya, oq she‘r – beliy stix, barmoq vazni – palchikovaya sistema, aruz, devon, o‘lan, bayoz, antologiya, xrestomatiya, majmua, tazkira, elegiya – o‘lan, g‘azal, svod elegiy – devon, yor-yor, terma, yallama-yorim, omonyor.

12. Xalqaro tashkilotlar, yirik uyushmalar, firmalar, trest nomlari tarjimasida: Krasniy polumesyats – Hiloli ahmar – Qizil yarimoy.

13. Gazeta va jurnal nomlari tarjimasida: “Xalq so‘zi” – “Narodnoe slovo”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Turkiston”, “O‘zbekiston ovozi”, “Mushtum”.

14. Toponimlar tarjimasida: Bangilar, Sassiqliq hovuz, Ko‘kcha, Beshkent, Qiziltepa, Beshariq, Oltiariq, Uchariq. Masalan, “Boburnoma”ning inglizcha tarjimasida “Kamrud” so‘zini – “bezvodnaya doroga” (“qaqroq yo‘li”) deb olingan.

15. Urf-odat, rasm-rusum, an‘ana va marosimlar tarjimasida: aqiqa, beshik to‘yi, qizlar majlisi, mavlud, Bibi seshanba, iftorlik, xatmi Qur‘on, charlar, kelintalbon, maslahat oshi, chimildiqkanon, xudoyi, tog‘ora qilish, to‘qqiz tovoq, idishni quruq qaytarmaslik, padaroshi, janoza, yigirma, yil, hayit.

⁵⁶ М у с а е в Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан”, 2005. 105-бет.

16. Asarlarning nomlari tarjimasi: Bibliya – Bibliya, Yevangeliya – Injil, Plastir – Haftiyak, Bukvar – Alifbo, “Obon” – “Kuy” – “Jamila”, “Tronka” – “Hayot navosi”, “Plaxa” – “Qiyomat”, “Sestra Kerri” – “Baxtiqaro Kerri”, “Yulduzli tunlar” – “Babur”, “Dekameron” – “Dekameron”.

17. Uy jihozlari tarjimasi: sandal, taxmon, pech, xontaxta, stol, stul, shkaf, javon, sham.

18. Mehnat qurollari: o‘roq, ketmon, omoch, choriq, panshaxa, g‘alvir, tegirmon, do‘l, duk, charx, arava, qop, qanor, korjoma, paytava. Masalan, “Boburnoma”ning inglizcha tarjimasida “ketmon” – “belkurak” deb berilgan.

19. Oshxona anjomlari: o‘qlov, rapida, tandir, o‘choq, shevan, hovoncha, nonpar, elak, tog‘ora, guppi.

20. Qush, hayvon va hasharotlar nomi: qo‘y, fil, tuyay, delfin, timsah, boyo‘g‘li, bulbul, qarg‘a, suvarak, chivin, pashsha, chumchuq, beshiktebratar, echki, ari, asolari, qaldirg‘och, musicha, bedana, sassiqpopishak, chug‘urchiq, ilon, tipratikan, qurbaqa, ot, it, eshak, mushuk, sichqon, kargaz, chayon, yumronqoziq, kaltakesak. Masalan, “Boburnoma”ning inglizcha tarjimasida “oq kiyik”ni – “beliy zver” (“oq hayvon”) deb berilgan.

21. Mevalar nomi tarjimasi: o‘rik, olxo‘ri, qovun, tarvuz, uzum, nok, rediska, anjir, anor, behi, olma, gilos, olcha, jiyda, do‘lana, ravoch, yong‘oq, bodom, qovoq, lavlagi, turp, arpabodiyon, banan, kokos, tut, qulupnay. Masalan, “Boburnoma”ning inglizcha tarjimasida “olma”ni – “behi”, “xanzal” (“achchiq tarvuz”) – “qovoq”, “nashvati”ni – “qovunning bir navi”, “mehrighiyoh”ni – “mandragora” (“zaharli o‘t”) deb berilgan.

22. Daraxtlar va gullar nomi: gultojixo‘roz, rayhon, jambil, atirgul, gulibeor, majnuntol, tol, sada, gujum, akatsiya, ar-ar, dub, palma, chakalak, sarv, shamshod, to‘bo.

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy kolorit nima?
2. Xos so‘zlarni tarjima qilishning qanday usullari mavjud?
3. Milliy koloritning tarkibiy qismlari haqida ma‘lumot bering.

Quyidagi tayanch so‘z va iboralarni izohlang: kolorit, tarixiy kolorit, milliy kolorit, mahalliy kolorit, realiya, transliteratsiya, analog.

Adabiyotlar:

1. G‘.Salomov. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1961;
2. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978;
3. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983;
4. Q.Musaev. tarjima nazariyasi. – Toshkent: “Fan”, 2004.

BESHINCHI MA‘RUZA **FUNKSIONAL USLUBLAR VA ULARNING** **TARJIMA AMALIYOTIDAGI O‘RNI**

Dars rejasi:

1. Uslub tushunchasining ma‘no-mazmuni, qo‘llanish doiralari.
2. Davrlar va uslublari.
3. Muallif va mutarjim uslubi.
4. Uslub qatlamlari.

USLUB TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MUNDARIJASI. TARJIMA **VA USLUB MAVZUIDA USLUBNING ASOSIY TUSHUNCHALARI**

F u n k s i y a – ish, vazifa, xizmat. “Biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi”⁵⁷. F u n k s i o n a l – “Tuzilishiga emas, balki faoliyatiga, xizmatiga, funksiyasiga bog‘liq bo‘lgan”⁵⁸.

U s l u b (s t i l) – lotincha s t i l u s so‘zidan olingan bo‘lib, xat yozish uchun tayyorlangan uchi o‘tkir tayoqcha; yozish usuli, bayon tarzi ma‘nolarini bildiradi. Badiiy asarning umumiy ohangi va koloriti degan mazmunda ham keladi.

“Uslub – keng ma‘noda – yozuvchi ijodidagi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, tor ma‘noda – ifoda usuli (tarzi bayon). Keng ma‘noda uslub tushunchasi shoirning dunyoqarashi, asarlarining asosiy

⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. – Москва, 1981. 308-бет.

⁵⁸ Ўша ерда.

leytmotivini tashkil etuvchi g'oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarni qamrab oladi"⁵⁹.

"Uslub tushunchasi xilma-xil mazmunda, ya'ni nihoyatda keng yoki juda tor ma'nolarda qo'llaniladi. Bu tushuncha muayyan davr adabiyoti xususiyatlariga ham (muayyan davrdagi uslublar), turli xalqlar adabiyotlariga xos belgilarga ham (milliy uslublar), turli adabiy usul va yo'nalishlarning o'ziga xos tomonlariga ham (klassisizm, sentimentalizm, romantizm uslublari), bir yozuvchi ijodidagi alomatlariga ham (Navoiy, L.Tolstoy, M.Gorkiy, Hamza, A.Qahhor uslublari), nihoyat, alohida bir asarga ham (A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi uslublar) taalluqli holda qo'llaniladi"⁶⁰.

Uslab keng va murakkab tushuncha bo'lib, uning xillari ko'p. Lekin ilmiy adabiyotlarda asosan 5 xil uslub ajratib ko'rsatiladi:

1. So'zlashuv uslubi
2. Badiiy uslub
3. Ilmiy uslub
4. Publisistik uslub
5. Rasmiy uslub.

So'zlashuv uslubi – jonli nutqqa xos, o'zaro suhbat, fikr almashuv jarayoniga xos bo'lgan bayon usuli. So'zlashuv tiliga xos bayon usuli. U jonli nutqdan iborat bo'lib, bunda til qonun-qoidalariga rioya qilinmaydi.

So'zlashuv uslubining belgilari:

1. Nutq o'zaro suhbat shaklida bo'lib, unda to'liqsiz gaplar ko'p ishlatiladi – muayyan vaziyatda sharoit, holat, mimika, imo-ishoralar nutqni to'ldirib kelgani uchun nutq ixcham bo'ladi. Masalan: quydi (yomg'ir), kelyapti (avtobus).

2. So'z tanlash va ularni tartibga solish birmuncha erkin ko'rinishda bo'ladi. Masalan:

Bugun ma'ruza bo'ladi, tarjima nazariyasidan.

Biz mashina oldik, "Neksiya".

Hozir majlis bo'ladi, katta zalda.

Boshqacha aytganda, so'zlovchi gapini aytadi-yu, keyin unutgan ba'zi so'zlarini ketidan keltiraveradi.

3. Ko'chma ma'nodagi so'zlar, obrazli iboralar, frazeologik birikmalar ko'p uchraydi. Masalan: Ular juda inoq – oralaridan qil o'tmaydi. Quloqqa lag'mon osadi. Gapga to'n kiygizadi. Aravani quruq opqochadi.

4. Har xil takrorlar (so'z takrori) uchraydi:

Kim? Kim keldi? Nima? Nima olding? Yurib-yurib bozorning darvozasiga kelib qoldim.

5. Grammatik shakllarning norma bo'lmagan shakllari qo'llanadi:

Aytinglar, aytingiz – ayting bo'lishi kerak.

6. Intonasion vositalar – hayronlik, gumon, ishonmaslik, qat'iylik ma'nolarini berish.

7. Hazil unsurlari bo'ladi:

Mana, topshiriqni ham "qoyil" qilib bajardingiz!

8. Sodda gaplar ko'p ishlatiladi:

Qololmadim: ishim chiqib qoldi.

So'zlashuv uslubi faqat og'zaki nutqdagina emas, badiiy asarlarga ham xos bo'lib, personajlarning til xususiyatlarini xarakterlashda juda muhim. Shuning uchun tarjimada bunga alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Badiiy uslub – badiiy adabiyot, badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylilik, ifodaviylilik, ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Badiiy uslubda tematik va uslubiy chegaralanish yo'q.

Belgilari:

1. Til boyligidan foydalanishda "ortiqcha" so'zlarning ham qo'llanaverishi.

2. Ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, frazeologizmlar, badiiy tasvir vositalarining ko'p ishlatilishi.

3. So'z tartibida adabiy til me'yorlaridan chekinishning uchrashi.

4. Ilmiy-texnik atamalar nisbatan kam istifoda etilishi.

5. Ritorik so'roq gaplar, emotsional jumlar va boshqalardan ko'p foydalanishi.

Shuning uchun badiiy uslub "aralash uslub" ham deyiladi.

Ilmiy uslubda mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan darslik va qo'llanmalar ham shu uslubda yoziladi. Ilmiy uslubda biror mavzu bo'yicha aniq, asoslangan izchil ma'lumot berish kerak bo'ladi.

⁵⁹ Адабиётшунослик терминлари лугати. – Тошкент, 1967. 232-бет.

⁶⁰ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1995. 239-240-бетлар.

Belgilari: ilmiy uslubda ta'riflab berish, tahlil qilish, sababini aniqlab isbotlash va natijalarni bayon qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda so'zlashuv uslubi unsurlari, tasvir deyarli uchramaydi, balki maxsus terminlar, o'z asl ma'nosidagi so'zlar, bir ma'noli so'zlar yetakchilik qiladi. Bu uslubda adabiy til me'yorlariga to'la rioya qilinadi. Nutqda ixchamlik, lo'ndalikka harakat qilinadi. Ayni paytda, murakkab sintaktik konstruksiyalar ko'p bo'ladi. Yig'iq gap kam qo'llaniladi.

Keng jamoatchilikka havola qilinadigan materiallar (gazetalar, ommabop jurnallarda turli ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar yoki keng omma oldida o'qiladigan ma'ruzalar) ilmiy - ommabop uslubda bo'ladi. Bu uslubda obrazlilik – tasvir ham bo'ladi. Maxsus terminlar kam ishlatiladi. Ishlatilganda ham izohlar orqali tushuntiriladi.

Publisistik uslub – tilning ta'sir qudratiga asoslanadi. Bu targ'ib-tashviq va da'vat uslubi. Asosan matbuot materiallari shu uslubda yoziladi.

Belgilari: ilmiy atamalar kam, turli uslub unsurlari aralash keladi.

Publisistika – lotincha publisus – ijtimoiy so'zidan. Jamoatchilik fikriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazish maqsadida kundalik ijtimoiy masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan adabiy tur. Publisistika vaqtli matbuot bilan chambarchas bog'langan. Publisistik turning asosiy asarlari muammoli maqolalar, ocherklar, pamfletlar, fel'etonlar va boshqalar hisoblanadi.

Publisist. "Ijtimoiy-siyosiy mavzularda asar yozuvchi adib. Publisist yozuvchi"⁶¹.

Publisistika – ijtimoiy-siyosiy masalarga oid adabiyot.

Rasmiy-idoraviy uslub – o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda *qaror qilindi, inobatga olinsin, iro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi* kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

Rasmiy uslub neytralligi bilan ajralib turadi. Qaror, buyruq, raport, instruksiya, akt, ariza, e'lon kabilar shu uslubda yoziladi va tarjima qilinadi.

Belgilari: qisqa, standart shakl, turg'un iboralar, maxsus professional so'zlar, terminlar, tayyor qolip (shablon) iboralar: *shunga ko'ra, shu asosda, ...ni e'tiborga olib, biz quyida imzo qo'yuvchilar, biz ushbu akti tuzuvchilar, ...ga muvofiq, biz yuqorida nomi ko'rsatilganlar, ... uchun, oylik maoshi miqdorida va hokazo.*

Bu uslubda ma'noning ikki xil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

YOZUVCHI USLUBI

"Yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o'ziga xos tili, tasvirlash manerasi. Har bir chinakam ijodkor o'z uslubiga ega bo'ladi. Masalan, Navoiy g'azallari yuksak badiiyligi, fikrlarning teranligi bilan, Bobur asarlari esa musiqiyligi, tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uslub ijodkorning o'zligini, mustaqilligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o'zi o'ylab chiqargan narsa deb qarash kerak emas. Ijodkor o'zidan avvalgi adib va shoirlarning asarlari bilan tanishar ekan, ulardan o'rganadi.

Muallif uslubi unsurlarini tarjimon ikkiga bo'lib qarashi mumkin:

- Tarjima matniga o'zgarishsiz ko'chib o'tuvchi unsurlar.
- Tarjimada tarjimon mavqeiga bog'liq bo'lgan unsurlar.

Ularning birinchisiga asarning kompozision qurilishi, tabiat tasviri, portret yaratish, xarakter yoki tip yaratish usuli, qahramonlarni nomlash, tasvir vositalariga boylik darajasi va boshqalar kiradi.

Ikkinchisiga esa tarjimada tarjimon mahoratiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin bo'lgan unsurlar, jumladan, asar jummlarining uzun-qisqaligi, ulardagi so'z tartibi, so'zlarni tanlashdagi emotsionallik darajasiga tarjimonning munosabati, tarjima nazariyasining ba'zi prinsiplariga tarjimonning munosabati kabilar kiradi.

Bu hollarda kontekstlarning o'zgarishiga qarab:

1. O'z tillarida mavjud ekvivalent orqali.
2. Funktsional o'xshash varianti orqali.
3. Transliteratsiya yo'li bilan.
4. Xolis obrazli yo'l bilan xal qilib keladilar.

Har bir asarning ham o'ziga xos uslubi bo'ladi. Yozuvchining har bir asari muayyan uslubda yoziladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" asarlari, hajviya va ocherklarining har biri o'ziga xos uslubga ega. Yoki Abdulla Qahhor hikoyalari, "Sarob" romani, "Qo'shchinor chiroqlari", "Sinchalak", "Shohi so'zana" asarlari haqida ham shunday deyish mumkin.

⁶¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. 605-бет.

Muallif va mutarjim uslubining bir-biriga mos kelish va mos kelmaslik muammosi doirasida tarjimaning ikki prinsipial masala yotadi:

1. O'zgani taqdim qilish.
2. O'zni taqdim qilish.

Yoki:

1. Tarjima asari – tarjima asari.
2. Tarjima asari – original asar.

Uslub muammosining ikki tomoni mavjud:

1. Yozuvchi uslubining tarjimon uslubiga ta'siri.
2. Tarjimon uslubining yozuvchi uslubiga ta'siri.

Uslubiy moslashtirish asarni ko'proq i q l i m l a s h t i r i s h, yozuvchini "o'zimizniki" qilish maqsadiga xizmat qiladi".

"Individual uslub deganda biron avtorning muayyan davrda yaratgan asarlarida doim uchraydigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy uslubiy unsurlar majmuasi tushuniladi. Shuningdek, ijodiy faoliyatga munosabatidan qat'i nazar, biron shaxsning og'zaki yoki yozma nutqda muntazam ishlatiladigan so'z va iboralari ham individual uslubni keltirib chiqaradi"⁶².

"Badiiy tarjimada aniqlikka erishish faqat yozuvchining individual uslubini aks ettirish orqali amalga oshadi. Uslubni berolmagan tarjimon aniqlikni da'vo qilolmaydi"⁶³.

"Badiiy tarjima ikki uslubning birikishidan hosil bo'lgan ya n g i a d a b i y h o d i s a d i r. Tarjima jarayonida ikki ijodkor uslubi ro'baro' keladi, tanishish yuz beradi. Bu tanishuv tarjimada birikish, o'zaro singib ketish holatida namoyon bo'ladi.

PERSONAJLAR NUTQI TARJIMASI

Personajlarning o'z nutqi bo'lib, u adabiy tildan farqlanadi, ular qiyin so'zlarni ba'zan buzib talaffuz qiladilar – asl nusxada o'z aksini topgan bu so'zlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar asliga xos berilishi kerak. Masalan, Vasiliy Shukshinning bir qahramoni yozuvchilikni havas qiladi, biroq uning adabiyotdan savodi haminqadarki, hikoya so'zini to'g'ri yozolmaydi – "raskas" deb yozadi. Uni O'.Hoshimov va X.Sultonovlar "hikoya" deb tarjima qiladilar. X.Ahrorova esa rus mujiklari tilida kelgan "fershal", "rojestvo", "ablakat" kabi so'zlarni "feldsher", "rojdestvo", "advokat" tarzida tuzatib tarjima qiladiki, bu qahramonlar nutqining tabiiyligini yo'qqa chiqaradi"⁶⁴.

"S.A.Baruzdinning tasvirlash maromiga xos birinchi fazilat – bu qisqalik; ikkinchi alomat – aniqlik; uchinchi – chuqur psixologizm"⁶⁵. Shunga qaramay, uning 199 sahifalik "Oydek ravshan" qissasi tarjimada 238 betga cho'zilgan. "Sababi, muallifning ixcham uslubi me'yorida ortiq darajada izohlab, sharhlab, talqin qilib berilgan"⁶⁶. Masalan:

"Katyushe tridsat pyat. Sxoditsya, rasxoditsya" (7) degan beshta so'zdan iborat gap "Katyusha o'ttiz beshga kirdi. Nuqul erga tegib, erdan chiqish bilan ovora" tarzida o'n bitta so'z bilan o'girilgan ekan, qizning xulq-atvori tasviriga mos tarzda, tarjimonning tadbiriga e'tiroz bildirib bo'lmas. Biroq agar bunday uslubiy "bag'rikenglik" muxtasar aniq tasvirni lanj qilib qo'ysa, mantiqsizlik sodir bo'lishi ham hech gapmas.

Albatta, tarjimada ikki uslub – muallif va mutarjim uslubi kesishadi – chinakam tarjimada ana shu nuqtada vujudga keladi.

"Chunki fikr o'z qolipi bilan fikr. Qolip o'zgardimi, fikrda ham ozmi-ko'pmi o'zgarish yuz berishi tabiiy. Tarjimada baribir qolip o'zgaradi-ku, deyishlari mumkin. Ha, o'zgaradi. Lekin o'zgartirmaslikning imkoni bo'lmagandagina o'zgaradi"⁶⁷.

V.Xinkisning fikricha, asl nusxadagi sheva elementlarini tarjima qilayotgan tildagi aynan sheva so'zlari bilan berish shart emas, uni so'zlarning o'zaro birikishi – sintaksis yordamida ham ifodalasa bo'ladi. Tarjimashunos M.Loriening fikri ham shunday bo'lib, shevalarni tarjima qilishda ona tilidagi biror shevadan foydalanmay, uni sintaksis va ma'lum intonatsiya yordamida ham aks ettirish mumkin"⁶⁸. S.Olimov ham

⁶² Саломов Ф. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983. 66-bet.

⁶³ Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Toshkent, 1979. 113-bet.

⁶⁴ Қаранг: Ҳазраткулов М. Услуб ва таржима ҳақида баъзи кузатишлар // Таржима санъати. 4-китоб. – Toshkent, 1978. 271-272-бетлар.

⁶⁵ Саломов Ф., Комилов Н., Жўраев Т. Бадий таржиманинг тараккиёт майллари таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Toshkent, 1985. 13-бет.

⁶⁶ Ўша ерда. 16-бет.

⁶⁷ Олимов С. Илмий таржима мураккабликлари // Таржима санъати. 6-китоб. – Toshkent, 1985. 110-бет.

⁶⁸ Эгамова Я. Таржимада персонажлар нутқидаги жонли тил элементларини акс эттириш масаласи // Бадий таржима – дўстлик қуроли (Мақолалар тўплами). – Toshkent, 1974. 33-34-бетлар.

F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani tarjimasida Toshkent shevasiga xos “shag’am”, “ha-de”, “talinka”, “o’zi” o’rnida “o’zligi” so’zlarini qo’llagani uchun I.G’afurovni tanqid qilgan edi⁶⁹.

“Personajlar nutqidagi jonli nutq elementlarini muvaffaqiyatli o’girish uchun rasmiy lug’atlarga emas, xalq tiliga tayanish kerak. Negaki, jonli tilga oid so’zlar ko’pincha lug’atlarda qayd qilinmaydi, bo’lganlari ham aksari hollarda muayyan kontekst ruhiga mos kelavermasligi mumkin. Shu sababli tarjimaning asl nusxaga nechog’lik yaqin bo’lishi tarjimon mahoratiga, xalq tilini qay darajada egallaganiga ko’p jihatdan bog’liq bo’ladi”⁷⁰.

USLUB QATLAMLARI

So’zlar uslubiy bo’yog’iga ko’ra ham bir-biridan farqlanadi: *chehra, ruxsor, yuz, aft, bashara, turq*.

Uslub qatlamlari:

Tantanavor uslub – *chehra; tanovul qildi*.

O’rta uslub – *yuz; yemoq*.

Jaydari uslub – *aft; oshamoq*.

Qo’pol uslub – *bashara; yutmoq*.

Erkalash va kichraytirish so’zlari yasovchi qo’shimchalardan ham uslubiy ifodada foydalaniladi: – *voy, – xon, – jon, –qul, –gina, – kina, –loq, kay* va hokazo.

So’zning ma’no qirralaridan foydalanish: *o’ldi, vafot etdi, juvonmarg bo’ldi, u dunyoga rixlat qildi, joni qutuldi, dunyoni tark etdi, Azroil jonini oldi, jonini jabborga topshirdi* va hokazo. Masalan, “Boburnoma”da “o’lmoq” so’zi 27 o’rinda 27 xil qo’llangan.

Mumtoz adabiyot asarlari va qadimgi madaniy yodgorliklarni tarjima qilishning uch prinsipi:

1. Funksional-tarixiy prinsip.
2. Tarixiy uslubiy moslashtirish prinsipi.
3. Modernizatsiya prinsipi.

Muallif uslubini aks ettirishi jihatidan tarjimonlarni uch guruhga bo’lish mumkin:

1. Muallif va o’z uslubini sezilmas darajada mahorat bilan omuxta qilib yuboradigan mutarjimlar (Mohir mutarjimlarning barchasini bu guruhga kiritish mumkin).

2. Muallif uslubiga mahliyo bo’lib, o’z ovozi yo’qotgan, butunlay muallif uslubiga singib ketgan tarjimonlar (No’noq va o’z uslubiga ega bo’lmagan, taqlidchi tarjimonlarni bu guruhga qo’shish mumkin).

3. Har qanday uslubdagi asarni o’z uslubiga solib o’giradigan tarjimonlar (Bu yo tarjimon shaxsiyatining kuchliligidan, yo tarjima xususiyatini yaxshi bilmasligidan, yo tarjimoni kosibchilikka aylantirib olganligidandir). Bir qolipdagi yakrang tarjimalar ana shunday tarjimonlar mehnati mahsuli.

Savol va topshiriqlar:

1. Uslub deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday uslublarni bilasiz?
3. Uslubning asosiy tushunchalari qaysilar?

Quyidagi tayanch so’z va iboralarni izohlang: uslub, so’zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, rasmiy uslub, yozuvchi uslubi, tarjimon uslubi, uslub qatlamlari.

Adabiyotlar:

1. S a l o m o v G’. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1983. 64-97, 126-162-betlar.

2. H a z r a t q u l o v M. Uslub va tarjima haqida ba’zi kuzatishlar // Tarjima san’ati (Maqolalar to’plami). 4-kitob. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. 265-272-betlar.

3. S a l o m o v G’. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 15-93-betlar.

4. U m a r o v A. Yuksak san’at yo’lida. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990. 92-101-betlar.

5. “Tetradi perevodchika” to’plamlari. – Moskva, 1968 (№ 5); 1971 (№ 7).

6. V i n o g r a d o v V.V. Problema avtorstva i teoriya stiley. – Moskva: GIXL, 1961.

OLTINCHI MA’RUZA

BADIIY TARJIMA TURLARI, JANRLARI VA XUSUSIYATLARI

⁶⁹ О л и м о в С. Иккинчи ташриф // Tarjima san’ati. 5-kitob. – Toshkent, 1980. 251-bet.

⁷⁰ Э г а м о в а Я. Tarjima da personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi. 34-bet.

Dars rejasi:

1. Epik, lirik va dramatik tur haqida.
2. Adabiy janr tushunchasi va badiiy asar tarjimasining janriy xususiyatlari.
3. Frazologizmlar tarjimasining uch usuli to'g'risida.
4. Tarjimada g'oyaviy mazmun va estetik ma'no.
5. Tarjimada kompensatsiya tushunchasi.

“Tasvir prinsipi, hayotiy voqelikning qamrovi va aks etish tarzi, obrazlar xarakterini ochish imkoniyatlariga qarab, barcha badiiy asarlar uch katta turga bo'linadi: **1) Epik tur.** Bu turga roman, qissa, masal, hikoya, ocherk kabi janrlar kiradi. **2) Lirik tur.** Bu turga g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, ruboiy, tuyuq kabi klassik adabiyotdagi janrlar va hozirgi adabiyotdagi she'riy janrlarning hammasi kiradi. **3) Dramatik tur.** Dramatik tur drama, komediya va tragediya kabi janrlarni o'z ichiga oladi.

Ayrim asarlar adabiy turlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Masalan, **she'riy roman, nasriy nazm** kabi. Bunday asarlar **liro-epik** turga mansub deb yuritiladi”.

Janr – fransuzcha so'z bo'lib, shakl va mazmun jihatidan o'ziga xos belgilar birligiga ega bo'lgan san'at asari turi. Badiiy asarlarning syujet va uslub jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan har bir turi. Masalan: *roman, qissa, hikoya, g'azal, ruboiy, drama* va hokazo... Tor ma'noda janrning ichki xillanishini bildiradi: *tarixiy roman, detektiv roman, hajviy roman, siyosiy roman, fantastik roman* va hokazo. Yoki *mehnat qo'shiqlari, muhabbat qo'shiqlari, hajviy qo'shiqlar*.

Har bir janr tarjimasi o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Masalan, nasriy asar tarjimasida avvalo muallif uslubini aks ettirishi kerak. Aytaylik, T.Murod o'ta xalqona yozadi, ta'sirchanlikni oshirish uchun takrorlardan, odamlar ichida yurgan gaplardan mahorat bilan foydalanadi. “Otamdan qolgan dalalar” romanidan:

“Kuydi-kuydi – ayolimni tani kuydi.

Kuydi-kuydi – meni bag'rim kuydi.

Kuydi-kuydi – bolalarimni sho'ri kuydi” (176).

Kuydi-kuydi – kattalarni nimasi kuydi?

Kattalarni... oyog'i kuydi!

Yoki:

“Dalalarim – bobolarim sho'r-sho'r peshonasi.

Dalalarim – otalarim yag'ir-yag'ir yelkasi.

Dalalarim – ayollarim xazon-xazon umri” (262).

2. Asar ritmini berish: oddiy, murakkab, xalqona, milliy, jiddiy yoki hajviy va hokazo. shiddatli yoki bosiq hikoya tarzi...

N.Aminovning “Qo'l haqqi” hajviyasi:

“Husndan, qaddi-qomatdan qarzimiz yo'q. Bo'y – 190, qosh-ko'z qop-qora, ko'krak va bilaklarning juni olti oylik toychoqning yoliday. Ko'chada yursam, ro'paramdan chiqqan ayol zotiki bor, besh-yon qadam o'tmasdanoq orqa o'girilib izimdan qaramay iloji yo'q”, – deb boshlanadi.

3. Personajlar nutqi:

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Anvarning ukasi va uning o'rtoqlari bo'lgan yigitlarning o'zaro suhbatiga diqqat qiling:

“ – Tur Sharif, tur, peshin bo'lubtu.

Ikkinchi yigit ko'zini ochdi:

– Ey, qo'ysang-chi, Rahem.

– Tur-da, axi, ana Qobelboy ham keb to'xtabtu.

Sharifboy yostiqlardan burilib, yonidag'i uchunchi yigitga qaradi:

– Pala'nat, qachon kelgan ekan?

– Kim bilsin... Inisini bo uchratdimikin? Kani, uyg'ot-chi pala'natini...

– Ebi, ebi, – dedi Rahim, – burodaring ahvolini gapur-da, axi. Bar padari uyquki, peshinga chikin bo'lsa, ko'chaga bo'lib yotkan to'palangni go'shingga ilasanmi? (609)

4. Qahramonlar portreti, holatini chizish.

“Kumushning bu daqiqadagi xolini qalam bilan chizib ko'rsatish albatta mumkin emas edi. Ul titrar edi, ko'karar edi, to'lg'anar edi...” (259)

“... Ra’ning ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushkan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san’at bo’lg’anda edi, so’z bila biljirab o’lturmas, shu o’runda sizga Ra’ning rasmini tortib ko’rsatib qo’yar, faqat menga Ra’no gulining suvigina ko’proq kerak bo’lar edi.

She’riy tarjima xususiyatlari:

1. Muqobil vazn topish:

Agar on turki sherozi badast orad dili moro,
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.

Xurshid tarjimasi:

Agar ko’nglimni shod etsa o’shal Sherof jononi,
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.

2. Uslub, ohang, radif:

Mutribi xushnavo, bigo’, toza ba toza, nav ba nav,
Bodai dilkusho bijo’, toza ba toza, nav ba nav.

Xurshid tarjimasi:

Cholg’uvchi, aylagil navo, yangi va yangi, xilma-xil,
Izla sharobi dilkusho yangi va yangi, xilma-xil.

Yana:

Yo Rab, on sham’i dilafo’z zi koshonai kist?
Joni mo so’xt, bipursed, kijononai kist?

Chustiy tarjimasi:

Qaysi uying sham’idir u, qaysi joyda xonasi?
O’rtadi jonni, so’rang, kimning erur jononasi?

3. Radif aks etmagan’:

Dast az talab nadoram to komi man baroyad,
Yo tan rasad ba jonon, yo jon zi tan baroyad.

Xurshid tarjimasi:

Qo’l tortmog’um tilakdan lutf etmaguncha dilbar,
Yo jon ketar tanimdan, yo vasl bo’lur muyassar.

4. Mulamma’ (shiru shakar) tarjimasi:

Alo yo ayyuhassoqi, adir ka’san va novilho,
Ki ishq oson namud avval vale aftod mushkilho.

Xurshid tarjimasi:

Ayo soqi, sunib joming, qil ehson – yashnasin dillar,
Ko’rundi avval ishq osonu so’ngra tushdi mushkillar.

FRAZEOLGIZMLAR TARJIMASINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fraza – 1. Ibora, jumla, gap. 2. qanotli ibora, hikmatli barqaror birikma.

Frazeologiya – 1. barqaror so’z birikmalari. 2. tilshunoslikning barqaror so’z birikmalarini o’rganadigan bo’limi.

Frazeologizmlar – maqol, matal va idiomalar.

Turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal umumiy ma’no anglatuvchi, ixcham, jarangdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga **maqol** deyiladi.

Masalan: Bir yigitga yetmish hunar oz. Aql yoshda emas, boshda.

Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir.

Masalan: Burgaga achchiq qilib, ko’rpani kuydirmoq. O’zi aka, echkisini taka demoq. O’zimni sen, uni siz deb yurgan edim.

“Matal aytilmoqchi bo’lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko’chma ma’noli sodda jumla bo’lib, unda xulosa bo’lmaydi, balki uning o’zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal “u ahmoq odam” deyish o’rniga – “uning bir qaynovi past” deydi; “ular bir-biriga o’xshaydi” deyish o’rniga – “ular bir olamning ikki pallasi” deb aytadi”⁷¹.

Matal – tugal ma’no ifodalanmaydigan obrazli ibora, hikmatli so’z (mas., “qizil qor yoqqanda”, “tuyaning dumi yerga tekkanda”)⁷².

Idioma – ma’nosi o’z tarkibidagi so’zlarning ma’nolariga bog’liq bo’lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora. Masalan: tomdan tarasha tushganday, og’zingga qarab gapir”⁷³.

⁷¹ С а л о м о в Ф. Тил ва таржима. – Тошкент, 1966. 259-бет.

⁷² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. 451-бет.

Idiomalar: oyoq uzatmoq, bosh qotirmoq, ishlar besh, parvoi falak, pichoqsiz so‘ymoq, boshi osmonda, qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq, kunduz kuni chiroq topolmaysan.

Matallar: ona suti og‘zidan ketmagan, dokaday oqargan, tirik murda, so‘qir ko‘zga surma, dengizdan tomchi, birovning nog‘orasiga o‘ynamoq, terisi suyagiga yopishgan, dumini qisdi, sigirga to‘qim urganday.

“Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish; 3) frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma‘nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi”.

1. Zo‘ri behuda miyon meshikanad. – Ortiqcha kuchanish belni sindiradi.

Az no‘gi xamir fatir – xamir uchidan patir

Aro‘si modarash nabo‘sida – onasi o‘pmagan qiz

Angur angura dida rang megirad – chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi, qovun qovundan rang oladi.

siplyat po oseni schitayut – jo‘jani kuzda sanaydilar

pokornuyu golovu mech ne sechyot – egilgan boshni qilich kesmaydi

2. Mat tvoya kurisa – onasi baytal

ptiche moloko – anqoning urug‘i

3. Terpi, kazak, atamanom budesh – sabr qil, kazak, ataman bo‘lasan.

yazik cheshetsya – tili qichimoq

viset na voloske – hayoti qil ustida turmoq

Ob‘ekt o‘zgarishi:

musichaday beozor – sigirday beozor

Buchora Gulbahor karvondan ajralgan bo‘taday bo‘zlaydi, sho‘rlik. – “go‘sfandi az rama judo aftodagi barin faryod mekunad”.

Boy boyga boqar, suv soyga oqar – Kabo‘tar bo kabo‘tar, boz bo boz.

It ham kun ko‘radi, bit ham – Mush ham ro‘z mebinad, shabush ham

It bo‘lsa ham, bit bo‘lsa ham, aytganim bo‘lsin. – Xoh balo boshad, xoh batar boshad, guftagiam shavad.

Kel, hu o‘sha do‘ndiq qullaringdan o‘rgulay! – Biyo, az hamin dasthoi nozukat gardam!

Yaxshi ko‘rmoq – xorosho videt

Duraku zakon ne pisan – Tentakka To‘ytepa nima (degan) yo‘l.

Ahmoqqa qonun yo‘q

Ya yemu pokaju kuzkinu mat’ – Men unga onasini ko‘rsataman

Onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman

Men u haromining jazosini berib

qo‘yaman.

Yazik do Kiyev dovedet – “So‘ragan kievni topadi” (rus)

“Tili uzun odam Rimni topadi” (fransuz)

“So‘ragan Makkani topadi” (o‘zbek)

G‘OYAVIY MAZMUN VA ESTETIK MA‘NO

Badiiy asar faqat g‘oyaviy mazmundan emas, balki estetik ma‘nodan ham iborat bo‘ladi.

Bas, she‘riy tarjima haqida gapirganda **mazmunning qanday saqlanganiga** emas, balki **estetik ma‘no** qay darajada **qayta yaratilganiga** qarab baho berish lozim.

Estetik ma‘no deganda she‘rning o‘kuvchida qoldiradigan ta‘sir, nash‘u namosi, kayfiyati, zavqu safosi vositasida tug‘diriladigan g‘oyani tushunmoq kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy tur va janrlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering.

2. Frazeologizmlar tarjimasining qanday usullari mavjud?

3. G‘oyaviy mazmun va estetik ma‘no deganda nimani tushunasiz?

4. Tarjimada kompensatsiya nima?

5. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarini izohlang: adabiy tur, janr, frazeologiya, g‘oyaviy mazmun, estetik ma‘no, qayta tarjima, kompensatsiya.

⁷³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. 314-бет.

Tayanch soʻz va iboralar: epik, lirik, dramatik tur, adabiy janr, frazeologizm, gʻoyaviy mazmun va estetik maʼno.

Adabiyotlar:

1. S a l o m o v Gʻ. Til va tarjima. – Toshkent, 1966;
2. S a l o m o v Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983.
3. Ch u k o v s k i y K. Visokoe iskusstva. – Moskva. 1979.
4. Sh a r i p o v J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. – Toshkent, 1972.
5. “Tarjima san’ati”, “Tarjima muammolari”, “Tarjima madaniyati”, “Masterstvo perevoda”, “Tetrad perevodchika” davriy toʻplamlari.

**TARJIMASHUNOSLIK FANIDAN
JORIY NAZORAT SAVOLLARI
3 – SEMESTR**

1. Zullisonaynlik va tarjima rivoji.
2. Xorazm tarjima maktabi xususiyatlari.
3. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik faoliyati.
4. Tarjima tarixining asosiy davrlari.
5. Shoʻrolar davri tarjimachiligi xususiyatlari.
6. «Ming bir kecha» asari tarjimalari.
7. «Shohnoma» tarjimonlari haqida.
8. Tipologiya va tarjima masalalari.
9. «Kalila va Dimna» asari asliyat va tarjimalari haqida.
10. Sayfi Saroyi –mohir tarjimon.
11. Qaysi tarjima maktablarini bilasiz?
12. Abu Rayhon Beruniyning tarjimon va tarjimashunos sifatidagi faoliyatiga baho bering.
13. «Medisina», «algoritim», «algebra» terminlariga asos boʻlgan olimlar va ularning asarlari nomini keltiring.
14. Oʻzbekistonda tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi qaysi olimning nomi bilan bogʻliq? Uning xizmatlari nimalardan iborat?
15. IX asr birinchi yarmida Bagʻdodda tashkil etilgan Maʼmun akademiyasi – «Bayt ul-hikma» («Bilimlar uyi») ning tarjima sohasidagi faoliyatiga baho bering.
16. Oʻzbekistonda tarjimashunoslik qachondan mustaqil fan sifatida qaror topgan?
17. Oʻzbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti haqida soʻzlab bering.
18. Tarjimada davr uslubini saqlash deganda nimani tushunasiz?
19. Tarjima qilish iborasining maʼnodoshlarini koʻrsating.
20. Tarjimon, tarjima, mutarjim soʻzlari qanday paydo boʻlgan?
21. Tarjima tarixi nima bilan shugʻullanadi?
22. Badiiy tarjima tarixida asarning milliyashtirilishi.
23. Asarni vositachi til yordamida oʻgirish.
24. Saʼdiy «Guliston» ining oʻzbek tiliga tarjimalari. Va ularni tadqiq etgan tarjimashunoslar.
25. «Kalila va Dimna»ning oʻzbek tiliga tarjimalari.
26. Tarjima tarixida ikki tillilik.
27. Tarjima asarlarini baxolash meʼzonlari.
28. Toledo tarjima maktabi.
29. Tarjima nazariyasini yaratishga ulkan xissa qoʻshgan olimlar.
30. Badiiy tarjima va adabiy taʼsir (J. Zaydon va oʻzbek adabiyoti).
31. Toshkent tarjima maktabi namoyondalari.
32. Firdavsiy «Shohnoma»sini oʻzbek tiliga oʻgirgan tarjimonlar.
33. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari.
34. Tarjima jarayoni bosqichlari.
35. Tarjima turlari va janrlari.
36. «Milliy kolorit»tushunchasi va uni tarjimada qayta yaratish.
37. Rasmiy uslubdagi xujjatlar tarjimasining oʻziga xosliklari.
38. Soʻzlarning koʻp maʼnoligini tarjimada qayta yaratish. (a)
39. «Aniq», «erkin», «ijodiy», «avtorlashtirilgan» tarjima tushunchalari.
40. Tarjimada sinonimlarni aks ettirish xususiyatlari. (a)
41. Tarixiy soʻzlarni tarjima qilish muammolari. (a)
42. Sheva xususiyatlarini tarjimada qayta yaratish muammolari. (a)
43. Soʻz uslubi tushunchasi. Uslub qatlamlari va ularni tarjimada qayta yaratish.
44. Tarjimada har bir tilning oʻziga xos soʻzlari
45. «Bilingvizm»tushunchasi. «Bilingvist» ijodkorlar.

46. «Qardosh va uzoq» tillar tushunchalari. Ulardan tarjima qilishning o'ziga xosligi.
47. Asl nusxa bilan tarjima tili o'rtasida yuz beradigan grammatik tafovutlar qaysilar?
48. Badiy tarjimaning yangi janrlar va uslublar rivojidadagi o'rnini ta'riflab bering.
49. Tarjima qusurlarining kelib chiqish sabablari nimada?
50. Funksional uslublar va ularning tarjima amaliyotidagi o'rni qanday?
51. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari haqida ma'lumot bering.
52. Til o'rganish va tarjimaning bir-biriga bog'liq jihatlari qaysi?
53. Tarjima antinomiylari deganda nimani tushunasiz? Ulardan asosiylari qaysi?
54. Tarjimaning milliy tillarning rivojlanishidagi ahamiyati nimadan iborat? Grammatik tarjima nima?
55. Kinofilmlar tarjimasi (dublyaj) haqida tushuncha bering.
56. Tarjimadagi interpretatsiya nima?
57. Qanday tarjima prinsiplarini bilasiz?
58. Yaqin tillardan tarjimada tarjimonni chalg'itib qo'yadigan holatlar qaysi?
59. Frazologizmlar tarjimasida qanday prinsiplar qo'llaniladi?
60. Tarjima sohalar bo'yicha qanday bo'linadi?
61. Tarjima nazariyasining vazifasi nimadan iborat?

ORALIQ NAZORAT
BILET VARIANTLARI
3-SEMESTR

1. Zullisonaynlik va tarjima rivoji.
2. Xorazm tarjima maktabi xususiyatlari.

-
1. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik faoliyati.
 2. Tarjima tarixining asosiy davrlari.

-
1. Sho'rolar davri tarjimachiligi xususiyatlari.
 2. «Ming bir kecha» asari tarjimalari.

-
1. «Shohnoma» tarjimonlari haqida.
 2. Tipologiya va tarjima masalalari.

-
1. «Kalila va Dimna» asari asliyat va tarjimalari haqida.
 2. Sayfi Saroyi –mohir tarjimon.

-
1. Qaysi tarjima maktablarini bilasiz?
 2. Abu Rayhon Beruniyning tarjimon va tarjimashunos sifatidagi faoliyatiga baho bering.

-
1. «Medisina», «algoritm», «algebra» terminlariga asos bo'lgan olimlar va ularning asarlari nomini keltiring.
 2. O'zbekistonda tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi qaysi olimning nomi bilan bog'liq? Uning xizmatlari nimalardan iborat?

-
1. IX asr birinchi yarmida Bag'dodda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi – «Bayt ul-hikma» («Bilimlar uyi») ning tarjima sohasidagi faoliyatiga baho bering.
 2. O'zbekistonda tarjimashunoslik qachondan mustaqil fan sifatida qaror topgan?

-
1. O'zbekistonda badiy tarjima taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
 2. Tarjimada davr uslubini saqlash deganda nimani tushunasiz?

-
1. Tarjima qilish iborasining ma'nodoshlarini ko'rsating.
 2. Tarjimon, tarjima, mutarjim so'zlari qanday paydo bo'lgan?

-
1. Tarjima tarixi nima bilan shug'ullanadi?
 2. Badiy tarjima tarixida asarning milliyashtirilishi.

-
1. Asarni vositachi til yordamida o'girish.
 2. Sa'diy «Guliston» ining o'zbek tiliga tarjimalari. Va ularni tadqiq etgan tarjimashunoslar.

-
1. «Kalila va Dimna»ning o'zbek tiliga tarjimalari.
 2. Tarjima tarixida ikki tillilik.

-
1. Tarjima asarlarini baxolash me'zonlari.
 2. Xorazm tarjima maktabi

-
1. Tarjima nazariyasini yaratishga ulkan xissa qo'shgan olimlar.
 2. Badiiy tarjima va adabiy ta'sir (J. Zaydon va o'zbek adabiyoti).
-

1. Toshkent tarjima maktabi namoyondalari.
2. Firdavsiy «Shohnoma»sini o'zbek tiliga o'giran tarjimonlar.

1. Qayta tarjimaga qanday omillar sabab bo'ladi?
 2. Badiiy tarjima turlari va janrlari haqida ma'lumot bering.
 3. Qanday uslub qatamlarini bilasiz?
-

1. Muallif uslubi unsurlari haqida ma'lumot bering.
 2. Realizalar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?
 3. Tarjimada soxta ekvivalent nima?
-

1. Frazologizmlar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?
 2. Mahalliy kolorit nima? Konkret misollar yordamida tushuntiring.
 3. Adekvat tarjima deganda nimani tushunasiz?
-

1. Grammatik va uslubiy tarjima deganda nimani tushunasiz?
 2. Tarjimada tarixiy koloritni aks ettirish qanday amalga oshiriladi?
 3. Taglama va tabdil nima?
-

1. Badiiy tarjimaning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
 2. So'zlashuv uslubi tarjimada qanday aks etadi?
 3. Tarjimada uslubni aks ettirish deganda nimani tushunasiz?
-

1. Qanday tarjima usullari (prinsiplari)ni bilasiz?
 2. Realizalar tarjimasiga o'zingiz o'qigan kitob, ko'rgan kino, tarjima qilgan asar (maqola, xabar, hikoya, she'r)lardan misol keltiring.
 3. Tarjima ijrosiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
-

1. Antonimik tarjima nima? Misollar keltiring.
 2. She'riy tarjima oldiga qanday talablar qo'yiladi?
 3. Tarjima jarayoni necha bosqichdan iborat?
-

1. So'zma-so'z (doslovniy) va hijjaviy (bukvalniy) tarjima o'rtasidagi tafovutlarni misollar yordamida ko'rsatib bering.
 2. Avtomatik tarjima haqida ma'lumot bering.
 3. Bevosita tarjima nimayu bilvosita tarjima nima?
-

1. Tarjimashunoslikda qanday munosabatlar haqida gap boradi?
 2. Soxta ekvivalent deganda nimani tushunasiz. Misol keltiring.
 3. Quyidagi iboralarni tarjima qiling: "s'est sobaku", "krupniy rogatiy skot", "ne izmenil virajeniya svoego lisa", "Religiya i borba za sotsializm", "Axmad priexal so svoey jenoy".
-

1. Tarjimaning ijodiy ish ekanligi nimada ko'rinadi. Fikringizni biror misol yordamida tushuntirib bering.
 2. Tarjimaning til bilan bog'liq va til bilan bog'liq bo'lmagan omillari haqida tushuncha bering.
 3. Quyida keltirilganlarni tarjima qiling: "Ya uvidel svoyu sestru", "barxatniy golos", "golubie glaza", "krasa i gordost", "uchenaya sobaka".
-

1. Antonimik tarjima deganda nimani tushunasiz? Fikringizni biror misol vositasida asoslab bering.
 2. Tarjimaning san'at ekanligi nimada ko'rinadi? Fikringizni biror misol yordamida tushuntirib bering.
 3. Tarjima nazariyasi nimani o'rganadi?
-

1. Tarjima nazariyasining tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.
 2. Tarjimada milliy kolorit deganda nimani tushunasiz?
 3. Quyida keltirilganlarni tarjima qiling: "Ya yemu pokaju kuzkinu mat", "duraku zakon ne pisan", "yazik do Kiyev dovedet", "Smert neizbejniy kones vsego", "molokosos".
-

YAKUNIY NAZORAT BILET VARIANTLARI

1. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar yordamida tushuntiring.

2. Tarjima tanqidi nimani o'rganadi?

3. Quyidagilarni tarjima qiling: "Barishnya-krestyanka", "shkolnoe virajenie", "smeyalsya pod usi", "sila solomu lomit", "govorit russkim yazikom".

1. Uslub qatlamlarini misollar vositasida ko'rsatib bering.

2. Ikki lisoniy sistemani chog'ishtirish bilan qanday natijalarga erishish mumkin?

3. Quyida keltirilganlarni tarjima qiling: "Ne zalivay!", "A ti skaji slova", "kuda glaza glyadyat", "gorsovet", "kudrevatie Mitreyki, mudrevatie Kudreyki".

1. Qanday uslublarni bilasiz?

2. Tarjima qusurlarining kelib chiqish sabablarini tasniflab bering.

3. Tarjima jarayoni necha bosqichdan iborat?

1. Erkin va ijodiy tarjima o'rtasidagi tafovut nimada?

2. Tarjimashunoslikda qanday yo'nalishlar mavjud?

3. Tarjimaning til bilan bog'liq va til bilan bog'liq bo'lmagan omillari haqida tushuncha bering.

1. Taglamadan o'girish deganda nimani tushunasiz,

2. Milliy xos so'zlari tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari qanday?

3. Tarjimalarni qanday tillardan o'girilishiga qarab tasnif qiling.

1. Frazologizmlar tarjimasida qanday prinsiplar qo'llanadi?

2. Tarjima sohalar bo'yicha qanday bo'linadi?

3. Insoniyat nechta asosiy va nechta "mayda" tillarda fikr almashadi?

1. Qanday uslublarni bilasiz?

2. Yaqin va uzoq tillardan tarjima o'rtasidagi tafovutlar nimalarda ko'rinadi?

3. Tarjimaning xalqaro aloqalardagi vazifasi nimalardan iborat?

1. O'zbekistonda tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi qaysi olimning nomi bilan bog'liq? Uning xizmatlari nimalardan iborat?

2. Grammatik tarjima deganda nimani tushunasiz?

3. Qanday tarjima prinsiplarini bilasiz?

1. Badiiy uslub haqida tushuncha bering.

2. Erkin va ijodiy tarjima o'rtasidagi tafovut nimada?

3. Og'zaki va yozma tarjimaning qanday xillari mavjud?

1. Tarjimada milliy koloritni aks ettirish degani nima?

2. Tarjimashunoslik qaysi fanlar tutashgan nuqtada paydo bo'lgan?

3. Tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi nimada ko'rinadi?

1. Realiza nima va uni tarjima qilish yo'llari qanday?

2. Tarjima nazariyasining vazifasi nimadan iborat?

3. "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil qilinishi va faoliyati haqida ma'lumot bering.

1. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.

2. Adekvat tarjima nima?

3. Tarjimaning tilning lug'ati tarkibini boyitishni misollar yordamida asoslab bering.

1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasi nimalardan iborat?

2. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari deganda nimani tushunasiz?

3. Tarjima ilmiy faoliyatmi, ijodiy? Javobingizni misollar yordamida asoslang.

1. Tarjimon duch kelishi mumkin bo'lgan sohalar qaysi?

2. Har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat qaysi?

3. Tarjima interpretatsiya nima?

1. Tarjima nazariyasining asosiy predmeti haqida tushuncha bering.

2. Grammatik tarjima nima?
3. Tarjimaning ijodiylik nimadur san'atligi nima?

-
1. Maqol, matal va idiomalar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?
 2. Publisistik uslub haqida tushuncha bering.
 3. So'zma-so'z va hijjaviy tarjima o'rtasidagi farq nimada?

-
1. Tarjimaning qanday turlarini bilasiz?
 2. Tarjima tarixi nimani o'rganadi?
 3. Tillararo tafovut nimalarda ko'rinadi?

-
1. Tarjima nazariyasi fani nimani o'rganadi?
 2. Qaysi uslub "aralash uslub" nomi bilan yuritiladi va nima uchun?
 3. O'zingiz bilgan tarjimonlar va ular tarjima qilgan asarlar haqida ma'lumot bering.

-
1. Maqol, matal va idiomalar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?
 2. Erkin tarjima deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
 3. Tarjimon oldiga qanday talablar ko'yiladi?

-
1. Tarjimani qiyosiy uslub asosida tekshirish qanday amalga oshiriladi?
 2. She'riy tarjimaning murakkabliklari nimalardan iborat?
 3. Tarjima sohasini rivojlantirish uchun, sizningcha, yana qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

-
1. Tarjimada milliy koloritni aks ettirish deganda nimani tushunasiz?
 2. Yozma tarjimaning qanday xillari bor?
 3. Tarjima predmetini bilish degani nima?

-
1. Tarjimashunoslik qanday fan?
 2. Badiiy tarjimaning qanday tur va janrlari bor?
 3. Hozirgi tarjima jarayoni haqida nima bilasiz? Sizningcha, qaysi sohada tarjimaga ko'proq e'tibor berilayapti? Nega?

-
1. Tarjimaning qanday xillari bor?
 2. Yaqin tillardan tarjimada tarjimonni chalg'itib qo'yadigan holatlar qaysi?
 3. Muallif uslubi nimayu asar uslubi nima?

-
1. Qanday tarjima prinsiplarini bilasiz?
 2. Nasriy asar tarjimasi oldiga qanday talablar qo'yiladi?
 3. Ilmiy uslub va uning tarjimasi haqida tushuncha bering.

-
1. Tarjima interpretatsiya nima?
 2. Tillararo tafovut nimalarda ko'rinadi?
 3. Tarjima qilish iborasining ma'nodoshlarini ko'rsating.

-
1. Tarjimaning ahamiyatini ta'riflab bering.
 2. Tarjimashunoslik fanining tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.
 3. Tarjimada soxta ekvivalent deganda nimani tushunasiz?

-
1. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari nimalardan iborat?
 2. Tarjima nazariyasi nimani o'rganadi?
 3. O'zingiz bilgan tarjimonlar va ular tarjima qilgan asarlar haqida ma'lumot bering.

-
1. Qanday tarjima prinsiplarini bilasiz?
 2. Realiya nima?
 3. Tarjima sohasini yanada rivojlantirish yuzasidan qanday takliflarni ilgari surgan bo'lardingiz?

-
1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasini ta'riflab bering.
 2. Tarjimon duch kelishi mumkin bo'lgan sohalar qaysi?
 3. Frazologizmlar tarjimasida qanday usullar qo'llanadi?

-
1. Til o'rganishning ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat?
 2. Qanday tarjimaga nisbatan san'at deyiladi? Nega?
 3. Tarjimaning til bilan bog'liq bo'lmagan qanday muammolari bor?
-

1. Tarjimaning qanday tur va xillari mavjud?
2. Tarjimaning til bilan bog‘liq qanday muammolari bor?
3. BMT tomonidan jahon tillari sifatida rasman e’tirof etilgan tillar qaysi?

-
1. Tarjimaning tilning lug‘at tarkibini boyitishini misollar yordamida asoslab bering.
 2. Realizlar tarjimasida qanday usullar qo‘llanadi?
 3. Ijodiy tarjima deganda nimani tushunasiz?

-
1. Tarjima tanqidining vazifasi nimadan iborat?
 2. Tarjimada soxta ekvivalent nima?
 3. Qanday tarjima prinsiplarini bilasiz?

-
1. Tarjimaning qanday tur va xillari mavjud?
 2. Abu Rayhon Beruniyning tarjimon va tarjimashunos sifatidagi faoliyatiga baho bering.
 3. Tarjima jarayoni necha bosqichdan iborat?

-
1. Tarjimaning til bilan bog‘liq qanday muammolari mavjud?
 2. Rasmiy-idoraviy uslub deganda nimani tushunasiz?
 3. Milliy koloritni tashkil etuvchi unsurlar nimalardan iborat?

-
1. So‘zlashuv uslubi tarjimada qanday aks etadi?
 2. Uslubiy tarjima nima?
 3. Diniy atama va tushunchalar tarjimasidagi xatolarning ildizi nimada? Fikringizni aniq misollar yordamida asoslang.

-
1. Asl nusxa bilan tarjima tili o‘rtasida yuz beradigan grammatik tafovutning qanday ko‘rinishlari mavjud?
 2. Yozma tarjimaning qanday turlari bor?
 3. Qaysi tarjima maktablarini bilasiz?

-
1. Tarjima nazariyasi mustaqil fan sifatida qachon va qaerda o‘qitila boshlagan?
 2. Badiiy tarjimaning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
 3. Bevosita va bilvosita tarjima deganda nimani tushunasiz?

-
1. Tarjimada adaptatsiya nima?
 2. Og‘zaki tarjimaning qanday ko‘rinishlari bor?
 3. Tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi nimada ko‘rinadi?

-
1. Tabdil deganda nimani tushunasiz?
 2. Tarjima, tarjimon, mutarjim so‘zlarining kelib chiqishi qanday?
 3. She’riy tarjimaning murakkabliklari nimalardan iborat?

-
1. Milliy koloritning tarkibiy qismlari haqida ma’lumot bering.
 2. O‘zbekistonda tarjimashunoslik qachondan mustaqil fan sifatida qaror topgan?
 3. Erkin va ijodiy tarjima o‘rtasidagi tafovut nimada?

-
1. Tarjima ijrosiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
 2. Tarjimada transliteratsiya usuli nima? Uning ahamiyatini misollar yordamida ko‘rsatib bering.
 3. BMT tomonidan jahon tillari sifatida rasman e’tirof etilgan tillar qaysi?

-
1. Tarjimaning ijtimoiy vazifasi nimalardan iborat?
 2. Tillararo tafovut nimalarda ko‘rinadi? Misollar asosida tasniflab bering.
 3. Tarjimada interpretatsiya nima?

-
1. She’riy tarjimaning murakkabliklari nimalardan iborat?
 2. Yaqin tillardan tarjimada tarjimonni chalg‘itib qo‘yadigan holatlar qaysi?
 3. Tarjima, tarjimon, mutarjim so‘zlari qanday paydo bo‘lgan?

-
1. Realizlar tarjimasida qanday usullar qo‘llanadi?
 2. Qaysi uslub “aralash uslub” nomi bilan yuritiladi va nima uchun?
 3. Tarjimon duch kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni ko‘rsating.

TARJIMSHUNOSLIK TERMINLARI

LUG'ATI

Tuzuvchi: E.Ochilov

Barcha fanlar kabi tarjimashunoslik ham o'z terminlariga ega. Avvalo, t a r j i m a so'zining ma'nosini oydinlashtiraylik.

T a r j i m a – muayyan tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash.

T a r j i m a “t a r j i m o n” so'zidan xosil bo'lgan, t a r j i m o n esa forscha “t a r z a b o n” so'zida kelib chiqqan.

Ma'lumki, o'tmishda O'rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notiqlik san'ati juda rivojlangan. Notiqlarda esa t a r z a b o n deb ataganlar. T a r – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma'nolarni bildiradi. Z a b o n – til degani. T a r z a b o n- notiq, so'z ustasi, chiroyli gapiruvchi, yoqimli so'zlovchi, yangi va o'tkir so'zlarni aytguvchi demak. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo'lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy xayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarini o'z ta'sirlariga olganlari kabi, ko'pgina forsiy-turkiy so'zlarni ham o'zlashtirib, arab tili qoidalariga bo'ysundirganlar. Jumladan, t a r z a b o n so'zi ham arabcha talaffuzda t a r j a m o n (yoki t a r j i m o n) ga aylanadi. Shundan keyin u arab tilining so'z yasash qonuniga bo'ysunib, undan yangi masdar (o'zak), fe'l va otlar hosil qilingan. Masalan: t a r j u m a, m u t a r j i m, m u t a r j i m u n.

Shunday qilib, T a r j i m o n – t a r z a b o n so'zining arabcha tarjimasi bo'lsa, t a r j i m a, t a r j i m o n so'zidan kelib chiqqan.

T a r j i m o n– bir tildagi og'zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch, tarjimachi.

Shu o'rinda, O'zbekiston badiiy tarjimachilik taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan zabardast tarjimonlar to'g'risida ikki og'iz gapirmasak bo'lmas. 80-yillarning o'rtalarida tuzilgan royxatga ko'ra respublikada 109 tarjimon faoliyat ko'rsatib, shundan 74 nafari ko'zi pishgan adib va professional mutarjimlar bo'lishsa, 35 kishi yosh tarjimonlar bo'lgan. Istiqloq yillarida ularning soni yanada oshganligi shubhasiz.

Biz bugungi kunda Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Mirzakalon Ismoiliy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Jamol Kamol, Omon Matjon, Matnazar Abdulhakim, Sadridin Salim, Ahmad A'zam kabi shoir-yozuvchilarimizning tarjuma rivojiga qo'shgan hissalarini, Vahob Ro'zimatov, Qodir Mirmuhammedov, Xolida Ahrorova, Xasan To'rabekov, Zumrab, Kibriyo Qahhorova, Odil Sharapov, To'xtasin Jalolov, Nabi Alimuhhammadov, Hibzidin Muhammadxonov, Mirziyod Mirzoidov, Nizom Komilov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, Asil Rashidov, Amir Fayzulla singari professional tarjimonlarimizning faoliyatlarini xurmat bilan tilga olamiz. Ularning sa'y-harakatlari bilan jahon so'z san'atining nodir durdonalari tilimizga o'girildi va vatan adabiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Chunonchi, qadimgi yunon adabiyotining, Xomer, Esxil, Sofokl, Evripid, forsiy so'z san'atining Ummar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Abusaid Abdulxayr, Abdulqosim Firdavsiy, Fariddin Attor, Kamol Xo'jandiy, Xisrav Dexlaviy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Mirzo G'olib, Abu Abdullo Rudakiy, Nizomiy Ganjaviy, G'arb adabiyotining Aligeri Dante, Javonni Bakkachcho, Petrarka, Servantes, Shekspir, Shiller, Gyote, Xeyne, Balzak, Didro, Mapassan, Ernest Xeminguey, Teodor Drayzer, Jyul Veri, Frans Kafka, Alber Kamyu, rus adabiyotining A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, F.Dastoyevskiy, L.N.Tolstoy, N.Nekrasov kabi ko'plab so'z san'atkorlarining asrlarini o'zbek o'quvchilari vatan adabiyoti namunasi kabi o'qimoqdalar.

T a r j i m o n l i k– tarjima qilish, tarjima ishi bilan shug'ullanish. Kasb oti.

T a r j i m a s h u n o s– tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

T a r j i m a s h u n o s l i k– tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidini o'rganadigan fan.

O'zbekistonda tarjimashunoslik mustaqil fan tarmog'i sifatida qaror topganidan buyon G'aybullay Salomov, Jumaniyoz Sharipov, Najmiddin Komilov, Ninel Vladimirova, Elvira Aznaurova, Quadrat Musayev, Komiljon Jo'rayev, Mustafqul Karimov, Absalom Umarov, Muhammadjon Xolbekov, Ne'matilla Otajonov, Sultonmurod Olimov, Zuxriddin Isomiddinov, Gulnora G'afurova, Zuxra Umarbekova, Xurshida Mamatova, Xurram Rahimov, Hamidulla Karamatov, Tilak Jo'ra, Shavkat Karimov, Bozor Ilyosov, Vaxob Rahmanov, Poshali Usmon o'g'li, Abdulla Matyoqubov, Muxabbat Baqoyeva kabi tarjimashunoslar yetishib chiqdilar.

T a r j i m a o'tmishda hozirgi ma'nosidan tashqari, b a y o n e t i s h, t u s h u n t i r i b b e r i s h, m a t n n i s h a r x l a s h, t a f s i r, m a' n o n i c h a q i s h, s o d d a q i l i b i f o d a l a s h ma'nolarini ham ifodalab kelgan. Chunonchi, t a r j i m a i h o l – axvolni bayon etish. Shuning uchun hatto XX asr boshlariga qadar ham t a r j i m a va s h a r x, t a r j i m o n va s h o r i x (sharxlovchi) tushunchalari o'rtasida qat'iy chegara bo'lamay, biri ikkinchisining o'rniga qo'llanavergan. Bunga tarjimalarning shakli va tarjimonlarning tarjima printsiplari asos bergan. Aytaylik, 1909 yili “G'ulomiya” matbaasida bosilib chiqqan Murodxo'ja ibn solixxo'ja qalamiga mansub “Shavqi Guliston” kitobi Sa'diy Sheroziy “Guliston” asarining ham tarjima, xam sharxi edi. Chunki asarning forsiy matni bilan o'zbekcha so'zma-so'z tarjimasi berilib, kitob xoshiyasida turli so'z, ibora va hikmatlar sharxlangan.

Sharxning xam turlari ko'p. Ba'zi sharxlar izohli lug'at xarakterida bo'lib, asar matnidagi tushunarsiz so'z va iboralarni izohlab beradi.

Ba'zi bir sharxlar esa adabiyotshunoslik yo'nalishida bo'lib, ularda asarning g'oyaviy mazmuni tushuntirib beriladi. Ayni jihatdan u t a f s i r ga o'xshab ketadi.

T a f s i r so'zi garchi sharx so'zi bilan ma'nodosh bo'lsa-da, uning ayni o'zi emas, u keng sharxlash, ma'noni bayon etish demakdir. Shuning uchun ham t a f s i r so'zi asosan ilmiy, falsafiy va diniy asarlar tarjimasiga nisbatan qo'llangan.

G'arb adabiyotidan tarjimalarning rivojlanishi munosabati bilan yashash tarzi va diniy e'tiqodi bizdan tubdan farq qiladigan xalqlarning tarixi, an'ana va udumlari, dini, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq so'z va tushunchalarni sharxlash extiyoji paydo bo'ldi. Bunday sharxlar tarixiy xarakterga ega.

Ilmiy asarlar sharxi o'z-o'zidan ilmiy axamiyat kasb etadi. Masalan, Alibek Rustamov Atoullox Husayniyning "Badoe us-sanoyi" nomli she'riy sa'atlarga oid asari tarjimasida ko'plab ilmiy-adabiy sharxlar beradi. Davlatshox Samarqandiyning "Tazkirot ush-shuaro" (B.Ahmedov tarjimasi) va Xasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (I.Bekjon tarjimasi) tazkiralari tarjimasida ham tarixiy, ham adabiy mavzudagi sharxlar keltirilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (S.Mirzayev, B.Ahmedov tarjimalari), Nosir Xisravning "Sayohatnoma" (G'.Karim tarjimasi) asrlari tarjimasida esa tarixiy mavzudagi sharxlar yetakchilik qiladi.

T a r j i m a o'rni ba'zan o'girma ham deyiladi.

Tarjima qilish iborasi o'rniga esa uning ma'nodoshlari bo'lgan o'g'irish, ag'darish, qayta yaratish, kiritish, bayon etish, qaytarish kabi so'z va so'z birikmalari qo'llanib kelgan. Chunonchi, XIV asrda Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini "Guliston bitturkiy" nomi bilan turkiyga tarjima qilgan Sayfi Saroyi tarjimani bir tildan ikkinchisiga qaytarish deb atagan:

Turkiga qaytib Ajamdin bu kitob,
Ma'rifatqa ochti sakkiz turli bob.

Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" tazkirasini "Nasoyim ul-muxabbat" nomi bilan o'zbekchaga tarjima qilgan Alisher Navoiy t a r j i m a so'zi bilan birga, o' t k a r i s h atamasini ham qo'llaydi: "Xotirg' kechmishkim, agar sa'y qilsam, bu kitobni turk tiliga t a r j i m a qila olg'aymuman va ul daqoyiqu mushkulotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o' t k a r a olg'aymuman, deb mutaammil erdim".

Zabardast tarjimon Muhammadqozi Ogahiy ham t a r j i m a bilan birga, kiritish, o'tkazish, bayon etish so'zlarini qo'llagan. "Shayx Nizomiyning "Xaft paykar" otlik kitobini. . . t a r j i m a qilib, turkey lafzig'a k i r g u z m a k xizmatini buyirdilar" yoki :

Bu nusxa tarjimasig'a ochib til,
Iboratini turkiy masnaviy qil.

Yoxud:

Turk alfozi birla ayla b a y o n . . .

Hozirgi kunda t a r j i m a so'zining o'g'irish, ag'darish, o'tkazish, qayta yaratish kabi ma'nodoshlari faol qo'llanadi.

A s l i y a t - tarjimaga asos bo'lgan asar, original.

Har qanday tarjima sharx unsurlaridan xoli bo'lmaganligi uchun ham tarjima hamma vaqt muayyan darajada interpretatsiyadir, deyiladi.

I n t e r p r e t a t s i y a - lotincha interpretatio so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish ma'nosini beradi.

I n t e r p r e t a t s i y a l a s h - izoxlash, sharxlash, talqin qilish demakdir.

Taniqli chex tarjimashunosi Irji Leviyning fikricha, asl nusxa bilan tarjima tilining materiali bir-biridan jiddiy farq qilganligi tufayli ular o'rtasida fikrni ifodalash tarzida semantik o'xshashlik bo'lmaydi, binobarin, lisoniy aniq tarjimaning bo'lishi mumkin emas, asrni faqat i n t e r p r e t a t s i y a qilish mumkin.

A d e k v a t t a r j i m a - har jihatdan mos, aynan tong, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima.

A d a o t a t s i y a - soddalashtirish, moslashtirish. Chunonchi, Xomushiy Firdavsiyning "Shoxnoma", N.Komilov Attorning "Iloyhiynoma" sini xalq saviyasi va o'quvchilar darajasini hisobaga olib nasriy tarjima qilganlar. Menimcha, "Shoxnoma" tarjimaqilinadigan bo'lsa, hozir ham uni soddalashtirib, nasriy tarjima qilish kerak. Chunki 120 misralik bu ulkan asarni biron o'qimaydi.

E k v i m e t r i k a - she'riy tarjimada vazniy muvofiqlikka erishish. Bir she'riy tizim- aruzda rivojlangani uchun forsiy she'riyatdan tarjimalarda bu xol yaqqol ko'zga tashlanadi. E.Vohidovning S. Yesenindan tarjimalari, M.Kenjabekning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani tarjimalari ham bunga misol bo'la oladi.

E k v i r i t m i k a - she'riy talaffuz va ohang aniqligi.

O.Matjon tarjimasidagi Y.Yevtushenkoning "Santyago kabutari" dostoni, R.Parfi tarjimasidagi N.Hikmatning "Inson manzaralari" asari.

E k v i l i n e a r l i k - satrlar aniqligi.

T a g l a m a - asl nusxa tilini bilmaydigan tarjima uchun maxsus tayyorlab beriladigan so'zma-so'z, jumlamajumla, satrma-satr, (she'riy tarjimada) aynan tarjima, taxtullafz, podstrochik. Sovet davrida rus tarjimonlari o'zbek adabiyoti namunalari asosan taglamadan tarjima qilganlar (L.Penkovskiy, V.Derjavin, K.Simonov, M.Sale). "Farhod va Shirin" ningayrim boblarini nemis tiliga o'g'irgan Alfred Kurella ham taglamadan foydalangan.

B i l i n g v i z m - ikki tillilik, zullisonaynlik. Navoiy, Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Ogahiy, S.Ayniy, Ch.Aytmatovlar ana shunday ikki tilli ijodkorlardir.

R e a l i y l a r - milliy xos so'zlar bo'lib, asr tarjimasida muhim o'rin tutadi. "Realilarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shaxar, qishloq xususiyatlari, memorchlik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvn, tabaqa va boshqa

bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi".

Uchinchi adabiyot deb Gyote tarjima adabiyotini atagan.

Me di u m - boshqa, vositachi til orqali tarjima qilish. Dunyoda taxminan 2 ming xalq, 2500 til bor. Ularning barchasini egallash mumkin emas. Demak, ular tilida yaratilgan durdona asarlar boshqa tillar orqali tarjima qilinadi.

Er k i n t a r j i m a - asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipi. Bundan tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli xillari mavjud. Sharq mumtoz she'riy tarjimasiga kelganda, erkin tarjima shunda ko'rinadiki, bu usulni qo'llagan tarjimon aksariyat hollarda asosiy mavzu va g'oyadan chetga chiqmagan holda, muallifning bayon tarzida she'riy sa'atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarni chetlab o'tib, ular o'rniga o'zi ijod qilgan san'atlarni va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panoxida o'z she'rini taqdim etgan, o'zining ijodiy manerasini ko'rsatgan bo'ladi.

I j o d i y t a r j i m a - asr g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash. Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgaruvchi erkin tarjimaga ham zid tushuncha. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni taqozo etadi.

E k v i v a l e n t l i k - tenglik, muqobillik. Tarjimaning til, vazn, shakl va mazmun jihatidan asliyatga muqobilligi.

Masalan, Sharq xalqlari adabiyoti asrlar davomida bir she'riy tizim - aruz asosida rivojlangan. Binobarin, bu adabiyotlardan she'riy tarjimada vazn muammosi bo'lmaydi.

Yoki bir necha tilda lisoniy va uslubiy unsurlar o'zaro muqobil kelishi mumkin - yaqin qardosh tillardan tarjimada. Ba'zan uzoq tillardan tarjimada ham o'zaro muqobillik kuzatiladi.

Tarjimaning **lisoniy** muammolari uning faqat til bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Albatta, til bilish - har qanday tarjimaning asosiy sharti, tarjimonlik alifbosi. Lekin tarjima faqat lisoniy (lingivistik) hodisa emas, uning **g'ayrilisoniy** (ekstralingivistik) - tildan tashqariomillari ham bor. Chunki "So'zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatleri o'zaro bir-birining o'rnini qoplay olmaydi". Bu hol tarjimada tildan tashqari omillarni ham hisobga olib ish tutishni taqozo qiladi. Ular - so'zlarning ma'no tovlanishlari, obrazli iboralar va idiomalar, matnning uslubiy bo'yog'i, asliyatmansub xalq xayoti, tarixi, madaniyati, urf-odatleri, diniy e'tiqodi va marosimlari, o'ziga xos xususiyatlari.

Ma'lum bo'ladiki, so'zning o'zini tarjima qilish- lisoniy, so'z ortidagi ma'noni tarjima qilish, muallif ishora qilgan tag ma'no- kosa tagidagi nimkosani topish-g'ayrilisoniy muammolar sirasiga kiradi.

Misol uchun, qavm-qardoshlik bilan bog'liq so'zlar.

- Папа, иди к столу!

- Атом (otam) va атом (qirg'in quroli)

"перевести дух"- "ruhiyatni tarjima qilmoq".

Y a q i n va u z o q tillardan tarjima. Tili, xayot tarzi, diniy e'tiqodi yaqin tillardan o'zaro tarjima qilish qator qulayliklarga ega bo'lib, turli til guruhlari kiradigan mutlaqo begona, dini va urf-odatleri bir-biriga yot xalqlar tilidan tarjimaga nisbatan birmuncha o'ng'ay. Ayni paytda, yaqin tillardan tarjimaning ham tarjimonni aldab qo'yadigan o'ziga xos tafovutleri va nozik jihatleri bor. Chunonchi, Z.Isomiddinovning yozishicha, j o' r a so'zi o'zbeklarda erkaklarga nisbatan qo'llansa, turkmanchada u d u g o n a ma'nosida keladi. Yoki o l c h o q so'zi bizda muttaham, pastkash, ablah kimsani bildirsa, turkmanchada xushfe'l, ko'ngli ochiq kishini anglatadi. Qirg'izchada esa qatqni ayron deyishadi. Binobarin, bu so'zlarni o'xshashligiga ishonib, ularni shundoqqina qo'llab bo'lmaydi.

Q a y t a tarjima. Asliyat barchazamonlar va o'quvchilar uchun o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Lekin har bir davr, har bir avlod yangi, zamonaviy tarjima ehtiyoj sezadi. Aytaylik, Sa'diy "Guliston"ining Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalari bugungi o'quvchi talabani qondirolmaydilisoniy jihatdan. Shuning uchun XX asrda uning yangi tarjimasi paydo bo'ldi. Chunki bu tarjimalarning o'zi tarjimaga muhtoj.

Umuman, qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- avvalgi tarjimaning til jihatidan eskirganligi;
- badiiy jihatdan bo'sh tarjima qilinganligi;
- vositachi til orqali o'girilganligi;
- ijodiy bellashuv istagi.

Masalan, braziliya adibi Paulo Koelening "Alkimyogar" asari bir vaqtning o'zida uch tarjimon- Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboyev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir tomondan, johon adabiyoti voqea bo'lgan asarga davr talabi bo'lsa, ikkinchidan, mohir adib "panjasiga panja urish", o'z iste'dod kuchini sinab ko'rish.

Jamol Kamol ilgari rus tilidan o'girilgan Shekspir fojealarini bevosita ingliz tilidan tarjima qildi. Yoki Bayronning "Don Juan" asarini Abdulla Sher ingliz, Sulaymon Rahmon rus tilidan tarjima qildilar. Shavkat Rahmon otashnafas ispan shoiri Garsia Lorka she'rilarini dastlab rus tilidan tarjima qilgan edi. Keyin ispan tilini o'rganib, bevosita asl nusxadan o'zbekchalashtirgan.

Oybek tarjimasidagi A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani asliyatning mazmunini to'la-to'kis aks ettirgan bo'lsa-da, shaklan buyuk rus shoiri asariga qoyilmaqom emas, badiiy jihatdan ham uncha baland emas edi. Shuni hisobga olib, oradan yarim asr o'tib, Mirzo Kenjabek uni qayta tarjima qildi.

T a b d i l. "Kassik adabiyot asarlarining lug'atida, jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug'atida ham shu darajada katta tafovut borki, bu asarlarni to'la tushunib yetish uchun ularni to'la ma'noda tarjima qilinmasa ham, loaqal

“yarim tarjima” qilishga zarurat tug’iladiki, buning nomini **t a b d i l q i l i s h** deyiladi”. Masalan Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostonlari, “Lison ut-tayr” dostoni nasriy bayon qilingan bo’lsa, “Mahbub ul-qulub” hozirgi o’zbek tiligatadbil qilingan. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-xaqoyiq” asrlari ham nasriy tarjimada o’qilyapti. Bu asarlarning asl nusxasini faqat mutaxassislar o’qiydi.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiyning lirik she’rlarini ham tabdil qilish taklifini o’rataga tashlayaptiki, bu masalani o’ylab ko’rish kerak. Chunki, bir tomondan, shunday qilinganda shoir asarlari hozirgi o’quvchiga tushunarli bo’ladi, ikkinchi tomondan esa, ko’p ma’noli so’zlar bir ma’noli bo’lib qolishi mumkin.

Jamiyat va til muammosi. Keyingi o’n yil ichida tilimizda qancha o’zgarishlar sodir bo’ldi. Ellik yil oldingi til ham hozirgidan ancha farqlanadi. Masalan, 1940 yilda yozilgan Homil Yoqubovning “zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi.

Oybek tarjimasidagi “Yevgeniy Onegin”da ruscha va internatsional so’zlar nisbatan ko’p edi. M.Kenjabek tarjimasida milliy va sharqona so’zlar miqdori ko’p.

“V o r i s i y l i k– bir tarjimadan ikkinchisiga meros bo’lib o’tadigan xususiyatlar... bir asarning dastlabki tarjimasida erishilgan yutuqlar, asliyat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar keyingi, ta’bir joiz bo’lsa, musobaqadosh tarjimon tarafidan ham istifoda etilishi mumkin. Chunki o’sha narsaning shu tilda bundan ortiq muqobili bo’lmasligi ham mumkin-da”.

“Yevgeniy Onegin” ning Oybek va M.Kenjabek tarjimasi.

Pushkin va Lermontov she’rlari tarjimalari.

Asarni ilk bor tarjima qilgan tarjimon oldida murakkabliklar bilan birga, imkoniyatlar ham bo’ladi-qanday xohlasa shunday, ko’rinib turgan ma’nolari bilan tarjima qiladi. Keyingi tarjimon esa atay boshqa so’zlar, o’zgacha ifodalar izlaydi o’xshab qolmasligi uchun. Umar Xayyom, Jaloliddin Rumi, Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimasida biz ham shu muammoga duch keldik.

T a r j i m a k o n t s e p t s i y a s i. “Asarga qarash, uni qanday o’quvchiga mo’ljallashdan asl nusxani talqin qilish, tarjima kontseptsiyasi, ya’ni tarjimon ijodiy metodining g’oyaviy asosi kelib chiqadi”.

K o n t s e p t s i y a – qarashlar, fikrlar tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli. Lotincha kontseptsio so’zidan olingan. Qarashlar tizimi, hodisa va jarayonlarni u yoki bu tarzda tushinish. Yagona, belgilovchi fikr, biror-bir badiiy asar, ilmiy tadqiqotning yetakchi fikri.

Masalan, Murodxo’ja domla “Guliston”ni so’zma-so’z tarjima qilgan. Tarjima hoshiyasida ko’pdan-ko’p so’z va iboralarining sharxini bergan.

TEST SAVOLLARI

Tuzuvchi: E.Ochilov

- O’zbekistonda tarjimashunoslik fanining asoschisi kim?
 - A) Sanjar Siddiq
 - B) Jumaniyoz Sharipov
 - V) G’aybullat Salomov
 - G) Ninel Vladimirova
 - D) Najmiddin Komilov
- Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi qachon tuzilgan?
 - A) 1880 yilda
 - B) 1901 yilda
 - V) 1924 yilda
 - G) 1952 yilda
 - D) 1963 yilda
- Tarjima so’zi qaysi so’zdan kelib chiqqan?
 - A) tarjimon
 - B) tarzabon
 - V) mutarjim
 - G) tarujama
 - D) mutarjimun
- Realizmlar nima?
 - A) qadimiy so’zlar
 - B) ilmiy terminlar
 - V) obrazli iboralar
 - G) badiiy tasvir vositalari
 - D) milliy xos so’zlar
- “Jahon adabiyoti” jurnali qachon tashkil qilingan?
 - A) 1970 yilda
 - B) 1985 yilda
 - V) 1991 yilda
 - G) 1997 yilda
 - D) 2001 yilda
- Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari qaysilar?
 - A) Badiiy tarjima, ilmiy tarjima, og’zaki tarjima
 - B) Badiiy tarjima, ilmiy tarjima, sinxron tarjima
 - V) Tarjima tarixi, tarjima tanqidi, tarjima targ’ibi
 - G) Tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi
 - D) Tarjima nazariyasi, tarjima metodikasi, tarjima tanqidi
- Tarjima qilish iborasining ma’nodoshlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?
 - A) ijod qilish, yaratish, o’g’irish, qaytarish, ag’darish
 - B) tahrir qilish, tuzatish, qayta yaratish, o’tkazish
 - V) qayta yaratish, o’g’irish, o’tkazish, ag’darish, qaytarish
 - G) sharhlash, yozish, yaratish, tahrir qilish, aks ettirish
 - D) bayon etish, ijod qilish, tasvirlash, yaratish, sharhlash
- Adaptatsiya nima?

A) ijodiy tarjima qilish B) erkin tarjima qilish
V) moslashtirish G) o'zgartirish
D) sharhlash

13. Tarjima sifatini aniqlashning asosiy sifati nima?
A) badiiylik B) aniqlik V) tarjimon mahorati
G) qiyos D) muqobillik

15. Adekvat tarjima nima?
A) Asl nusxaga muqobil tarjima
B) Asl nusxaga teskari tarjima
V) Qisqartirilgan tarjima G) Soddalashtirilgan tarjima
D) Milliyalashtirilgan tarjima

17. Asliyat nima?
A) Badiiy barkamol asar
B) Yozuvchining eng yangi asari
V) Tarjima uchun asos bo'lgan asar
G) Tarjima qilingan asar D) Badiiy barkamol tarjima

19. She'riy tarjimada ekvimetrlilik nima?
A) vazniy muvofiqlik B) shakily muvofiqlik
V) mazmuniy moslik G) uslubiy moslik
D) ritmiy muvofiqlik

21. Taglama nima?
A) so'zma-so'z tarjima B) satrma-satr tarjima
V) jumlama-jumla tarjima G) aynan tarjima
D) barcha javoblar to'g'ri

23. Tarjima ekviritmiklik nima?
A) ritmiy muvofiqlik B) shakily muvofiqlik
V) vazniy muvofiqlik G) mazmuniy muvofiqlik
D) uslubiy muvofiqlik

25. Neologizmlar nima?
A) tarixiy so'zlar B) qadimiy so'zlar
V) milliy so'zlar G) yangi so'zlar
D) ma'nodosh so'zlar

27. Tarjimada maslakdoshlik nima?
A) uslublarning to'ri kelib qolishi B) ruhan aniqlik
V) yoshning to'g'ri kelib qolishi
G) ijodiy maktablarning mushtarakligi
D) fikrlarning to'g'ri kelib qolishi

29. Bevosita tarjima qilish?
A) vositachi til orqali tarjima qilish
B) boshqa til orqali tarjima qilish
V) asl nusxa tilidan tarjima qilish
G) A va V javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob yo'q

31. Tarjima muallifning . . .
A) raqibi B) do'sti V) hamkori
G) davomi D) ikkinchi hayoti

A) qisqartirish B) soddalashtirish
V) sharhlash G) o'zgartirish D) milliyalashtirish

12. Tarjimashunoslikda nechta yo'nalish mavjud?
A) tarix va estetika B) badiiy va ilmiy tarjima
V) tilshunoslik va qiyosiy adbiyotshunoslik
G) tilshunoslik va adbiyotshunoslik
D) qiyosiy uslubshunoslik va qiyosiy adbiyotshunoslik

14. Tarjimaning asl nusxaga muqobilligi nima?
A) mazmunan muvofiqligi B) shaklan muvofiqligiga
V) mamunan va shakl jihatidan uyg'unligi
G) badiiy va estetik jihatdan mosligi
D) shaklan va usluban mosligi

16. Zullisonayn so'zining ma'nosi nima?
A) ikki xalqqa mansub kishi B) ikki shoxli
V) bilingvist G) ikki tilni bilguvchi
D) V va G javoblar to'g'ri

18. Umar Xayyomning o'zbek tarjimoni sifatida mashhur bo'lgan o'zbek tarjimoni kim?
A) Abduraf Fitrat B) G'afur G'ulom
V) Shoislom Shomammedov
G) Jamol Kamol D) Nusrat Karim

20. "Uchunchi adabiyot" nima?
A) xorijiy adabiyot B) vatan adabiyoti
V) qardosh xalqlar adbiyoti G) tarjima adbiyoti
D) original adbiyot

22. "Men bilgan ijod turlari ichida eng ko'p mehnat talab qiladigan va eng kam e'tibor qilinadigani tarjimadir", - degan fikr kimga tegishli?
A) Alisher Navoiy B) Aleksandr Pushkin
V) Vladimir Mayakovskiy G) Abdulla Oripov
D) G'aybulla Salomov

24. Badiiy tarjima san'atining qaysi turiga kiradi?
A) musiqa B) rassomchilik
V) raqs G) haykaltaroshlik D) so'z

26. Tarjimada ekvilinearlik nima?
A) So'zlar aniqligi B) satrlar aniqligi
V) uslub aniqligi G) mazmun aniqligi
D) g'oya aniqligi

28. Medium tushunchasi nimani anglatadi?
A) asl nusxa tilidan tarjima qilish
B) boshqa til orqali tarjima qilish
V) vositachi til orqali tarjima qilish
G) B va V javoblar to'g'ri D) barcha javoblar to'g'ri

30. Bilvosita tarjima qilish?
A) vositachi til orqali tarjima qilish

33. Tarjimada milliylashtirish nima?

- A) asl nusxani soddalashtirib tarjima qilish
- B) asl nusxani qisqartirib tarjima qilish
- V) asl nusxani milliylashtirib tarjima qilish
- G) asl nusxani tarjima tiliga moslashtirish
- D) asl nusxani tarjima tilida qaytadan yozib chiqish

35. Tabdil nima?

- A) uzoq tillardan tarjima qilish
- B) yaqin tillardan tarjima qilish
- V) qadimiy tildan hozirgi tilga tarjima qilish
- G) o'lik tillardan tarjima qilish
- D) belgilar tilidan tarjima qilish

36. Erkin tarjima nima?

- A) ijodiy tarjima B) aniq tarjima
- V) soddalashtirilgan tarjima
- G) milliylashtirilgan tarjima
- D) tarjimon tomonidan o'zgartirilgan tarjima

B) asl nusxa tilidan tarjima qilish

V) boshqa til orqali tarjima qilish

G) A va V javoblar to'g'ri D) barcha javoblar to'g'ri

32. Uslubiy moslashtirish nima?

- A) asar yaratilgan davr uslubini saqlash
- B) asarda tasvirlangan davr uslubini saqlash
- V) muallif uslubini saqlash G) muallif va tarjimon uslubini moslashtirish
- D) tarjimon uslubini saqlash

34. Adekvat tarjima nima?

- A) aynan tarjima
- B) har jihatdan mos tarjima
- V) mazmunan muqobil tarjima
- G) shaklan muqobil tarjima
- D) A va B javoblar to'g'ri

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. E. Ochilov., Tajima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2012
2. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – T., 2012
3. G'afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
4. Mo'minov O., Turg'unov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. –T., 2008.
5. Мусаев Қ., “Таржима назарияси асослари”. – Т., 2005
6. Одилова Г., Махмудова У., Ўзбек таржимонлари ва бадий таржималар. – Т., 2012
7. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – T., 2011.
8. “Таржима масалалари” мақолалар тўплами – Т., 2012
9. Н.В.Владимирова. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы худ. перевода. – Т., 2011

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Badiiy tarjimaning aktual masalalari, Toshkent: “Fan”, 1977.
2. Badiiy tarjima – do'stlik quroli (maqolalar to'plami). Toshkent: “O'qituvchi”, 1974.
3. Javbo'riev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish. Dissertatsiya, Toshkent, 1991.
4. Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar // Tarjima san'ati. 4-kitob. – T., 1978
5. Komilov N. “Bu qadimiy san'at”. T., 1988.
6. Musaev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: “Fan”, 2005.
7. Nurmuhamedov. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. Toshkent: “Fan”, 1979.
8. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: “O'qituvchi”, 1978.
9. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: “O'qituvchi”, 1978.
10. Salomov G'. Tarjimon mahorati. Toshkent: “Fan”, 1979.
11. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent: “Fan”, 1966.
12. Salomov G'. Tarjima san'ati. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: “O'qituvchi”, 1983.
14. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. Toshkent: “Fan”, 1980.
15. Tarjima san'ati (maqolalar to'plami) Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 3-kitob - 1976, 4-kitob - 1978, 5-kitob - 1980, 6-kitob - 1985.
16. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”, 1983.
17. Salomov G'. Ey umri aziz. 1-kitob. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997.

Rus tilidagi adabiyotlar

1. Barxudarov L.S. Yazik i perevod, IMO, 1975.
2. Fedorov A. V. Vvedenie v teoriyu perevoda. M., 1986.
3. Komissarov V.N. «Obshaya teoriya perevoda». M., 1999.
4. Lilova A. Vvedenie v obshuyu teoriyu perevoda. M.: Visshaya shkola, 1985.
5. Morozov M.M. Posobie po perevodu. M.: Inostrannaya literatura, 1985.
6. Tyulenev S.V «Teoriya perevoda». M., 2004.

MUNDARIJA:

Kirish	3
“Tarjimashunoslik” fanining namunaviy dasturi	4
“Tarjimashunoslik” fanining ishchi dasturi	8
“Tarjimashunoslik” fani ma’ruzalar matnlari	11
“Tarjimashunoslik” fani ma’ruzalar matnlari ilovalar	48
“Tarjimashunoslik” fanidan nazorat savollari	76
“Tarjimashunoslik” fanining tarjimashunoslik terminlari lug’ati	82
“Tarjimashunoslik” fanidan test savollari	86
“Tarjimashunoslik” fanidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati	88